

M.T. AXMEDOVA

PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI

Axmedova Mukarram Tursunaliyevna

PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligining 2015-yil 2-fevraldagi 32-sonli buyrug'iga asosan
5110900 – Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi
talabalari (o'quvchilari) uchun o'quv qo'llanma
sifatida tasdiqlangan. (Guvohnoma № 32-004)

TOSHKENT
«DONISHMAND ZIYOSI»
2020

UO'K 37:159.9

KBK 74.00

A 98

Mas'ul mubarrir:

N. M. Egamberdiyeva – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchi:

N.I. Taylakov – pedagogika fanlari doktori, professor,

B.X. Xodjayev – pedagogika fanlari doktori, professor.

Ahmedova M.

A 98

Pedagogik konfliktologiya [Matn]: ўқув қўлланма / Ahmedova M.
–Toshkent: «Donishmand ziyosi» MЧЖ, 2020. – 304-b.

ISBN 978-9943-6445-7-1

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining pedagogika va psixologiya yo'nalishida ta'lim oluvchi bakalavr va magistrantlar, shuningdek barcha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.


Kitobda pedagogikaning yangi sohalaridan biri – pedagogik konfliktologiya fanining shakllanishi, uni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik konfliktologiyaning asosiy tushunchalari, yechimlari va ularning tasnifi kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmani yozishdan asosiy maqsad – yoshlarga hayotdagi konfliktlar bo'yicha keng nazariy va amaliy bilimlar berish orqali ularni jamiyatda mustaqil va faol fuqaro sifatidagi ishtiroki uchun zamin yaratishdan iborat

UO'K 37:159.9

KBK 74.00

ISBN 978-9943-6445-7-1



© Ahmedova M.T., 2020

© «Donishmand ziyosi», 2020

KIRISH

*Ilm sahroda – do'st,
hayot chorrahalarida – tayanch,
yolg'iz danalarda – yo'ldosh,
baxtliyor daqiqalarda – rahbar,
qayg'uli onlarda – madadkor,
odamlar orasida – zeb-u ziynat,
dushmanlarga qarshii kurashda – guroldir.*

Hadisdan

Farovon hayot – mukammal tarbiyadan boshlanadi. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. «Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi» deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Hozirgi qaltis davrda tarbiya mukammal bo'lishi uchun bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi» – deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev¹.

Shunday ekan, mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarga oid yoshlarni tarbiyalashdagi 5 ta muhim tashabbusi, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarining filiallari va fakultetlarining ochilishi, me'yoriy-huquqiy ta'minotni takomillash-tirish hamda moddiy-texnik sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda pedagogika oliy ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarining tashabbuslarini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlar ittifoqining IV qurultoyida so'zlagan nutqi, 2017 yil.

to'g'ri yo'naltirgan holda, ularda konfliktologik jarayonlarni bartaraf etishda yangi adabiyotlarni joriy etish, rivojlantirish borasida ta'lim tizimiga izchil o'zgartirishlar kiritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «Jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish¹» kabi yo'nalishlar belgilangan bo'lib, bu, o'z navbatida, mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 18 iyuldagi PQ-3138-son «O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.

barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Shuningdek, mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu o'quv qo'llanma muayyan darajada xizmat qiladi. Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lami ishlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Oliy ta'lim tizimini zamonaviy usullar yordamida samarali boshqarish, sohada moddiy-texnik bazani kuchaytirish, o'quv-metodik ishlarni takomillashtirish bo'yicha jiddiy choralar ko'rishimiz zarur. Kadrlar buyurtmachilari hisoblangan iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojidan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategiyasini belgilash, davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini qayta ishlab chiqish, talabalarning malakaviy amaliyotini samarali tashkil etish lozim»¹. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim o'qituvchilarining intellektual, axloqiy, ruhiy jihatdan kuchli, yetuk malakali kadrlar bo'lishni taqozo etadi.

Haqiqatan, malakali, har jihatdan yetuk pedagoglarni tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimining boshqa bosqichlari qatorida oliy ta'lim muassasalari ham alohida o'rin tutadi. Oliy ta'limni rivojlantirishda ta'limning ilg'or paradigmalaridan foydalanish istiqboldagi ta'lim samaradorligini belgilab beruvchi muhim hodisa hisoblanadi. Pedagogika oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini yuksaltirish yo'lida yangi adabiyotlarni ta'minlashga xizmat qiluvchi «Pedagogik konfliktologiya» nomli o'quv qo'llanmani yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu o'quv qo'llanma asosida talabalarning pedagogik faoliyatini rivojlantirishning asosiy omillari sifatida jamiyat a'zolarining ishbilarmonlik, tashabbuskorlik darajasi e'tirof etiladi. Ularning axloqi, kasbiy va kommunikativ tayyorgarligining ma'naviy-madaniy asoslari, jahon ta'lim taraqqiyoti

¹ <https://uza.uz/oz/politics/shavkat-mirziyeev-ilm-fan-namoyandalari-bilan-mulo-ot-ildi-24-05-2019>

g'oyalariga munosabati, ijtimoiy yondashish g'oyasi, ya'ni texnokratik fikrlashning muhimligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Darhaqiqat, so'nggi vaqtlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan turli konfliktli vaziyatlarni ham oshirmoqda.

Inson o'z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo'ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo'lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham bir tekis, silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni *konfliktlar* deb ataymiz.

Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konfliktli vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir.

Bolalik davrida o'yinchoqlarni talashish, birovlariga hasad qilish yoki o'g'il bolalarning janjal qilib urishganini ko'p kuzatgansiz. Mana shunday konfliktlar keyinchalik oilada, er-xotin, qaynona-kekin, aka-opalar, yaqinlar, do'stlar, ijtimoiy guruhlar, turli kompaniyalar o'rtasida, kasbiy faoliyatda, shuningdek pedagogik faoliyatda ham vujudga kelishi mumkin.

Xo'sh, aslida konflikt nima, uni yengib bo'ladimi, undan inson o'zini ehtiyot qilishi mumkinmi, konfliktsiz yashashning tartib va qoidalari mavjudmi, ular nimalardan iborat?

Ushbu savollar hammani qiziqtirishi tabiiy, albatta. Mazkur o'quv qo'llanma o'sib kelayotgan yangi avlodni aynan konfliktlar bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishga bag'ishlangan bo'lib, konflikt jarayonlarida o'zini idora qilish bo'yicha barcha zarur ilmiy-nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi.

O'quv qo'llanmada Pedagogik konfliktologiya fanining mazmun-mohiyatini ochib berishda AQSh hukumatining «Ta'limdagi hamkorlar» (PIE) dasturida «Fuqarolik ta'limi» (Civic Education) yo'nalishi bo'yicha konfliktlar yechimi (Conflict Resolution) Xansvilldagi Alabama universitetida yoshlar va talabalar e'tiboriga konfliktlar yechimi bo'yicha berilgan materiallardan foydalanildi.

Mazkur o'quv qo'llanma qiziquvchan, intiluvchan, salohiyatli va har tomonlama uyg'un kamol topayotgan yoshlar va talabalar uchun foydali manbaga aylanishiga unid qilib qolamiz. O'quv qo'llanmada konfliktlar yechimi bo'yicha dunyo miqyosidagi barcha zamonaviy bilimlar va mavjud loyihalar ijodiy o'zlashtirilgan hamda milliy material bilan boyitilgan.

I bob. PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Tayanch iboralar: *konflikt, ziddiyat, to'qnashuv, mojaro, nizo, nizoli vaziyat, ruhiy holat, tarbiyalanganlik darajasi, kayfiyat, destruktiv yondashuv, dekonstruktiv yondashuv, konfliktning davomiyligi, konstruktiv yondashuv, turkum fanlar, ijtimoiy konflikt, pedagogik konflikt, jismoniy zo'ravonlik, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, tarix, huquq, ijtimoiy siqiluv, dilsiyohlik, xafagarchilik, najrat, qasos, mensimaslik, kabrli munosabat.*

1.1. Pedagogik konfliktologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Afsuslar bo'lsinki, bugungi kunda turli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlagan holda, bor imkoni bilan atrofdagi odamlarga yordamga shoshilish, ularni sabrga, vazminlikka chorlash o'rninga, noo'rin gaplari, hatti-harakatlari bilan noqobil ishlarni qilayotganlar ham uchrab turibdi. Turli asossiz yolg'on, mish-mishlar tarqatib, aholi orasida noo'rin vahimalar paydo qilayotgan shaxslar ham yo'q emas.

Shunday ekan, hayot konfliktlarga to'la. Insonning jamiyatdagi yashash tarzini turli ziddiyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr davomida, har qanday yoshda, har qanday joyda, har qanday vaziyatda to'qnash kelish mumkin. Konfliktlar uyda, maktabda, ko'chada, o'quvchilar orasida, ota-onalar va farzandlar, xodim va uning rahbariyati orasida, jamoa a'zolari o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Konfliktlar, odatda, ko'p vaqt odamlar birga bo'ladigan hollarda, ya'ni ular uzoq muddat bir-birlari bilan va ruhiy muloqotda bo'ladigan hollarda, ular ma'lum muddat o'zaro birga bo'lishga majbur bo'lgan paytlarida ko'proq sodir bo'ladi.

Hech bir inson o'zini konfliktlardan doimiy muhofaza qilinganman deb hisoblay olmaydi. Chunki konfliktlar ba'zan qo'qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Konflikt har bir inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, hech bir inson konfliktlardan o'zini «kafoflatlanganman» deb ishonch bilan ayta olmaydi. Har birimiz bolalik davrlarimizdan konfliktli vaziyatlarga tushamiz va bu holatlardan

chiqib ketish yo'llarini, usullarini qidiramiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, konflikt ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Chunki u ko'pchilik insonlarning kundalik turmush tarziga oid voqea va hodisalarni qamrab oladi hamda konflikt rivojidan har bir inson, yaqin qarindoshlar, mehnat jamoasi o'rtasidagi tinch va totuvlikka asoslangan osuda hayot tarzi zarar ko'rishi mumkin.

Ulg'ayganimiz sari konfliktli voqea, hodisalar o'z kuchi va ta'sirini ham kuchaytirib boradi. Ammo biz konflikt nimaligini bilamizmi?! Har doim ham konfliktli vaziyatga tushib qolganda o'zimizni to'g'ri tutamizmi? Konflikt bizning hayotimiz uchun tahdid ko'rsatadimi? Konfliktning o'z ichki tabiati qanday? Konfliktdan qanday qutilishi, ya'ni undan qanday chiqib ketish kerak? Ziddiyat qanday qonuniyatlar asosida rivojlanadi? Nizoni rivojlantiruvchi omillarni oldindan bartaraf etsa bo'ladimi? Inson ziddiyatlarsizyashashga o'rganishi mumkinmi?! – singari savollar butun bir vujudimizni qurshab oladi.

Konfliktologiya yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohaslaridan biridir. Shu bois, konfliktologiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosligi, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar masalalari ko'pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Ko'rinib turibdiki, konfliktologiyaning o'z ichki yo'nalishlari ko'p. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishga ko'mak beradi. Ammo bu sohadagi tadqiqotlar unchalik ko'p bo'lmay, mazkur qo'llanmani tayyorlashda konfliktologiya asoslari bo'yicha ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ma'lum manbalarga tayanildi.

AQShning bir necha universitetlari qoshida konflikt yechimlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqot markazlari faoliyat olib boradi. Mayamida tashkil etilgan «Tinchlik ta'limi tadqiqotlari markazi» ana shunday tashkilotlardan hisoblanadi. Rossiya Fanlar Akademiyasi Sotsiologiya instituti qoshida ham «Konfliktologik tadqiqotlar markazi» ish olib boradi. Ushbu markazlar asosan kon-

flikti vaziyatlarni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadilar.



1-rasm. To'qnashuv.

Konflikt o'zi nima? «Konflikt» atamasi «Nizo» tushunchasining dastlabki ekvivalenti sanaladi. Bu fan o'rganuvchi obyektlar nimalardan iborat? Konfliktlarning kelib chiqishini, sabab va oqibatlarini o'rganuvchi fan «Konfliktologiya» bo'lib, u lotincha «*conflictus*» – to'qnashuv, «*logiya*» – ta'limot demakdir. Demak, Konfliktologiya to'qnashuv haqida ta'lim berish, ya'ni to'qnashuv haqidagi fan hisoblanadi.

Pedagogik konfliktologiya fanining predmeti – konfliktlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va tugallanishiga doir umumiy qonuniyatlardir.

Konfliktning o'zaro ta'sir subyekti – alohida o'lam yoki odamlar va odamlar guruhi.

Konflikt – o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to'qnashuvi.

Konfliktning yechimini topish – konfliktli vaziyatni yo‘qotish hamda u yuzaga keltirgan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga solish bilim va ko‘nikmalari majmuidan iborat¹.

Konflikt tabiiy hodisa. Konflikt – oddiy hol. Chunki konflikt har birimizning turmushimiz va tirikligimizga xos va hayotimizga tegishli bo‘lgan narsa. Ammo ko‘pchilik insonlar ongida an’anaviy mavjud bo‘lgan fikrga ko‘ra, konflikt – bu oddiy hol emas, u ziddiyatli hol, undan o‘zini muhofaza qilish kerak, undan o‘zini tortish zarur, konfliktdan «qochish» kerak. Insonlararo, oilalar ichida bo‘layotgan konfliktlardan o‘zini tortishni bizga bolaligimizdan o‘rgatib kelishadi. Konflikt oldida, konfliktdan qo‘rqish hollari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bizni bolaligimizdan konfliktli vaziyatlardan o‘zimizni tortishga, «janjalkash» bo‘lmaslikka, nizolarini keltirib chiqargan va unda qatnashgan odamlardan o‘zimizni tortib yurishga o‘rgatishadi. Konflikt – bizning milliy mentalitetimizda «yaxshi» bo‘lmagan holat va vaziyatga tenglashtiriladi. Biz konflikt bo‘lganidan ko‘ra, konflikt bo‘lmaganini afzalroq ko‘ramiz. Konfliktni hayotimizdagi eng «yomon» davr sifatida baholaymiz. Undan uzoqroqda yashash ko‘nikmalari bizning tafakkurimizga chuqur singdiriladi. Konflikt har kunlik hayot tarzimizga xos bo‘lgan voqelik bo‘lishiga qaramay, insonlar ko‘pincha ularni noto‘g‘ri talqin etadi hamda «anglangan» holda qabul qilishga o‘rgatilmaydi. Biz qachonki konfliktli vaziyatga tushib qolganimizdagina konfliktli vaziyatni tahlil qilishga urinamiz. Ammo har doim ham bizdagi bilim va ko‘nikmalar konfliktli vaziyatdan chiqib ketish uchun yetarli bo‘lmaydi. Chunki bu borada bizning hayotiy tajribamiz kamm va biz konfliktlar yechimi bo‘yicha maxsus bilimlarni egallamaganmiz. Tabiiyki, har bir inson konfliktlarni tushunadi, ularning mohiyatini to‘g‘ri anglaydi hamda ularni yenga oladi, deyish xato. Xorij mamlakatlarida yuqori va quyi bosqichdagi barcha rahbar xodimlar, biznes menejerlarning barchasi konfliktlar yechimi bo‘yicha ta’lim oladilar.

¹ V. Karina Korostelina and Simone Lassig. *History Education and Post-Conflict Reconciliation*. USA Canada. Routledge, 2013.

Konfliktlar va ularning yechimi bo'yicha ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallamay turib, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda faoliyat olib borib hamda ularni boshqarib bo'lmaydi.

Konfliktlarni o'rganish, ularni ilmiy anglash, konfliktlar bo'yicha zamonaviy bilimlarni egallagan mutaxassislarni tarbiyalab, voyaga yetkazish davr bilan hamnafas bo'lishni anglatadi. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish, jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishda «Pedagogik konfliktologiya» fani o'z oldiga maqsad va vazifalarni belgilab oldi.

Pedagogik konfliktologiya fanini **o'qitishdan maqsad** – bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik konfliktologiya asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirishdir. Shu bilan birga, yoshlarga hayotdagi konfliktlar bo'yicha keng nazariy va amaliy bilimlar berish orqali yoshlarni jamiyatda mustaqil va faol fuqaro sifatidagi ishtiroki uchun zamin yaratish, boshqa insonlar bilan tabiiy bo'lgan turli ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy, psixologik muloqotlarda ular ongi, tafakkuri va axloqida kamtarlik, mehribonlik, halollik, to'g'riso'zlik, samimiylik, vijdoniylik, o'z so'zida turish kabi xislatlarni tarbiyalashdan iborat.

Pedagogik konfliktologiya fanining vazifalari:

◊ gumanitar fanlar sohasi sifatida uning obykti va predmetidagi izlanish hamda asosiy kateqoriyalari haqida talabalarda nazariy tasavvurlarni shakllantirish;

◊ pedagogik faoliyatning insonparvarlikka yo'naltirilganligini ochib berish;

◊ konfliktlarni bartaraf etish, oldini olish, yechimini topishning asosiy shakl va usullarini egallash;

◊ pedagogik konfliktning qonuniyatlari va faktorlari haqida to'liq tasavvurni shakllantirish;

◊ pedagogik konfliktli vaziyatlarni muvofiqlashtirish, tahlil qilish va tushunish, umumiy ilmiy yondashishni aniqlay bilishdan iborat.

Fanning ta'limdagi o'rni – pedagogik jarayon keng qamrovli bo'lib, unda turli pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishi tabiiy hodisadir. Pedagogik jarayonda yuz beradigan konfliktlar o'ziga xos xususiyatlar, rivojlanish darajasi va bosqichlari, chegarasiga ega.

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik konfliktlarni oldini olish va bar-taraf etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga ega. Pedagogik konfliktologiya fani bo'yicha o'qituvchi kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallashi, peda-gogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo'lish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohaza-larni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi va haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayot-gan yirik kashfiyot qariyb o'n besh yillik samarali va kishi zo'rg'a ishonadigan voqea hisoblangan bo'lsa, hozir har yili, hatto, har oyda fan, texnika sohasida yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, bilimlarning ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqda. Kishilarda bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib bormoqda.

Pedagogik konfliktologiya fani ixtisoslik fani hisoblanib, uning rivojlanishi qator pedagogik, xususan, pedagogika, pedagogika na-zariyasi, oila pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik texno-logiya, pedagogik mahorat, umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, psixologik konfliktologiya, pedagogika tarixi, qiyosiy pedagogika, shuningdek anatomiya va fiziologiya, psixologiya, so-tsiologiya, falsafa, tarix, huquq va boshqa ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqadorlikda o'rganiladi va shu fanlar bilan birgalikda hamkorlikda ish olib boradi.

Pedagogik konfliktologiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari

Har qanday fan, fan sifatida o'zining ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Bu usullar orqali o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Fan mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud kasbiy, pedago-

gik-psixologik hodisa va jarayonlarni, uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan tadqiqot usullari bilan o'rganadi.

Ilmiy pedagogik izlanish jarayonlarini amalga oshirishda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalaniladi: kuzatish, o'z-o'zini tahlil qilish, og'zaki va yozma so'rov, anketalashtirish, test so'rovi, ishbilarmonlik o'yinlari va boshqalar.

1.2. Pedagogik konfliktologiyaning ilmiy asoslari

Pedagogik konfliktologiya bugungi kunda mustaqil fan sifatida shakllanib bormoqda. Fan nuqtayi nazaridan ilk marotaba konfliktni ilmiy o'rganish davlat hokimiyati, jamiyat a'zolari hamda alohida ijtimoiy guruhlar orasidagi ziddiyatlarni o'rganishdan boshlangan.

Keyinchalik ilmiy qiziqishlarni ortib borishi bilan ijtimoiy, siyosiy, milliy, guruhlararo va shaxslararo konfliktlar **fan obyektiga** aylana boshladi. Konfliktologiya XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan sifatida shakllana boshlagandan so'ng, jamiyatda konfliktning tutgan o'rini o'rganish jamiyat hayotida juda muhimligi sababli, etnik va guruhlararo konfliktli munosabatlarni o'rganish, sistematik asosda ularni tahlil qilish va o'zaro to'g'ri yechimga kelish zaruriy ehtiyojlardan biriga aylandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida konfliktologiyaga oid bilimlar fanlararo paradigmasining konturlari belgilanib, ular asosi sifatida tizimli evolyutsion yondashuv olindi. So'nggi paytda konfliktologiya tarmoqlarini tashkil qilgan xususiy (alohida) konfliktologiya fanlarida bu fan muammosining ko'p sonli qiziqarli va muhim tadqiqotlari o'tkazilmoqda.

Ta'lim sohasining ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish masalalari bo'yicha pedagog va psixolog olimlardan Y.I. Stepanov, S.V. Banikina, A.N. Samarin, V.N. Shalenko, V. Sheynov, A. Ya. Ansupov, I.A. Shipilov, N.I. Leonov, V.N. Kudryavtsev, V.I. Juravlev, D.V. Ivchenko, N.V. Samsonova, V.N. Vasilev, B.I. Xasanov, V.V. Bazelyuk, Z.Z. Drinka, A. Ya. Klementeva, S.V. Banikina, G.S. Berejnaya, A.A. Bodalev, N.U. Zaichenko, M.M. Ribakova, A.K. Markova, M. Mitina N.G. Moskvina va V.V. Drujinin o'zining tadqiqot ishlarida turli xil soha mutaxassislarining konfliktolo-

gik madaniyatini shakllantirish yo'llari va usullari har tomonlama o'rganilgan.

Umumta'lim muassasasi mutaxassislarining kompetentligining konfliktologik (chuqur bilimga ega bo'lish) muammosi yaqin-yaqindan maxsus psixologik-pedagogik izlanishlar mazmuniga aylandi¹.

Psixologiya fanlari doktori, professor Boris Iosifovich Xasan muammoli kompetentlikning mohiyatini ko'rib chiqqan; faylasuf B.I. Juravlyov, tibbiyot fanlari doktori D.V. Ivchenko hamda pedagogika fanlari doktori N.V. Samsonova turli xil soha mutaxassislarining konfliktologik madaniyatini shakllantirish yo'llari va usullarini ishlab chiqqan; pedagog va psixolog olimlar M.L. Maksimovna va A.K. Markov o'qituvchi shaxsining imkoniyatlarini pedagogik jamoadagi muammolar xususiyatiga ta'sirini o'rganib chiqqan; A.A. Bordalyov va N.U. Zaychenko konstruktiv muloqotni muammoli vaziyatlarni hal etish usuli sifatida o'rgangan; Z.Z. Drinka, V.V. Bazelyuk va A. Ya. Klimenteva bo'lajak o'qituvchilarning konfliktologik tayyorgarligini konseptual (yangi) asosini aniqlagan; shuningdek S.V. Banikina, G.S. Berejnaya, N.G. Moskvina pedagogning konfliktologik kompetentligini shakllantirish usullarini ochib bergan.

Umumta'lim maktab o'qituvchilari konfliktologik muammolar bo'yicha ilmiy adabiyotlarda mavjud ishlanmalar sinf rahbarlarining konfliktologik chuqur bilimga egalik qonuniyatlarini yaratish uchun nazariy va amaliy qiziqishga ega bo'lishlari lozim. Professional kompetentlik (chuqur bilimga egalik) borasida falsafa fanlari doktori, professor Viktor Maksimovich Shepel ishlari diqqatga sazovor. Muallif turli jamoalarning o'zaro munosabatlarini o'rganib, har qanday darajadagi jamoat rahbari o'zaro turli shaxslar orasidagi tortishuvlarni bartaraf etishni bilishi, mojaroli vaziyatlarni hal qila olish bo'yicha zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim, deya ta'kidlaydi.

¹ Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010.

Mamlakat konfliktologiyasi rivojiga ruhshunoslardan A.Ya. Ansupov hamda I.A. Shipilov katta hissa qo'shishgan. Mualliflar konfliktologiyaning nazariy asoslari va ularning amaliy qo'llanilishini o'rgangan holda turli xil soha vakillarining o'zaro munosabatlari orasidagi mojarolar xususiyatlarini va paydo bo'lish sabablarini o'rganib, shaxslararo va turli xil shaxslar o'rtasidagi mojarolarni hal etish hamda ulardan ogohlantirishning bir qator uslublarini belgilab berishdi.

Pedagogik konfliktologiya rivojida ruhshunos M.M. Ribakova tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi. Muallif pedagogik jamoa ichida turli xil munosabatlarni o'rganib, «o'qituvchi-o'quvchi» ko'rinishidagi muammolarga katta ahamiyat qaratadi, maktab hayotidan mojaroli vaziyatlarni misol qilib ko'rsatadi hamda ularning asosiy sabablarini aniqlab beradi. M.M. Ribakova mazkur guruh munosabatlarini tahlil qilib, barcha mojarolarning asosiy sababchisi o'qituvchining o'zi ekanligini ta'kidlaydi. Shu munosabat bilan, o'quvchilar bilan normal munosabatni yo'lga qo'yish uchun pedagog mojarolarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Pedagogik konfliktologiya rivojiga S.V. Banikina tadqiqotlarga sezilarli hissa qo'shdi. Muallif maktab jamoasidagi mojarolarning vujudga kelishidagi umumiy va o'ziga xos sabablarini ajratib berdi, pedagogik mojarolarning topologiyasini ishlab chiqdi hamda o'quv tarbiya jarayonida ishtirokchilar orasidagi turli xil mojarolarni hal etish bo'yicha tavsiyalarni taqdim etdi. S.V. Bakinova o'z ishlarida pedagog uchun konfliktologik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishning muhimligiga katta e'tibor qaratadi.


Pedagogik konfliktologiya ilmiy-amaliy qiziqish pasaymaganligi bo'yicha Rossiya ta'limining zamonaviy bosqichlari sohasida uning nihoyatda dolzarbligini ko'rsatmoqda. So'nggi vaqtlarda pedagogik konfliktologiya sohasidagi dissertatsiya ishlari miqdori sezilarli ortdi. Tadqiqotchilar maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasidagi mojarolarni (I.V. Safranova); katta sinf o'quvchilari orasidagi bahs va tortishuvlarni (G. Y. Grigoryeva, A.A. Kuzina); umumta'lim maktablari pedagoglarining konfliktologik bilimlarini shakllantirish bo'yicha muammolarni o'rganishdi.

Shu bilan birga, 1990–2000-yillardagi nashr etilgan psixologik-pedagogik adabiyotlarning yuzdan ortiq birligi kontent-tahlili muammolarini hal etish masalalarining asosiy qismi umumiy konfliktologiya masalalarini hal etishga qaratilganini ko'rsatdi. Pedagogning konfliktologik qobiliyatiga bor-yo'g'i 8 foiz ish bag'ishlangan. Bunda sinf rahbarining konfliktologik chuqur bilimga ega bo'lishi ularning birontasida ham ko'rsatib berilmagan.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarini o'rganish bo'yicha o'qituvchining kasbiy, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, rivojlantirishning ilmiy-nazariy masalalari bo'yicha pedagog va psixolog olimlardan O. Musurmonova, S. Nishonova, H. Rashidov, G. To'yichiyeva, E. Asadova, G. Berdiyev, V. Karimova, E. G'oziyev, N. Eganberdiyeva, R. Z. Jumayev, X. Ibragimov, M. Otaqulov, B. Xodjayev, P. Ergashev, M. T. Axmedova, R. Musurmonov singari ko'plab olimlarning ilmiy kuzatishlari shular jumlasiga kiradi.

Pedagogik konfliktologiya fanini o'rganishda «konflikt», «ijtimoiy konflikt», «pedagogik konflikt» tushunchalari pedagogik konfliktologiya fanini to'ldirib boradi va uning kelib chiqish mohiyatini ochib beradi. Pedagogik konfliktologiya fanini o'rganishda «konflikt», «ijtimoiy konflikt», «pedagogik konflikt» tushunchalari fanning asosiy ildizlari bo'lib hizmat qiladi. Shu o'rinda «konflikt», «ijtimoiy konflikt», «pedagogik konflikt» tushunchalariga alohida to'xtalib o'tamiz.

«Konflikt nima?» yoki aniqroq aytadigan bo'lsa, konflikt qanday o'zini namoyon etadi? – degan savolga ko'pchilik, konflikt – bu odamlarning o'zaro urishishi, janjallashishi, kuch ishlatib bir-biri bilan to'qnashishi, so'z aytishish, birovlarini ayblash, haqorat qilish, g'azablanish, jahl bilan gaplashish, kesatish, birovlarini urib-turtish, do'q qilish, qo'rqitishga urinish, u qilaman yo bu qilaman deb tahdid qilish, kesatish, to'g'ri so'zlar mazmunini buzib talqin qilish, birovlarining orqasidan gapirish, qasd qilish, birovlariga jismoniy zo'rvonlik o'tkazish, zo'rlash, shantaj, birovlarini oyog'idan chalish, kamsitish, odamlar ustidan kulish, guruh-guruh bo'lib birov-



larni yakkalab qo'yish, dilsiyohlik, xafagarchilik, nafrat va qasos, mensimaslik, kibrli munosabat bildirish, o'zini boshqalardan ustun qo'yish, kek saqlash, nafsoniyatga tegadigan amallar va so'zlar ishlatish, birovning har bir so'zi va amalidan yomonlik qidirish va boshqa shunga o'xshash vaziyatlarni ta'kidlab aytishadi. Mana shu insonlararo munosabatlarda uchrab turadigan barcha salbiy holatlar aslida konfliktlarning turli ko'rinishlari, odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning turli namoyon bo'lish holatlariga kiradi.

Konfliktni tushunishga bo'lgan ikki xil yondashuv mavjud. Ulardan birinchisi, konfliktni ancha keng – taraflar, fikrlar, kuchlar to'qnashuvi deb ta'riflaydi. Bunday yondashuvga ko'ra konfliktlar jonsiz tabiatda ham yuz berishi mumkin. «Konflikt» va «ziddiyat» tushunchalari amalda hajmiga ko'ra qiyoslanuvchan bo'lib qoladilar. Ikkinchi yondashuv, konfliktni opponentlar yoki o'zaro ta'sir subyektlarining bir-biriga zid (teskari) yo'llangan maqsadlari, manfaatlari, pozitsiyalari, fikrlari yoki qarashlarining to'qnashuvi deb tushuniladi.

Konflikt tushunchasiga ikki prinsipial ta'rif: birinchisi – konfliktni keng ma'noda tushunishni toraytirib, konfliktlar faqat o'zaro sotsial harakat (ta'sir)da yuzaga keladi deya hisoblash; ikkinchi ta'rif– konflikt mohiyatiga tegishli. Konflikt mohiyati faqat ziddiyat yuzaga kelishida, manfaatlar to'qnashuvida emas, balki yuzaga kelgan ziddiyatni hal qilish usulida, o'zaro sotsial ta'sir (harakat) subyektlarining qarama-qarshiligida. Konflikt mohiyati, umuman, konflikt subyektlari o'zaro qarama-qarshiligida bo'ladi.

Tushunchaning to'liq ta'rifi: **konflikt** – o'zaro ta'sir (harakat) jarayonida paydo bo'ladigan jiddiy ziddiyatlarni hal qilishning eng keskin usuli bo'lib, konflikt subyektlari qarama-qarshiligidan iborat, odatda, salbiy his-kechinmalar (emotsiyalar) bilan kechadi¹.

Ijtimoiy (sotsial) konflikt – bu:

1) ochiq qarama-qarshilik, ikki yo undan ortiq subyektlar – sotsial o'zaro ta'sir ishtirokchilarining to'qnashuvi bo'lib, buning sa-

¹ V. Karina. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Konflikt Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.

bablari sotsial konflikt ishtirokchilarining o'zaro zid manfaatlari va qadriyatlaridir;

2) sotsial ziddiyatlarning o'ta keskinlashgan holati, turli sotsial birliklar – sinflar, millatlar, davlatlar, turli sotsial guruhlar, sotsial institut kabilar manfaatlarining ular manfaatlarini, maqsadlarini, taraqqiyot tendensiyalarining qarama-qarshiligi yoki jiddiy farq qilishi tufayli kelib chiqadi;

3) sotsial subyektlarning obyektiv ravishda farqlangan manfaatlarini, maqsadlarini, taraqqiyot tendensiyalarining oshkora yoki yashirin kurashi, to'qnash kelishi, sotsial kuchlarning mavjud ijtimoiy tartibga qarshilik ko'rsatish asnosida bevosita yoki bilvosita to'qnashuvi, yangi sotsial birdamlikka tomon tarixiy intilishning alohida shakli;

4) konfliktli o'zaro ta'sir subyektlari o'zaro zid bo'lgan yoki bir-birini istisno etadigan qandaydir o'z maqsadlarini ko'zlagan vaziyat.

Ijtimoiy konfliktlar konfliktologiyani markaziy obyekti, ya'ni yadrosi hisoblanib, u esa shaxslararo konfliktlar hisoblanadi.

Ijtimoiy (sotsial) konflikt sabablari:

1) moddiy resurslar;

2) o'ta muhim hayotiy ko'rsatma (ustanovka)lar;

3) hokimiyat vakolatlarini;

4) ijtimoiy (sotsial) tuzilmadagi maqom-vazifaga oid farqlar;

5) shaxsga doir (emotsional-psixologik) farqlar va hokazo.

Konfliktga o'zaro sotsial ta'sir (harakat)ning turlari sifatida uning subyektlari va ishtirokchilari bo'lib alohida individlar, katta va kichik sotsial guruhlar va tashkilotlar keladilar.

Konfliktli qarama-qarshilik – tomonlarning o'zaro kurashi, ya'ni bir-biriga qarshi qaratilgan harakatlardir.

Sotsial konflikt asosida faqat sabablari o'zaro tubdan zid bo'lgan manfaat, ehtiyoj va qadriyatlar bo'lgan ziddiyatlar yotadi. Bu kabi ziddiyatlar tomonlarning ochiqdan-ochiq kurashi real qarama-qarshilikka o'tib ketadi.

Konfliktda to'qnashuvlarning kuch ishlatiladigan va kuch ishlatilmaydigan shakllari mavjud.

Sotsial konflikt o'z ichiga raqib faoliyatini to'siq bo'layotgan yoki boshqa odam (guruh)larga zarar yetkazayotgan individ yoki guruh faolligini oladi.

Konfliktlar problematikasi sohasida quyidagi atamalar qo'llanadi: «bahs», «munozara», «savdolashuv, tortishuv», «raqobatchilik va nazorat qilinadigan to'qnashuvlar», «bilvosita va bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) zo'ravonlik».

Pedagogik konflikt – ta'lim tizimida pedagogik konfliktlarning vujudga kelish sabablari va tabiatini o'rganadigan, ularni bartaraf etish usullari va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadigan nazariy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. Pedagogik konflikt ijtimoiy hayotdagi ko'p uchraydigan holat bo'lib, tabiiyki jamiyatning kuchli ijtimoiy munosabatlari to'plangan bo'laklari asosan maktabda, oliy va o'rta maxsus ta'limda ko'zga tashlanadi. Ta'limda o'z «Men»ini qattiq hurmat qilishga odatlangan o'quvchi yoki talabalar orasida konfliktli munosabatlarning bo'lishi tabiiy hodisa. Lekin amaliy ko'nikmalarga, kuchli tayyorgarlikka ega bo'lmagan pedagog yoki rahbarlar ham konfliktli munosabatlarni vujudga kelishiga sharoit yaratib berishi mumkin.

Pedagogik konfliktni pedagogika va psixologiya fanlari bir-biri bilan uzviy holda o'rganadi va hal qiladi. Ularning har ikkisi bitta umumiy jarayonni – insonning psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Bugungi kunda zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixologik tayyorgarliksiz auditoriyaga kirishi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur. Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar va jamiyatning roli juda katta. Chunki ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. O'qituvchi shularni hisobga olgan holda bolalar psixikasi va xarakterini o'rganishi, shu asosda o'qitishning aniq va izchil tizimini ishlab chiqishi lozim.

Psixologiyada mavjud 4 ta temperamentni pedagog yaxshi bilishi zarur, chunki ana shu tushunchalar ta'lim tizimidagi pedagogik ziddiyatlarni oldini olishning asosiy omilidir.

Ta'lim-tarbiyaning samarasi hamda ta'sirchanligi, avvalo, o'qituvchiga, uning intellektual salohiyatiga, kasbiy tayyorgarligiga va pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchi ijodiy fikrlovchi, ya'ni umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi, o'z kasbi va bolalarni yaxshi ko'radigan insonparvar, adolatli, talabchan, odobli, har bir o'quvchisi ulg'ayib kelajakda komil inson bo'lishiga ishonadigan, ularning barkamol shaxs, ishbilarmon kishi bo'lib yetishishiga ko'maklashadigan mutaxassis bo'lmog'i lozim.

Pedagogik konfliktni yuzaga keltirmasligi uchun o'qituvchi nozik psixolog va mohir pedagog bo'lishi lozim. Tarbiyachi nazariy bilimlari va pedagogik sezgirligi vositasida o'qituvchilar va o'quvchilar bilan oson aloqaga kirishadi, maktabda va undan tashqarida birgalikdagi faoliyatni mohirlik bilan uyushtiradi, tarbiyalanuvchining fikri, tuyg'usi va irodasini bevosita va bilvosita boshqarish san'atini egallagan bo'ladi¹.

Tarbiyalanuvchi muomala odobini asosan tarbiyachi timsolida anglab oladi. Ustoz tarbiyalanuvchi uchun bir umrga sevimli, ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishga muyassar bo'lmog'i lozim.

Pedagogik konfliktlarning kelib chiqish sabablari guruhdagi har bir shaxsning fe'l-atvoridagi xatti-harakatlarida shaxsga mansub bo'lgan millat, xalq va hudud xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

1.3. Konfliktologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi

Konfliktning dastlabki yaxlit konsepsiyalari XIX-XX asrlar oralig'ida paydo bo'ldi. Insonlarning dastlabki jamiyatlari bilan birga paydo bo'lib, konfliktlar kundalik hodisalardan biri edi va uzoq davr mobaynida ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida sanalmay keldi, ammo ular to'g'risidagi ba'zi genial fikrlar bizgacha yetib kelgan eng qadimgi manbalarda ham mavjud. Vaqt o'tishi bilan hayot sharoitlari

¹ *Olsson. Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010.*

o'zgarib, konfliktlar ko'rinishi ham o'zgarishga yuz tutgan. Antik davr urushlarning barcha tafsilotlarini va bu kabi konfliktlarning ilk baholarini qoldirdi. O'rta asrlar va Yangi davrlarga ajratib o'rganilishi ushbu hodisaning mohiyatini anglashga bo'lgan o'ziga xos urinishlar bo'ldi. Insonparvar mutafakkirlar konflikt to'g'risidagi, ularning insoniyat taraqqiyotidagi halokatli roli, urushlarni jamiyat hayotidan yo'qotish va tinchlik o'rnatish to'g'risidagi o'z tasavvurlarini bildirib ketganlar.

Ko'rib chiqilayotgan muammoga oid dastlabki tadqiqotlar miloddan avvalgi VI–VII asrlarga tegishli. O'sha davr Xitoy mutafakkirlarining yozishicha, barcha mavjud narsa taraqqiyotning manbai – o'zaro munosabatlarda, materiyaga xos bo'lgan ijobiy (Yan) va salbiy (In) tomonlarda bo'lib, ular doimiy o'zaro qarama-qarshilikdadir va aynan bu ularning egalari o'rtasida konfrontatsiya (konflikt)ni keltirib chiqaradi. Qadimgi Yunonistonda qarama-qarshiliklar va ularning buyumlari yuzaga kelishidagi roli to'g'risida falsafiy ta'limot paydo bo'ldi. Yunon faylasufi Anaksimandr – (miloddan avvalgi 640–547 – yillar) narsa (buyum)lar apeyron – undan qarama-qarshiliklar ajralib chiqishiga olib keladigan yagona moddiy asosning cheksiz harakati-dan paydo bo'ladi deb uqtirgan. Yunon faylasufi Geraklit (miloddan avvalgi VI asr oxiri – V asr boshi) harakat sabablarini ochishga, narsa va hodisalar harakatini ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar kurashti tufayli paydo bo'ladigan qonuniy, zarur jarayon sifatida taqdim etishga harakat qildi. Qadimgi Rim faylasufi, notiq Mark Tulliy Sitseron (miloddan avvalgi 106-43 – yillar) yetkazilgan zarar uchun qasos olish, mamlakatga bostirib kirgan dushmanni haydab chiqarish maqsadida olib boriladigan «Adolatli va haq e'tiqod uchun urush» to'g'risidagi tezisni ilgari surdi («Davlat to'g'risida»)¹.

Sotsial konfliktlarni tizimli tahlil qilishga birinchi bo'lib Florensiyalik (Italiya) yozuvchi Nikkolo Makiavelli (1469–1527) urinib ko'rdi. U konfliktni insonning g'arazli mohiyati, turli guruhlarning doimiy va cheklanmagan boylikka intilishi sababli jamiyatning uni-

¹ V. Karina. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Conflict Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.

versal va uzluksiz holati deb hisoblagan. U butun davlat hokimiyatini o'z qo'lida jamlab olgan zodagonlarni konflikt manbalaridan biri deb biladi. Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561–1626) mamlakat ichidagi sotsial konfliktlar tizimini birinchi bo'lib batafsil tahlildan o'tkazdi.

Yangi davrda Jeneva (Shveysariya) faylasufi va yozuvchisi Jan-Jak Russoning (1712–1778) butun jahon tarixiy jarayonining bosqichlilikiga to'g'risidagi quyidagi g'oyalari keng yoyildi:

➤ avvaliga odamlar ozod va o'zaro teng bo'lgan «tabiiy holat» mavjud;

➤ so'ng sivilizatsiya taraqqiyoti tenglik, ozodlik va baxt holatining yo'qotilishiga olib keladi;

➤ «jamoatchilik shartnomasi»ni tuzgan odamlar yana o'zlari yo'qotgan ijtimoiy munosabatlar uyg'unligiga ega bo'lib, umrbod tinchlik va totuvlik kelishuviga erishadilar; ijtimoiy tinchlik xalqning qat'iy nazorati ostida yuz berishi mumkin, chunki vazirlar uchun urushlar zarur va ular ezgu niyatlarini aslo namoyon etmaydilar.

Dastlab konflikt ko'p tabaqali ijtimoiy hodisa sifatida Shotlandiya (Buyuk Britaniya) faylasufi Adam Smitning (1723–1790) «Xalq boyligining mohiyati va sabablariga oid tadqiqot» ishida o'rganilgan. Uning fikricha, konflikt asosida jamiyatning sinflarga (kapitalistlar, yer egalari, yollanma ishchilar) bo'linishi va iqtisodiy raqobat yotadi.

Sinflar orasidagi kurashni Adam Smit jamiyatning olg'a tomon taraqqiy etish manbai, ijtimoiy konfliktni esa insoniyat uchun o'ziga xos muayyan ne'mat deb bilgan.

Nemis olimi Immanuel Kant (1724–1804) «... qo'shni bo'lib yashayotgan odamlar orasidagi tinchlik holati tabiiy holat emas, aksincha, urush holatidir, ya'ni uzluksiz amalga oshirilgan dushmanlik harakatlari bo'lmasa, doimiy xavfdir. Demak, tinchlik holatini o'rnatish darkor...»¹ – deya ta'kidlagan. Bu yerda Russoning «Ijtimoiy shartnoma» to'g'risidagi g'oyalari bilan bog'liqlik kuzatiladi.

¹ *V. Karina. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Conflict Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.*

Nemis faylasufi Georg Gegel (1770–1831) fikricha, konfliktning asosiy sababi, bir tarafdin, «boylik yig'ish» bilan boshqa tarafdin «mehnatga bog'lab qo'yilgan sinf» o'rtasidagi ijtimoiy nomutanosiblikdir. Gegel mamlakat ichidagi davlat birligiga ta'sir ko'rsatadigan g'alayon va tartibsizliklarga qarshi chiqqan. U davlat butun jamiyat manfaatlarini himoya qiladi va konfliktlarni muvofiqlashtirishi kerak deb hisoblagan. Hayot uchun kurash muammosi ingliz biolog Charlz Darvin (1809–1882) ta'limotida markaziy o'rin egallagan. Darvin asarlarining bosh g'oyasi: jonli tabiat doimiy ravishdagi hayot uchun kurash sharoitida rivojlanib, bu eng yaxshi moslashgan turlarni saralab olishning tabiiy tanlash mexanizmini tashkil etadi. Keyinchalik Darvin qarashlari konfliktning ba'zi sotsiologik va psixologik nazariyalarida taraqqiy ettirildi.

O'zbekistonda konfliktologiya bugungi kunda mustaqil fan sifatida shakllanishning yakuniy bosqichini boshdan kechirmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida konfliktologiyaga oid bilimlar fanlararo paradigmasining konturlari belgilanib, ular asosi sifatida tizimli evolyutsion yondashuv olindi. So'nggi paytda konfliktologiya tarmoqlarini tashkil qilgan xususiy (alohida) konfliktologiya fanlarida bu fan muammosining ko'p sonli qiziqarli va muhim tadqiqotlari o'tkazildi. Ammo mahalliy konfliktologlar hozircha konfliktlar mohiyatini anglash, ularning tasnifi, genezisi, tuzilmasi kabilarga nisbatan umumiy yondashuv ishlab chiqa olmadilar. Bunday yondashuv ko'pchilik konfliktologlar tomonidan konfliktologiya fanining mazmun-mohiyati to'g'risidagi tizimli tasavvur (qarash)larning bitta, yaxshisi bir necha variantini muhokama qilish asosida ishlab chiqilishi mumkin.

Sohaning bugungi kundagi dolzarb ahamiyatini inobatga olib, nafaqat maxsus maktablar, balki mavjud ilmiy markazlar o'rtasida hamkorlikning dasturiy omillari ham jadallik bilan yo'lga qo'yilmoqda. 1989-yili konfliktologiya bo'yicha Rossiya – Amerika dasturi yaratildi. Ushbu dastur doirasida konfliktlarni o'rganish va hal qilish instituti (CRI) ko'magida Peterburg konfliktlarni hal etish markazi etib yaratilib, u ham bilishga oid-nazariy, ham utilitar-ama-liy muammolarni hal qilishga qaratilgan, ya'ni odamlarga konfliktlar

bilan nima qilish kerakligini anglatishi, tushuntirishi, yordam berishi kerak edi. Mahalliy olimlarning fikriga ko'ra, konflikt va undan hi-moyalaniş – davrning eng dolzarb muammosi bo'lib, uni hal qilish (yechish) nafaqat muayyan bilim, balki u odamlarning masalalarni amalda konflikt-siz hal qilishga ho-xish-istagini ifoda etadi¹.

Konfliktlarning namoyon bo'lish shakllari va turlari

Insoniyat taraqqiyoti tarixi turli, ayni paytda, o'ziga xos manfaatli munosabatlarga ega, shaklan va mazmunan bir-birini takrorlamaydigan shaxs, guruh, qatlamlar hamda voqea-hodisalarga har xil yondashuvlarning namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Turfa madaniyat va yondashuvlar ijtimoiy hayot rivojlanishining oqilona asoslari paydo bo'lishiga, taraqqiyot qonuniyatining nazariy va amaliy mezonlari shakllanishiga xizmat qilishi bilan birga, inson va jamiyat hayotida turli ijtimoiy xatarlar, tanazzullar, murosasizlikning, toqatsizlikning betakror shakllarining namoyon bo'lishiga olib keladi. Shu bois konfliktlarning namoyon bo'lish shakllari va turlarini, o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagicha: konfliktlarning obyekt-i, maqsadi, oqibatlari hamda yo'nalganligi, ularning namoyon bo'lish sabab-oqibatlari, to'satdan, kutulmaganda sodir bo'lish vaqtiga, davomiyligi va keskinlik darajasiga, nizolar kelib chiqishi va uning ishtirokchilariga ko'ra, ijtimoiy hayotning tashkil etilganlik darajasiga hamda vaziyatni subyektiv idrok etishni hisobga olgan holdagi va boshqa turlariga ajratish mumkin.

Konfliktlarni namoyon bo'lish turiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin: *agonistik* (murosaga keladigan) va *antagonistik* (murosasiz).

Agonistik konfliktlar uchun quyidagilar xos:

1) konfrontatsiya (konflikt) – sotsial guruhlarning qarama-qarshi siyosiy, ekologik, sotsial manfaatlarga passiv qarshi turishi. Konfrontatsiya ochiq to'qnashuv shaklini olmaydi, ammo farqli qarashlar mavjudligini ko'zda tutib, raqobatga o'sib ketishi mumkin;

¹ V. Karina. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Conflict Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.

2) raqiblik – alohida odam yoki biron-bir jamoat yutuqlari va imkoniyatlari e'tirof etilishi uchun kurash. Raqiblik maqsadi – yaxshi sotsial pozitsiyaga ega bo'lish, e'tiborli yutuqlarga erishish. Raqiblik rivojlanib, raqobatga o'tishi mumkin.

3) raqobat – konfliktning alohida toifasi bo'lib, undan maqsad – biron-bir foyda, daromad ko'rish yoki kamyob ne'matlarga erishish.

Antagonistik konfliktlarning quyidagi turlari mavjud:

1) norozilik – mavjud holatdan aniq ifodalanmagan holda norozilik bildirish. Avvaliga *asabiylashuv* paydo bo'lib, u va nizoli vaziyatga o'tib boradi. Noaniq maqsadlar nisbatan aniq ifodalanmagan talablarga aylanib, lekin norozilik tashkilotchilarining istaklari hamisha ham tushunarli emas, ya'ni ularning irodasi aniq ifodalanmagan. Norozilik o'sib, g'alayon yoki qo'zg'olonga o'tib ketishi mumkin;

2) **g'alayon** – shaxs yoki jamoa agressiyasining jamoaviy norozilikni yuksak darajada uyushtirgan holda agressiv tarzda ifodalash;

3) **qo'zg'olon** – shaxs yoki jamoa agressiyasining jamoaviy norozilikni yuksak darajada uyushtirgan holda muayyan maqsadga qaratilgan ifodalash;

4) **inqilob** – konfliktning oliy shakli, ko'rinishi bo'lib, norozilikning *eng so'nggi* shakli, mavjud tuzumni siyosiy ag'darib tashlash yo'li, sotsial-iqtisodiy tartibning sifat jihatidan o'zgarishini anglatadi. Odatda, inqilob harakatning zo'ravonlik ishlatgan holdagi harbiy usulini va keng ommaning jalb etilishini nazarda tutadi.

Konfliktlarning turli taktikalari mavjud: *turli qarashlar va ustuvorlik qilish*. Turli qarashlar – asosiy tarkibiy qism bo'lib, ishtirokchilarning talablar yoki istaklar to'g'risidagi deklaratsiyalarda ifoda etilgan qarashlari, manfaatlari holati va yo'llanganligidan dalolat beradi. Turli qarashlar konfliktning protsessual modelida bayon etilgan qarama-qarshi axloqni shakllantiradi. Ustuvorlik qilish inson hamjamiyatlarida sotsial tabaqalashuv, ustuvor pozitsiyalar uchun kurashni ko'zda tutib, bu – odamlarning kuch ishlatishga asoslangan harakatlari tizimidir.

Konfliktlarning obykti, maqsadi, oqibatlarini hamda yo'nalganligiga ko'ra tasnifi

Obyektiga ko'ra konflikt turlari:

1) **iqtisodiy konfliktlar** – ular asosida iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvi yotib, bunda bir taraf manfaatlarini ikkinchi taraf manfaatlarini hisobiga qondiriladi. Ko'pincha jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi global inqirozlar asosida aynan iqtisodiy sabablar yotadi;

2) **sotsial-siyosiy konfliktlar** – ular asosida davlatning hokimiyat va sotsial munosabatlar, partiyalar va siyosiy uyushmalar sohasidagi siyosatiga doir ziddiyatlar yotadi. Ular davlatlararo va xalqaro to'qnashuvlar bilan yaqindan bog'liq bo'ladi;

3) **mafkuraviy konfliktlar** – ular asosida odamlarning jamiyat, davlat hayotining turli muammolariga bo'lgan qarashlaridagi ziddiyatlar yotadi. Ular makro darajada, shuningdek shaxs darajasidagi eng kichik birlashmalarda ham yuzaga kelishlari mumkin;

4) **sotsial-iqtisodiy konfliktlar** – ham shaxslar, ham sotsial guruhlar o'rtasida namoyon bo'lishi mumkin. Ular asosida o'zaro munosabatlar sohasidagi izdan chiqishlar yotadi. Yuzaga kelish sabablari ruhiy (psixologik) nomuvofiqlik, insonning boshqa inson tomonidan besabab qabul qilmaslik, yetakchilik, obro'-e'tibor, ta'sir doirasi kabilar uchun kurash bo'lishi mumkin;

5) **sotsial-maishiy konfliktlar** – guruhlar va alohida shaxslarning hayot, turmush to'g'risidagi turli tasavvurga ega ekanligi bilan bog'liq. Ulardan asosiysi – oilaviy munosabatlarning buzilishi. Konflikt sabablari – turmushdagi noxushliklar, ma'naviy-maishiy axloqsizlik, shuningdek jiddiy g'oyaviy ziddiyatlar.

Agar konfliktning asosi sifatida taraflarning ruhiy (psixik) holati hamda odamlarning shu holatga muvofiq konfliktli vaziyatdagi o'zini tutishi olinsa, bunday holda konfliktlarni ratsional va emotsional turlarga ajratish mumkin.

Maqsadi va oqibatlariga ko'ra konfliktlar quyidagi turlarga bo'linadi: pozitiv (ijobiy), negativ (salbiy), konstruktiv, destruktiv; cheklanib qolgan hamda shu tufayli konflikt keltirib chiqargan ehtiyojlar xarakteriga ko'ra ular moddiy, maqomli-rolli (стратический)

ролевой) va ma'naviy (ruhiy) bo'ladilar; yo'nalishiga ko'ra – gorizontal (hamkasblar va sh.k. o'rtasida), vertikal (boshliqlar va qo'l ostidagilar o'rtasida) va aralash (vertikal va aralash konfliktlar eng ko'p uchraydi); vaqt parametriga ko'ra – qisqa muddatli va davomli bo'lishi mumkin.

Konfliktlarning davomiyligi va keskinlik darajasiga ko'ra turlari:

1) jo'shqin va tez (jadal) kechadigan konfliktlar – qizg'in va emotsionalligi, konflikt taraflarining salbiy munosabatlarini o'ta keskin namoyon etishi bilan farqlanib, og'ir xulosa topishi va fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ular asosida ixtilofdagi kishilarning ruhiy holati yotadi;

2) keskin va davomli konfliktlar – ziddiyatlar ancha chuqur, barqaror, murosaga kelib bo'lmaydigan yoki murosaga kelish juda qiyin hollarda yuzaga keladi. Konfliktlashayotgan taraflar o'zining holati va harakatlarini nazorat qiladi. Hal bo'lishiga oid bashoratlar ham asosan noaniq;

3) yaxshi ifodalanmagan va sust kechadigan konfliktlar – keskin bo'lmagan ziddiyatlar uchun yoki konfliktning faqat bir tarafi faollik ko'rsatayotgan to'qnashuvlar uchun xos bo'lib, bunda ikkinchi taraf o'z pozitsiyasini aniq belgilashga intilmaydi yoki ixtilof jiddiylashuvidan qochadi;

4) yaxshi ifodalanmagan va jadal kechadigan konfliktlar – agar bunday konflikt muayyan epizoddagina ro'y bergan bo'lsa, bu holda maqbul bashorat (prognoz) haqida so'z borishi mumkin. Bu kabi konfliktlar zanjiri tizilib kelsa, bashorat nafaqat murakkab, balki noxush ham bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy hayotning tashkil etilganlik darajasiga ko'ra konflikt turlari:

- global;
- mintaqaviy;
- davlatlararo;
- elatlararo;
- sinflararo yoki jamiyatning turli tabaqalari o'rtasida;
- guruhlararo;
- partiyalararo;

■ shaxslararo siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy.

Agar, ishtirok etayotgan taraflar soni, ya'ni ishtirokchilar doirasi mezon sifatida olinsa, bu holda konfliktlar ikki, uch va ko'p taraffa ma bo'ladi deb aytish mumkin.

Mezon sifatida kuch bosimi darajasi olinganida, bunday hollarda konfliktlar qurolli bo'lmagan (bojxona urushlari) hamda haqiqatda turli ko'lamli urush harakatlarini olib borishdan iborat bo'lgan qurolli konfliktlarga bo'linadi.

Agar ziddiyatlar darajasi mezon deb olinsa, bunda konfliktlarning agressiv va murosalari (kompromiss) turlari mavjud deb aytish mumkin. Shuningdek, muhim va nomuhim masalalar yuzasidan ro'y beradigan konfliktlar farqlanadi.

Ammo barcha konfliktlarni yagona universal sxemaga keltirib, jamlab bo'lmaydi. Masalan, kurash ko'rinishidagi konfliktlarda yechim faqat tomonlardan birining g'alabasi bilan tugashi mumkin bo'lsa, munozaralar toifasidagi konfliktlarda umumiy murosa yo'li tanlanishi mumkin.

Konfliktlarning ular motivatsiyasini hamda vaziyatni subyektiv idrok etishni hisobga olgan holdagi va boshqa turlari

1) **soxta** – subyekt buning uchun real sabablar mavjud bo'lmasa ham vaziyatni konfliktli deb idrok etadi. Konflikt obyektiv asoslarga ega emas, u soxta tasavvurlar oqibatida yuzaga keladi;

2) **potensial** – konflikt yuzaga kelishi uchun real asoslar mavjud, ammo tomonlardan birontasi ham u yoki bu sabablar tufayli vaziyatni konfliktli sifatida idrok etmaganlar. Konflikt obyektiv sabablar tufayli paydo bo'lishi mumkin, ammo ma'lum vaqtga qadar yuzaga chiqmay turadi.

3) **haqiqiy** – taraflar o'rtasidagi real to'qnashuv. Bu manfaatlar to'qnashuvi obyektiv ravishda mavjud bo'lib, ishtirokchilar tomonidan idrok etiladi va oson o'zgaradigan omilga bog'liq bo'lmaydi. Haqiqiy konfliktni quyidagi kichik turlarga ajratish mumkin: konstruktiv – subyektlar o'rtasida real mavjud bo'lgan ziddiyatlar asosi-

da yuzaga kelgan; tasodifiy yoki shartli – anglashilmovchilik yoki voqealarning tasodifiy to‘g‘ri kelishi sababli yuzaga kelgan, ammo bu hol uning ishtirokchilari tomonidan idrok etilmaydi. U konfliktga real muqobil variantlar mavjudligi anglangan holda to‘xtatiladi; «ko‘chgan» konflikt – asl sabab yashirin bo‘lib, konflikt esa yolg‘on, soxta sababga ko‘ra yuzaga keladi; «manzilidan adashgan konflikt» – asl aybdori to‘qnashuv «sahnasi ortida» yashirinib, konfliktda esa unga aloqasi bo‘lmagan ishtirokchilar qatnashadilar.

Konfliktlar tasnifiga o‘zgacha yondashuvlar:

1) **tashqi** – subyektlar o‘rtasidagi konfrontatsiya; 2) **ichki** – subyekt motivlari, maqsad va vazifalari konfrontatsiyasi; 3) **tanlashga oid konflikt** – ikki bir-biriga teng maqsadlardan birini tanlash muammosi; 4) **kamroq darajada mushkullikni tanlash konflikti** – ikkisidan har biri ham bir xil darajada maqbul bo‘lmagan variantlardan birini tanlash muammosi; 5) **guruhli konflikt** – odamlar guruhlari o‘rtasidagi; 6) **kommunikativ konflikt** – og‘zaki (dahanaki) qarshilik natijasi; 7) **motivatsion konflikt** – ehtiyojlar va istaklar o‘rtasidagi; 8) **ochiq konflikt** – raqibga zarar yetkazish maqsadidagi kurash; 9) **yashirin konflikt** – ochiq-oydin, yaqqol bo‘lmagan qarama-qarshilik, zo‘riqqan o‘zaro munosabatlar; 10) **ehtiyojlar konflikti** – inson ziddiyatli, qarama-qarshi maqsadlarga erishishni istaydi; 11) **ehtiyojlar va ijtimoiy me‘yorlar o‘rtasida konflikt** – intiluvchan shaxsiy istak-motivlar hamda taqiqlovchi umumiy imperativlar o‘rtasida; 12) **maqom, statusga doir konflikt** – ishtirokchilarning maqomi va roli bilan belgilanadigan konfrontatsiya; 13) **maqsadga doir konflikt** – muayyan maqsadga erishish yuzasidan konflikt.

Nizolar kelib chiqishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: xalqaro; jamoaviy; oilaviy; hududiy.

Nizo ishtirokchilariga ko‘ra: millatlararo; shaxslararo; ichki shaxsiy; davlatlararo; ma‘lum guruhlar, tizimlar o‘rtasidagi konfliktlarga bo‘linadi.

- **millatlararo** – millatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar;
- **shaxslararo** – o‘z hayotiy faoliyatida qarama-qarshi maqsadlarni amalga oshirishga intiluvchi shaxslarni ifoda etadi;

• **ichki shaxsiy** – shaxsning kuchi bo‘yicha taxminan teng motivlari, qiziqishlari, ishqibozligi, manfaatlarining kurashini aks ettiruvchi;

• **davlatlararo** – davlatlar o‘rtasidagi tortishuvlar;

• **guruhlararo** – biri-biriga mos kelmaydigan maqsadlarni ko‘zlagan va ularni amalga oshirish yo‘lida bir-biriga to‘sqinlik qiluvchi ijtimoiy guruhlar nizo tomonlari sifatida ishtirok etishlari bilan ajralib turadi.

Pedagogik konfliktlar mavhumligiga qarab *ochiq* yoki *yopiq* ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Ochiq nizolar, odatda o‘qituvchi va o‘quvchining ko‘z oldida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri vujudga keladi. Ular to‘qnashish sodir bo‘lgunga qadar to‘liq yetilgan bo‘ladi. Bunday nizolar rahbariyat nazorati ostida turganligi sababli ta‘lim jarayoni uchun unchalik xavf tug‘dirmaydi va ularni boshqarish oson kechadi.

Yopiq nizolar o‘ta xavflidir. Bunday nizolarni asta-sekin, belgilangan fursatda *portlaydigan minaga* o‘xshatsa bo‘ladi. Agar nizo hali «*etilmagan*» yoki ularni boshqalar nigohidan yashirilsa, boshqacha qilib aytganda nizo o‘qituvchi va o‘quvchi «*ichida*» bo‘lsa, bilingki bu nihoyat xavfli va uni boshqarish juda qiyin.

Yopiq nizolar ko‘pincha *fitna*, *ig‘vo*, *hiyla-nayrang*, *fisq-fasod* shaklida rivojlanish oqibatida vujudga keladi. Ular oraga fitna solish, buzg‘unchilikka qaratilgan bo‘lib, *yolg‘on-yashiq*, *uydirma*, *bo‘xton* gaplar o‘quvchilar uchun asosiy qurol vazifasini bajaradi.

Ochiq nizolar ko‘pincha nizo, chaqiriq shaklida rivojlanishi oqibatida vujudga keladi. Ular ochiqdan-ochiq chaqiriq, tovush chiqarish, da‘vat etishda o‘z ifodasini topadi. Bunda o‘qituvchilar o‘zlariga qarama-qarshi bo‘lgan o‘quvchilarning manfaatini o‘zining manfaati tomon burishga harakat qiladi.

Xarakteriga qarab pedagogik nizolar obyektiv yoki subyektiv nizolarga bo‘linadi.

Obyektiv nizolarga ta‘limning rivojlanish jarayonida yuzaga chiqadigan real kamchiliklar va muammolar bilan bog‘liq nizolar kiradi. Bu nizolar amaliy nizolar bo‘lib, o‘quv jarayonini rivojlan-

tirish, ta'lim muassasasida normal «*ruhiy iqlim*»ni yaratish uchun xizmat qiladi.

Subyektiv nizolarga o'qituvchi va o'quvchilarning u yoki bu voqelikka bo'lgan shaxsiy fikrlarining turlichaligi oqibatida vujudga keladigan nizolar kiradi. Bu nizolar tabiati bo'yicha his-tuyg'uga, hissiyotga berilish, qiziqqonlik oqibatida yuzaga chiqadi. Odatda, bunday nizolar bir-birini ruhan ko'ra olmaydigan yoki bir-birini tushunmaydigan, yoxud tushunishni istamaydigan o'qituvchi va o'quvchilarning qarama-qarshi fikrlari oqibatida vujudga keladi.


Oqibat natijasiga qarab, pedagogik nizolar konstruktiv va destruktiv nizolarga bo'linadi.

Konstruktiv nizolar ta'lim muassasasida maqsadga muvofiq, o'zgartirishlar qilinishini, oqibatda esa nizo chiqadigan obyekt (sabab) ni bartaraf etishni nazarda tutadi. Agar nizo hech qanday asosga ega bo'lmasa, unda bu nizo destruktiv nizo deb yuritiladi. Bunday nizolar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni barbod etadi, so'ngra ta'lim jarayonini izdan chiqarish payida bo'ladi. Shuni nazarda tutish kerakki, har qanday konstruktiv nizo, agar o'z vaqtida oldi olinmasa, destruktiv nizoga aylanadi, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilar bir-biriga nisbatan nafratlarini namoyish etish, bo'lar-bo'lmasga tirnoq ostidan kir izlash, har bir so'zdan ilgak topish, atrofdagilarning qadr-qimmatini yerga urish, o'zining fikrini majburan uqtirish, yetilgan muammolarni hal qilishdan bosh tortish harakatida bo'ladilar.

Aksariyat hollarda konstruktiv nizolarning destruktiv nizolarga aylanishi nizoda o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy xislatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Pedagogik nizoning kelib chiqishi va to'qnashishning sodir bo'lishi bir butun jarayon bo'lib, bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi (1-chizma).

Bu jarayonning **birinchi bosqichida** pedagogik nizo chiqishi uchun vaziyat tug'iladi, ya'ni tomonlar manfaatlarining qarama-qarshiligi obyektiv ravishda namoyon bo'ladi. Ammo ochiqdan-ochiq to'qnashuv sodir bo'lmaydi. Bunday holat har ikkala tomon tashabbusi bilan yoki «*merosdan*» qolgan nizoning ta'siri ostida vujudga kelishi mumkin.



1-chizma. Pedagogik nizoning kelib chiqish va to'qnashish jarayoni modeli.

Ikkinchi bosqichda, nizoning qanday tugaganligi, uning qanday yechimga olib kelganligiga qaraganda kengroq tushuncha hosil bo'ladi. Nizo o'zaro tomonlar nizosi sifatida tugashi mumkin, ammo uning tugatilganligi nizo o'z yechimini topganligini har doim ham anglatavermaydi.

Masalan, ziddiyatli tomonlar, ko'pincha o'lim bilan tugaydi, deylik. Nizo nihoyasiga yetgan deb xulosalash mumkin. Ammo bu manfaatli tomonlar o'rtasidagi nizo va ziddiyat tugaganligini anglatmaydi. Nizo qolaveradi. Shu bois «konflikt yechimi» tushunchasi «konfliktning tugashi» tushunchasidan keng va aniq tushuncha hisoblanadi. Agar nizo tugashi tushunchasida har qanday nizoning har qanday tugashi, uning biron sabablarga ko'ra nihoyasiga yetishi tushunilsa, nizoning yechimi tushunchasi uning biron «ijobiy» natija bilan, har ikki tomonni qoniqtirgan yaxshi xulosalar bilan to'xtam va xulosa qilinganligini anglatadi. Nizoning yechimi uning haqiqiy tugatilganligi, ikki tomon o'rtasidagi nizo va inqirozning yechimi

topilganligi, o'zaro qarama-qarshilik yo'qotilganligi, tinchlik va totuvlik tamoyillari tomonlar o'rtasida o'rnatilganligini anglatadi.

Nizolar yechimi bo'yicha amaliyot va hayotiy tajriba har vaqt uning yechimi uchun har ikki tomon tarafidan juda katta sa'y-harakatlar va intilish zarurligini, tomonlarning yechim va to'xtamga kelishi oson kechmasligini ko'rsatadi. Chunki nizo «o'zidan-o'zi» hal bo'lib qoladigan voqelik emas. Uni hal qilish uchun birovni anglash, eshitish, adolatparvarlik mezonlariga rioya qilish, kompromisslarga kelish, umumiy va barchani qoniqtirgan yechimni topa bilish, jahldan voz kechish va boshqa bir qator amallarni bajarish lozim bo'ladi. Albatta, konfliktni mensimaslik, uni tan olmaslik (игнорировать), uni o'zicha talqin qilishga urinish bo'lishi mumkin. Ammo bu holda nizo stixiyali tarzda, ya'ni hech kimga bo'ysunmagan holda takomillashib, rivojlanib boradi, nizo keskinlashadi, yanada murakkablashadi, o'z domiga boshqa shaxslarni ham torta boshlaydi, kengayadi, tomonlarni, demakki manfaatlarni to'xtamga keltirish mumkin bo'lmay qoladi, manfaatli tomonlar ko'payadi va natijada butun sistemani, ya'ni nizodan oldingi vaziyatni batamom vayron qiladi.

Nizoning yechimiga kelish uchun muhim bo'lgan talablardan biri – tomonlarning uning yechimini qidirishga tayyorligi va ularning ixtiyoriy tarzda konflikt yechimini topishga astoydil bel bog'laganligi hisoblanadi. Agar tomonlar o'z hoxishiga ko'ra nizo yechimini topishga tayyor bo'lmasalar, nizo yechimini topib bo'lmaydi. Eng avvalo, nizoni yuzaga keltirgan obyektiv sabablarga to'xtalishi, uni yuzaga keltirgan sharoitlar aniq belgilanishi kerak. Shu nuqtayi nazardan har qanday nizo subyektiv omillar (insonlar, guruhlar, tizimlar) ham obyektiv omillardan tashkil topadi (nizoni keltirib chiqarishga sabab bo'lgan tashqi omillar). Nizo yechimini topish murakkab, uzoq muddatli, sabr va qanoatni talab etadigan, tomonlarning o'z ustida uzoq muddat ishlashini zaruriyatga aylantiradigan jarayon bo'lishi mumkin. Nizo yechimini topish – tomonlarning bir-birini anglashi va tushunishiga qaratilgan yo'ldir.

Shu nuqtayi nazardan, nizolar yechimini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

✓ tomonlarning ixtiyoriy kelishuviga ko'ra ziddiyatning yechimga kelishi va to'xtatilishi;

✓ nizoning simmetrik yechimining topilishi va to'xtatilishi (ikki taraf ham bir xilda yo yutib chiqadi, yo yutqizadi);

✓ nizoning asimmetrik hal bo'lishi (ziddiyatda faqat bir tomon yutib chiqadi);

✓ nizo boshqa bir katta nizoni keltirib chiqarishi;

✓ nizoning asta o'chib so'nishi va yo'qolib borishi.

Ko'rinib turibdiki, aslida nizoning yechimiga qarab turlarga bo'linishi, uning mavjud bo'lgan barcha xususiyatlarini o'zida jamlamaydi. Chunki nizoning yechimga kelishida juda ko'p nostandart holatlar mavjud bo'ladi.

1) nizoning tanglik holatga kelishi;

2) zo'ravonlik ko'rsatish;

3) nizoning tinchlik bilan tugatilishi.

Boshqacha qilib aytganda, nizoning tupikka kirib qolishi – «bi-ron muddatga uning yechimi to'xtatilganligini», zo'ravonlik asosida hal bo'lishi – tomonlarning bir-birini yo'q qilishga urinishini, nizoning tinchlik bilan hal etilishi esa uning konstruktiv, ya'ni aql bilan hal qilinishi imkoniyati ishga solinganligini anglatadi. Ammo har qanday vaziyatda ham konfliktning yechimi topilmaganligi uning mutlaqo yo'q bo'lib borayotganligini emas, balki nizoning ochiq formadan «yashiringan» formaga o'tib borayotganligini bildiradi. «Yashiringan» formadagi nizo esa qanday oqibatlariga olib kelishi tomonlarning qanday emotsional-psixologik xususiyatlarni o'zida to'plab borayotganligiga bog'liq bo'ladi. Agar bu holatlar ijobiy sensorlarga tayansa, nizo yechimini topish uchun sharoit mavjud bo'ladi, agar ular salbiy sensorlarni kuchaytirib yuborsa, bu holat nizodagi keskinlikning oshib borayotganligini anglatadi. Shunday qilib:

– nizoning yuzaga kelishi tabiiy hol hamda uning vujudga kelishidan qo'rqmaslik va o'zini yo'qotmaslik lozim;

– nizoning subyektiv va obyektiv kelib chiqish sabablarini muhokama qilish lozim;

– konflikt (nizo) tomonlar manfaatlarining to'qnashuvi hisoblanadi;

– konfliktning yechimini topish uchun ikki tomonning ixtiyoriy sa'y-harakatlar olib borishi va konflikt yechimini topishga rozi-rizoligi talab etiladi;

– har qanday konfliktning o'z yechimi mavjud, faqat uni topa bilish zarur;

– konfliktning yechimi topilmaganda, u «so'nishi», yo'q bo'lganday ko'rinishi mumkin, aslida konflikt o'z-o'zidan hal bo'lmaydi, balki keyinchalik boshqa kattaroq nizolarni keltirib chiqaradi;

– konflikt yechimini ijobiy topish uchun ma'lum bilim va malakalarni egallash kerak bo'ladi;

– konflikt yechimini topish jarayonida ziddiyat qarama-qarshi odamga, uning shaxsiyatiga emas, balki ikkala tomon o'zaro birlashib, o'z mulohazalarini mavjud muammoga qaratishi lozim bo'ladi;

– konfliktni insonlar emas, balki vaziyatlar va manfaatlar vujudga keltiradi;

– konfliktlar har doim mavjud bo'ladi, shuning uchun ham yosh o'qituvchi-pedagoglar ularni boshqarish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Nizolarni hal qilishga ikki xil yondashuv mavjud:

birinchisi – mavjud ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish;

ikkinchisi – nizolar rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi bilimlarini va ularni oldini olish, bartaraf qilish usullarini egallash (ancha qiyin yo'l, ammo ancha samarali, chunki turli nizolar barchasiga bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatish mumkin emas).

Pedagogika fanlari nomzodi V. M. Afonkova «nizolarga pedagogik aralashishning muvaffaqiyatliligi pedagogning qarashlariga bog'liq bo'ladi», deb ta'kidlaydi. Bunday qarashlar kamida to'rt jihatdan iborat bo'lishi mumkin:

■ **nizoga avtoritar aralashish yondashuvi** – pedagog nizo. Bu har doim ham yomon emasligi va u bilan kurashish kerakligiga ishonchi bo'lmagan holda uni bostirishga harakat qiladi;

■ **neytralitet yondashuv** – pedagog tarbiyalanuvchilari o'rtasida yuzaga keladigan to'qnashuvlarni sezmaslikka va aralashmaslikka harakat qiladi;

■ **nizodan qochish** – pedagog nizo. Bu yuzaga kelgan vaziyatdan qanday chiqishni bilmasligi sababli bolalar bilan uning muvaffaqiyatsiz tarbiyaviy ishlari ko'rsatkichi deb ishonadi;

■ **nizoga muqsadga muvofiq arulashish** – pedagog tarbiyalanuvchilari jamoasini yaxshi bilishiga, tegishli bilim va malakalariga tayanib nizo kelib chiqishi sabablarini tahlil qiladi, uni bostirish yoki ma'lum darajagacha rivojlanib borishi to'g'risida qaror qabul qiladi.

O'quv faoliyati sharoitlaridagi nizolar turli xildagi nizolar bo'ladi. Pedagogika sohasi shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirish barcha turlari to'plamidan iborat, uning mohiyati esa ijtimoiy tajribani o'rgatish va o'zlashtirish faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun aynan mana shu erda pedagog, o'quvchi va ota-onalarning ko'ngil xotirjamliklari uchun qulay ijtimoiy-psixologik sharoitlar yaratish zarur.

Nizoning rivojlanish bosqichlari:

1. Taxmin qiluvchi bosqich – manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sharoitlar bilan bog'liq.

2. Nizoning paydo bo'lish bosqichi – turli guruhlar yoki alohida insonlar manfaatlarining to'qnashuvi.

3. Nizoning yetilishi bosqichi – manfaatlar to'qnashuvi muqarrar bo'lib qoladi.

4. Nizoni anglab yetish bosqichi – janjallashuvchi tomonlar manfaatlari to'qnashuvini faqat sezibgina qolmay, balki anglab ham yeta boshlaydilar.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Konfliktga ta'rif bering va konflikt qanday ma'noni anglatadi?
2. Konfliktologiya fan sifatida nechanchi asrda shakllana boshlagan? Pedagogik konfliktologiya fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Pedagogik konfliktologiya fani qaysi fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanadi?
4. «Konflikt», «ijtimoiy konflikt», «pedagogik konflikt» tushunchalarini o'zaro tahlil qilib bering. Pedagogik konfliktga ta'rif bering va izohlang.

5. Har bir inson o'zini konfliktlardan muhofaza qilganman deb hisoblay oladimi va nima uchun?
6. Konfliktida buzg'unchilik va yaratuvchanlik mavjud bo'ladimi?
7. Konfliktning yechimini topishda qanday bilim va ko'nikmalar shakllangan bo'lmog'i lozim?
8. Konfliktologiya nazariyasining mashhur asoschilari kimlar?
9. Konflikt shakllarini bilasizmi? Ularni yoriting?
10. Qanday yondashuvlar asosida konfliktni hal etish ijobiy bosqichga o'tadi? Nizo va uning turlari qanday tavsiflanadi?
11. Nizo va nizoli vaziyatlarni tushuntiring. Nizoning rivojlanish bosqichlari va ularni yoritib bering.

Talabalarning mustaqil tayyorlanishi uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr-mulohazalaringiz asosida «Referat» yozing.

1 – «Konfliktologiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari va pedagogik o'ziga xosliklari». 2 – «Ta'lim jarayoni-ning mohiyatini o'zaro bog'langan uchta: o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi omillar asosida tashkil etish». 3 – «O'quv-tarbiya jarayonida muammoli pedagogik vaziyatli masalalarni yechishga qaratilgan keyslarning roli va ahamiyati».

II BOB. KONFLIKTLARNING YUZAGA KELISH OMILLARI

Tayanch iboralar: *konflikt, shaxs toifalari, konflikt signallari, kelishmovchilik, inqiroz, o'zaro tushunmaslik, hasadgo'ylik, g'ayirlik, ayrmakashlik, tanglik, tushunmovchilik, insidentlar, diskomfort, zo'ravonlik, tahdid, shantaj, parallel fikrlar, voqealarni taqqoslash, o'lchash, fikrni jamlash, konflikt yechimi, passiv holat, ongli munosabat, haqiqat, po'pisa, g'azablamoq, neytral sharoit, konstruktiv munosabat, konfliktogen, jizzakilik, hovliqmalik, bee'tiborilik, zo'ravonlik, mojaroga moyillik, janjal, qotillik, o'z emotsiyalarini boshqarish, ziddiyatli vaziyat, adolatparvarlik mezonlari, osoyishtalik, mas'uliyat, zo'ravonlik, manfaatlar to'qnashuvi, hissiy-emotsional to'qnashuv, emotsional portlash.*

2.1. Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari

Nizo (konflikt)lar inson hayotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lar ekan, konfliktlarni tan olmaslikning, ularni inobatga olmaslikning ilojisi yo'q. Faqat nizolarni boshqarish, ularning yechimini topishni o'rganish lozim.

Nizolar toifaologiyasi, ya'ni uning o'ziga xos toifalarga, ko'rinishlarga bo'linishi ancha murakkab hodisa hisoblanadi. Chunki har bir real konflikt faqat uning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlardan iborat. Shu nuqtayi nazardan, nizolarni o'xshash guruhlariga ajratib o'rganish biroz qiyinchilik keltirib chiqaradi. Ammo nizolarni biron to'xtamga yoki biron ijobiy natijaga keltirish usullari jihatidan ba'zi umumiy qoidalar va tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Nizodan pedagogik jarayonda mohirona foydalanish uchun, albat, nazariy bilimlarga ega bo'lish kerak, ya'ni uning dinamikasini va uning barcha tashkil qiluvchilarini yaxshi bilish kerak. Nizoli jarayon to'g'risida faqatgina hayotiy tasavvurlarga ega bo'lgan insonga nizodan foydalanish texnologiyasi to'g'risida gapirish foydasizdir.

Nizo – istaklari, qiziqishlari, qadriyatlarini yoki tushunchalari mos kelmasligi sababli yuzaga keladigan ikki yoki undan ortiq subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro aloqalar shakli subyektlar individ, guruh, o'z-o'zi bilan ichki nizolar holatlarida bo'ladi.

«Nizo» va «nizoli vaziyat» tushunchalarini ajratishni bilish kerak, ular o'rtasida katta farq bor.

Nizoli vaziyat – ijtimoiy subyektlar o'rtasida haqiqiy qarama-qarshilikni yuzaga keltiruvchi hodisadir. Asosiy belgisi – nizo predmeti yuzaga kelishi, lekin hozircha ochiq faol kurashning yo'qligidadir.

Ya'ni, to'qnashuv rivojlanishi jarayonida **nizodan oldin** har doim **nizoli vaziyat** yuzaga keladi, bu uning asosi hisoblanadi.

Nizolar hozirgi zamonning eng dolzarb ijtimoiy muammolaridan biri. Nima sababdan mehnat jamoalarida turli xil nizolar kelib chiqadi? Buning bir necha sabablari bor.

Demak, yuqoridagi holatlar ko'p hollarda quyidagi turdagi nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi:

- 1) ta'siming yo'nalishiga ko'ra: vertikal va gorizontal;
- 2) nizoni hal qilish usuliga ko'ra: antagonistik va kelishuvga olib keladigan nizolar – kompromiss;
- 3) namoyon bo'lish darajasiga ko'ra: ochiq, yashirin, potensial, asosli;
- 4) ishtirokchilar soniga ko'ra: ichki shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo;
- 5) kelib chiqish tabiatiga ko'ra: milliy, etnik, millatlararo, ishlab chiqarish, hissiy-emotsional.

Nizolarning yuzaga kelishida ikki xil: obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar mavjud.

Nizolarning yuzaga kelishida obyektiv shart-sharoitlarga:

- mehnat qilish uchun sharoitning yomonligi;
- xodimlar orasida majburiyat va vazifalarning noto'g'ri taqsimlanganligi;
- boshqaruv tizimidagi nomutanosibliklar;
- qo'yilgan vazifalarga inos professionallik xodimlarda kuzatilmamasligi;
- ishchi o'rinlarining yetishmasligi tufayli, ishlarning taqsimlanishidagi adolatsizlik;
- mehnatni tashkil etish va mehnatga haq to'lashda adolatsizlik holatlarining kuzatilishi kiradi.

Nizolarning yuzaga kelishida subyektiv shart-sharoitlarga:

- ishbilarmonlik munosabatlarida negativ yo'llarning ko'inishi;
- shaxslararo munosabatlarda shaxsga oid xususiyatlarning namoyon bo'lishi;
- muomalani tashkil etishda no'noqlik va savodsizlikning kuzaatilishi kiradi.

Har bir nizo alohida hodisa sifatida tahlil qilinadi, lekin ularning barchasi uchun xos bo'lgan ayrim qonuniyatlar borki, ularga, avvalo, uning bosqichlari yoki fazalari kiradi:

I. Nizo oldi bosqich – konfrontatsiya.

II. Nizoning o'zi – kompromiss yoki janjal.

III. Nizodan chiqish – muloqot yoki dissonans.

Birinchi bosqich – konfrontatsiya-konkret masala yuzasidan fikrlar yoki qarashlarda tafovut yoki qarama-qarshilik uchun shart-sharait paydo bo'ladi.

Ikkinchi bosqich – kompromiss yoki janjal, ya'ni har ikkala tomon o'z qarashlarini qarshi tomonnikidan afzal bilib, ochiqchasiga bir-birlarini ayblay boshlaydilar. Bunday nizoli holatlarda shaxsning qanday xulq-atvor xususiyatlarini namoyon etishiga qarab turli toifalar kuzatiladi.

Uchinchi bosqich – nizodan chiqish, ya'ni muloqot yoki dissonans (tovushlar uyg'unsizligi, hamohanglikning, uyg'unlikning yo'qligi yoki buzilishi: aksi konsonans (bir necha tovushlarning garmonik uyg'unligi; ohangdorligi).

Professorlardan F.M. Borodkin, N.M. Koryak hamda R.Z. Jumaev nizoli vaziyatlarda shaxs toifalari va xislatlari xususida o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida to'xtalib o'tganlar. Ularning g'oyalari asoslangan holda shaxs toifalarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Namoyishkorona toifadagi nizoli shaxs.
2. Rigid toifadagi nizoli shaxs.
3. Boshqarib bo'lmaydigan toifadagi nizoli shaxs.
4. Aniqlikni talab etadigan toifadagi nizoli shaxs.
5. Nizosiz toifadagi nizoli shaxs.
6. Maqsadga yo'naltirilgan toifadagi nizoli shaxs.
7. Hadikli-qo'rqqoq toifadagi nizoli shaxs.

8. Siklotimik toifadagi nizoli shaxs.
9. Giperfaol toifadagi nizoli shaxs.
10. Emotsional toifadagi nizoli shaxs.
11. O'ta ta'sirchan toifadagi nizoli shaxs.
12. Konform, moslashuvchi toifadagi nizoli shaxs.
13. «Tiqilib qoladigan» toifadagi nizoli shaxs.
14. Qo'zg'aluvchan toifadagi nizoli shaxs.

1. Namoyishkaronona toifadagi nizoli shaxs xislatlari: diqqat markazda bo'lishni istaydi; boshqalar ko'z oldida yaxshi ko'rinishni xohlaydi; uning boshqalarga yoki odamlarning unga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi; osongina yuzaki nizolarga berila oladi; turli vaziyatlarga osongina moslashadi; emotsional jihatdan faol bo'lib, aqlan ish ko'rmaydi; vaziyatga qarab ishini tashkil etadi va har doim ham amal qilmaydi; sistemali, og'ir ishlardan o'zini olib qochadi; nizolardan chekinmaydi, janjalli vaziyatlarda o'zini yomon his etmaydi; ko'pincha nizolarga sababchi bo'ladi, lekin o'zini unday hisoblamaydi.

2. Rigid toifadagi nizoli shaxs xislatlari: shubhaga beriluvchan; o'zini baholashi o'ta yuqori; doimo shaxsan tan olinishini talab etadi; vaziyat o'zgarishi va sharoitlarni inobatga olmaydi; to'g'ri va tushunmaydigan, ya'ni moslashmaydigan; qiyinchilik bilan atrofda-gilarning fikriga kiradi, boshqalarning fikriga u qadar qo'shilmaydi; boshqalar tomonidan unga e'tibor ko'rsatilishini majburiyatdek ko'radi; boshqalar tomonidan kelishmaslik yoki qo'shilmaslikni xafagarchilik bilan qabul qiladi; o'z harakatlariga nisbatan tanqidiy qaramaydi; nihoyatda arazchi, haqiqiy yoki arzimas nohaqliklarga ham ta'sirchanlikni namoyon etadi.

3. Boshqarib bo'lmaydigan toifadagi nizoli shaxs xislatlari: o'zini yetarli darajada nazorat qilolmaydi; xulqini aniq aytib bo'lmaydi;

– o'zini agressiv va nihoyatda zardalik bilan ko'rsatadi; aksariyat hollarda umumqabul etilgan ijtimoiy normalarga rioya etmaydi; yuqori darajada o'zini baholash xususiyatiga ega; o'z shaxsini ta'kidlanishini kutadi; omadsizliklar va xatolarda boshqalarni ayblashga moyil; o'z faoliyatini rejali yoki rejalarini hayotga ketma-ket-

lik bilan joriy eta olmaydi; o'z maqsadi va sharoitlarini moslashtirishga olish qobiliyati yetarli rivojlanmagan; o'tgan tajribadan kelajak uchun saboq chiqarmaydi.

4. Aniqlikni talab etadigan toifadagi nizoli shaxs xislatlari: ishga nihoyatda jiddiy yondashadi; o'ziga yuqori talab qo'yadi; atrofidagilarga yuqori talablar qo'yadiki, bu ularga nisbatan go'yoki ta'qibdek tuyuladi; yuqori darajada xavotirlanish xislatiga ega; hammasi narsaga e'tiborli; atrofidagilarning tanqidiy fikriga katta ahamiyat beradi; gohida do'stlari, tanishlari bilan munosabatlarni uzadiki, bu go'yoki uni xafa qilganlari oqibatidek tuyuladi; gohida o'zidan aziyat chekadi, xatolaridan qayg'uradi, hatto bu xatolariga nisbatan bosh og'riqlari, uyqusizlik sifatida javob qaytaradi; tashqi jihatdan hissiyotlarini oshkora etmaslikni ma'qul biladi; guruhdagi real o'zaro munosabatlarni yaxshi his etmaydi.

5. Nizosiz toifadagi nizoli shaxs xislatlari: fikrlari va qarashlarida beqarorlik mavjud; yengil ishonish xislatiga ega; ichki qararama-qarshi fikrlarga ega; harakatlarida bir qadar uyg'unlik yo'q; vaziyatlarda bir lahzalik yutuqlarga tayanadi; kelajakni, istiqbolni yetarli darajada ko'ra olmaydi; liderlarning va atrofidagilarning fikriga tobe; murosaga kelishga intiladi; yetarli darajada irodaga ega emas; o'z xatti-harakatlari oqibatlarini va boshqalarning harakatlari sabablarini chuqur o'ylamaydi.

6. Maqsadga yo'naltirilgan toifadagi nizoli shaxs xislatlari: nizoli vaqtda o'z maqsadlariga yetishish uchun omil sifatida qaraydi; nizolarni hal etishda faol tomon sifatida o'zini namoyon etadi; o'zaro munosabatlarda ta'sir ko'rsatishga moyil; nizolarda maqsadli harakat qiladi, tomonlarning holatini baholay oladi, turli holatlarni hisoblaydi; janjalli vaziyatlarda muomalaning samarali ta'sir etish usullarini qo'llay oladi.

Nizo yechimini topish murakkab, uzoq muddatli, sabr va qanoatni talab etadigan, tomonlarning o'z ustida uzoq muddat ishlashini zaruriyatga aylantiradigan jarayondir. Nizo yechimini topish – tomonlarning bir-birini anglashi va tushunishiga qaratilgan yo'ldir.

7. Hadikli-qo'rqqoq toifa: bunday odamlar orasida muntazam ravishda sotsial muhit tomonidan xavf paydo bo'lishi ehtimolini

o'ta yuqori baholaydigan individlar uchrab, ular ortiqcha sotsial kechinmalar, qo'rquv va hadiksirashga moyil bo'ladilar. Konfliktlarga kamdan-kam hollarda kirishib, ularda passiv rol o'ynaydilar.

8. Siklotimik toifa: bunday shaxslar kayfiyatning siklli ravishda bir ko'tarilib, bir tushib turishi xos bo'lib, bu ularni charchatib, ular axloqini esa oldindan bilib bo'lmaydigan, ziddiyatli va avantyuralarga xos ko'rinishga keltiradi.

9. Giperfaol toifa: xavotirli kechinmalar va baxt tuyg'usini o'ziga xos va o'ta kuchli kechirishi, kayfiyatining tez-tez o'zgarib turishi, turli hodisalarni ehtirosli qabul qilishi bilan ajralib turadi. Bu toifa vakillari o'ta serg'ayrat, mustaqil bo'lib, yetakchilik va avantyuralarga intiladilar, ammo ular mas'uliyatiga, zimmasiga yuklatilgan vazifalarga e'tiborsiz munosabatda bo'lishga moyil.

10. Emotsional toifa: bunday odamlar sezgir, ta'sirchan bo'ladilar. Kayfiyati o'ta chuqurligi, kechinma va his-tuyg'ularining o'ta nozikligi bilan farqlanib, ijtimoiy manfaatlari jamoatchilik hayotini ruhiy, ma'naviy jihatlariga katta e'tibor berishida namoyon bo'ladi.

11. O'ta ta'sirchan toifa: bu kabi vakillarga o'zgaruvchan kayfiyat, so'zamolik (ezmalik), tashqi hodisalarga ortiqcha chalg'ish, shuningdek altruizm (hojatbarorlik), birovlar g'amiga sherik bo'lish, yuksak badiiy did, artistlik mahorati, o'ta ta'sirchanlik, tez-tez tushkunlikka tushish xosdir.

12. Konform, moslashuvchan toifa: bunday shaxslar dilkash, kirishuvchan, gapdon, hatto ezma bo'ladilar. Ular o'z fikriga ega emas va mustaqil bo'lmaydilar. Bunday odamlar tartibsiz bo'lib, bo'ysunishni ma'qul ko'radilar, do'stlari bilan muloqotda va oilada yetakchilikni boshqalarga beradilar.

13. «Tiqilib qoladigan» toifa: ushbu toifadagi odamlar uchun kuchli emotsional kechinmalarning juda barqarorligi va o'ta qimmatli g'oyalarni shakllantirish, o'ziga ortiqcha baho berish kabilar xos. Ular xafagarchiliklarni unuta olmaydilar va o'z «dilozorlari» bilan «orani ochib» olishga intiladilar, ishda va oilada ular bilan til topishish ancha qiyin, turli fitnalarga moyillik ham kuzatiladi. Konfliktida ular ko'pincha faol taraf bo'lib, o'zlari uchun do'st va dush-

manlar doirasini aniq belgilab oladilar. Hamsuhbatlariga ularning har qanday ishda yuksak natijalarga erishishga intilishi, o'ziga nisbatan yuqori talablar qo'yishi va ularni namoyon eta olishi, adolat hissi, prinsipiialilik, doimiy, barqaror qarashlari yoqadi. Bu kabi shaxslarda atrofda odamlarga yoqmaydigan xislatlar ham anchagina: tez xafa bo'lish, shubhalilik, kek saqlash, rashkchilik, izzattalablik va hokazo.

14. Qo'zg'aluvchan toifa: odamlarga xos xususiyatlar – haddan ziyod ijtimoiy ta'sirchanlik, o'z ehtirolari, harakatlari va intilishlarini boshqara olmaslik bo'lib, bular oxir-oqibat ziddiyatlar va boshqalar bilan bo'ladigan muloqotdagi muammolarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi shaxs toifalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, nizoli vaziyatlarda o'z-o'zini tutishning quyidagi uslublari mavjud:

Konfliktli vaziyatda o'zini tutishning besh asosiy uslubini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) moslashuvchanlik, yon bosish;
- 2) o'zini chetga olish (chap berish);
- 3) qarama-qarshilik (ziddiyat);
- 4) hamkorlik;
- 5) kompromiss (murosa).

1. Moslashuvchanlik, yon bosish – individ harakatlari opponent bilan ijobiy munosabatlarini o'z manfaatlari hisobiga saqlab qolish yoki tiklashga qaratilgan. Bu yondashuv individ ulushi u qadar katta bo'lmagan yoki kelishmovchilik sababi individga nisbatan uning opponenti uchun ahamiyatliroq bo'lgan holatlarda qo'llanishi mumkin. Bunday xulq vaziyat u qadar muhim bo'lmagan, o'z manfaatlarini himoya qilishdan ko'ra opponent bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish dolzarb hamda individning g'alabaga bo'lgan imkoniyatlari, qo'lidagi kuch-imkoni kam bo'lgan vaziyatlarda qo'llanadi.

2. O'zini chetga olish (chap berish, qochish). Bunday axloqli individ o'z huquqlarini himoya qilishni, qarorni ishlab chiqish uchun hamkorlik qilishni istamagan, o'z pozitsiyasini bildirishdan bosh tortgan, bahsdan bo'yin tovlagan hollarda tanlanadi. Bu uslub qarorlar uchun mas'uliyatdan qochish konflikt yakuni individ uchun muhim bo'lmagan yoki vaziyat o'ta murakkab va konfliktning hal eti-

lishi ishtirokchilardan juda ko'p kuch talab etadigan yoki bo'lmasa, konfliktni o'z foydasiga hal qilish uchun uning kuchi, hokimiyati yetmagan hollarda ishlatilishi mumkin.

3. Qarama-qarshilik, raqobat. Individning o'z manfaatlari yo'lidagi faol kurashi, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun imkoni doirasidagi barcha vositalar: hokimiyat, majbur qilish, opponentlarga bosim ko'rsatishning boshqa vositalari, boshqa ishtirokchilarning o'ziga bog'liqligidan foydalanish kabilarni qo'llash bilan tavsiflanadi. Vaziyat individ tomonidan o'ta muhim, g'alaba qozonish yoki mag'lubiyatga uchrash masalasi sifatida ko'rib chiqilib, bu opponentlarga nisbatan qat'iy pozitsiyani va konfliktning qarshilik ko'rsatgan ishtirokchilariga nisbatan murosasiz antagonizmni ko'zda tutadi.

4. Hamkorlik. Individ o'zaro harakatlarga aloqador barcha ishtirokchilarni qoniqtiradigan yechimni izlashda faol qatnashishini, ammo bunda o'z manfaatlarini ham unutmashligini anglatadi. Oshkora fikr almashinish, konfliktidagi barcha ishtirokchilarning umumiy yechim ishlab chiqishdan manfaatdorligi nazarda tutiladi. Bu shakl barcha taraflarning ijobiy ishini hamda ishtirokini talab etadi. Bunday yondashuvda masala yoki yuzaga kelgan kelishmovchiliklar har tomonlama munozara qilinishi hamda barcha ishtirokchilar manfaatlariga rioya qilgan holda umumiy yechim ishlab chiqilishi ehtimoli mavjud.

5. Kompromiss (murosa). O'ziga xos oraliq holat egallab, ham faol, ham passiv ta'sir qilish shakllarini o'z ichiga oladi. U konfliktli o'zaro harakatlarni qisman hal qilib, bu holda ko'pgina o'zaro yon bosishlar amalga oshganiga qaramay, sabablar butkul bartaraf etilmagan bo'ladi. Bu kabi o'zini tutish uslubi opponentlar bir xil hokimiyatga, kuchga hamda bir-birini istisno etadigan manfaatlariga ega bo'lgan, ularning bundan ko'ra afzalroq yechim izlashga vaqti cheklangan bo'lib, ularni muayyan vaqtga qadar oraliq yechim ham qoniqtiradigan payt qo'llanadi.

Ba'zi hollarda konfrontatsiya oqilona, nazorat qilish mumkin bo'lgan me'yorlarda konfliktni hal qilish nuqtayi nazaridan moslashish, chap berish, hatto kompromiss (murosa)ga nisbatan ham

ko'proq natija bera oladi. Bu holda mag'lubiyat yangi konfliktlarni shakllantiradigan baza hamda konfliktli harakatlar hududi kengayishiga sabab bo'lmasligi muhim o'rin tutadi.

Konfliktlar mazmuni, ularning kelib chiqish sabablari, konfliktda qanday holatlar vujudga kelishi borasida avvalgi boblarda ma'lum bilimlarga ega bo'ldik. Biz eng zaruriy shart, ya'ni konfliktni o'z holiha tashlab qo'ymaslik kerakligini anglab yetdik. Ziddiyatga faol aralashish, uni boshqarish va uning yechimini hamkorlikda ishlab chiqish – konflikt yechimini topishga olib kelishini ko'rdik. Konflikt yechimi uchun zarur bo'lgan insoniy fazilatlar va ko'nikmalar haqida gapirdik. Ammo shu bilan birga, konflikt yechimini topish uchun *konfliktni boshqarishning* o'ziga xos usullarini ham egallash lozim. Konfliktlarni boshqarish haqida ma'lumotlarni bilish va ularni qo'llay olish ham sizning hayotingizda osoyishtalik olib kiradi. Konfliktologiyada konfliktlarni boshqarish usullari odamlarning xarakteri, o'zini tutishi, psixologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Endi konfliktlarni qanday boshqarish mumkinligini ko'rib chiqamiz. Konfliktlarni boshqarishning besh asosiy usuli mavjud. Odatda, konfliktlar nazariyasida bu usullar turli hayvonlar xatti-harakati asosida biron «jonivor»ning o'zini tutish xususiyatlariga nisbatan beriladi. Biz ishlab chiqilgan hamda konfliktologiya nazariyasida keng qo'llaniladigan konfliktlarni boshqarishning «jonivor» usullarini ko'rib chiqamiz¹.

Sizning vazifangiz – o'z xarakteringiz ta'kidlangan usullardan qaysi bir usulga ko'proq to'g'ri va mos kelishini aniqlashdan iborat. Ammo hayotda turli vaziyatlar bo'ladi, shuningdek insonning murakkab xarakterini faqat bir usulga bog'lab o'rganish to'g'ri emas. Ko'plab hollarda inson xarakteri to'g'ridan-to'g'ri faqat bir usulga monand bo'lmay, ba'zan usullar aralashmasiga ham teng kelishini

¹ Konfliktlarni boshqarish usullari quyidagi kitoblar asosida talqin qilindi. Qarang: Handling Conflicts. Conflicts: a positive approach. Participant's manual. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1997; WIN WIN. Based on the Fighting Fair model created by Fran Schmidt and Alice Friedman. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1998.

nazarda tutishga to'g'ri keladi. Shuningdek, insonning u yoki bu konflikt vaziyatlardagi o'zini tutishi o'sha vaziyatga ham o'ziga xos tarzda bog'liq bo'ladi. Demak, konfliktologiyada quyidagi konfliktlarni boshqarish usullari mavjud.

Moslashish va ko'nikish usuli – «QO'Y»;

«Siz nima desangiz ham, men siz bilan hamfikrman».

Moslashish va ko'nikish usulidagi odam o'zini har doim biron voqelikka moslashishga urinadi. Favqulodda holatlarda ham o'sha vaziyat va vaziyatni keltirib chiqargan insonlar bilan kelishish yo'lidan boradi. Siz boshqa odamga har doim o'z roziligingizni ko'rsatishga harakat qilasiz, chunki bu yo'l konfliktdan qochish, ochiqdan-ochiq qarshilik ko'rsatmaslik, undan o'zini chekkaga olish, konfliktda faol ishtirok etmaslik imkoniyatini yaratadi. Siz konfliktli vaziyatning o'zidan qo'rqasiz. Konfliktli vaziyat siz uchun – tinch va osuda hayot maromining buzilishi, yangi qarorlar qabul qilinishi, sizdan biror narsaning talab etilishidir. Shu bois siz aslida qarorlar qabul qilishdan cho'chiysiz va o'zingizni bu holatdan olib chiqib ketishga harakat qilasiz. Shu bois sizning ustingizdan hukm chiqarish holatlari keng kuzatiladi. Siz ularga qarshilik ko'rsatmaysiz, chunki konfliktai jiningiz suymaydi. «Siz haqsiz *mening* hovlimda *sizning* olma daraxtingizni o'tqazish g'irt ahmoqlik edi, chunki uning mevalaridan *mening* bolalarim huzur ko'radi». Siz uchun birovning jahlini chiqarishdan ko'ra o'lim afzalroq. Birovlarning siz haqingizdagi fikri, ularning jahlidan va qahridan havotirlanasiz. Shuning uchun aslida nimalarni o'ylayotganligingiz va qanday hislar sizni qiynayotganligini hech kimga ko'rsatmaysiz. Siz uchun eng muhimi soxta bo'lsa ham iliq munosabatlar, salom-alik va bas. Demak, hamma narsa joyida. Siz uchun atrofingizdagilar bilan iliq munosabatda bo'lishlik juda muhim bo'lib, ular sizga ziyon yetkazayotgan va adolatsiz qilayotgan bo'lsa ham chidayverasiz. Bu bilan zulmlar va nohaqliklarga chidamli munosabat orqali o'z hayotingizdagi konfliktlarning oldini olgan bo'lasiz. Siz faol bo'lmagan va oqar suv yo'nalishida suzish orqali konfliktlarni boshqarasiz, ziddiyatning mohiyatini umuman o'ylab ham ko'rmaysiz, balki

o'zingizga hissiy-emotsional og'irlikni olgan holda, konfliktni faol aralashmasdan yengib borasiz.

Usulning afzalliklari. «Qo'y» sifatida, siz boshqalar bilan tinch va do'stona munosabatlarni muntazam saqlab qolasiz. Chunki sizning hech kimga og'irligingiz tushmaydi. Hamma sizdan foydalanadi. Siz hamma narsaga chidaysiz. Birovlarga siz ko'proq e'tiborli bo'lasiz, shu bois birovlar sizga ehtiyoj sezadi. Sizning oldingizda ular o'z dardlari va munosabatlarini ochiq aytaveradi. Chunki sizdan zarar yo'q.

Usulning kamchiliklari. Sizning talablaringiz, his-tuyg'ularingiz juda kam e'tiborga olinadi, sizning ehtiyojlaringiz inobatga olinmaydi va juda kam bajo keltiriladi. Agar bu holatda sizga nisbatan adolatsizliklar ko'payib borsa, qalbingizda yashirin g'azab va nafarat kuchayib boradi, biroq sizning bu fazilatingizni qadrlaydigan insonlar atrofingizda bo'lsa, hayotingiz siz istagandek tinch va osuda o'taveradi. Ammo o'zingizning kuchsiz ekanligingizni har doim sezib turasiz.

«Bu mening ishim emas» usuli – «STRAUS»;

«Meni tinch qo'yinglar! Meni hech narsa qiziqfirmaydi!»

Siz konfliktning yechimini qidirish o'rniga undan qochasiz, ammo bu qochish «qo'y» usulidan farq qiladi. Agar «qo'y» usuli konflikt mavjudligini tan olsa, siz «konflikt – yo'q» deb turib olasiz. Ya'ni, siz umuman konfliktni tan olmaysiz, buning natijasida sizning emotsiyalaringiz zarar ko'rmaydi. Siz qaylardadir undan yashirinib yurasiz, muammo mavjudligini tan olgingiz kelmaydi. Konflikt kelib chiqqanligini va uni yechish lozimligini o'ylagingiz kelmaydi. Mashmashalardan qochasiz. «Ularni o'ylamasam, ular yo'q bo'ladi», deb o'ylaysiz. «Ko'y» yengilgan vaziyatda, siz umuman uning mavjudligini ham tan olgingiz kelmaydi. O'zingizni konflikt yechimi borasida o'ylashga, fikr qilishga majbur qila olmaysiz, bu haqida o'rtoqlashgingiz ham kelmaydi. Agar siz konflikt vaziyatga tushib qolsangiz, eng avvalgi reaksiyangiz – «bu mening ishim emas», deyishdir. O'zingizni hech narsa bilmagan, hech narsa ko'rmagan, hech narsa hal qila olmaydigan odam sifatida ko'rish

sizga qulayroq bo'ladi. Konflikt kelib chiqqan yerdan o'zingizni olib qochasiz, boshqa xonaga chiqib ketasiz yoki samovarga yo'l olasiz, suhbat mavzusini o'zgartirishga harakat qilasiz, konflikt yechimini qidirishni keyinga qoldirasiz yoki uni «umuman mavjud emas» deb hisoblaysiz. Bu fikringiz shunday qat'iy fikrga aylanadi-ki, boshqalarga ham «umuman hech narsa bo'lgani yo'q, boshimni qotirmanglar» tarzida muomala qilishni boshlaysiz. Shu bois agar boshqalar konflikt yechimini qidirib, uni hal etishga kirishsalar, siz uchun eng qulay vaziyat kelib chiqqan bo'ladi. Eng muhimi sizni bezovta qilishmasa bas. Hamma narsani sizsiz hal qilishaversin. Odatda sizning muammolaringizni boshqalar hal etishini ko'proq xush ko'rasiz.

Usulning afzalliklari. Siz hech qachon yoqalashish, mushtlashish, urush-janjal vaziyatiga tushmaysiz. Chunki har doim biron-bir ziddiyat vujudga kelayotgan joydan qochishga ulgurasiz. Xavfli vaziyatlardan o'zini saqlash va ziyonsiz chiqib keta olish juda yaxshi malaka hisoblanadi. Siz hech qachon to'qnashuvlar asosida kelib chiqadigan jismoniy zo'rlik bilan to'qnashmaysiz, o'zingizning salomatligingiz posboni hisoblanasiz.

Usulning kamchiliklari. O'zingizni kuchli va o'zini himoya qilishga qodir inson deb hisoblamaysiz. Siz strausdek har doim konfliktni ko'rganda boshingizni yerga tiqib olasiz. Siz hech qachon o'z muammolaringizni yechishga tayyor bo'lmaysiz, uning hal bo'lishi uchun yo'l-yo'riq qidirmaysiz. Va agar sizning muammolaringiz boshqalar tomonidan hal etilsa ham, bu yechim yuzaki, adolatsiz va omonat, ya'ni vaqtinchalik, o'tkinchi bo'lishi mumkinligini tushunsangiz ham ularga aralashmaysiz. Bu esa sizning manfaatlaringizga qarshi yechimlar va xulosalar bo'lishi ham mumkin. Umuman, muammolarni jiningiz suymaydi, siz ulardan qo'rqasiz, shu bois bu usulning eng yomon oqibati, o'z muammolaringizdan qutulish uchun boshqa zararli yo'llarga kirib ketish hollari kuzaatiladi, shu bois sizning narkotik va alkogolga ruju qo'yishingiz ehtimoli mavjud.

Agressiv usul – «AKULA» «Kim nima desinchi?!

Kim menga qarshi?! Qani o'zi zo'r bormi?!»

Sizning shoiringiz – doimo, har qanday vaziyatda ham faqat va faqat «g'olib» bo'lish. Konfliktli vaziyatda siz uchun g'olib chiqish muammoning hal bo'lishi, ya'ni konflikt yechimidan ko'ra afzalroqdir. Ayb sizdaligini bilsangiz ham «g'olib» chiqishga intilasiz. «G'olib» bo'lish uchun hech narsadan toymaysiz. Siz «g'olib» bo'lishlikni konflikt yechimidan, muammoning hal qilinishidan ko'ra yaxshi ko'rasiz va shuni rejalashtirib, harakat olib borasiz. Aslida, konflikt yechimi «to'g'ri» yo'l ekanligini bilmaysiz yoki unga ishonmaysiz. Har qanday boshqa bir odamni aybdor qilishga tayyorsiz va ko'pincha «kerak», «lozim», «zarur», «bo'lishi kerak» kabi so'zlarni ishlatasiz. Jahlingiz tez va tezda g'azablanasiz, qahringiz qattiq, jizzakilik siz uchun oddiy hol, sabr bilan birovni eshitishga qodir emassiz. Opponentingizning fikrlarini jim turib eshitishni unga bo'ysunish sifatida qabul qilasiz. Atrofingizdagi odamlar har qanday vaziyatda, albatta, «g'olib» chiqishingizni ko'rishlarini va sizning kuchingizni tan olishlarini istaysiz. Bunda adolat buzilishi sizni o'ylantirmaydi. Ko'p qizishasiz, boshqalarga bosim o'tkazasiz, hatto baqirishingiz ham mumkin. Haqiqatan ham siz ko'p hollarda g'oliblikni qo'lga kiritasiz va bu boshqalarning aziyat chekishi, manfaatlari buzilishi hisobiga sodir bo'ladi.

Usulning afzalliklari. Siz har doim o'z hissiyotlaringizni oshkora tutasiz, fikrlaringizni erkin bayon qila olasiz. Faol bo'lishni, mas'uliyatni o'zingizga olishni hamda tavakkalchilikni yoqtirasiz. Har doim salbiy his-tuyg'ularning ochiq chiqib ketish imkoniyati mavjudligi sizni emotsional krizislardan asraydi. Siz ichingizda ezilib, qiynalib yurmaysiz. Depressiya degan so'z – sizga yot.

Usulning kamchiliklari. Sizning faqat o'z manfaatlaringiz uchun harakat qilishingiz atrofingizdagi do'st va vafodor odamlarni chetda qoldirmaydi, sizning hissiy portlashlaringizdan ko'p yaqinlaringiz qiynaladi, boshqalar fikrini mensimasligingiz, faqat o'zingizga ishonishingiz odamlar bilan munosabatlaringizni qiyinlashtirib qo'yadi. Siz kamdan-kam boshqalar maslahatiga quloq solasiz va boshqalar bilan kelishib ishlaysiz. Ko'proq boshqalar siz

bilan kelishishi kerak bo'ladi. Muammo shundaki, sizdagi xislatlarning zo'ravonlikka o'tib ketishi juda oson. Siz zo'ravonlik qilish va uni o'tkazishdan tortinmaysiz. Zo'ravonlikni tabiiy hol sifatida qabul qilasiz. Zo'ravonlikning ko'payishi esa jinoyatga olib kelishi mumkin. Ammo siz bu to'g'rida o'ylamaysiz. Sizning har doim g'olib bo'lishingiz zaruriyatga, oddiy holga aylanib boradi. Sizning «g'olib»ligingiz boshqaning «mag'lubiyati» ekanligini o'ylamaysiz.

Kompromiss (kelishuvchanlik) usuli – «TULKI»

«Men siz uchun hamma narsaga tayyorman.

Men siz uchun foydali bo'la olamanmi?!»

Siz har bir konfliktida o'ziga xos yechim mavjudligini bilasiz. Ammo konflikt yechimi uchun ko'p vaqt va sa'y-harakat ishlatishni istamaysiz. Shu bois eng yengil va tezkor yechimni qidirasiz. Buning uchun xushomad, maqto'v, joningizni jabborga berish, riyokorlik, bi-rovlarga yoqish uchun harakat qilasiz. Sizning shioringiz – «avval orqaga bir qadam, keyin oldinga ikki qadam»dir. «Judayam jahlingiz chiqib ketdimi? Mayli, qo'ying, bu ishni o'zim qila qolaman». «Ha, men aybdorman, keling men yana bir boshdan harakat qilib ko'ray. Hamma aytganlaringizni tushundim. Siz buyurganday qilaman...». «Siz nima desangiz shu, sizdan o'tkir odam yo'q bu dunyoda, yerda ilon qimirlasa, siz bilasiz...». Kompromissga borishni siz o'zingizga uyat deb hisoblamaysiz, balki kompromissga bora olmaganlardan o'zingizni ustun qo'yasiz. Chunki kompromissga bora olmaslikni inson xarakteridagi qusur sanaysiz, bu siz uchun ayb. Siz har qanday vaziyatda kelishishga harakat qilasiz, kompromiss – sizning hayotiy ehtiyojingizdir. Bu holatda hech bir tomon yutqazmaydi, ammo hech bir tomon yutib ham chiqmaydi. Siz, ko'pincha o'z maqsadlaringizni ro'yobga chiqarish uchun qulay vaziyat qidirasiz va mana shu qulay vaziyatni kutasiz. Siz mayda «kichik» odam bo'lib, «katta» ishlar qilish mumkinligiga to'la ishonasiz va bu ish qo'lingizdan keladi ham. Bo'ysungandek ko'rinib, keyin hukmron bo'lish uchun kompromisslardan ustamonlik bilan foydalanasiz.

Usulning afzalliklari. Sizning xulq-atvoringiz moslashuvchan bo'lib, har qanday vaziyatda va holatda o'zingizni erkin his qila-

siz. Siz o'zingizga ishonasiz. Talab qilinsa, har doim chekina olasiz. Zarur vaqtda chekinish – o'z manfaatlarini saqlab qolish ekanligini bilasiz. Chekinishdan or qilmaysiz, bu – sizning yutug'ingizdir. Shu bois tezda boshqa odam bilan ikkalangiz uchun qoniqarli va manfaatli bo'lgan xulosalarga kelishingiz mumkin. Muzokaralarda sizdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud. Sizdagi kelishuv va kompromissga borish qobiliyati konfliktli vaziyatni, qisqa muddatga bo'lsa ham yechimga olib kelishi mumkin. Kompromissga bora oladigan odam ko'pchilikda ishonch uyg'otadi. Ishonch esa konflikt yechimining zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Usulning kamchiliklari. Sizni adolatli yechimdan ko'ra, ko'proq tezkor yechim qiziqtiradi. Shu bois sizning yechimingiz adolatsiz va vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Siz shoshilasiz, shu sabab har doim ham konflikt yechimi uchun mavjud hamma yo'llarni qidirib topishga ulgurmayasiz. Konflikt yechimi siz aralashganda vaqtinchalik bo'lib, keyin yana boshidan rivojlanib ketish ehtimoli mavjud. Sizdagi qobiyaliyatga ishonib qolib, konfliktdagi bosh muammo – muammoligicha qolib ketishi mumkin.

Hamkorlik usuli – «BOYO'G'LI»

«Men hamkorlikka doim tayyorman!»

Siz o'z xarakteringiz, bilimingiz va o'zingizni tutishingizda doimo hamkor rolini o'ynashga tayyor odamsiz. Siz hamkorlik uchun ochiq va hozir inson hisoblanasiz. Shu bois konflikt vaziyatda sizning butun diqqat-e'tiboringiz konflikt yechimini topishga qaratilgan. Siz hech kimni qoramaysiz, hech kimni ayblamaysiz. Siz boshqalarning so'zlariga quloq tutasiz hamda boshqalarning his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini ham e'tiborga olasiz. Siz o'z emotsiyalaringiz va tuyg'ularingiz haqida tinch, osuda, hissiyotsiz gapira olasiz. O'z hissiyotlaringizni to'la nazorat qila olasiz. Sizning ovozingiz, mimikan-giz, nutqingiz, ochiq qalbingiz, samimiyligingiz – hammasi konflikt yechimini topishga qaratiladi. Siz konflikt yechimiga qaratilgan turli fikr va yo'llarni taklif etasiz, siz har ikki tomon uchun ham adolatli yechim topishga harakat qilasiz. Har ikkala tomonning manfaatlarini hisobga olish, ularning ikkalasi ham «g'olib» bo'la olishi, qoni-

qish hosil qilishi siz uchun muhim. Siz umumiy ikkiyoqlama foydali hukm chiqarish uchun harakat qilasiz. Boshqalar bilan hamkorlikda har biringizni qanoatlantiruvchi qarorlarning bir necha variantlarini ishlab chiqa olasiz. Agar konflikt nazoratingizdan chiqib ketganligi hamda uni to'laqonli ravishda o'zingiz hal qilishga imkoniyatingiz yetmasligini his qilsangiz yoki konfliktning zo'ravonlikka o'tib ketayotganligini anglasangiz, siz boshqalardan, ya'ni uchinchi bir tomondan yordam so'rashga doimo tayyor turasiz. Sizning qaroringiz kelishuvchilik, kompromiss va norozilikka rozilik elementlarini qamrab oladi. Siz konfliktlarni to'la yechimga olib kelishga qodirsiz.

Usulning afzalliklari. Odatda sizning ko'p qarorlaringiz adolatli bo'ladi va ular uzoq muddat amal qiladi. Sizning boshqalar bilan munosabatlaringiz ishonch asosiga quriladi. Atrofingizda odamlar, do'stlar, og'ayni-birodarlar, dugonalar ko'p bo'ladi. Do'stlaringiz o'z his-tuyg'ulari va sirlarini sizga aytishga ishonadilar. Siz boshqalarning qadr-qimmati va nafsoniyatini qadrlaysiz hamda toptalgan his-tuyg'ularini e'zozlaysiz. Kerak bo'lganida siz uchun hamma yordamga tayyor turadi. Sizning xarakteringizda anglangan bosiqlik, mushohadago'ylik, mulohazalik kuchli bo'ladi. Sizning qarorlaringizga kattalar ham, kichiklar ham bo'ysunadi. Siz o'zingizga mas'uliyat yuklay olasiz va adolatparvarlik posboni bo'lib umr kechirasiz.

Usulning kamchiliklari. Real hayotda «boyo'g'li» bo'lish oson emas. U odamga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Doimo boshqalar dard-u hasrati bilan yurishga to'g'ri keladi. Shu bois hech kim «boyo'g'li» bo'lish oson deb hisoblamaydi. «Boyog'li» bo'lish odamdan ichki madaniyat, qadr-qimmatni e'zozlash, bilim va malaka, vaqt, mas'uliyat, jasorat va o'ziga ishonch talab etadi. Mazkur xislatlarni o'zida tarbiyalash esa oson vazifa emas. Shu bilan birga, mana shu qobiliyatni ishlata bilish ham osonlik bilan kechmaydi. Adolat posboni bo'lishingiz hammaga ham yoqavermaydi, sizga qarshi bo'lganlar ham mavjud bo'ladi.

Shunday qilib, konfliktlarni boshqarish usullari mavjud bo'lib, har bir inson o'z xarakteriga oid usulni qo'llaydi. Konfliktlarni boshqarish usullarini bilish esa insonga o'zini yaxshi anglashi va o'z qa-

damlarini tahlil qila olishi uchun yordam beradi va ko'maklashadi. Har bir usul afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Shu bois afzalliklarni kuchaytirish va kamchiliklardan o'z xatti-harakatlarini tozalash ziddiyatli vaziyatlarda nizolarning oldini olishga imkon yaratadi.

Konfliktlarni boshqarish usullari insondan o'ziga xos malakalarni talab qiladi va aslida konfliktlarni boshqarish oson ish emas. Ammo konfliktlarni boshqarishga o'rgangan inson har doim o'z hayotini, atrofida gilar hayotini muammolardan tozalab, ularning to'g'ri, adolatli va osuda yashashlari uchun muqobil shart-sharoitlar vujudga keltira oladi.

2.2. Konflikt signallari

Konflikt signallari konfliktning to'la namoyon bo'lishidan oldin tomonlar o'rtasida odatdagi to'g'ri munosabatlar o'rtasida kelishmovchilik, inqiroz, o'zaro tushunmaslik, hasadgo'ylik (g'ayirlik), ayirmakashlik vujudga kelayotganligini namoyon etadi. Konflikt signallariga bee'tiborlik uning kelgusida rivojlanib ketishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois konflikt signallarini bilish va ularga e'tiborli munosabat talab qilinadi. Konflikt signallariga *inqiroz, tomonlar orasidagi tanglik, tushunmovchilik, hasadgo'ylik (g'ayirlik), insidentlar, diskomfort* kiradi. Ularning mazmunini tushunish, ularga nisbatan mutanosib munosabat odatda konfliktning erta anglanishi, inqirozning oldi olinishi va uning hal etilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Inqiroz. Tomonlar orasidagi ma'lum ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy inqiroz darrov bilinadi. Agar biron kishi o'zining do'sti, hamkori yoki tanishi bilan o'z munosabatlarini birdaniga va sababsiz uzib qo'ysa, u bilan gaplashishidan o'zini saqlasa, xafa bo'lib yursa, uni turli qarama-qarshi fikrlar qiynasa – bu konfliktdagi inqirozning vujudga kelganligiga ishoradir. Bu holatlar inqiroz yoki hal etilmagan o'ziga xos konflikt belgilari hisoblanadi. Shu bilan birga, boshqa tomonga nisbatan ishlatilgan zo'ravonlik, tahdid, shantaj kabilar ham inqiroz vaziyatining mavjudligini ko'rsatadi. Juda qattiq bahs yuritish, bahsda tomonlarning bir-birini ayamas-

ligi, o'zaro tahdidlarning qo'llanilishi ham inqirozli vaziyatning ko'rinishlari hisoblanadi. Inqirozni ko'rsatuvchi yorqin belgilardan biri kishi o'z hissiyotlarini ushlab tura olmasligi, o'z hissiyotlari va tuyg'ulariga erk berishi, so'kishish, yomon so'zlar ishlatish, bironi tahqirlash kabilardir. Odam bu vaziyatda o'z emotsiyalari ichiga kirib ketib, fikrlarida qarshi tomonni «u yoki bu ishni qilishga» jazm ham qiladi. Bunday vaziyatlarda tezda inqirozning mavjud ekanligini tan olish, o'zini emotsional tinchlantirish, inqirozli vaziyatni vujudga keltirgan sabablarni tahlil qilish, o'zini muzokaralarga hozirlash, qarshi tomon bilan tinch muloqotga o'tish darkor. Agar bu ish qilinmasa, haqiqatan ham kuchli konflikt yuzaga kelishi aniq.

Tomonlar orasidagi tang holat. Konfliktning vujudga kelayotganligini ko'rsatuvchi yana bir signal. Tomonlar orasida kichkina nizoning kelib chiqishi ham biz bilan emotsional to'qnashgan odam haqidagi bizning fikrimizga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bizga qarshi bo'lgan odamning «yomon» ekanligiga darrov bir necha ko'rsatkichlar topila boshlaydi. Agar biz o'zimizni to'xtatmasak, bu «yomon»lar soat sayin ko'payib boradi. Uning barcha so'zlari, harakatlari va amallarini biz mikroskop ostida tahlil qila boshlaymiz, ko'p narsalarni «qora» bo'yoqda ko'rishga urinamiz. Ko'proq asl holatni emas, balki mana shu ongimizda vujudga kelgan hamda o'zimiz qo'rishga sa'y-harakat qilgan odamni tahlil qilishga o'tamiz. Shu bois bu odamga nisbatan bizning muomalamiz salbiy tomonga o'zgaradi. Orada emotsional tanglik vujudga keladi. Biz o'z emotsiyalarimiz va xulosalarimizga ishonib boraveramiz, ularning «sun'iy» o'z tomonimizdan yaratilganligi va yasalganligini tan olgimiz kelmaydi. Tomonlar orasidagi tanglik biron sabab kuta boshlaydi. Bu nihoyat darajada qurigan o'tlarning kichik bir sababdan alanga bo'lib yonishiga o'xshaydi. Chunki bizning emotsiyalarimiz tashqariga chiqishni, uning «adabini» berib qo'yishni, ongimizda shakllangan «yomon» odamga uning qanday «yomon»ligini ko'rsatib qo'yishni biz juda istaymiz. Bizga mulohazalik, bosiqlik va oddiy haqiqatni tan olmaslik halaqit beradi. Biz tang ahvolga adekvat munosabat bildirsa olmaymiz.

Masalan, bunday holatlarni dars jarayonida kuzatish mumkin, juda ko'p hollarda o'qituvchi dars jarayonini boshlashdan oldin guruh sardoriga davomatni aniqlashni so'raydi. Bu holat bir necha bor takrorlanadi. Chunki o'qituvchi guruh sardorining faoliyatiga asoslanib ishonchi baland edi. Kunlardan bir kuni o'qituvchi davomatni guruh sardoridan qabul qilib olgan vaqtda o'quv mashg'uloti yuzasidan A. Bahriddinovni doskaga chiqib javob berishini aytdi, lekin A. Bahriddinov darsga umuman kelmaganligi ayon bo'ldi. O'qituvchining guruh sardoriga bo'lgan ishonchi bir vaqtning o'zida yo'qoldi va guruh sardori tang holatda o'rnidan turib kechirim so'radi.

Inson har qanday vaziyatda o'z emotsiyalarini tartibda ushlashi, ularga erk bermasligi, tarixiy vaziyatni mulohazalik bilan tahdid qila olishi tang vaziyatlarning konfliktga aylanmasligi asos hisoblanadi.

Tushunmovchilik. Ba'zan tomonlar orasida biron hodisa yoki ahvol to'g'risidagi noto'g'ri axborot tufayli tushunmovchilik vaziyati vujudga keladi. Masalan, yosh oila. Kelin institut aspiranturasida o'qiydi. U institut oldidagi bekatda avtobus kutib turganida ilmiy rahbari kelib qoladi. Ular biroz suhbatlashishadi. Aynan shu vaqtda, yosh kelinning boshqa yigit bilan gaplashib turganini qaynonasining singlisi ko'rib qoladi. U darrov axborotni opasiga, opa esa eshitganlarini o'g'liga bo'rttirib yetkazadi. Kuyov vaziyatni so'ramay, aniqlik kiritmay turib kelanga zo'ravonlik bilan muomala qiladi. «Institutda seni yigiting bor ekan!» Hech narsani tushunmagan kelin o'zini oqlashga o'tadi. Yigit xotiniga qo'l ko'taradi. Aslida, aynan tushunmovchilikning oqibatida yosh oilada juda katta konfliktli vaziyat yuzaga keladi. Uning oqibatlari turlicha bo'lishi mumkin. Ammo kelinning ko'nglida «unga qo'l ko'tarilganligi», uning «beyb» ekanligi hech qachon o'chmaydi. Agar kelinning haqiqatan boshqa yigiti bo'lganida ham, bu axborot kelinni urish uchun ruxsat va ijozat bo'la olmaydi. Ayol kishini, umuman, kaltaklab bo'lmaydi. Urish – bu zo'ravonlikdir. Zo'ravonlik esa, shu jumladan oiladagi zo'ravonlik, dunyoviy davlat qonunchiligi tomonidan ham, diniy, ya'ni shariat qonunchiligi tomonidan ham qoralanadi va jazolanadi.

Mana shu holat seminarda muhokamaga qo'yilganda, ko'pchilik kelinni ayblashga urindi. «Erga tegdimi, o'ylab ish qilishi kerak.

Ayb kelinda, nima qiladi ko'chada gaplashib, salom bersin-da, o'tib ketaversin... Ustozi bo'lsa ham ko'chada emas, balki binoning ichida, hech kimning ko'zi tushmaydigan joyda gaplashsin. Ustozi ham g'irt ahmoq odam ekan. Nima qiladi yoshgina qizga rahbarlik qilib. Yigitlar qo'rib qolibdimi?! Mana, ustozini deb, yosh oila buzilib ket-yapti. Kelin ham ahmoq, er degan uradi-da. Shuni ham doston qilib, darrov hammaga yoyish kerakmidi?! Eri yaxshi ko'rarkan, rashk qillar ekan, shuning uchun uradi-da...».

Achinarli hol shundaki, ko'pchilik seminar ishtirokchilari, ayol erining hukmiga berilgan qul emasligi, ayolning o'z huquqlari mavjudligi, aspiranturada o'qish uning insoniy huquqlaridan biri ekanligi, bilim olish faqat binoning ichida bo'lsin degan qonunning mavjud emasligi, er kishi o'z xotinini kaltaklashi mumkin emasligi, umuman, axborotning to'g'riligini aniqlamasdan turib, hukm chiqarib bo'lmasligi, xotin, ya'ni o'ziga eng yaqin bo'lgan insonni eshitish va u bilan tinch va osuda suhbat qurish lozimligini aytishmadi. Mana shu hayotiy voqea ajrim bilan yakun topdi. Agar tomonlar konfliktlar yechimi bo'yicha bilim va malakalarga ega bo'lganida edi, ular o'zlarini ancha bosiqlik va mulohazalik bilan tutgan bo'lardilar. Doimo har qanday axborotni o'ylab, tahlil qilib, so'ng o'ziga singdirish lozim.

Hasadgo'ylik. Yunon faylasufi Demokrit shunday deb ta'kidlaydi: «Hasad – kishilar orasida janjalni boshlab beradi». Hasadgo'ylik ham konflikt signallaridan biri bo'lib, bu shunday tuyg'uki, u kimdandir, nimadandir norozi bo'lish, o'zganing yutug'ini ko'rolmaslik, (haqiqatda shunday yoki tasavvurida bo'lishi mumkin) o'zida bo'lmagan holda o'zgaga hasadgo'ylik qilishida namoyon bo'ladi. O'zgalar yutug'i va muvaffaqiyatlariga nisbatan shubhaga borish, qizg'anish holatlari kuzatiladi. Umuman olganda, kichik yoshdan boshlab bolalarda qizg'anish va hasad hissi rivojlana boshlaydi. Bolaga ukasi yoki singlisiga unga nisbatan yaxshiroq o'yinchoq sovg'a qilishgani yoqmasligi, har bir o'yinda u yutib chiqishni xohlashi, har qanday yo'llar bilan birinchi bo'lishga intilishi, agar haqqoniy tarzda bu ishni amalga oshirib bo'lmasa, makkorlik (aldov) yo'li bilan bunga erishish mumkinligi kuzatiladi.

Bola katta bo'lgan sari bu holatdan qutilishga harakat qila boshlaydi, hech bo'lmaganda uni bosib bora boshlaydi. Hasadgo'ylik qanchalik insonni ichiga joylasha borgan sari norozilikni, tajjovuzkorlikni kuchaytirib boradi. Hatto juda arziyas bo'lib ko'ringan sabab ham kuchli agressivlikni chaqirishi mumkin bo'ladi. Uning ruhiyati doimiy taranglikda bo'ladi va bu vegetativ asab tizimini pasaytiradi, sog'lig'iga ta'sir qiladi. Aynan mana shu yomonlik, mehrsizlik hissi psixosomatik buzilishlarga, ya'ni yurak-qon tomir kasalliklarini paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. 70-yillarning o'rtalarida o'tkazilgan tadqiqotlarda g'arazlik, ichiqoralik hissi kuchli bo'lganlarda yurak-qon tomir kasalliklari ko'p uchrashi aniqlangan.

Bunday xavfning asosiy sababchisi «g'azab»dir. Uning tizimli ravishda paydo bo'lishi arteriya tomirlarining charchashiga, immun tizimini izdan chiqishiga olib keladi. Lekin bu bilan har qanday g'azab organizmni izdan chiqarar ekan, deb «achchiqlanib bo'lmaydi» degani emas. Ayrim hollarda g'azab foydali hamdir. Qisqa muddatli stress adrenalini moddasini chiqishiga, u esa immun tizimi faoliyatining oshishiga yordam beradi. Lekin har qanday g'azab o'z vaqtida paydo bo'lib, yana o'z vaqtida bartaraf bo'lgani organizm uchun yaxshidir. Boshqalarning yutuqlari-yu, ustunliklaridan qanchalik g'azabga minib, jahl qiladigan bo'lsak, uzoq vaqt stress holatida bo'lishimiz, o'z muammolarimizga o'ralashib qolishimiz, chiqishga yo'l topa olmay qiyin holatga tushishimiz va organizmda krizis garmoni kortizolni ko'plab ishlab chiqishiga sababchi bo'ladi. Bu garmonning ko'p chiqishi immun hujayralarning hosil bo'lishini pasaytiradi va organizmda viruslar, bakteriyalarning aylanib yurishiga olib keladi. Ichki a'zolar faoliyati asab tizimi va garmonlar tomonidan boshqariladi. Masalan, adrenalini garmoni organizmda infeksiyaga qarshi kurashuvchi «o'lim hujayralari» faoliyatini oshiradi. Tadqiqotlar natijasida bir odamning qoniga adrenalini yuboriladi va unga konfet beriladi, natijada «o'lim hujayralari» faolligi oshadi. Bir qancha vaqt o'tgandan so'ng adrenalini o'rniga osh tuzi va konfet beriladi, tashqaridan adrenalini kiritilmasa ham «o'lim hujayralari» kurashish uchun tayyor ekanligi seziladi. Bundan kelib chiqadiki, miya organizmi konfet qabul qilingandan immun tizimini aktivlash uchun

buyruq berar ekan. Bu narsa aktyorlar faoliyatida ko'zga tashlanadi. Agar ular o'z rollari orqali quvonchli holatga, ko'tarinki kayfiyatga, baxtiyorlik hissini his qilishsa ularda immun tizimi kuchayishi kuzatiladi. Agar aksincha qarilik rolini berishsa, depressiv holatda, kasal odamni erta-indin o'lish kerak bo'lgan holatni ifodalash talab etilsa, himoya hujayralarining faoliyati pasayishi kuzatiladi.

Hasadgo'ylikning destruktiv ta'siri bilan qanday kurashish kerak?

Eng oddiy retsept – bu shu holat bilan bog'liq stressni e'tiborga olmaslikdir, ya'ni hasadgo'ylik hissi paydo bo'lsa uni bo'lmagan deb hisoblash kerak. Ma'lum ma'noda bu yordam beradi. Lekin uni bo'lmagan deb qarash uni butunlay yo'qolishiga olib kelmaydi, balki uni chuqurroq joylashishiga va bir kun kelib portlashiga olib keladi. Mana shu portlash ro'y bermasligi uchun har bir shaxs o'zidagi hasadgo'ylik hissini ongli ravishda yo'qotishi, chiqarib tashlashi kerak. Mashhurlarning biri shunday degan: «Men yaqinlarimga yaxshilik xohlamaslikda emas, balki men ulardagi narsalarni xohlashimdadir». Agar sen o'zingga ishonsang, nima xalaqit berayotgani, o'sha insondek bo'lishing uchun qobiliyatli bo'lish kerakligi, lekin buning uchun aynan uning yutuqlarini takrorlash shart emasligi, aksincha boshqa yo'llarini ham izlab topish mumkin bo'ladi. To'g'ri bo'lgan yo'l har doim ham yuqori cho'qqiga chiqishni kafolatlamaydi, hayotda hamma narsa ham pul, obro', amal bilan o'lchanmaydi. Undan qiziqroq, foydaliroq narsalar borki ular odamni yashashga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Afsuski, ko'pchilik buni kech tushunib yetadi, o'zganing narsasi qanchalik qimmatli, buyuk bo'lmasin haqiqiy quvonch, baxt keltirmaydi va hamisha o'zganiki bo'lib qolaveradi.

Har qanday dinda hasadgo'ylik katta gunohdir. Pedagog-psixologlar fikriga ko'ra, hasadgo'ylik ma'lumotiga yoki ijtimoiy mavqeyiga qarab bo'lmasdan har bir shaxsning o'ziga xosdir. Hasadgo'y inson, birinchi navbatda, o'zining tanasini va qalbini yemira boshlaydi. Bu har bir temperament turlarida turlicha ko'rinishda bo'ladi. Xoleriklarda tajovuzkorlik belgilari bilan, o'zgacha ziyon yetkazish tomirlar spazmi, taxikardiya, «asabiylik» gipertoniyasi bilan birga kechadi.

Milanxoliklarda esa mayda-chuyda qing'irliklar bilan chetdan turib, begona qo'llar yordamida ziyon yetkazishga harakat qiladi.

Sanvinklarda boshqalarga nisbatan hasadgo'ylik kam kuzatiladi. Lekin shunday bo'lsa-da, agar ularda bu holat kuzatiladigan bo'lsa unda ular aniq maqsadga yo'naltirilgan katta ziyon yetkazishlari mumkin. Bundan tashqari, hasad ularning organizmini, yurak-qon tomir tizimi va immunitetini izdan chiqaradi.

Flegmatiklar haqiqiy hasadni his qilmaydilar, ular uchun boshqalar muvaffaqiyatdan biroz norozilik, ta'sirlanish kuzatilishi mumkin. Ular lekin o'zga ziyon yetkazmaydilar.

«Hasadgo'y odam dushmaniga qilgandek, o'z-o'ziga zarar yetkazadi». Demokrit hasadni ikki turga bo'ladi: oq va qora. Oq hasadni faqat jismonan va ma'nan baquvvat, irodasi mustahkam kishilar his qilishi mumkin. Ulardagi xohishning kuchliligi yonidagidan o'mak olib intilishi, harakat qilishi – bu oq hasaddir. Qora hasad yoki ichiqoralik uzoq vaqt davomida insonni o'zi sezmaganda holda ich-etini kemirish, parchalashdir. Odam o'zgani yaxshi tomonini ko'ra olmaydi, ko'zlari ochiq, lekin qalb ko'zi ko'r bo'ladi. G'azab va omadsizlik uning ichini yemira boshlaydi. Bunday hasadgo'ylikni yo'qotish uchun oldin sodir bo'layotgan voqealarni tahlil qilish, vaziyatga to'g'ri baho berish va o'z qarashlarni o'zgartirish kerak. Lekin hasadgo'ylikni to'xtatib bo'lmaydi, to'xtatish ham kerak emas. Chunki to'g'ri anglangan va qo'llangan hasad keraklidir.

Hasadgo'ylik orqali o'sha omadli odam bilan o'zini taqqoslashi va o'z-o'zini solishtirishida ma'lum bir mazmunda foydalidir. Hasadchida o'z-o'zini baholash ham past bo'ladi. Mana shu o'z-o'zini baholashni ko'tarish kerak. Buning uchun birinchidan, o'zingiz qila oladigan ishlar ro'yxatini keltiring. Ikkinchidan, o'zingizni qadrlil bilgan holda o'zgalar uchun o'zingizni baxshida qiling va shu orqali o'zgalar hayotiga havas nigohi bilan qarang. O'zgalar bilan solishtirishni bas qilgan holda kelajakni rejalashtiring, yashash tarzini yaxshi tomonga o'zgartiring. Hech qachon unutmazlik kerak, har bir insonda qandaydir bir fazilat bo'lib, u boshqalardan ajralib turadi va ustunligi ham shunda. Mana shu fazilatni, ustunlikni o'zida rivojlantirish kerak. Shu orqali hasadgo'ylikni yo'qotish va boshqalarning

hasad qilishiga emas, balki havas qilishiga imkon yaratish mumkin. O'tkir hasad paydo bo'lganda quyidagi tavsiya yordam berishi mumkin: bunday paytda kresloga o'tirish yoki divanga o'zingizni erkin va xotirjam his qilgan holda yotib olish mumkin. Ko'zni yumgan holda o'zingiz uchun sevimli bo'lgan joyni, masalan, dengiz bo'yida, dala hovlida, o'rmonda, tabiatning go'zalligi, gullarning hidi, suvning shildirab oqishi, qushlarning sayrashi, mayin shabada esishi va shu kabi yaxshi narsalar to'g'risida tasavvur qiling. Bunday hislar kayfiyatingizni ko'taradi, sizdagi ichki taranglikni kamaytirib, tinchlantiradi va sezilarli darajada hasadli kechinmalarni pasaytiradi. Yana bir maslahat, kunda bir necha marta o'zingiz uchun: do'stinning yoki dugonamning ishi yaxshiligidan «men juda hursandman», hayotimizdan, odamlarda hamma narsa yaxshiligidan «men baxtliman» motivatsiyasini takrorlang, bu degani «mening hayotimda ham yaxshi kunlar bo'ladi va mening ishlarim ham kundan kunga rivojlanib, o'sib boradi», deya o'z-o'zini himoya qilish usullarini qo'llab turish kerak. Hasadgo'yga yutuqlaringiz, muvaffaqiyatlaringiz, omadli ekanligingizni aytmalikka harakat qiling, iloji boricha biron narsada undan maslahat yoki yordam so'rang. Bu uni hayron qoldiradi. Uni yuziga kulib qarang, munosabatlarni oydinlashtirishga harakat qilmang. O'rtadagi masofani saqlang. Agar ichi qoraligini sezdirib qo'yadigan bo'lsa, sizga tajovuzkorlik qilishga harakat qilsa, biroz kulimsiragan holda ko'ziga tikilmasdan labiga yoki burniga qaragan holda «kechirasiz men sizni eshitmadim» deyishingiz lozim. U nima deb javob berishidan qat'i nazar tinchgina, kulmasdan «tinchlaning hammasi ravshan» deb orqaga o'girilib ketishingiz kerak.

Insidentlar. Insidentlar, hayotda uchrab turadigan turli nizo va ziddiyatga bog'liq bo'lgan voqealar bo'lib, osuda va tinchlik vaqtida ularga e'tiborsiz bo'lasiz. Ammo ular ba'zan sizni ham konflikt tarkibiga tortib ketadi. Masalan, 7-sinf o'quvchisi Gulnora bo'yining balandligi 171 sm ekanligidan doim qayg'uradi. Uning bo'yi sinfdoshlarinikidan eng baland. Sinf taxtasiga egilib, oyoqlarini jipslab, bukilib chiqadi. U har gal sinf taxtasi oldiga chiqishi – azoblanishdan iborat edi. Shuning uchun, ba'zan kamsitilganimdan ko'ra, bahoyim «ikki» bo'la qolsin deb, javob berishdan bosh tortardi. Uning

miyasida doimiy ravishda sinfdoshlarining: «Ey, minora» yoki «Ey, naynov» deb luqma tashlayotganday tuyulaveradi, shu o‘rinda onasining: «Egilma, yelkangni to‘g‘ri tut, qara qanday chiroyli gavdang bor», deyishlari eshilib turgandek bo‘ladi. Gulnora kechqururlari toshoyna oldida turib: qo‘llarim buncha beso‘naqay bo‘lmasa, ular tizzadan pastda! Normal odamda shunday qo‘llar bo‘ladimi?.. Bo‘ynim ham uzun, uni yoqani ko‘tarib bir nima qilish mumkindir, oyoqni nima qilsa bo‘ladi?» – degan savollar bilan o‘zini emotsional qiynay boshlaydi. Oddiygina insident, ya‘ni bo‘lib o‘tgan voqea, keyinchalik Gulnora va sinfdoshlar o‘rtasida yechib bo‘lmaydigan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois konfliktni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan barcha mayda narsalarga ham e‘tiborli bo‘lish tavsiya etilmaydi. Yuzaga kelgan muammolarni birgalikda, hamkorlikda, xotirjam, bir-birini ayblamasdan muhokama qilishga o‘tish ziddiyatlarning to‘g‘ri yechimini oydinlashtiradi va yaqinlashtiradi.

Diskomfort. Diskomfort holati insonning ichki hissiyotlari, o‘ylari va tuyg‘ulari bilan bog‘liq bo‘lib, nimadir bo‘layotganligi anglanadi, ammo o‘sha «nimadir» aniq ta‘rif etilmaydi, u anglashtiriladi, ammo uni so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Diskomfort holati ko‘pincha insonni ba‘zi noaniq va nizo holatlar, inqirozlardan saqlab qolish xususiyatiga ega. Shu bois diskomfortga befarq qaramasdan, balki inson o‘zining ichki hissiyotlari nimalar demoqchiligini tahlil etishga, odam o‘ziga quloq solishga o‘tishi lozim. Albatta, agar siz atrofingizdagi voqealarni tahlil eta boshlasangiz, o‘z hissiyotlaringiz sizni nima uchun qiynayotganligini topasiz. Har holda o‘ziga sezgir va ogoh bo‘lib turgan ma‘qul. Agar siz o‘z ichki hissiyotlaringiz sizga uzatishga harakat qilayotgan axborotlarni to‘g‘ri «tarjima» qilishni o‘rgansangiz, ko‘pincha o‘z hayotingizni ziddiyatlardan saqlab qolgan bo‘lasiz.

Konfliktning kelib chiqishidan oldin konfliktli vaziyat mavjud bo‘ladi. Konflikt vaziyatning oldini olmaslik insidentga olib keladi. Insidentning rivojlanishi esa konfliktning o‘zini vujudga keltiradi.

Shu bois quyidagi qadamlar konfliktli vaziyat, insident va konflikt oldi holatlarni hal etishga qaratilgan:

Birinchi qadam – konfliktli vaziyat o‘zining yechimini va konflikt rivoji uchun asos borligini ko‘rsatadi. Unga e‘tiborsiz bo‘lmang. Uni tahlil qilish va yechimini topishga urining.

Ikkinchi qadam – konfliktli vaziyat har doim asl konfliktdan oldin paydo bo‘ladi. Ammo uning masshtabi ancha kichik. Konflikt esa insident bilan yoki uning ketidan vujudga keladi. Shu bois konflikt vaziyatni nazoratda saqlagan odam, konfliktning o‘zini ham nazoratda saqlagan bo‘ladi.

Uchinchi qadam – konfliktli vaziyatning tahlili nima qilish kerakligini ko‘rsatadi. Masalan, yuqorida tahlil qilingan Gulnora va uning sinfdoshlari o‘rtasidagi insidentda Gulnora va sinfdoshlar o‘rtasida aniq va ishonchli axborot ulashuvining bo‘lmaganligi oqibatida insident konfliktga aylanib ketgan. Shuning uchun konfliktlarning yuzaga kelmasligi uchun tomonlar o‘rtasida samimiy va rostgo‘y axborot almashuv bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi qadam – insident vujudga kelgan vaqtda doim o‘zingizga «Nima uchun?» degan savolni unga javob topmagunga qadar bering va aniq javob topishga harakat qiling. Masalan, yuqoridagi insidentda o‘zini va sinfdoshlarini shubhalar bilan qiynash va asossiz ravishda bironvi ayblash o‘rniga, tomonlar orasida doim rost va samimiy munosabatlar va axborot almashish o‘rnatilsa, Gulnora o‘zi o‘zini qanday bo‘lsa, shundayligicha tasavvur qilganligi va shubhalarga berilmaslikka harakat qiladi. Chunki har bir odamning yashash va hayot kechirish makoni faqat oila yoki bolalar bilan o‘tmaydi. Makon katta. Mana shu makon ichida turli axborotlar oponentingizda boshqa usullar orqali yetkazilishi ham mumkin (televideniye, kitob, avtobusdagi suhbat, kasbdoshlar va boshq.).

Beshinchi qadam – konflikt, insident, konfliktli vaziyatni faqat xayolingizda emas, balki og‘zaki tahlil qilishga urinib ko‘ring. Chunki og‘zaki tahlil jarayoni konfliktning tashqi ko‘rinishidan uning ichki mag‘ziga o‘tish imkonini yaratadi. Konflikt mazmunini bilish turli xulosalar, parallel fikrlar, voqealarni taqqoslash, o‘lchash, fikrni jamlash orqali yuz beradi. Aynan mana shu jarayonda siz uchun ko‘p narsalarni yangitdan, oydinroq va aniqroq kashf etasiz hamda o‘zingizga maqbul yo‘lni topishga o‘tasiz.

Oltinchi qadam – siz bilan yuz bergan konflikt tahlilidan so'ng nima voqea bo'lganligini bir-ikki so'zdan iborat ta'rifini ishlab chiqishga harakat qiling. So'zlarni juda kam ishlatib. Faqat eng muhim so'zlar ta'rifga kiritilsin. Ana shunda, konfliktning aniq diagnozi qo'yilgan bo'ladi. Shundagina, konfliktli vaziyat tahlili keraksiz emotsiyalardan ozod etilgan bo'ladi. Bu bilan aniq diagnoz orqali o'zingiz va opponentlaringizni mushkul ahvoldan chiqarib yuborishga imkon topgan bo'lasiz. Muammoning asl mazmunini anglagan bo'lasiz va harakat qilishingiz, xulosa qilishingiz aniqlashadi va yengillashadi.

Yettinchi qadam – konfliktli vaziyat va konfliktli muammoning yechimini topish asli ancha murakkab jarayon ekanligi sizga oydinlashmoqda. Konfliktning yechimini topish bir o'tirishda hamma muammolarning hal etilishi emas. Agar bir o'tirishda ana shunday hamma tomonlarni qoniqtiruvchi yechim topilsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi, ammo aslida konflikt yechimini topish ancha mushkul jarayon bo'lib, eng qiyini hamma ishtirokchi tomonlarni yagona yechimga keltirishdir. Shu bois konflikt yechimi jarayonida qanoatli va sabrli bo'lish, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, ziddiyatning yechimini topishga qaratilgan sa'y-harakat hisoblanadi. Sabrli bo'lish – konflikt yechimini topish sari bo'lgan yo'ning doimiy hamrohi bo'lishi shart.

Shunday qilib, konfliktlar yechimi mavjud. Konfliktning eng oddiy yechimi konfliktogenlarga e'tiborli munosabat, konflikt oldi vaziyatlaridan bo'lgan konflikt signallari, inqiroz, tomonlar orasidagi tang holat, tushunmovchilik, hasadgo'ylik, insidentlar, diskomfort kabilarni oldindan ko'ra bilish va konfliktning kelib chiqishining oldini olish, konflikt kelib chiqqanida esa, uning yechimiga qaratilgan sa'y-harakatlarni olib borishdan iborat.

2.3. Konfliktlarning yuzaga kelishida tana zaboni

Inson kundalik hayotida juda katta informatsiya ichida yashaydi, katta informatsion oqimni qabul qiladi va xuddi shunday katta informatsion ma'lumotlarni atrofga tarqatadi ham. Informatsiyalar-

ni tarqatishda faqat uning tili, zaboni, aytgan gaplari, ishlari, yozgan kitoblari ishtirok etmaydi. Faqat mana shulargina ahamiyat kasb etmaydi. Balki informatsion ma'lumotlarni tarqatishda odam tanasining ma'lum xatti-harakatlari, ya'ni mimikasi, kiyinishi, qo'l harakatlari, qosh-ko'zi, ovozi, ko'z qarashlari, nigohi, kulgusi ham ishtirok etib, ular muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, agar sizga uzoqdagi tanishingiz «Bu yoqqa kel!» deb baqirib, ammo qo'l harakatlarini teskari tomon «Ket!» shaklida qilsa, siz nima qilishni bilmay, esankirab qolasiz. Chunki «kel» axborotiga doir qo'l harakatlari bilan «ket» axborotiga doir qo'l harakatlari boshqa-boshqadir, ular – qarama-qarshi. Ya'ni, «kel» bilan «ket» ma'lumotini o'zida jamlagan qo'l harakatlari ma'lum bir informatsiyani ifoda etadi.

Demak, bizning boshqa odamlar bilan bo'ladigan tabiiy muloqotimizda ularda jamlangan ma'lumotlar bilan birgalikda til, tana harakatlari, mimika, ovoz ham faol ishtirok etadi. Bizning uzatmoqchi bo'lgan axborotimizga mutanosib ravishda mazkur tana harakatlarini biz beixtiyor tarzda instinktiv ishlatamiz. Ularga ko'p e'tibor qaratmaymiz. Ammo bizning suhbatdosh, ba'zan xuddi ana shu tana harakatlari orqali siz to'g'ringizdagi eng «ochiq» aytilgan va haqiqiy bo'lgan axborotni qabul qiladi hamda o'z xulosalarini chiqaradi.

Siz birovdan xafa bo'lsangiz, o'z nutqingizda hurmatli so'zlarni aytayotgan bo'lsangiz ham, boshqa inson ko'pincha vaziyat samimiy emasligi, orada nimadir bo'lganligini sizning tana harakatlaringiz («sovuq» ovozingiz, ko'z qarashlaringiz, «qo'l» uchida so'rashishingiz) orqali bilib, sezib turadi. Qarshingizda turgan odam tomonidan o'zingizning ichki hissiyotlaringiz aynan va bevosita anglanishini istamaysiz, chunki aynan mana shu daqiqalarda mazkur odamga nisbatan yomon hissiyotlar ichida yashamoqdasiz. Biroq siz o'z hissiyotlaringizni yashirishingiz lozim. Ammo tana harakatlaringiz ongingiz to'rida bo'lgan sizning munosabatingizni o'z tana zaboni orqali bilintirib qo'yadi. Chunki informatsiya faqat so'z orqaligina emas, balki tana harakatlari orqali ham uzatiladi. Demak, tana zaboni axborot ulashish va tarqatishda faol ishtirok etadi. Informatsiyani uzatishda biz, ko'pincha e'tibor bermaydigan xuddi ana shu noan'anaviy usul – «**tana zaboni**» hisoblanadi.

Shunday qilib, tana zaboni nima? Tana zaboni ilmiy, aniq, lo'nda tushuncha bo'lmay, balki tanamiz harakati oqibatida berilayotgan, uzatilayotgan signallar majmuidan iborat, biz bu signallarni ataylab yoki o'zimiz bilmagan holda atrofdagilarga ma'lum qilamiz.

Tana zaboni – sizning qanday yurishingiz, turishingiz, qanday ovozda so'zlashishingiz, qanday kiyinishingiz, sizning imo-ishoralaringiz, mimikangiz, umuman olganda, qandaydir ma'noga ega bo'lgan hamda axborot tarqatish va qabul qilishda ishtirok etgan tana harakatlaringiz majmuasidir¹.

Sizning bunday tana harakatlaringiz nima to'g'risida, qanday axborot beradi? Bizning tana zabonimiz o'ziga xos til bo'lib, u bizning kayfiyatimiz va xarakterimiz to'g'risida o'zimizdan ko'proq informatsiya beradi. Shu bois ham tana zaboni muloqotning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Muloqotning interaktiv tomoni – kishilarning birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan ta'sir etishlari. Hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o'rganish, harakatlarni muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarni namoyon qilish mumkin.

Odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalardir. Chunki o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday xatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib tasavvurlar, xislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini boshqa birov bilan solishtirishi, masalan, 1-marta uchrashuvga ketayotgan yigitning holatini uning o'rtog'i yoki akasi tushunishi mumkin.

Refleksiya – muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasida turib, o'zini tasavvur qilishdir, o'ziga birovning ko'zi bilan qarash-

¹ V. Karina. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Conflict Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.

ga intilishdir. Masalan, guruhdoshingizdan biriga ko'ylagi yarashmaganligini aytilish mumkin, 2-chisiga aytisam hasadgo'ylik qilyapti, deb o'ylaydi deysiz.

Stereotoifaizatsiya – odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'mashib qolgan, ko'nikib qolingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish, bunday stereotoifalar ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalishini ta'minlansa, ba'zan xatoliklarga sabab bo'ladi. Masalan, qizlarning shim kiyib yurishi yoki velosiped minishi. Ko'pchilik bunday qizlarni odobsiz deb o'ylaydi, bu noto'g'ri, albatta.

Ba'zan kishini tashqi qiyofasidan uning xarakterini aniqlash mumkin. Masalan, shunday tajriba o'tkazilgan: talabalarga turli qiyofadagi kishilarning rasmi ko'rsatilgan, ular iyagi katta kishilar kuchli irodaga ega, peshonasi keng odamlar – aqlli, sochi qattiq odam – qaysar, bo'yi past odam – hokimiyatga intiluvchi, chiroyli odam – o'ziga bino qo'ygan yoki nodon bo'lishi aytilgan. Bular, albatta, to'g'ri emas. Lekin kishilarning ongida avloddan avlodga o'tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Natijada odam haqida tushunchaning shakllanishida u haqida bo'lgan ma'lumot katta rol o'ynaydi. Masalan, psixolog olim Bodalyov talabalarning 2-guruhiga 1 odamning portretini ko'rsatib, uni 1-guruhga jinoyatchi, 2-guruh talabalariga esa olim deb tanishtirgan.

1-guruhdagilar uning ko'zlarini yovuz, beshafqat desa, 2-guruhdagilar uning ko'zlarini dono, muloyim deb ta'riflashgan.

Odamlarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, qiliqlari, yurishi va hokazo harakatlarining ichida odamning so'z muloqot manbai suhbatdoshiga eng ko'p ma'lumot beradi.

Insonlar bir-birini to'g'ri anglashi idrok (asosiy bilish) sohasiga aloqador, bir-birini tushunishi esa ularning tafakkur sohasiga aloqador, murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi. Ya'ni, unda empatiya-birovlarning hissiy kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Yuksak ongli, madaniyatli, «ko'pni ko'rgan» shaxsgina boshqalarni to'g'ri tushunishi, ularning mavqeyida tura olishi mumkin.

Psixologlar turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan o'tkir did, odob kishilarning psixologiyasini bilgan holda ularni to'g'ri tushunish malakasi talab qilinadi. Bo'lajak psixolog bu borada quyidagi qonuniyatlarni bilishi kerak:

1. Birinchi ko'rgan odam haqida faqat birlamchi tasavvurgina bo'lishi mumkin.

2. Biron kishi haqida berilgan ma'lumotga asosan muayyan fikr hosil qilish oson, lekin uni o'zgartirish qiyin.

3. Intellekt juda yuqori bo'lsa ham, juda past bo'lsa ham boshqa odamni tushunish qiyin.

4. Maxsus tayyorgarlik bo'lishi kerak. Tajribada 5-kurs psixologlari bilan rassomlarning odamlarga bergan bahosi solishtirilgan, rassomlarning bergan bahosi aniqroq bo'lib chiqqan.

5. Bitta odamning baholash topshirig'i berilganda og'riqni boshdan kechirayotgan odamlar unda johillik sifati bor deb baholaganlar, yaxshi holatda bo'lganlarida esa xuddi o'sha odamni yaxshi sifatlariga ega deb aytganlar, demak biron kishiga baho berish – odamning emotsional holatiga ham bog'liq ekan.

6. Shaxsning ochiqligi, ya'ni ochiq, sanimiy odamning bergan bahosi bilan tund va pismaniq odamning baholari o'rtasida sifat jihati-dan farq bo'lishligi aniqlangan.

Bo'lajak pedagog-psixologlardan pedagogik-psixologik bilimdonlikni talab etadi. Bu esa pedagogik-psixologik treninglar yordamida amalga oshiriladi, odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini to'g'ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha aytganda, trening muloqotga o'rgatishdir.

Balki siz hech qachon bu narsaga e'tibor bermagandirsiz, ammo biz aytmoqchi bo'lgan so'zlarga qo'shimcha ravishda, ko'pincha tana harakatlarimiz ham axborot berib turadi. Agar siz tana zaboniga e'tibor bermasangiz, siz bilmagan holda tana harakatlaringiz ham-suhbatingizga boshqa ma'lumotlarni ayon qilib turishi mumkin. Bu ma'lumotlar esa, yangi konfliktni keltirib chiqarishi yoki konfliktni chuqurlashtirib yuborishi mumkin.

Tana zaboni sizning shaxs sifatida yurish-turishingiz, kiyinishingiz, imo-ishoralaringiz, qaddi-bastingiz, o'zingizni tutishingiz, aslini

ga intilishdir. Masalan, guruhdoshingizdan biriga ko'ylagi yarashmaganligini aytish mumkin, 2-chisiga aytsam hasadgo'ylik qilyapti, deb o'ylaydi deysiz.

Stereotoifaizatsiya – odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'mashib qolgan, ko'nikib qolingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish, bunday stereotoifalar ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalishini ta'minlasa, ba'zan xatoliklarga sabab bo'ladi. Masalan, qizlarning shim kiyib yurishi yoki velosiped minishi. Ko'pchilik bunday qizlarni odobsiz deb o'ylaydi, bu noto'g'ri, albatta.

Ba'zan kishini tashqi qiyofasidan uning xarakterini aniqlash mumkin. Masalan, shunday tajriba o'tkazilgan: talabalarga turli qiyofadagi kishilarning rasmi ko'rsatilgan, ular iyagi katta kishilar kuchli irodaga ega, peshonasi keng odamlar – aqlli, sochi qattiq odam – qaysar, bo'yi past odam – hokimiyatga intiluvchi, chiroyli odam – o'ziga bino qo'ygan yoki nodon bo'lishi aytilgan. Bular, albatta, to'g'ri emas. Lekin kishilarning ongida avloddan avlodga o'tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Natijada odam haqida tushunchaning shakllanishida u haqida bo'lgan ma'lumot katta rol o'ynaydi. Masalan, psixolog olim Bodalyov talabalarning 2-guruhiga 1 odamning portretini ko'rsatib, uni 1-guruhga jinoyatchi, 2-guruh talabalariga esa olim deb tanishtirgan.

1-guruhdagilar uning ko'zlarini yovuz, beshafqat desa, 2-guruhdagilar uning ko'zlarini dono, muloyim deb ta'riflashgan.

Odamlarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, qiliqlari, yurishi va hokazo harakatlarining ichida odamning so'z muloqot manbai suhbatdoshiga eng ko'p ma'lumot beradi.

Insonlar bir-birini to'g'ri anglashi idrok (asosiy bilish) sohasiga aloqador, bir-birini tushunishi esa ularning tafakkur sohasiga aloqador, murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi. Ya'ni, unda empatiya – birovlarining hissiy kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Yuksak ongli, madaniyatli, «ko'pni ko'rgan» shaxsgina boshqalarni to'g'ri tushunishi, ularning mavqeyida tura olishi mumkin.

Psixologlar turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan o'tkir did, odob kishilarning psixologiyasini bilgan holda ularni to'g'ri tushunish malakasi talab qilinadi. Bo'lajak psixolog bu borada quyidagi qonuniyatlarni bilishi kerak:

1. Birinchi ko'rgan odam haqida faqat birlamchi tasavvurgina bo'lishi mumkin.

2. Biron kishi haqida berilgan ma'lumotga asosan muayyan fikr hosil qilish oson, lekin uni o'zgartirish qiyin.

3. Intellekt juda yuqori bo'lsa ham, juda past bo'lsa ham boshqa odamni tushunishi qiyin.

4. Maxsus tayyorgarlik bo'lishi kerak. Tajribada 5-kurs psixologlari bilan rassomlarning odamlarga bergan bahosi solishtirilgan, rassomlarning bergan bahosi aniqroq bo'lib chiqqan.

5. Bitta odamning baholash topshirig'i berilganda og'riqni boshdan kechirayotgan odamlar unda johillik sifati bor deb baholaganlar, yaxshi holatda bo'lganlarida esa xuddi o'sha odamni yaxshi sifatlarga ega deb aytganlar, demak biron kishiga baho berish – odamning emotsional holatiga ham bog'liq ekan.

6. Shaxsning ochiqligi, ya'ni ochiq, samimiy odamning bergan bahosi bilan tund va pisman odamning baholari o'rtasida sifat jihati-dan farq bo'lishligi aniqlangan.

Bo'lajak pedagog-psixologlardan pedagogik-psixologik bilimdonlikni talab etadi. Bu esa pedagogik-psixologik treninglar yordamida amalga oshiriladi, odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini to'g'ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha aytganda, trening muloqotga o'rgatishdir.

Balki siz hech qachon bu narsaga e'tibor bermagandirsiz, ammo biz aytmoqchi bo'lgan so'zlarga qo'shimcha ravishda, ko'pincha tana harakatlarimiz ham axborot berib turadi. Agar siz tana zaboniga e'tibor bermasangiz, siz bilmagan holda tana harakatlaringiz ham-suhbatingizga boshqa ma'lumotlarni ayon qilib turishi mumkin. Bu ma'lumotlar esa, yangi konfliktni keltirib chiqarishi yoki konfliktni chuqurlashtirib yuborishi mumkin.

Tana zaboni sizning shaxs sifatida yurish-turishingiz, kiyinishingiz, imo-ishoralaringiz, qaddi-bastingiz, o'zingizni tutishingiz, aslini

olganda xarakteringiz haqida juda katta ma'lumot beradi. Sizning tana zaboningiz nimalar haqida «gapirishi», «so'zlashi» mumkinligi masalasini ko'rib chiqamiz.

Tana zaboni tushunchasining yetti tarkibiy qismi mavjud. Ular tana zabonining turli ko'rinishlarini o'zida mujassam etadi. Mana shu yetti tarkibiy qism tana zaboni orqali uzatilishi mumkin bo'lgan axborot turlarini belgilab beradi. Tashqi ko'rinish, ya'ni insonning qanday kiyim kiyganligi va o'zini tutishi, vaqtga bo'lgan munosabat, sizning ijtimoiy ahvolingizni ko'rsatib turuvchi tashqi ko'rinish omillari, o'z suhbatdoshingizga yaqinligingizni oydinlashtiruvchi omillar, konkret vaziyatda siz ishlatayotgan aniq tana harakatlari, o'z va boshqa inson shaxsiy makoniga bo'lgan munosabatingiz va qanday ovozni ishlatayotganingiz kabi elementlar **tana zabonining yetti doirasini** tashkil qiladi. **Tana zabonining yetti doirasini** alohida ko'rib chiqamiz.

1. Tashqi ko'rinish. Sochingiz jingalakmi yoki boshqa rangga bo'yalganmi? Sochlaringiz orqa tomonga turmak qilinganmi yoki kesilganmi? Egningizda atlasmi yoki shim-kostyum? Pardozi qilganmisiz yoki o'sma qo'yganmisiz? Ro'moldamisiz yoki ro'molingiz yo'qmi? Bo'yingizda tilla zanjir bormi yoki yo'qmi? Yoshmisiz yoki yoshi o'tganmisiz? Mashinadamisiz yoki piyodamisiz? Mana shularning barchasi siz haqingizdagi ma'lumotlarni boshqalarga uzatib turadi. Tashqi ko'rinish inson haqidagi ma'lum informatsiyani yaqqol namoyon etadi. Tashqi ko'rinishdan inson moddiy ahvoli, kelib chiqishi, ijtimoiy holati borasidagi ilk ma'lumotlarni darrov qabul qilish mumkin. Masalan, odatda zamonaviy kiyingan, sochlari bo'yalgan, o'ziga oro berib yuradigan ayolni siz boshiga ko'k rangdagi ro'mol o'ragan, milliy kiyimda, mungli ahvolda ko'rsangiz, birinchi qiladigan xulosangiz, «Bu ayol azador bo'libdi-da» degan xulosaga kelasiz. Ya'ni, tashqi ko'rinish mazkur ayol hayotida kechgan voqealar borasidagi ma'lum axborotni atrofdagilarga tarqatish uchun xizmat qiladi.

2. Vaqt. Vaqt hamda vaqtga bo'lgan munosabat inson haqida aniq ma'lumotlarni olishga yordam beradi. Siz uchrashuv uchun ertalabni tanladingizmi yoki kechki paytni? Siz biron odamni 60 da-

qiqa kutasizmi yoki 2 daqiqadan so'ng kutmasdan ketib qolasizmi? Yoki o'zingiz uchrashuvga tayinlangan vaqtda, kechikmasdan kela-sizmi yo har doim kechikib yurasizmi? Siz tanigan odamni ko'rib, darrov ro'parasiga chiqasizmi yoki uning o'zi oldingizga kelishini kutib turasizmi? Bularning barchasi siz haqingizdagi ma'lum axbo-rotlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Agar siz uchrashuvga kechikib kelsangiz-u, darrov kechirim so'rab, o'zingizni aybdorday his qil-sangiz, demak siz odatda kechikib yuradigan odam emassiz, kechi-kishingiz uchun biron sabab mavjud, ataylab bunday qilmagansiz, kechikkaningiz uchun o'zingiz hijolatdasiz. Ammo agar kechikib kelgandan so'ng, uzr ham so'ramasangiz, demak siz tarbiyasiz, qo'rs odamsiz yoki kutayotgan odamning kekkaygan boshlig'isiz. Demak, vaqtga munosabat masalasi ham inson xarakterini belgilovchi omil-lardan biri.

3. Ijtimoiy ahvolingiz. Odamning ijtimoiy ahvoli uning tash-qi ko'rinishidan yaqqol ko'rinish turadi. Ijtimoiy ahvol va tashqi ko'rinish masalasi odamning nafaqat qaysi sohada ishlashi, balki oilasining to'kinligi, uning boy yoki kambag'alligi, shaharlik yoki qishloqlik ekanligini oydinlashtirishga ham xizmat qiladi. To'kin yashash ramzlarining mavjudligi, biron guruhga taalluqlilik, boylik, mashina, zeb-ziynat kabilar siz to'g'ringizdagi ma'lum axborotlar-ni doimiy uzatib turadi. Ijtimoiy ahvol, shuningdek agar inson juda kam zeb-ziynat bilan taqingan bo'lsa ham, ammo kiyimining qanday bichimda tikilganligi, matosining to'la-to'kisligi uning o'lcham ma-salalarda ham o'zini namoyon qiladi. Zodagonlarga tegishli oilalarda juda sodda, zeb-ziynatsiz, ammo xushbichim kiyinish targ'ib qilina-di. Zeb-ziynatning ortiqchaligi madaniyatsizlik va didsizlik alomati sifatida baholanadi. Yangi boy bo'lgan odamlar esa, o'zining boylar qatoriga qo'shilganligini namoyon qilish maqsadida, ko'pincha zeb-ziynatni ko'p ishlatishadi. Demak, odamning tashqi ko'rinishi uning ijtimoiy mavqeyini aniqlashga ko'mak beradi.

4. Yaqinlikni ko'rsatuvchi alomatlar. Inson boshqa insonlar bilan bo'ladigan o'z muloqotida ularning nechog'li o'ziga yaqinli-gini ko'rsatuvchi alomatlarni ham bildirib turadi. Masalan, qo'l be-rib salomlashish, quchoqlashish, yelkaga urib qo'yish. Toshkentlik

yigit-qizlar hech qachon o‘zaro qo‘l berib so‘rasmaydilar. Ammo viloyatlardan kelgan yigit-qizlar orasida qo‘l berib salomlashish urf-odati keng tarqalgan. Shu bois viloyatdan kelgan yigit toshkentlik qizga qo‘lini uzatib salomlashmoqchi bo‘lsa, qiz bola uning qo‘lini olmasligi tabiiy. Chunki toshkentlik qiz bu narsani behurmatlik alomati hisoblaydi. Viloyatdan kelgan yigit uchun esa qiz bola uning qo‘lini olmaganligi – uni mensimaganligi, hurmat qilmaganligi, o‘zini «katta» olganligi belgisi bo‘ladi. Aslida, qiz bola va har qanday ayolga erkak kishi birinchi bo‘lib qo‘l uzatishi madaniyatsizlik alomatidir. Bu narsa toshkentliklarda targ‘ib qilinmaydi. Shu bilan birga, ayol va erkak salomlashish qonun qoidalarida, ya‘ni etiketda faqatgina ayol kishi o‘zi birinchi bo‘lib qo‘l uzatsagina, unga qo‘l berib salomlashish mumkinligi ta‘kidlanadi. Ya‘ni, ayol kishi qarshisida turgan odamning o‘ziga yaqinligi me‘yorlarini o‘zi belgilaydi. Demak, insonlararo munosabatlarni ko‘rsatib turuvchi maxsus makon mavjud. Mana shu makon insonlarning o‘zaro yaqinligiga qarab turib, qisqarishi yoki kengayishi tabiiy holdir. Tana zabanida quyidagi turdagi xatti-harakatlar ajratiladi:

- yaqin tanishlarning o‘z xatti-harakatlari;
- rasmiy xatti-harakatlar;
- doimiy xatti-harakatlar;
- kichik bir guruhda qabul qilingan xatti-harakatlar.

Masalan, hozir Toshkentda o‘g‘il bolalarning salomlashishida boshining bir chakkasini o‘zaro urishtirib qo‘yish urf bo‘lgan. Ammo katta yoshdagilar hech qachon boshini urishtirib salomlashmasligi ayon. Begona odamlar o‘zaro yaqinlik alomatlarini ko‘rsatuvchi harakatlarni ishlatmaydilar. Begona odam dabdurustdan sizning yelkangizga urib salomlashsa, «bu odam jinni ekan», – deb o‘ylashingiz tabiiy. Ammo sizga yaqin, ammo uzoq vaqt siz ko‘rmagan odam siz bilan o‘z yaqinligini ko‘rsatuvchi alomatlardan holi bo‘lgan rasmiy salom-alik yo‘lini tanlasa hamda sizga «sovuq» yoki «rasmiy» munosabat bildirsa, siz uni yoki biron narsa bo‘lgan yoki «u kekkayib ketibdi», degan xulosalarni qilasiz.

5. Tana harakatlari. Tana zabanida juda katta axborot yuz mimikasi va tana harakatlari orqali uzatiladi. Yuz mimikasi inson

psixologiyasi, insonning ichki kechinmalari va his-tuyg'ulari bilan kuchli bog'langan bo'ladi. Insonning nima deyaotganligiga qaramay, yuz mimikasi o'ziga xos tabiiy munosabatlarni bildirib turadi. Yuz mimikasi orqali juda katta ochiq, aniq va to'g'ri axborot uzatiladi hamda qabul qilinadi. Shu bilan birga, tana harakatlari ham insonlararo yaqinlikni ko'rsatib turadi. Siz o'zingizga yaqin odamga yaqinroq turasiz, uning tanasiga vaqti-vaqti bilan qo'l tekkizib turasiz, u bilan o'pishasiz, orqasini silab qo'yasiz, ammo sizga uzoq bo'lgan va tanimagan odamga nisbatan hech vaqt bunday tana harakatlarini ishlatmaysiz. Yuz ifodasi, mimika, ko'z qarashlar, qanday qadam tashlashingiz, imo-ishoralaringiz, qo'l harakatlaringiz – bularning barchasi tana harakatlari bo'lib, ular o'zaro munosabatlar borasida aniq ma'lumot beradi. Inson mimikasi juda katta axborot tashuvchi hisoblanadi. Hayrat, esankirash, hursandlik, shodlik, jahl, sevinch, savol bilan qarash, tushkunlik, o'ylanish, g'azab, xafagarchilik, yig'i, tanglik kabi hissiyotlar inson qiyofasida to'liq, darrov va adekvat, ya'ni to'laqonli aks etadi hamda boshqalar aynan mana shu xususiyatlarini, aynan mana shu kayfiyatlarni qabul qiladi. Shu bois sizning jahlingiz chiqayotgan bo'lsa-yu, opponentingiz «Mana jahling chiqayapti» desa, siz «Yo'q, mening jahlim chiqmayapti, senga shunday tuyilgandir», deb aytsangiz ham opponentingiz sizning so'zlaringizga emas, balki o'z ko'zlariga ishonadi.

6. Shaxsiy makon. Inson uchun o'z shaxsiy makonini muhofaza qilishi muhim. Shaxsiy makonning himoya qilinganligi insonni tinch va xavfsiz muloqot olib borayotganligini ko'rsatuvchi xususiyat hisoblanadi. Muayyan bir vaziyatda sizning va suhbatdoshingizning qanchalik bir biringizdan uzoqlikda turishingiz siz bilan suhbatdoshingiz o'rtasidagi makon shaxsiy makon hisoblanadi. Har bir insonning o'z shaxsiy makoni bo'ladi. Bu makonga boshqalarning kirib borishi ularning sizga aloqadorligi, yaqinligiga bog'liq. Agar notanish odam sizga juda yaqin kelsa, siz tabiiy ravishda undan chetlashishga harakat qilasiz. Siz tanimagan odam hech qachon sizning shaxsiy makoningizni buzishga harakat qilmaydi. Agar tanimagan odam sizning shaxsiy makoningizni buzib kirishga intilsa, sizning ko'nglingizda xavf uyg'onadi, siz sezgir tortasiz. Masalan,

siz tanimagan odam birdaniga sizni quchoqlab ketmaydi. Demak, muloqot olib borilganda inson shaxsiy makoni borligi va uni buzib bo'lmashligi tamoyillariga rioya qilish zarur. Agar siz bironing o'z shaxsiy makoniga ruxsatsiz kirib borsangiz, uning shaxsiyatiga bosim o'tkazganingiz, uning xavfsizligiga tahdid ko'rsatganingiz bo'ladi.

<p>I. Intim zona (eng yaqin odamlaringiz kira oladigan hudud).</p>	
<p>Shaxsiy zona (do'stlaringiz, dugonalaringiz, aka-opalaringiz).</p>	
<p>Ijtimoiy zona (ish yuzasidan bo'ladigan muomalalar).</p>	
<p>Jamoat zonasi (maz'ruzalar, nutqlar).</p>	

2-rasm. Shaxsiy makon tarkibiy qismlari.

Bu zonalar inson madaniyati, tafakkuri, dunyoqarashi bilan bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Agar sizning yoningizda kimdir o'zini noqulay sezsa, demak zonalar chegarasi buzilgan bo'ladi.

7. **Ovoz.** O'qituvchi mahoratli bo'lishi uchun notiqlik mahoratini egallagan bo'lishi, ko'plab badiiy kitoblarni va hayot tajribasini ishga solishni bilishi, gapirganda ohangga e'tibor berish juda muhimdir.

Buyuk adabiyotshunos olim Vissarion Grigoryevich Belinskiy: «Gap so'zda emas, ohangda», – deb bejiz aytmagan.

O'qituvchilik kasbi bevosita o'qituvchining ovoz xususiyatlari bilan bog'liq. Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi o'z talabalarini ovozining shiradorligi bilan asir eta oladi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovozinin kuchini, shiradorligini, yoqimlilikini bilishi zarur. Lozim bo'lganda undan foydalana bilish malakasiga ega bo'lishi kerak. O'z ovozida kamchilik sezgan o'qituvchi uni yo'qotishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida hamma vaqt uzluksiz mashq qilib borishi lozim bo'ladi. Chunki bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bo'lmaydi¹.

Insonlararo axborotning eng katta foizi so'zlar, nutq, til orqali bayon qilinadi ekan. Ovoz orqali eng boy, rang-barang, hissiyotlarga to'la axborotlar uzatiladi va qabul qilinadi. Inson so'zlaganda uning ovozi berilayotgan informatsiya mazmuni va o'z ichki hissiyotlari bilan uzviy aloqadorlikda bayon qilinadi. Demak, ovoz faqatgina axborotni o'zida mujassam etmaydi, balki shu bilan birga, ovozning o'zi ham axborotni uzatishda faol ishtirokchiga aylanadi. Shu bois konflikt sharoitida sizning nimaga urg'u berayotganligingiz, ovo-



Vissarion Grigoryevich
Belinskiy (1811–1848)

¹ M.T. Axmedova, N.E. Axmedova. Ovozdan foydalanish va nutq texnikasi. Формирование гармонично развитого поколения в современных условиях. Сборник научно-методических статей. –Т.: 2011. – С. 109–111.

zingiz past-balandligi, uning samimiylik darajasi, ovoz toni, qanday soʻzlarni ishlatayotganligingiz, yaʼni axborot mazmuni bilan bir qatorda, koʻproq shu axborotni qanday intonatsiyada aytayotganingiz ham ahamiyat kasb eta boshlaydi. Intonatsiya sizning gapirish uslubingizdir. Intonatsiya – ovoz kuchi, uning iliqlik darajasi, samimiyati, qanday soʻzlardan tashkil topgani, soʻzlarga qanday hissiyotlarni yuklayotganligingizga bogʻliq. Masalan, «Men seni yaxshi koʻraman» degan soʻzlarni jahl va doʻq bilan aytib koʻring-chi. Aytolmaysiz. Chunki soʻzlar mazmuni ovoz orqali ham uzatiladi va inson hissiy-emotsional holati bilan uzviy bogʻlangan boʻladi. Ammo siz janjal ustida, oʻz rafiqangizga, «Boʻldi endi, bas. Men seni yaxshi koʻraman, endi koʻngling toʻldimi?!», – deb baqiringchi, xotiningiz «Ha, albatta, meni judayam yaxshi koʻradilar» deb xulosa qilarmikin. Xotiningiz sizga ishonarmikin yoki oʻz koʻzi bilan koʻrgani va qulogʻi bilan eshitgani, yaʼni sizning mimikangiz va ovozingiz orqali berilgan haqiqiy informatsiyaga ishonarmikin. Demak, muloqot olib borish talablariga binoan ovoz ham muhim rol oʻynaydi hamda konflikt yechimida tana harakatlari qatorida inson oʻz ovozi hamda mazkur ovoz orqali uzatilayotgan axborotni ham nazoratda ushlab talab etiladi.

Tana zabanini toʻgʻri anglamaslik oqibatlari. Konflikt yechimida tana zabanini toʻgʻri anglash juda katta ahamiyat kasb etadi. Tana zabanini toʻgʻri anglamaslik oqibatlari sizni qiyin ahvolga solib qoʻyishi va notoʻgʻri xulosalar keltirib chiqarishga olib kelishi mumkin. Masalan, quyida hikoya qilib beriladigan voqeada tana zaboni boʻyicha maʼlumotlarning notoʻgʻri talqin qilinishi oqibatida roʻy bergan holat koʻrsatiladi.

Tarix darsida hamma oʻz vazifasini bajarib sinfda oʻtiribdi. Akrom ham shu sinfda oʻqiydi. Kechqurunlari u oilasiga moddiy yordam koʻrsatish maqsadida bozorga qatnaydi. Akrom kechqurunlari ishlab, bir-ikki soʻm topma-sa, onasi qiynalib qoladi. Kunduzi maktabda oʻqish, kechqurunlari bozorda ishlash Akromni ancha toliqtirib qoʻygan. Akromga hayot qoʻygan talablar katta, ammo sogʻliq va vaqt kam. Shu bois Akrom tez-tez toliqib qoladigan, darslarni esa vaqtida bajarishga ulgurmaydigan boʻlib qoldi.

Dars boshlangandan 10 daqiqa o'tgach birdaniga eshik ochilib, Akrom sudralib sinfga kirib keldi. Akrom juda charchagan, bir navi kiyingan. Kechasi bilan yuk tashigan. Egnida yuvilmagan, g'ijim ko'ylak, dazmollanmagan, chang tekkan shim, iflos oyoq kiyim. U o'qituvchiga bir nimani uzr so'raganday ming'irlab, oyog'ini arang sudrab, joyiga, ya'ni partasiga shalpayib o'tirdi. Akrom atrofida gilarga bee'tibor, atrofida nimalar bo'layotganligini uncha anglamaydi, chunki u – charchagan va uxlamagan. Oyog'ini parta ostidan cho'zib, o'rindiqqa qulayroq o'tirib olib ko'zlarini yumdi. Ammo Akromning o'zini bunday tutishi o'qituvchisiga yoqmad. O'qituvchisi Akromni o'ziga nisbatan behurmatlik va inkor etishda (игнорирование) ayblashga moyilroq.

«Kim savolga javob beradi?», – deb so'radi o'qituvchi. «Bal-ki bizga Akrom yordam berar? Bu savolga javobni bilasanmi? Akrom?!», – deb so'radi undan.

«Nima, e-e, ux, bu..., iltimos, savolni qaytarib yuboring», – dedi ko'zi uyquga ketib qolgan Akrom.

«O'zim ham shunday bo'lsa kerak deb o'ylagandim. Sen yana dars qilib kelmabsan?» – dedi o'qituvchi Akromning partasi oldiga kelib. – «Senga nima bo'lgan o'zi. Hech vazifalarni qilmaysan. O'zingni xudodek tutasan. Tuzukroq na salom bor, na alik. Faqat oyog'ingni cho'zib, mudrashni bilasan. Nimaga kelasan o'zi maktabga? O'zingni ko'rsatganimi? Seni direktor oldiga jo'natish kerak», – dedi o'qituvchi.

«Men nima qildim sizga? Hech narsa qilmadim-ku? Jimgina o'tiribman-ku?!» – deya hayron bo'ldi Akrom.

«Nima qildim?!» – deb, o'z navbatida, hayron bo'ldi o'qituvchi. – «Nima qildim? Qilganlaring kammi?! Eng avvalo, sen sinfga kirganda sinfdoshlaringga nisbatan, menga nisbatan behurmatlik ko'rsatding. Ikkinchidan, darsga kelar ekansan, darsni bajarib kelishing kerak. Darsga tayyor bo'lmasang kelganingdan nima foyda?! Uchinchidan, darsda esankirab o'tirasan. Umuman befarqsan! Bor direktor oldiga!»

«Ustoz, bu adolatdan emas-ku, men biroz charchagan edim. Shu xolos, men...» – dedi Akrom, ammo uning so'zlarini o'qituvchi keskin bo'lib tashladi.

«Hech nimani bilishni istamayman! Charchasang, kechqurunlari sandiraqlab yurma, uyda o'tir, dars qil! Bor, direktorga aytasan dardingni» – buyruq berdi o'qituvchisi.

«Bo'ldi, baqiravermang», – deb javob qaytardi-da, Akrom sinfdan chiqib ketdi.

Mana shu vaziyatni tahlil qilsangiz, kim haq yoki nohaqligini anglashga urinsangiz, tana zaboni bo'yicha bilimlar naqadar zarur ekanligini, tana zabanini to'g'ri anglash, to'g'ri tarjima qilish zarurligini ham anglagan bo'lasiz. Tana zabanini to'g'ri qo'llash va to'g'ri anglash qonuniyatlarini bilgan yaxshi. Tana zabanini qanday qo'llash zarur? Bu masalani oydinlashtiramiz (3-ilova).

Tana zabanini konfliktli vaziyatlarda qo'llash borasidagi asosiy tamoyillar:

1. Suhbatdoshingizdan qo'l cho'zgulik uzoqlikda turing. Albatta, bu uning sizga naqadar yaqinligiga bog'liq. Inson shaxsiy makonini besabab buzmag. Opponentingiz harakatlarini to'g'ri anglashga harakat qiling. Agar u shaxsiy makonni buzishga moyillik ko'rsatsa, shundagina unga yaqinlashing.

2. Sizning ovozingiz ochiq, samimiy, ishonchli, qat'iy, ammo tahdidsiz bo'lishi lozim. Ovozingiz orqali iliqlik, mayinlik, sabr va qanoat, mehr, qoniqqanlik, ishonch hislarini uzatishga harakat qiling. Iliqlik ortidan iliqlik, mayinlikning esa mayinlik olib kelishiga ishonig.

3. Sizning qo'llaringiz nima axborot berayotganligiga e'tibor bering. Agar barmoqlaringiz mushtga tugilgan bo'lsa, bu tahdid va hujum alomatidir. Agar qo'llaringizni ko'kragingizda almashtirib tursangiz, bu bee'tiborlilik, «Menga sening gaplaring qiziq emas, men o'zim bilaman, nima qilishni» degani bo'ladi. Agar qo'llaringizni haddan ziyod u yoq-bu yoqqa qarata harakat qildirsangiz, qarshingizdagi odam sizdan uzoqroq turishni ma'qul topadi. Chunki beixtiyor unga tegib ketishingiz mumkin.

3. Qo'llaringiz yonga to'g'ri tushgan, oyoqlaringiz to'g'ri, gavgangiz ham to'g'ri bo'lsin. Ortiqcha harakatlar qilmang. Stolni chertmang, boshqa tomonga qaramang, u yoq-bu yoqqa yurmang, samimiy va ochiq bo'ling.

4. Suhbatdoshingizning ko'zlariga ko'zingiz to'g'ri va tik, ammo tahdidsiz qarasin. Gaplashayotganda ham suhbatdoshingizga qarama-qarshi tomonga yoki boshqa xonaga qarab o'tirmang. Yuzma-yuz qarashga harakat qiling. Qarshingizda turgan odamga ochiq nazar bilan qarang.

5. Suhbatdoshingiz bilan gaplashayotganda uning so'zlariga e'tiborli bo'ling. O'z e'tiboringizni tana harakatlari bilan tasdiqlab turing.

6. Odamlarning tana zamonini anglash bo'yicha ba'zi «tarjimalar»:

- agar odam sizning nima deyayotganingizni tushunmasa, u boshini bir yonga burib, qoshlarini taranglashtiradi, ko'pincha qoshlarini bir nuqtaga, markazga yaqinlashtiradi;

- odamlar o'rtasidagi suhbatda qo'llarinigizni ko'krakda kesishtirib olsangiz, bu suhbatdan o'zingizni olib qochmoqchi ekanligingizni yoki o'zingizni himoyalash niyatigizni bildiradi;

- sizga yoqib qolgan narsani ko'rsangiz, ko'z qorachiqdoshingiz kengayadi;

- siz kiygan kiyim siz haqingizda siz istagan axborotningizga bera oladi;

- o'z joyida tinch o'tira olmayotgan, barmoqlari yoki qalam bilan stolni taqillatayotgan odam o'zining asabiylashayotganini ko'rsatadi yoki mavzu uni qiziqdoshmayotganligi yoki uning shaxsiy makoniga ruxsatsiz kirganligingiz alomatidir;

- agar ayol kishi sochlarini to'g'rilab, ularni siltab-siltab qo'ysa, demak siz unga yoqmoqdasi;

- erkaklar chiroyli ayolni ko'rsalar qoshlarini yuqoriga ko'taradilar va ularning kayfiyati yaxshilanadi;

- agar odam yaxshi kayfiyatda bo'lsa va siz unga kulib qarasangiz, u «Men unga yoqaman» deb o'ylaydi. Ammo mazkur odam yomon kayfiyatda bo'lsa-yu, siz haddan ziyod unga kulib qarasangiz, u «Meni mazah qilyapti, ustimdan kulyapti» deb fikr qiladi.

- qo'llarini cho'ntagiga solib olgan yigit, atrofdagilarga o'z mustaqilligini namoyon qilmoqchi bo'ladi, aslida u o'zini no-

qulay his qilgani uchun va o'z komplekslari (uyalishi, xavotiri, hayajoni)ni yashirmoqchi bo'lib, cho'ntakdan foydalanadi (3-ilova).

O'z kursdoshlaringiz va do'stlaringiz xatti-harakatlarini yuqoridagi tamoyillar asosida baholashni boshlashdan avval, bu misollar har doim ham vaziyatga monand bo'la olmasligini nazarda tuting. Masalan, agar kimdir qo'llarini ko'kragida kesishtirib turgan bo'lsa, balki u aslida sovuq qotgandir. Agar kimdir suhbatdan oldin bir baklajka koka-kolani ichib olgan bo'lsa, balki shu sabab joyida tinch o'tira olmayotgandir. Agar kimdir sizga tana zaboni usulidan qanday xabar jo'natayotganligiga shubhangiz bo'lsa, u bilan oddiy suhbatda munosabatlaringizni aniqlashtirib oling. O'qituvchining tashqi ko'rinishi pedagogik texnikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biri ekan, har qanday insonning tashqi ko'rinishi atrofdagilarga estetik ma'no va zavq kasb etib, doimiy e'tiborda bo'lishini unutmazlik kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishini namoyish etuvchi muhim xususiyatlari uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylilik, yurishida bosiqlik, tabiiylikdir. O'qituvchi sinfga kirishi bilan so'zsiz o'quvchilar e'tiborida bo'ladi, ular bilan muloqotga kirishadi.

Sinf sahnasida bajarilayotgan uning xoh ijobiy, xoh salbiy xatti-harakatlari o'quvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ilk bor darsga kirishlaridan oldin his-hayajonini, qo'rquvini yengishlari, o'zlarini erkin tutishlari, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyatsizlikdan o'zlarini yo'qotmasliklari lozim.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, tana zabanida pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining xatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

Mimika – bu o‘z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, hissiyotini qosh, ko‘z va chehra mushaklarining harakati bilan bayon qilish san‘atidir. Ba‘zan o‘qituvchi chehrasining va nigohining ifodasi o‘quvchilarga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma‘lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o‘zlashtirish imkoniyatini beradi (3-rasm).



3-rasm. Mimika.

O‘quvchilar o‘qituvchining muomalasi va xatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun o‘ladagi ba‘zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g‘am va tashvishning o‘qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg‘ulotlarini mukammal bajarishida o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. O‘qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg‘ulotlariga xos bo‘lgan, o‘quvchilarga ta‘lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko‘rinishlarni ifodalash lozim.

O‘qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo‘lishi kerak. O‘qituvchi chehra ko‘rinishidagi mimik ifoda, ta‘lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma‘qullash, ta‘qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozdagi turli o‘zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko‘z, chehra ko‘rinishi ishtirok etadi.

Qosh, ko‘z, chehra o‘quvchilar javobidan qoniqish, hursand bo‘lish, faxrlanish yoki e‘tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo‘lish va boshqa belgilarni ifodalash bilan birga, o‘quvchilar diqqatini bo‘lmasdan, boshqalarga xalaqit qilmay, ta‘lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishga ham yordam beradi. Alohida qayd etish joizki, mimik ifodalar o‘qituvchining xarakteri, ichki dunyosi, ma‘naviyati,

pedagogik faoliyatining individual xususiyatlarini bekam-u ko'st namoyish etadi. O'qituvchining mimikasi ifodalangan nigohi o'quvchilarga yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'ladi. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazmali qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilish aslo mumkin emas.

Pantomimika – bu o'qituvchining gavdasi, qo'l va oyoq harakatini tartibga soluvchi uslubdir. O'qituvchilarning ta'lim-tarbiya faoliyatida o'quvchilar bilan muloqoti muhim ahamiyat kasb etishi barchaga ma'lum. Biroq o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchining pantomimikasi, ya'ni gavda, qo'l, oyoq harakati to'g'ri ifodalanmasa, ta'lim-tarbiyaga asoslangan muloqot natija bermasligi mumkin. O'qituvchi o'z gavdasi, qo'li, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini «chiza» olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq bayon qilib, qo'l va boshini turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim (4-ilova, 1-rasm) (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyoq orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan holi bo'lishi kerak. Masalan, auditoriyada orqaga–oldinga tez-tez yurish, qo'llari bilan turli imo-ishoralari qilish (4-ilova, 2-rasm), boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, g'ashini keltiradi va o'rganilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otadi.

O'qituvchi mashg'ulot o'tish jarayonida faqat oldinga yurishi tavsiya qilinadi. Uyondan, bu yonga yurish talabalar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi mumkin, chunki bunda talabalar o'qituvchini butun diqqati bilan eshitayotgan bo'ladilar¹.

¹ A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA. 2011. – 163-164 betlar.

O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o'z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qizg'in kuzatuv ostida bo'ladi. Uning kayfiyatidagi o'zgarishlar pantomimik harakatlarida namoyon bo'ladi. Shu tufayli o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo'la olish qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o'qituvchiga birdaniga paydo bo'ladigan ko'nikma emas. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib bartaraf eta olishi darkor. Chunki yillar davomida o'qituvchi o'zining har bir harakatiga moslashib uni odat qilib olishi mumkin. Mukammal pantomimik malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi. *Pantomimik harakatlarda o'z hissiy holatini nazorat qilishda o'qituvchi quyidagi faoliyatlariga jiddiy e'tibor berishi maqsadga muvofiq:*

- ❖ sport bilan muntazam shug'ullanib borish;
- ❖ yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarni doimiy o'rganib borish;
- ❖ o'quvchilarga nisbatan xayrixohlik va optimizmga ega bo'lishi;

❖ o'z harakatini nazorat qilishi (mushaklar zo'riqishini, qo'l, oyoq va bosh harakatini, nutq tempini bir maromda saqlashda nafas olishini tartibga solish);

❖ madaniy hordiqni to'g'ri uyushtirishi (dam olishi, o'z sog'lig'iga doimiy e'tibor, lirika, musiqa, yumoristik hajviyalarni sevib o'qiy olish);

❖ o'z-o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lib, ta'sir ko'rsatish.

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining harakatlarida aktyorlik va rejissyorlik malakalari ham mujassamlashgan bo'lishi, xususan, gumanitar fanlar o'qituvchilari aktyorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlar haqida so'zlaganda aktyor-

lik, rejissyorlik malakalari zarur. Ular o'qituvchiga o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda, mavzu qahramonlariga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini o'zlashtirishiga yordamlashadi.

Pedagogik texnika malakalari o'qituvchining maxsus fanlar bo'yicha bilimlarni egallash, pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilish, o'z kasbiga qiziqish, burch hamda mas'uliyatni his qilish asosida oshiriladi. Ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash kerakki, o'qituvchining tashqi ko'rinishida nutq texnikasi, his-tuyg'ularini boshqara olish, mimik va pantomimik malakalar bir qolipda mukammal olib borilganda ko'zlangan maqsadga, albatta, erishiladi. Bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishora, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda uddaburonlik, osoyishtalik bilan ziddiyatdan chiqish, voqelikni oldindan ko'ra olish va adolatli tahlil qilishga asoslanish maqsadga muvofiq. Bu xususiyatlar o'qituvchining shaxsiy, individual psixik, fiziologik fazilatlarini asosida tarkib topadi. Pantomimik harakatlarni boshqarishda ham o'qituvchining individual pedagogik texnikasi, yoshi, jinsi, mijosi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi, avvalo, tarbiyachi sifatida o'zida yuqoridagi malakalarni shakllantirishi, ularning mazmunini chuqur o'zlashtirib, pedagogik texnikani egallashning imkoniyatlaridan foydalanishi kerak. Shunda u o'qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi.

Shunday qilib, o'qituvchining tashqi ko'rinishi ham pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib – tarbiyalanuvchilarga ko'rib, eshitib turgan narsalarini erkin fikrlash orqali, o'z mulohazalarini mustaqil, cho'chimasdan o'qituvchiga yetkazish imkoniyatini beradi. *«Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazirlashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin»* – deb yozgan edi mashhur pedagog A.S. Makarenko.

2.4. Konfliktogenlar haqida ma'lumot

Inson ilk bolalik davridanoq turli nizolar va ziddiyatlar bilan o'zi xohlamagan tarzda to'qnash keladi. Agar o'zimizning bolaligimizni esga olsak, oddiy narsalar ustida juda qattiq qayg'uranimiz, o'z his-tuyg'ularimizga berilib ketib, manfaatlarimiz himoyasi uchun kurashga kirganimizni anglaymiz. Masalan, urishib qolgan bolani o'zimizning ko'chadan o'tishga qo'ymaganimiz, bizga velosipedini bermagan bolani masxara qilishga uringanimiz, keyinroq esa sizning yangi kiygan chiroyli ko'ylagingiz boshqa qizlarning havasini keltirgani, ular sizni qutlash o'rniga «namuncha o'zingga zeb beribsan?!» deb piching qilgani, akangiz dars qilayotganida ataylab kassetani baland ovozda qo'yib qo'yganingiz yoki o'zingiz yaxshi ko'rgan o'yinchoqlaringizni mehmon boladan yashirganingiz mana shunday oddiy konfliktli vaziyatlardir. Bularning barchasi kundalik turmushda uchrab turadigan odatdagi nizo va kelishmovchiliklar hisoblanadi. Aytmoqchimizki, ilk bolalikdanoq, biz o'z maqsadlarimizga yetishish uchun boshqalar manfaatlarini bilan to'qnashamiz. Ammo ulg'ayganimiz sari ikki xil hodisa yuz beradi.

Birinchidan, bolaligimizda bizga katta ta'sir o'tkazgan kelishmovchiliklar ulg'ayganimiz sari bizga e'tiborsiz, kichik, jiddiy bo'lmagan hodisalarga, ba'zan esa kulgili holatlarga aylanadi. Ko'nglimizda «nima uchun shunchalik kuyingan ekanman?» deb o'ylaymiz. «Shu oddiy narsa menga qattiq ta'sir qilgan ekan-da...», deb xulosa qilamiz. Tabiiy ravishda, katta bo'lganimizda yoshligimizda urishgan bolani ko'chamizdan o'tkazmaslik yoki mehmondan biron narsani yashirish xayolimizga ham kelmaydi. Bolalik davrimizda hammamiz ham juda oddiy narsalar uchun kurashganmiz. Ammo hozir hech qaysi birimiz mehmon boladan o'z o'yinchoqlarimizni, o'yinchoqlar bizga qanchalik qadrlil bo'lmasin, yashirib qo'ymaymiz. Ya'ni, biz ulg'aygan sari konfliktlarga aqli rasolik va sipolik, sog'lom fikrlik asosida yondashamiz. Shubha yo'qki, ulg'aygan insonlar, ya'ni kattalar konfliktlarga kichiklarga nisbatan boshqacharoq yondashishadi.

Ikkinchi tomondan esa, ulg'ayganimiz sari, bizning hayotimizdagi kelishmovchilik, nizo va ziddiyatlar ham o'sib, ulg'ayib, kattaroq mazmun va mohiyat kasb eta boshlaydi. Masalan, talabalar o'rtasida ko'p uchrab turadigan holatlardan bir misol. *Bir yigit bir qizni yoqtirib qoldi. Ammo u yigitga emas, yigitning do'stiga e'tibor qaratdi. Yigitni «Nima qilish kerak?» degan savol qiynay boshladi. O'sha bola bilan bir «chekkaga» chiqib alohida gaplashib olish lozimligi haqida o'yladi. Ammo mana shu niyat to'g'rimi yo yo'q, yigit buni bilmasdi. Yigit o'z hissiyotlariga bo'ysunishga majbur bo'ldi. Emotsiyalar esa yigitni qasd olishga, baxti chopgan bolani bir «o'qitib» qo'yishga, orani «yigitchasiga» ochiq qilib olishga chaqirdi. Xulosa qilish kerakki, 17–18 yoshimizdagi bu his-tuyg'ular 40–50 yoshli odamga jizzakilik, hovliqmalik, o'ylamasdan ish tutish bo'lib ko'rinishi aniq. Chunki 40–50 yoshli inson ko'ngil ishi qiyin ekanligini, aslida qizni bironi tanlashga majburlab bo'lmasligini, bu uning shaxsiy huquqi ekanligini, shu bilan birga, qiz ko'nglini o'zi tomon og'dirib olish zo'ravonlik, kuch ishlatish, zo'rlik qilish orqali emas, balki boshqa, qizning ko'nglini oladigan ishlar orqali amaliyroq bo'lishini bilishadi. Shu bois, 40–50 yoshli odam o'zi yoqtirgan insonga nisbatan mehrliroq bo'lish, o'zining va uning manfaatlarini muhofaza qilish yo'lidan boradi. O'zi yoqtirib qolgan qizning aslida boshqa bir yigitni yoqtirishini bilib, bu yigitni do'pposlash orqali masala hal bo'lmasligini biladi va anglaydi. Chunki gap yigitda emas, qiz bolaning ko'nglida.*

Demak, yosh o'tgan sari konfliktlarning mazmuni ham, ularga bo'lgan munosabat ham o'zgarib boradi. Konfliktlar murakkablashaveradi, shunga yarasha odamlarning hayot tajribasi ham bosiqlik, mulohazakorlik, jiddiylik tomon o'zgarib boradi. Chunki inson ulg'aygan sari o'z his-tuyg'ularini jilovlashga, ularni ma'lum tartibga solishga, ularni boshqarishga o'rganadi. O'z emotsiyalarini boshqarish esa ziddiyatli vaziyatlarda nizolarning kuchayib ketmasligi, ularning chuqurlashmasligi, konfliktlarning to'g'ri yechimlari topilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hayotda shunday konfliktli vaziyatlar bo'ladiki, oddiy narsa bahona bo'lib, oilalar buzilib ketadi, odamlar bir-birini o'ldirish

darajasigacha boradi, natijada birovning joniga qasd qilinadi. Keyinchalik umr bo'yi nima uchun mana shunday amallarni qilganini ular tushuntirib bera olmaydi. Bunday voqealarni bugungi kunda ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali juda ko'p kuzatsa bo'ladi. Masalan, televizorda qaysi ko'rsatuvni ko'rishga kelisha olmagan o'gay ona va o'g'il bahsi oqibatida, mast bo'lgan o'g'il o'gay onasini o'ldirgan. Politsiyadagi tergov jarayonida o'g'il qaysi ko'rsatuvni ko'rishni istaganini eslay olmaydi; yoki qurilishda ishlaydigan ikki do'st orasida bahs kelib chiqadi. Biri ikkinchisini haqoratlab, buralab so'kadi. Bunga chiday olmagan ikkinchi do'st uni itarib yuboradi. Do'sti boshi bilan betonga tushadi va o'ladi; yana bir hayotiy voqea, qo'shnilar orasida janjal kelib chiqadi. Janjallas-hayotgan qo'shnilar yonidan o'tib ketayotgan mutlaqo ularga notanish odam otilgan o'qdan nobud bo'ladi. Qo'shnilardan biri qotillik uchun qamoqqa hukm qilinadi; yosh oila, ya'ni yangi turmush qurgan er-xotin ko'chada ketayotgan bo'ladi. Bir notanish yigit ularga kulib qaraydi. Er: «Nimaga senga qarayapti?» – deb jahli chiqadi. Uyg kelganda aybi bo'lmagan xotini urib, do'pposlaydi. Shu bilan, ko'chada xotiniga qaragan odamni jazolaganday bo'ladi, ammo xotini ko'nglida urish-do'pposlashdan so'ng mehr qoldimi, bu masala bilan qiziqmaydi. Bu kabi voqealar oddiy hayotdan olingan.

Demak, konfliktlar hayotimizning har bir bosqichida kelib chiqishi mumkin bo'lib, inson ulardan o'zini himoya qilishga doim tayyor turishi kerak. Chunki konfliktlar qo'qqisdan, odam ularni batamom kutmagan vaqtda, konflikt kelib chiqishining umuman ilojisi bo'lmagan hollarda ham vujudga kelishi, inson hayoti va tinchligini buzishi mumkin.

Konfliktlar kattalar hayotida ancha keng uchrab turadigan hodisa hisoblanadi. Chunki kattalar juda keng ravishda turli muloqotlarga kirishadi. Masalan, rahbar organlarda ishlagan odamlar hayotida ular faoliyatining 70–80 foiz turli ochiq-oydin yoki yashirin ziddiyatlar sharoitida o'tadi, ularning inobatga olinmasligi, ularga bee'tiborlik esa konfliktlarning chuqurlashib ketishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun, konfliktlarning kelib chiqish qonuniyatlari qanday vujudga kelgan konfliktning ildizlari va sabablarini tahlil qilish

bo'ladi, mana shunday o'zini tutishga biz tabiatan ma'lum darajada o'rgatilgan, tayinlanganmiz.

Agar inson konfliktning ilk qadamlaridanoq, «mana, konfliktning birinchi xususiyatlari boshlandi, ular nima oqibatlariga olib kelishi mumkin, kel, ulardan aql bilan o'zimni omon saqlab qolganim yaxshi», desa, demak u konflikt vaziyatlarga to'g'ri munosabat bildirgan bo'ladi. Chunki ziddiyatni boshlayotgan odamning bir-ikki daqiqadan so'ng emotsional-psixologik kayfiyati mutlaqo o'zgarishi mumkin, boshqa emotsional-psixologik kayfiyatda u o'zini batamom boshqacha tutishi shubhasiz. Shu bois, ko'pchilik oilalarda, erining qo'li yengilligini bilgan ayollar erining jahli chiqsa, hech bo'lmaganda qo'shnining uyiga chiqib, jon saqlaydi. Chunki bir-ikki soatdan keyin, eri o'ziga kelganida, balki u o'z xotinini urganligiga ichida achinar...

Konfliktli vaziyatlarning kelib chiqishida biz bilishimiz zarur bo'lgan narsa shuki, konfliktlarning kelib chiqishida «konfliktogen»lar juda muhim rol o'ynaydi.

Konfliktogen – konfliktga imkon beruvchi, konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatida tarjima qilinadi.

Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar yoki harakatlar konfliktogen deb ataladi.

Bu ta'rifda muhim bo'lgan so'zlardan biri «mumkin bo'lgan»dir. Chunki u konfliktogenlarning xavfini, ularning ichki tahdidini to'g'ri belgilab beradi. Konfliktga olib kelishi aniq bo'lmagan, ya'ni konfliktga olib kelishi «mumkin bo'lgan» narsalar ziddiyatga nisbatan uyg'oqligingiz va sezgirligingiz, ogohligingizni tinchlantirib, sizni aldab qo'yishi mumkin. Tanishingizga nisbatan har doim salomalikni quyuq qilsangiz-u, bir marta o'z ishlaringiz bilan o'ylanib, unga har doimdagidek e'tibor qaratmasdan, oddiy «Salom?» deb o'tib ketasangiz, u sizdan qattiq xafa bo'lib qolishi mumkin. «O'zini katta tutyapti, behurmatlik qildi, nima men uning arpasini xom o'rdimmi?! Salom bermasa o'ziga?! Ja, katta ishga o'tdim deb, dimog'i ko'tarilib ketibdimi?..» Bunday holatda orada noqulay ah-

vol kuzatiladi. Keyingi gal u siz bilan sovuq, rasmiy muomala qiladi. Endi sizda o'ylanish hissi paydo bo'ldi: «Nima bo'ldi bunga?! Nimaga o'zini bunday tutyapti?! Xuddi men bilan urishib qolgan-day... Uni xafa qilmagandim, shekilli...» singari.

Konfliktogenlarning ayyorligi shundaki, biz o'zimizning so'zlarimiz va amallarimizga emas, balki bizga aytilgan boshqa odamlarning so'zlari va amallariga ko'proq e'tibor beramiz. Boshqa odamlarning so'zlaridagi intonatsiya, mimika va ma'no uning bizga nisbatan munosabati haqidagi axborot, ya'ni ma'lum informatsiyani bildiradi va beradi. Ammo o'zimiz birovlariga so'z aytganimizda, har doim ham, so'zlar ma'nosi nimani anglatmoqda, bizning mimikamiz, ovozimiz, qo'l harakatlarimiz, intonatsiyamiz yana qanday qo'shimcha axborotni birovlariga uzatayotganligiga e'tibor bilan qaramaymiz. Ko'pchilik hollarda bu narsa intuitiv tarzda kechadi.

Demak, biz boshqalardan kelayotgan informatsiyani diqqat bilan filtrlaymiz, o'zimiz jo'natayotgan informatsiyani esa filtrlamasdan, to'g'ri jo'natamiz. Shu nuqtayi nazardan, hammamiz o'zgalardan kelayotgan axborotga emotsional yondashamiz, o'zimizdan ketayotgan informatsiyani esa ko'proq shundayligicha, ya'ni boricha jo'natamiz. Ba'zan xotin-qizlar haqida «Ayollar o'zi aytgan gaplarga diqqat qilmaydi, ammo o'zi haqida boshqalar aytgan so'zlarni diqqat bilan eshitadi», deyiladi. Ammo aslida biz hammamiz shunday qilamiz. Bu holat, o'z manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan intuitiv himoyaning natijasi hisoblanadi. Ammo birovlarning manfaatlarini ham muhofaza qilish yoki hurmatlash lozimligi xayolimizga ham kelmaydi. Demak, konfliktli vaziyat – biz jo'natayotgan va qabul qilayotgan axborotlar orasidagi hissiy-emotsional hamda psixologik muvozanat buzilganda yuzaga keladi. Ana shunday hayotda uchrab turadigan konfliktogen vaziyatlar chuqur ziddiyatlarning kelib chiqishini ta'minlashi mumkin.

Konfliktogenlar ko'payib, ular majmuaga aylanganda, konflikt tug'iladi. Konfliktogenlar eskalatsiyasi qonuniy ravishda konfliktga olib keladi. Bizga kelayotgan axborotlar konfliktogenlar bilan to'lgan bo'lsa, biz unga tabiiy ravishda o'zimizdagi konfliktogenlar bilan javob beramiz. Talabalar o'rtasida turmush qurgan yangi ke-

linlar bo'lganligi sababli, kelinlar hayotidan bir misol: faraz qiling, oila. Qaynona va kelin. Kelin yangi tushgan. Hali oilaning tartiblari yaxshi o'zlashtirmagan harnda taom tayyorlashni bilmaydi. Bu borada qaynona erinmay hamraaga axborot berib o'tadi. Kelining uddaburon emasligidan mun'azam noliydi. Kelin o'zicha eziladi, yaxshi kelin bo'lishga astoydil harakat qiladi, ammo unda tajriba yo'q. Kelin qaynonaga o'zining ahvoli haqida gapirishdan qo'rqadi. «Ular meni tushunmaydi, o'zim aybdorman», deb o'ylaydi. Asta-sekin turli qochirim gaplardan zerikkan kuyov ham kelinni ovqat pishira olmaslikda ayblay boshlaydi. Aslida kelin ovqat pishirishni bilmasa ham, yaxshi inson bo'lishi mumkinligi hech kimning aqliga kelmaydi. Kelin – ovqat pishirishi shart! Vassalom. Mazkur axborot, ya'ni kelinning qo'li shirin emasligi atrofdegilar ongiga singib boradi. Kelin esa ovqat pishirishni astoydil o'rgana boshlaydi. Shu bois, kelin ancha yaxshi ovqat pishira boshlaganini ular sezishmaydi. Kelin esa yangi oiladagi yaqin qarindoshlardan o'ziga nisbatan yaxshi muomala kutadi. Biroq uning asta yaxshi pazanda bo'lib qolganini hech kim kelining aytmaydi va bildirmaydi. Uning peshonasiga umrbod «ovqat pishirishni bilmagan kelin» muhri bosilib bo'lingan va uni o'chirishning ilojisi yo'q.

Kelinning ko'nglida qaynonaning muntazam ayblari asosida *konfliktogenlar* haddan ziyod ortadi, ular yig'ila boshlaydi. Izza bo'lgan kelin qalbi har qanday axborotlarni passiv va salbiy tarzda qabul qilishga ko'nikib boradi. Qaynona kunlarning birida, yana bir marta, qaynotasi, qarindoshlar va kelinning o'zi oldida, uning ayblari haqida gap boshlaganda, qaynona konfliktogenlari kelin konfliktogenlari bilan to'qnashib, kelin qalbida emotsional portlash yuz beradi. Mazkur emotsional portlash hammani dovdiratib qo'yadi. Kim aybdor, kim haqligiga o'rgangan odamlar darrov o'zini oqlashga o'tadi. Bir tomonda kuyov – o'z xotini va o'z onasi o'rtasida kimning yonini olishni bilmay qoladi. Qaynota, kelindan ko'ra, o'z xotiniga ko'proq ishonadi. Har holda kelinning qo'li shirin emasligi ayon. Natijada, oila hayotiga «rejali ravishda kiritilayotgan, tarbiyalanayotgan va o'stirilayotgan» janjal – *konfliktogenlarning* haddan ziyod ortishi oqibatida kutilmagan holda

kirib keladi. Aslida mazkur holatda oilaviy janjalni «kutilmagan» deyish noo‘rin, chunki adolatsizlik adolat o‘matilishini talab etadi. Haddan ziyod yerga urilgan inson o‘z haqqi va huquqlari uchun kurasha boshlaydi.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ularning barchasini unumlashtirgan narsa shundaki, insonlararo konfliktogenlarning to‘qnashuvi konfliktga olib kelishidir. Agar siz hayotingizda ro‘y bergan biron konfliktni mana shunday tarzda tahlil qilsangiz umumiy ssenariy o‘xshash bo‘lganligiga iqror bo‘lasiz.

Yuqoridagi oilaviy mojaroning xususiyati shundaki, unda na qaynona, na kelin, na boshqalar mana shu holat juda qattiq ziddiyatga olib kelishini tushunmaganlar yoki bilmaganlar. Qaynona «Kelinni tarbiyalayapman» deb o‘ylagan, kelin ham «Men rosa harakat qil-yapman» deb o‘ylagan. Ularning ikkisi ham «biz oilamizda ataylab janjal ko‘taramiz», – deb harakat qilmagan. Yuqoridagi vaziyatda qaynonaning ham, kelinning ham o‘z oilasida konflikt chiqqanidan xursand bo‘lgan deb ham bo‘lmaydi. Ular buni istamagan edi, ammo janjal yuzaga keldi. Mazkur vaziyatning davom etishi oilaviy janjal bilan tugashi tabiiy edi.

Konfliktogenlar tahdidiga uchragan odam, odatda, o‘zining psixologik va emotsional holatini himoya qilishga o‘tadi. Shu bois u konfliktogenga nisbatan o‘zidagi emotsional tahdid bilan munosabat bildiradi. Mazkur emotsional tahdid ko‘pchilik hollarda ovoz, mimika, intonatsiyadagi agressiya bilan ifoda qilinadi. Agressiyaga doim o‘ziga yarasha agressiya bilan javob qaytariladi. Ammo o‘ziga qaratilgan agressiyani bosib ketish uchun javobiy agressiya yanada kuchliroq bo‘ladi. Chunki odam «buni adabini berib qo‘ymasam, shunday bo‘laveradi», – deb o‘ylaydi. Natijada har ikki tomonda konfliktogenlar miqdori keskin orta boradi. Inson emotsional va psixologik holati unga qarata yo‘naltirilgan haqorat, piching, kesatq, so‘kish, nafsoniyatga tegish, zo‘ravonlik, o‘z fikrini o‘tkazishga intilish, tazyiq kabilarga doimiy ro‘y beradigan adolatsizlikka bundan o‘zgacha munosabat bildira olmaydi.

Insonlar orasidagi turli munosabatlarni tartibga solish uchun har bir millatda etik va estetik qadriyatlar shakllantiriladi. Shu bois

odamlar milliy axloqiy qadriyatlar va normalar asosida tarbiya qilinadi.

Shuning uchun ham bizga kichik paytimizdanoq birovni be-kordan bekorga xafa qilmaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik va so'kmaslikni o'rgatishadi. Ammo hamma ham ana shu qoidalarga ri-oya qilmaydi. Eng qiyin bo'lgan narsalardan biri, o'zingni juda qattiq xafa qilgan odamni kechirish hisoblanadi. Ayb qilgan odamni kechi-rish lozimligi hamma dinlarda uqtiriladi. Xristian dinida «Sening bir yuzingga urgan odamga, ikkinchi yuzingni tut», deb aytiladi. Islom dinida muqaddas bayramlarda dushmanlar bir-birlarining gunohlari-dan o'tishi lozimligi tayinlanadi. Ammo real hayotda birovning aybidan kechgan odamlar juda kam topiladi. Shu bois o'zbek xalqi «Kechirimli bo'lish – mardning ishi» deydi. O'zini muhofaza qilish insondagi tabiiy va eng kuchli instinktlardan hisoblanadi. Shu sabab-li odamlar zarracha bo'lsa ham o'ziga zarar bo'lmaslikka urinadi.

Konfliktogenlar eskalatsiyasi yuzaga kelmasligi uchun:

➤ konfliktogenlarning o'zingiz va atrofdagilar yuragida yig'ishiga yo'l qo'ymaslik;

➤ konfliktogenlar vujudga kela boshlaganda esa, ulardan o'z fikri va ongini ozod qilish yo'llarini qidirish;

➤ o'zimizda vujudga kelishi mumkin bo'lgan konfliktogenlar boshqalar ko'nglida ham yuzaga kelishi mumkinligini nazarga olishimiz darkor.

Mana shu natijalarga erishishda konfliktogenlarsiz muo-mala yuritish qoidalari qo'l keladi:

1. Konfliktogenlardan foydalanmang, ularni o'z vaqtida, ildiz otib ketmasidan yo'qotishga harakat qiling.

2. Konfliktogen bilan to'qnashganda unga o'zingizdagi konfliktogen bilan javob qaytarmang.

3. Konfliktogen bilan munosabat bildirayotgan odamga, shuningdek umuman har qanday suhbatdoshingizga empatik (birovning histuyg'ularini anglash asosida) munosabat bildiring. Empatik munosabat o'rnatish uchun suhbatdoshingizga xush keladigan mavzularni tanlang, unga maqtovli so'zlar ayting, kulib suhbatlashing, so'zlarini diqqat bilan eshiting va hokazo.

4. Imkon qadar ko'proq ijobiy his-tuyg'ular ulashing. Konfliktogenlar maxsus garmonlar natijasi hisoblanadi. Agar o'zingizning kayfiyatingizni yaxshilik sari yo'naltirsangiz, konfliktogenlarni yengishga imkon tug'iladi. Konfliktogenlar insonni kurash, ziddiyat va nizoga yo'naltiradi. Bu esa organizmda adrenalinning ko'payishiga olib keladi. Adrenalin konfliktogen bilan qo'shib, g'azab, jahl, agressiyaning kuchayishiga sabab bo'ladi. Odanning qattiq g'azablanishi ko'p adrenalinni keltirib chiqaradi. Uning inson salomatligiga bo'lgan juda katta salbiy ta'siri mavjud. Ammo chiroyli suhbat inson organizmida «baxt garmonlarini» yuzaga keltiradi. Shundan foydalanishga harakat qiling.

Konfliktogenlarning ko'pchiligini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- o'zini ustun qo'yish;
- agressiyaga moyillik;
- egoizm.

O'zini ustun qo'yish quyidagi amallarda namoyon bo'ladi.

O'zini ustun qo'yishning ochiq ko'rinishlari: buyruq berib gapirish, tahdid qilish, birovni niqtab turish, salbiy munosabatlar, tanqid, ayblash, birov ustidan kulish, istehzo, piching, kesatq.

Yashiringan ustun qo'yish hollari: tashqi ko'rinishdan yaxshi munosabat sifatida qabul qilsa bo'ladigan ustunlik. «Tinchlaning», «Aqlli odamsiz-u, ammo...», «Hayronman, nimaga xafa bo'lasiz...», «Shuni ham bilmaysizmi?!», bunday vaziyatlarda tashqi qo'rinishdan mayin ohang tanlansa ham, bu holat konfliktogen holat sifatida baholanadi. Masalan, o'qituvchi o'quvchiga «Nihoyat darsni bajarib kelibsan-da», – deydi. O'quvchi xafa bo'ladi. U «Nima hech qachon dars bajarib kelmaganmanmi?!», – deb o'ylaydi.

Maqtanchoqlik: o'z marralari va yutuqlari haqida ko'pirib gapirish, shu bilan birga, o'z g'alalar marralarini pastga urish, ularni «o'z o'miga qo'yib qo'yish» istagi.

Qat'iylik, fikr va qarashlar keskinligi: o'z fikrlarining to'g'riligiga haddan ziyod ishonish, qarashlarni bildirishdagi keskinlik, faqat o'zi to'g'ri so'z ayta olishi mumkinligiga ishonch, birovlar fikrini o'ylab ham ko'rmaslik, «Bizning og'aynimiz guruh sardori

bo'lganlar-da, shuning uchun o'zlarini juda aqlli deb biladilar...», «Hamma narsani bilaman deysiz-u, oddiy masalani hal qilishga yordam berolmaysiz...», «Faqat bilag'onlik qilasiz, o'rtoqlaringiz fikrini eshita olmaysiz...», «Sen nimani bilarding...» qabilidagi so'zlarni ishlatish.

Bu vaziyatdagi konfliktogenlar «Hamma o'g'il bolalar – rostgo'y», «Hamma qizlar – yolg'onchi», «Hamma – o'g'ri», «Bo'ldi gapingni to'xtat...», «Eee, bugungi yoshlar buzilgan...», «Eee, kattalar hech narsaga tushunmaydi...» kabi kirish so'zlar bilan ham anglashiladi. Masalan, yoshlarni qiziqtirgan musiqa, kiyim, moda, o'zini tutish, salomlashish kabilar kattalarning jig'iga tegishi mumkin. Bunday fikrlar ochiqchasiga bildirilganda yoki ularni bola tafakkuriga majburiy kiritishga urinilganda, yoshlar o'z ota-onasidan ma'lum axborotlarni yashirishga tushadi yoki o'z odatlarini himoya qilish yo'lini tutadi.

O'z maslahatlari va fikrlarini majburiy singdirish va qabul qilinishiga harakat qilish. Odatda, maslahat faqat mana shu maslahat so'ralgan taqdirdagina berilishi lozim. Ammo ko'pchilik hollarda biron muammo muhokama qilinayotgan bo'lsa, o'zini katta tutgan odam yoki yoshi ulug'roq odam, albatta, maslahat qila boshlaydi. Maslahatni esa yo qabul qilish yoki uni inkor qilish mumkin. Maslahat qabul qilinsa, uni bergan odam xursand bo'ladi, maslahat ochiqchasiga inkor etilsa, uni bergan odam, eng salbiy munosabatda, «Meni mensimadi, gapimga kirmadi» deyishi mumkin. Masalan, tajribasiz yosh o'qituvchi o'quvchilariga avtoritar uslubda yondashgan holda, har doim o'z topshiriqlarini majburiy bajarishga va buyruqona fikrlarini o'quvchilarga singdirishga harakat qilishini «tarbiyalash» xususiyatiga kiritadi. Yoki qaynonaning qanday uy tutish lozimligi bo'yicha o'z kelinini niqtab turishi ham «tarbiyalash» xususiyatiga kiritiladi.

Suhbatdosh so'zlarini bo'lish. Suhbat faqat bir tomonning emas, balki ishtirok etayotgan har ikki tomonning muloqoti hisoblanadi. Ammo ko'pchilik hollarda ba'zi odamlar faqat o'z tuyg'ularini gapirishga e'tibor qilib, o'zga odamni eshitishga sabr-qanoat qilmaydi. Boshqa tomon ham o'z fikrlarini bildira boshlasa, uning

so'zlari keskin bo'linadi, «A, nima deding...» deb eshitilmaydi, o'z hamsuhbatiga e'tiborsizlik ko'rsatiladi. Masalan, avtoretar uslubda boshqaruvchi fakultet dekani faqat gapiradi-yu, o'qituvchi o'z fikrini bildira olmaydi. O'qituvchining o'z fikri borligi inobatga ham olinmaydi. Yoki avtoretar uslubda boshqaruvchi kafedra mudiri gapiradi-yu, o'qituvchi o'z fikrini bildirishga urinsa, «Nima, siz menga aql o'rgatmoqchimisiz?!» qabilida agressiya bilan munosabat ko'rsatiladi. Bu bilan o'z so'zlarining boshqalar fikrlaridan muhimroq ekanligini ko'rsatish, faqat o'zi gapirishga harakat qilish, boshqalarga so'z bermaslik orqali o'z ustunligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. O'z ustunligini doimo ko'rsatishga intilish ko'pincha boshqalar huquqlarining kamsitilishi evaziga bo'lishi inobatga olinmaydi.

Informatsiyani yashirish. Odamlar hayotida axborot muhim rol o'ynaydi. Axborotni yashirish kishilarda shubha uyg'otadi. Shu bilan birga, axborotni yashirgan kishiga nisbatan ishonchsizlik vujudga keladi. Oqibatda odamlar orasi va munosabatlari buzilishi uchun asos tug'iladi. Ayrim jamoa rahbarlari ko'proq, jamoasidan barcha uchun muhim bo'lgan ba'zi ma'lumotlarni yashirib, ulardan jamoani bexabar qoldirishi, masalan, shtatlar qisqarishi, mukofotlardan yoki chet mamlakatga chiqish uchun kelgan xizmat safarlarni yashirishga harakat qilishadi.

Birovning ustidan kulish. Birovning ustidan istehzo bilan kulish, uni masxara qilish agressiyaning psixologik turlaridan hisoblanadi. Birovning ustidan kulish inson huquqlarini buzishga yo'naltirilgan bo'ladi. Odatda javob bera olmaydiganlar ustidan kulgi qilinadi yoki ana shu vaziyatda konkret o'quvchi kulgiga nisbatan ma'lum sabablarga ko'ra javob qaytara olmaydi. Inson ustidan kulish uning nafsoniyatiga tegadi va uzoq vaqt dilda o'mashib qoladi. Talabalikda mazah qilingan «semiz»lar, «omi»lar, «qishloqi»lar, «turqi sovuq»lar keyinchalik o'z ustidan kulgan o'rtoqlariga qarshi harakat olib borgani yoki «birinchi muhabbati» hamma tomonidan kulgi ostiga olingan yigitlar keyinchalik o'z dushmanlaridan qaqshatgich qasos olgani borasidagi hayotiy misollar ko'p. Ko'pchilik hollarda kulgi ostida qolgan o'quvchi qulay vaziyat poylab o'z javobini tayyorlaydi.

Aldash yoki aldashga harakat qilish. Eng ashaddiy konflikto-genlardan hisoblanadi. Yigitlar ham, qizlar ham o'zlarini aldashga yo'naltirilgan harakatlarni kechira olmaydilar. Odatda aldash orqali yuzaga kelgan hissiy-emotsional holat juda uzoq vaqt ongda saqlanib qoladi hamda unur bo'yi konfliktogen rolini o'ynab keladi. Aldash orqali odam yuragida yuzaga kelgan alam ko'p hollarda umuman yo'qolmaydi va o'chib ham ketmaydi. Bu alam bot-bot odamlar orasiga yangitdan nizo solinishiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qizlar o'z dugonalarining sunkasidan ruxsatsiz o'quv qurollarini olganini yashirganini kechira oladilar, ammo «o'g'irlasalar» mutlaq kechira olmaydilar. Agar ana shunday holatlarga o'xshash vaziyatlarda aldash vujudga kelgan bo'lsa, tomonlar munosabati barbod bo'lishi tabiiy. Umuman olganda, hayotda aldash, aldashga harakat qilish yaxshi, samimiy munosabatlarni ichdan va zimdan qo'poradi.

Suhbatdoshining biron kamchiligi yoki muvaffaqiyatsizligini doimo ta'kidlab o'tishga harakat qilish. Birovlarning ishi yurishmaganidan xursand bo'lish, o'zi yoqtirmagan odamlarning hayotida biron korhol bo'lsa, undan quvonish, ba'zi odamlarning ustidan muntazam kulish, kamchiliklarni ro'kach qilish, mana shu holatlarda o'zini yaxshi his qilish o'zini ustun qo'yishning turlaridan biri hisoblanadi. Muvaffaqiyatsizlik hamma bilan ham sodir bo'lishi mumkin, kamchilik va xato esa, u tuzatilmaguncha kamchilik va xato bo'lib qoladi, agar tuzatilsa, u xato bo'lmaydi. Muvaffaqiyatsizlikdan hech kim o'zini muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Shu bois o'z do'sti, hamkasbi, o'rtog'i, qarindoshi, eri va yoki xotinining biron kamchiligini umrbod ushlab olib, doimo uni ta'kidlayverish, uni muntazam esga solish, o'z ustunligini ko'rsatish uchun ro'kach qilish oxir-oqibat juda katta konfliktni keltirib chiqarishi mumkin.

O'z ustidagi mas'uliyatni birovlar ustiga yuklash. Hayotda o'z mas'uliyatidagi vazifalarda befarq yondashish hollari uchrab turadi. Masalan, ko'p hollarda biron narsa qilib berilishiga va'da qilinadi. Ammo o'zi qilib berishi lozim bo'lgan vazifa boshqalar zimmasiga yuklatiladi. Ammo boshqalar bu vazifani bajarmaydi. Natijada orada ziddiyat vujudga keladi. Masalan, guruh sardori pedagogik amaliyot bo'yicha taqdimot qilishi lozim edi. Uning o'rtog'i «Men o'zim

zo'r taqdimot tayyorlab kelaman, sen buni o'ylama», – deb ishon-tirdi. Ammo yig'ilish arafasi taqdimot tayyorlanmaganligi ma'lum bo'ladi. Chunki va'da bergan talaba, bu ishni boshqa bir talabaga topshirgan bo'ladi. U talaba taqdimot tayyorlashni va'da bergan ta-labadan qarzdor bo'ladi. U esa va'da bermaganligi uchun, «Nima uchun men taqdimot tayyorlashim kerak, o'zimni ishlarim boshim-dan oshib yotibdi», deb o'ylaydi. Natijada konflikt yuzaga keladi.

Pul qarz so'rash. Eng keng tarqalgan konfliktogenlardan hi-soblanadi. Pul qarz so'rash pul so'rayotgan odamda noxush his-tuyg'ularni uyg'otadi. Ammo unga qarz berilganda ham konflikt kelib chiqishi mumkin. Chunki bu qarz o'z vaqtida qaytariladimi yo'qmi, ma'lum emas. Qarz bilan sinash ko'p hollarda qarindoshlar, do'stlar, birodarlar orasini buzib yuboradi.

2. Agressiyaga moyillik. Ko'pchilik agressiyaga moyillikni fa-qat yigitlarga xos xususiyat deb biladi. Aslida unday emas. Agressi-yaga moyillik ham yigitlarga, ham qizlarga xos xususiyatdir. Ammo yigit va qiz agressiyasi hamda uning qanday ifodalanishi orasida juda katta farq mavjud. Yigitlar agressiyasi o'zini ochiq ifoda qiladi. Yigitlar agressiyasi o'zi uchun ko'proq jismoniy kuch ishlatish shak-lini tanlab oladi. Qizlar agressiyasi esa ochiq ifodalanmaydi. Ular orqadan, asta, bilintirmay, zimdan harakat qiladi. Ularni «Sen shu ishni qilding» deb ushlab olish juda qiyin kechadi, chunki qizlar ko'proq psixologik agressiyani tanlashadi va ishlatishadi. O'z op-ponentini psixologik ezish, uni tahqirlash, unga bepisand munosa-batda bo'lish qizlar agressiyasining shakllari hisoblanadi. Yigitlar agressiyasi darrov o'zini namoyon etadi. Urish, jismoniy tazyiq, turtish, bir tushurish, bo'g'ish, jismoniy harakatlarni cheklash, do'q qilish, shantaj – bular yigitlar tomonidan ko'proq qo'llanadigan ag-gressiya turlari hisoblanadi. Qizlar agressiyasi keskin ish tutmaydi, asta, zimdan ish tutadi. Ko'pchilik hollarda qizlar agressiyasi oila-dagi a'zolarga nisbatan qo'llaniladi. Birovni kamsitish, ruhiy ezish, o'z kayfiyatini birovni ezish oqibatida normallashtirish, «kulib tu-rib, jonini olish» qizlar agressiyasi hisoblanadi. Qizlar urnasdan turib, boshqa insonni juda katta ruhiy tanglik holatiga olib kirib qo'yishi mumkin. Bir qaraganda yigitlar agressiyasi ochiq namoyon

bo'lganligi uchun bezarardek ko'rinadi. **Aslida har ikki tur agressiya ham juda yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin.** Yigitlar agressiv munosabati oqibatida opponent tomon qattiq jismoniy jarohat olishi mumkinligi ayon. Qizlar agressiyasining keng tarqalgan oqibatlaridan biri – bu depressiya. Depressiyaning oqibatlari ham insonga juda katta tashvishlar olib keladi. Depressiya holatiga chuqur kirib ketgan odam ko'p hollarda o'z joniga suiqasd qilishi mumkin. Agressivlikka moyillikning oldini olish ta'lim va tarbiya, insoniy qadriyatlar, diniy e'tiqod tizimida yetadi. Inson o'zida agressiyaga moyillikni sezsa, unga qarshi o'zini to'g'ri shakllantira borishi lozim. Agressiya u yo'naltirilgan odamning ham, uni ishlatayotgan, agressiyani qo'llayotgan odamning ham salomatligiga juda katta putur yetkazadi.

3. Egoizm. Faqat o'z manfaatlarini ko'rish qobiliyati bo'lib, o'zbek tilida xudbinlik so'ziga to'g'ri keladi. Xudbinlik forscha so'z bo'lib, ikki ildizdan tashkil topgan: «xud» – o'z, o'zim ma'nolarini bildiradi, «bin» – ko'rish ma'nosini bildiradi. Demak, xudbin so'zining ma'nosi faqat o'zini ko'rishga to'g'ri keladi. Doimiy agressiyaning ildizlaridan biri egoizmga borib taqaladi. Egoizm – o'z manfaatlarini boshqalar manfaatlarining buzilishiga qaramay, eng oliy qadriyat sifatida anglanish jarayoniga aytiladi. Shu bois, fransuz lingvisti P. Buast «*xudbinlik ustidan qozonilgan g'alaba eng sharaffi g'alabadir*», – deb aytgan. Fransuz yozuvchisi S. Segyur esa, «*xudbin uchun – o'tmish – bo'shliq, hozir – qaqroq cho'l, kelajak esa – ahamiyatsizdir*», – deb ta'kidlagan.

Insonning o'z-o'ziga munosabati tabiatan o'zini o'zi ma'qullash, o'zini sevish, o'ziga oro berish, o'zini chiroyli tutish, o'zini «yaxshi» inson sifatida ko'rsatish asosida shakllantiriladi. Bolalikda kichkintoylarni o'z yuz-ko'zini orasta tutishini o'rgatayotganda biz, odatda, ularga «hozir qo'llarimiz va yuzimizni yuvib, oppoqqina bo'lib olamiz», deymiz. Mana shu «oppoqqina» bo'lish tartib va qoidalari har bir insonga bolalikdanoq singdiriladi. Shu bois insonning ichki o'zini anglashida «men» degan tushuncha tarbiyalanishi lozim va zarur. Inson «men»i uni ijtimoiy hodisa sifatida shakllanilishi uchun asos yaratadi. Yutuqlarga erishish, o'zini ko'rsatish, hurmatga

sazovor bo'lish mana shu ichki «men»ning sa'y-harakatlari asosida amalga oshiriladi.

Demak, ichki «men»ni nimalarga yo'naltirilsa, oxir oqibat shu qadriyatlarga mutanosib xarakter va amallar shakllantiriladi. Ammo ana shu ichki «men» boshqa yuzlab «menlar»ga qarshi, ularni inkor etgan holda emas, balki ular bilan birgalikda yashashga ko'nikkan holda tarbiyalanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan inson ichki «meni» bilan bog'liq ravishda sog'lom «egoizm» va nosog'lom «egoizm»ga ajratiladi. Sog'lom egoizm insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun energiya beruvchi kuch hisoblanadi. Nosog'lom egoizm esa insonlarni o'zga inson bilan to'qnashuvi, ziddiyatlar, o'zini ustun qo'yish, kelisha olmaslik, o'zgalarni inkor qilish uchun xizmat qiladi.

Shunday qilib, konflikt inson hayotining tabiiy ajralmas qismi bo'lib, konfliktlar mazmunini bilish insonni konfliktli vaziyatlarda o'zini tutish tartib-qoidalariga o'rgatadi. Konflikt mazmunining murakkab kelib chiqish vaziyatlarini anglash esa insonni ana shunday bilimlar bilan qurollantiradi. Shu bois konfliktning oldini olish uchun quyidagi amallarga rioya etish ahamiyat kasb eta boshlaydi:

- ❖ konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar yoki harakatlardan iborat bo'lgan konfliktli vaziyat va holatlardan o'zini va atrofidagilarni asrash, konfliktogenlarga e'tiborli bo'lish;

- ❖ konfliktogenlar ko'payib, ularning majmuuga aylanishining oldini olish, konfliktogenlar eskalatsiyasiga yo'l qo'ymaslik;

- ❖ konfliktogenlarga konfliktogen bilan javob qaytarmaslik;

- ❖ konfliktogenlar bilan to'qnashganda o'zini himoya qilishga emas, balki nima uchun opponentda konfliktogen vaziyat va holat vujudga kelganiga diqqatni qaratish;

- ❖ o'zida vujudga kelayotgan konfliktogenlardan qutilish va ularni faol ishlatmaslik choralarini ko'rish;

- ❖ jiddiy konfliktogenlardan bo'lgan o'zini ustun qo'yish, aggressiyaga moyillik, egoizmdan qutilish hamda boshqalar tomonidan ular ishlatilganda ham o'zining konfliktli vaziyatga tortilmaslik choralarini ko'rish.

2.5. Konfliktli vaziyatda agressiya va zo'rvonlik



4-rasm.

shu mumkin. Konfliktli vaziyatlarda ko'pchilik o'z instinktlari va hissiyotlari asosida o'zini tutishga o'rganib qolgan. Bunday holni ko'pchilik qabul qiladi va aynan mana shu yo'l to'g'ri deb biladi. Shu bois, konfliktli vaziyatda zo'rvonlik ishlatilsa, birovning hayotiga tahdid solinsa, jismoniy kuch ishlatish qo'llanilsa, ko'pchilik tomonidan ziddiyatli vaziyat sodir bo'lganda «kechirimli bo'lish» lozimligini, bunday holatning kelib chiqqanligini anglash mumkinligi ta'kidlanadi. Ammo har qanday vaziyatda ham birovning hayoti, uning sog'lig'iga zo'rvonlik o'tkazib bo'lmasligini unutiladi.

Zo'rvonlik aslida inson xarakterining qusuri, uning kamchiligi hisoblanadi. Odam o'z hissiyotlari ustidan nazorat o'tkaza olmasligi yoki o'zini tiya bilmasligi uning zo'rvonlikka ruju qo'yishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Zo'rvonlik insonning kuchli ekanligini emas, balki aksincha uning kuchsiz va irodasiz ekanligini ko'rsatadi. Shu bois o'qituvchi o'z o'quvchilariga zo'rvonlik o'tkazganda, bunday zo'rvonlik irodasizlik belgisi sifatida baholanishi tabiiydir.

Agressiya va zo'rvonlik o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, inson kayfiyatida aggressiv holatlarning o'sib borishi va to'planishi oqibati sifatida zo'rvonlikka olib kelishi mumkin. Lotin tili-da agressiya «hujum qilish» ma'nosini anglatadi. Agressiya inson xarakterida tug'ma va tabiiy bir element sifatida, shuningdek agressiyadan asli uzoq odamning favqulodda vaziyatda o'z emotsiyalarini tuta bilmasligi (4-rasm), ularni nazorat qila olmasligi oqibatida vujudga kelishi mumkin.

Zo‘ravonlik aslida barcha madaniyatlar, sivilizatsiyalarda qoralanadi. Zo‘ravonlik barcha sharqona kurash turlari, ya‘ni *dzyu-do*, *taekvon-do*, *karate*, *ushu* va boshqalarda ta‘qiqlanadi. Mazkur kurash turlarining barchasi hujum qilish usullari emas, balki *o‘zini himoya qilishning jismoniy yo‘llari* hisoblanadi. Ularning barchasida inson hayoti aziz ekanligi borasidagi ma‘naviy falsafa tarbiyalanadi va o‘qitiladi. O‘zbeklarning milliy kurashida ham o‘zini himoya qilish vositalari va o‘zaro tenglik g‘oyalari tarbiyalanadi.

Zo‘ravonlik qo‘llanilganda konfliktning yaratuvchanlik xususiyati emas, vayron etish xususiyati faol bo‘ladi. Konfliktning vayron etish xususiyati esa insonni stress, depressiya, o‘zgalardan o‘zini olib qochish, hayotdan bezish, o‘z kuchiga haddan tashqari ishonch, boshqa tarafdin o‘z kuchiga ishonmaslik, doimiy jahldorlik, jizzakilik, tajanglik, besabrlilik, besaranjomlik kabi holatlarga olib keladi.

Zo‘ravonlik ishlatgan insonlar ko‘pchilik hollarda ma‘naviy jihatdan to‘la shakllanib bo‘lmagan, ma‘lum «kompleks»larga ega bo‘lgan, ma‘naviy majruh odamlardir. Ular aslida o‘zlarini juda past baholashadi, ular o‘zlarining «nosog‘lom» ekanliklarini intuitiv tarzda anglashadi, shu bois bu xususiyatlarning mavjud ekanligini ko‘rsatmaslik, oshkora etmaslik, birovlar mazkur «past» baholanishni bilib qolmasligi va sezmasligi uchun, tashki ko‘rinishda va muomalada zo‘ravonlik yo‘lini, agressiv usulni, jahl va tahdidga asoslangan «o‘zini tutish» yo‘nalishini tanlashadi. Ular aynan zo‘ravonlik orqali o‘zlarining kuchini ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar, ammo ruhan bunday odamlar ruhiy majruh va psixologiyasi mo‘rt insonlardir.

Pedagogika va psixologiya to‘g‘risida ma‘lumotga ega insonlar darhol mana shu agressiya ortida insonning o‘ziga ishonchi mavjud emasligini bilib olishadi. Demak, o‘zini zo‘ravon va jahldor qilib tutayotgan odamlar aslida o‘zlari xarakterida mavjud bo‘lgan «o‘ziga ishonmaslik»ni yashirishga harakat qilayotgan odamlardir. Ular bu narsalarni tan olmasligi yoki anglamasligi ham mumkin. «Men «zo‘r»man, shuning uchun hamma narsani qilaveraman», degan aqidaga ishonishi ham mumkin. Ammo zo‘ravonlik harakatlari ortida turgan barcha maqsadlar aslida insonning yetuk emasligi, to‘laqonli

ma'naviy shakllanmaganligi, uning o'z emotsional holatini, o'z harakatlarini nazorat qila olmasligi, irodasiz va bo'shligining yorqin natijasi va namoyishi hisoblanadi.

Zo'rvonlik va konfliktologiya sohalari o'zaro bog'langan masalalardir. Aslini olganda konfliktologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi va rivojlanib kelayotganligiga hali ko'p bo'lmadi. Shu bois inson xarakteri va amallariga xos bo'lgan zo'rvonlik ham yangi o'rganilayotgan va tan olinayotgan sohalardan hisoblanadi.

Ko'pchilik hollarda konfliktni tushunish uchun mavjud zo'rvonlik sabablarini anglash lozim. Chunki hayotda ko'proq oilaviy zo'rvonlik uchrab turadi. Zo'rvonlik nima oqibatlariga olib kelishi mumkinligini bilgan odam uni yengillik bilan o'ylamay qo'llamaydi. Zo'rvonlikdan voz kechish – konfliktida ijobiy natijaga asos bo'ladi. Muhimi, zo'rvonlik ziddiyatning yechimi bo'la olmasligi, zo'rvonlik ziddiyat hamda muammoni hal etmasligini anglash darkor. Har qanday kuchli konflikt ham, tomonlarning juda qattiq o'zaro to'qnashuvi ham zo'rvonlikni ishlatish va qo'llash uchun asos bo'la olmaydi. **Shu bois qattiq to'qnashuv, ya'ni ziddiyat zo'rvonlikka olib keladi, deb o'ylash xato va noto'g'ridir.**

Ba'zi insonlar tug'ilishidanoq o'zining xarakterida agressiyaga moyillikni namoyon eta boshlaydi. Biroq bunday insonlar ham bolaligidanoq ma'naviy, pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan yaxshi va to'g'ri tarbiya qilinsalar, ular o'zlarini agressiyani cheklash hamda birovlariga tahdid solmaslik darajasida ushlab turishga erishadilar. **Ma'naviy yetuklik – zo'rvonlikka qarshi qaratilgan va uni yenga oladigan yo'l hisoblanadi.**

Tabiiy agressiyaga moyillik o'zini turlicha namoyon qiladi. Masalan, qariyalarning hayotdan charchashi oqibatida yaqinlari, qarindoshlariga nisbatan bo'lgan agressiyasi, tajribasiz yosh o'qituvchi o'quvchilariga avtoritar uslubda yondashgan holda, har doim o'z topshiriqlarini majburiy bajarishga va buyrug'ona fikrlarini o'quvchilarga singdirishga harakat qilishi va er o'z xotinini vaqti-vaqti bilan urib turishni uni «tarbiyalash» usuli sifatida baholashi va o'z «falsafasi»ga ishonishi, rashk oqibatidagi agressiya (5-ilova), 14–15 yoshli o'g'il bolalarning ko'chama-ko'cha jang uyushtirish-

lari, talaba-yoshlar o'rtasida bir-birini ko'ra olmaslik oqibati – bular barchasi turli agressiya ko'rinishlaridir. Mana shu hamma holatlar-da o'zini oshkora qilayotgan bosh xususiyatlardan biri o'z fikri va qarashlarini zo'rvonlik oqibatida boshqalarga tushuntirish, o'zini ko'rsatish, o'z manfaatlarini singdirishga sa'y-harakat hisoblanadi. **Demak, zo'rvonlik o'z manfaatlarini kuch va tazyiq orqali o'zgalarga o'tkazishga urinishdir.** Ya'ni, ba'zi odamlar o'z fikrini boshqalarga singdirishning zo'rvonlik va agressiyadan boshqa usullarini bilmaydilar va qo'llay olmaydilar ham. Shu bois ular uchun o'z manfaatlarini muhofaza qilish – zo'rvonlik yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tabiatan agressiv odam – hayotda doimiy va abadiy konflikto-gen hisoblanadi. Konflikto-gen odam o'z kayfiyati, his-tuyg'ularini jilovlashni unuman bilmaydi, o'z muammolarini o'zgalar hisobiga yechib, o'z agressiyasini tarqatish, boshqalarga berish orqali bu holatdan chiqishga urinadi. Bunday odam odatda «vampir» deb ataladi. «Vampir»lar boshqa odamlarning emotsiyalarini, his-tuyg'ularini yeyish, ularni boshqarish va o'ziga og'dirish hisobiga kun ko'radi. Ular boshqalarga qattiq emotsional tahdid solish va ularni azoblash hisobiga o'z agressiyalaridan ozod bo'ladilar. Agressiv odam o'z atrofidagilarga juda ko'p kulfatlar olib keladi.

Agressiv kayfiyat batamom yomonmi yoki uning foydali tomonlari ham mavjudmi?! Ma'lum darajadagi ijobiy agressiya, biron-bir maqsadga yetish, o'zini muhofaza qilish, biron-bir narsani amalga oshirishdagi qat'iylik – zaruriy holat hisoblanadi. Qasd qilmasdan turib maqsadga erishib bo'lmaydi. Ya'ni, ma'lum bir darajada qat'iylik insonga zarur bo'lgan xislatlardan hisoblanadi. Umuman, agressiv bo'la olmaydigan odam xaraktersizlikda, landovurlikda, bo'shliq, qat'iyatsizlik, o'zini muhofaza qila olmaslikda ayblanadi.

Tabiatan agressiv odamlar kamchilik hisoblanadi. Shu bois ko'pchilik o'zini faqat ma'lum bir vaziyat, ma'lum bir holatlardagina agressiv tutadi. Insonning bunday agressiv portlashi uning huquqlari behad darajada buzilganligi, manfaatlari ziyon topganligi, biron tang holatdan chiqib ketish va qutilish yo'llarini bilmaslik, yaqin odami bilan bo'lgan bir-birini absolyut tushunmaslik holati, olingan

konfliktogen holatda adekvat javob, agressiyaga agressiya bilan javob qaytarish kabilarda o'zini namoyon etishi mumkin. Agressiyaga agressiya bilan javob berilish holati – frustatsiya deb ataladi. Frustatsiya holatida o'zini muhofaza qilish niyati va harakatlari agressiv javob tariqasida namoyon bo'ladi. Frustatsiyaning eng yomon oqibatlaridan biri – nevrozlar hisoblanadi. Agressiv holatda uzoq turish inson salomatligining egovi hisoblanadi. Hursandlik, shodlik qanchalik inson umrini uzaytirishga xizmat qilsa, agressiv holat shunchalik inson umrini barbod etadi.

Konfliktdagi agressiya va zo'ravonlik. Konfliktli vaziyatlarda ko'pincha agressiya va zo'ravonlik uchrab turadi. Agressiya va zo'ravonlikni konflikt yechimi sifatida qo'llash hollari mavjud. Ba'zilar tahdid qilish, shantaj, zo'ravonlikka o'tish orqali ziddiyatni yechish mumkin deb hisoblaydi. Ammo bu noto'g'ri qarash. **Zo'ravonlik konflikt yechimi bo'la olmaydi, u konfliktni zo'ravonlik va agressiyaga to'qnash keltirish degani xolos.** *Konfliktni zo'ravonlikdan olib chiqib ketish va uni gumanistik talablar asosida muammoga qaratish, natijada muammoni yechish – konflikt yechimi topildi degani bo'ladi.* Zo'ravonlik o'z kuchini muammoga qaratmagani, shu bilan birga, insonlar hayotiga xavf tug'dirgani sababli konfliktning yechimi bo'la olmaydi. Aslida, zo'ravonlik konfliktni juda ham chuqurlashtirib yuboradi. **Zo'ravonlik tomonlarni hech vaqt bir-biriga yaqinlashtirmaydi, balki uzoqlashtiradi xolos.**

Xitoy faylasuflaridan Lao-Szi bu haqda shunday degan: «Ariqlar va daryochalar o'z suvini dengizga dengiz poyidan pastroq bo'lganliklari uchun beradilar. Odamlar ham o'zini ulug'vorlik bilan tutishlari uchun o'zini boshqalardan pastroq tutishi kerak». Chunki Budda ta'limotida ta'kidlanganidek, «Haqiqiy g'alaba, hech kim o'zini mag'lub etilgan deb hisoblamagan holatdagi g'alabadir»¹.

Shoir Lev Tolstoy esa, «G'azabda boshlangan narsa, odatda, uyatda tugaydi», – deb ta'kidlagan. Zo'ravonlik – o'zini boshqalar usti-

¹ V. Karina. Korostelina and Simone Lässig. History Education and Post-Conflict Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.

dan ustun qo'yishning eng oliy va fojiali natijasidir. Shu bois barcha, o'zini ziyoli va ma'lumotli deb anglagan odamlar, zo'ravonlikdan o'zini tiyishni hayot qonuniyatiga aylantiradilar. O'z agressiv holati va qalbida tug'yon urgan zo'ravonlik kayfiyatlarini yengib o'tish mumkinmi?! Albatta, ha, yengib yashash mumkin!

O'z agressiyasini yengish usullari. Agressiyani yengish bo'yicha uch umumiy usul taklif etiladi. Ular: *passiv usul*, *faol usul* va *mantiqiy usul*.

Passiv usul – o'z kayfiyati, hissiyotlari, o'zini qiynagan masalalar borasida birovga dardini to'kib solish, o'rtoqlashish, suhbat qilishda namoyon bo'ladi. O'z hissiyotlariga erk berish, ularning chiqib ketishiga imkon yaratish qalbdagi agressiv vaziyatning kuchayishini oldini oladi. Bu borada ayollar yig'lab-siqtab olganlaridan so'ng, ancha yengillik his qiladilar.

Faol usul – faol usulning barcha turlari faol harakatlar olib borish asosiga qurilgan. Adrenalin – inson kayfiyatidagi tanglik holatining tibbiy asosi bo'lgan moddalar, ya'ni jismoniy mashqlar, harakatlar, mehnat jarayonida yediriladi. Buning natijasida inson kayfiyatida xushnudlik holati vujudga keladi.

Mantiqiy usul – ratsional, intellektual odamlarning usuli bo'lib, bu usul juda katta qalb va aql mehnatini talab etadi. O'z hissiyotlarini boshqara olish qobiliyatini egallagan odamgina mazkur usulni qo'llay oladi. Bunday odamlar masalaning mohiyatiga urg'u beradi. Uning mohiyatini tushunish esa muammoning yechimiga olib keladi. Muammoni tushunish asosida uni yechish yo'llari ochiladi va kelib chiqadi. Bunday odamlar har vaqt o'zlarini agressiyadan ozod qilish xususiyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon inson ichki hissiyotlari borasida olib borilgan analitik tahlilga o'xshaydi.

Shu bilan birga, odamlar g'azablangan vaqtda hamda agressiya va zo'ravonlik bilan to'qnash kelganda, nimalar qilish lozimligi, qanday o'zni tutish kerakligi yuzasidan 6-ilovada maslahatlar berilgan.

Konfliktli vaziyatda g'azab va qahr. Go'zal xulq – qahr va g'azab kelganida bilinadi? Qahr va g'azabiga g'olib bo'lgan odam o'z rohatini ta'min etadi. Muloyimlik daraxtini ekan kishi salomat-

lik mevasini teradi. Inson g'azabini yengmagunicha, qalbidagi yomonlik vas-vasalaridan qutulib, komil inson bo'la olmaydi. Yomon qalbni to'g'rilash niyat va amalga bog'liq. Kishi nafsni xohishi va ehtirosini yengmagunicha saodatga erishmas. G'azabini yengmagan, ahloqini yo'qotadi.

Masalan, bir kishi kelib, Allohning rasuli (s. a. v.)ga dediki:

– Yo rasululloh, menga nasihat qiling.

– G'azablanma! – dedilar.

– Menga nasihat qiling, – deb yana so'radi.

– G'azablanma! – dedilar.

Nasihat qilishni uchinchi marotaba yana so'radi. Yana dedilarki:

– G'azablanma!!!

Ey ko'ngil! Sen g'azabingni jilovlay olasanmi? G'azab kelganda ota-onaga qarab ham baqiradiganlardan emasmisan? G'azab kelganda xotini, farzandlarini uradigan johildorlardan emasmisan? G'azab kelganda do'stidan ham kechib yuboradigan nomardlardan emasmisan? O'ylab ko'r: ehtimol, bir marta bo'lsin, ota va onangga qattiq gapirgandursan, xotining, farzandlaring, do'stlaringdan qay birinidir jahl ustida ranjitgandursan. Endi sen buning uchun g'azabingni bahona qilma. G'azabni yenga olmagan o'zingni aybla! Aybla-da, tavba qil! Tavbaning qabul bo'lish shartini unutma: bu hol endi qaytarilmasligi kerak! Qaytarilsa, tavbang qabul bo'lmas. «Tavba» – inson o'z hayotining jarayonini, faoliyatini, yo'nalishini, yashash tarzini yaxshi tomonga o'zgartirishdir¹.

Nima uchun biz g'azablanamiz? G'azabdan o'zini tinchlantirish mumkinmi? Har birimiz o'zimizni o'rab turgan voqea-hodisalarga turlicha munosabat bildiramiz. Masalan, ba'zilar hind filmlarini miriqib tomosha qiladi, ba'zilar ularni umuman yoqtirmaydilar. Ba'zilarga blokbasterlar bo'lsa bas, ba'zilar esa trillerni xush ko'radilar. Ba'zilar milliy kino, milliy kiyimlarni yoqtiradilar. Masalan, «xevi-metall» musiqasini 100 foiz katta yoshdagi odamlar «bosh og'riq» deb qabul qilishi tabiiy. Chunki odam yoshi o'tgandan keyin uning bosimi ko'tarilishi hollari ko'p uchray boshlaydi, bosim

¹ *Tohir Malik*. Odamiylik mulki (Axloq kitobi). – T.: Sharq, 2013. – 717 b.

ko'tarilishining tabiiy xususiyatlaridan biri bu – bosh og'rig'i hisoblanadi. Boshi og'rib turgan odamning bunday baland va shovqinli musiqadan lazzatlanishi g'ayri oddiy hol. Ba'zilar uxlashni xush ko'radi, ular uyqu kelgan vaqt joy tanlamaydilar, hamma joyda uxlab ketaveradilar, ular uchun bosh qo'yishga joy topilsa bo'lgani, pishillab uxlayveradilar. Boshqalar esa ularning bunday uxlashga bo'lgan moyilligini beg'amlik, qayg'urmaslik, tepsa-tebranmas, mas'uliyatsizlik alomati deb baholashi mumkin. Ba'zilar ovqat yeyishni yaxshi ko'radilar. Sabrsizlik bilan ketma-ket katta-katta luqmalarning og'iz bo'shlig'ida yo'qolib borayotganligini kuzatib turgan boshqa bir odamning esa umuman ishtahasi yo'qolib ketishi mumkin. Chunki u bu darajada ovqat yeyish mumkinligiga umuman ishonmaydi.

Demak, biz voqea va hodisalarga turlicha munosabat bildirishimiz tabiiy. Mana shunday turlicha munosabat, fikrlar va qarashlar rang-barangligi odamlar orasida ba'zi konfliktlarni keltirib chiqarishi mumkin. Mana shunday xilma-xillik konflikt uchun bahona bo'lishi mumkin. Sizning so'zlaringiz, tana zaboningiz, ovozingiz, nimalarni o'ylashingiz, orzularingiz, amallaringiz biron boshqa kimsaning, hatto eng yaqin kishilaringizning g'azabini ko'zg'ashi mumkin. G'azab esa zo'ravonlik bilan tugashi mumkin. Demak, biz konfliktli vaziyatlarning kelib chiqishini oldini olish uchun o'zimizda vujudga kelishi mumkin bo'lgan g'azabning oldini olishga o'rganishimiz lozim.

Odamlar turli yo'llar bilan o'z hissiyotlari, g'azab va jahllarini jilovlashi mumkin. Konflikt bilan to'qnash kelganda kimdir portlab ketadi, kimdir baqirishni boshlaydi, kimdir qo'pollik qila boshlaydi, kimdir qo'llarini musht qilib boshqalarga hamla qilishga urinadi, kimdir qo'li bilan stolga ura boshlaydi. Bu xatti-harakatlarning barchasi g'azabni jilovlash emas, balki g'azabdan qutilish yo'llaridir.

Afsuski, bironing g'azablanayotganligini yoki o'zimizning g'azabimiz chiqayotganligini oldindan reja bilan ayta olmaymiz. G'azab, avval, odamning ichida to'planadi, uning fikrlarida mana shu hissiyotlar ustunlik qila boshlaydi. Agar vaziyat qo'lga olinmasa, g'azab dilsiyohlik bilan tugashi mumkin.

Boshqalarning g'azabi qo'zg'ayotganligini bilish uchun mana shu insonni juda yaxshi o'rganish, uning tana harakatlari, ovozi, mimikasiga juda katta e'tibor bilan qarash lozim bo'ladi. Bir-ikki daqiqadan so'ng g'azabi oshib-toshib ketishi mumkin bo'lgan odam tashqi ko'rinishidan tamoman tinch ko'rinishi mumkin. Ammo uning ichki hissiyotlarida agressiv holat vujudga kelgan va u to'planayotgan bo'ladi. Agressiv holatning nechog'li kuchli darajada to'planishi uning portlashiga olib keladi. Ba'zilar g'azab qo'zg'atadigan vaziyatdan o'zlarini olib qochadilar. Chunki ularning tinchligini hech kim va hech narsa buzmasligi lozim. Ammo shunga qaramay insonni o'z g'azabini jilovlay olish ko'nikmalariga o'rgatish va undan unumli foydalanish mumkin.

G'azab bizni «o'ldiradimi?» G'azab, jahl, qahr kabi psixologik holatlar aynan konfliktli vaziyatlarda ko'plab vujudga kelishi uchun katta imkon bo'ladi. Tomonlar to'qnashuvining psixologik-ruhiy natijasi, o'zga tomonga nisbatan qo'qqis shakllangan his-tuyg'u, o'zini muhofaza qilish yoki o'zga odamga bosim va ta'ziyiq o'tkazish usuli sifatida g'azab, jahl, qahr konflikt vaziyatlarning odatdagi hamrohi hisoblanadi.

«O'lib bo'ldim-ku?! Yana nima kerak o'zi sizga?!» Shunday jumalarni ishlatishganini hech eshitganmisiz? Mana shu jumalarni yana bir bor eshitayotganingizda, ularni ishlatayotgan odam, ya'ni onangiz, otangiz, ustozingiz, o'rtoq'ingiz, do'stingiz, dugonangiz, yaqinlaringizga e'tibor bilan bir qarang. Odatda, bunday so'zlarni ishlatishga majbur bo'lgan odam his-tuyg'ulari nihoyat darajada taranglashgan, u psixologik charchagan va tang ahvolda, bunday odam o'z ichki tuyg'ularidan qayga qochishni, ularni qanday qilib jilovlab olishni bilmaydigan odam bo'ladi. Psixologik tang ahvoldagi odam o'zining mana shu holatini har doim ham o'zi to'g'ri anglayvermaydi. Shu bois mana shunday iboralarni ishlatgan insonga e'tiborliroq bo'lish talab etiladi. Nima uchun deysizmi?! Chunki uning so'zlari haqiqatga yaqin....

G'azab, jahl, qahr shunday his-tuyg'ularki, ular haqiqatan ham g'azab ichidagi odamga ham, g'azabga yo'naltirilgan odamga ham juda katta salbiy ta'sir, ayniqsa, uning salomatligiga juda qaltis ta'sir

o'tkazadi. Tez-tez g'azablanadigan odamlar va mana shunday tez-tez birovlarning g'azabini o'ziga qabul qilgan odamlar ham hayotdan oldinroq ko'z yumadilar.

Nima uchun shunday bo'ladi?! G'azab, jahl, qahr – oddiy his-tuyg'ular emas. Inson g'azablanayotgan vaqtida uning organizmi juda katta ichki to'palon, bosim, jismoniy, ruhiy, psixologik holat zamirida yotgan kimyoviy o'zgarishlarni boshidan o'tkazadi (5-rasm).



5-rasm.

Eng avvalgi o'zgarish – insonning bosh organlaridan hisoblangan miyada sodir bo'ladi. Miya bosh qobig'i inson atrofidagi bo'layotgan va maxsus tarzda unga qaratilgan minglab axborotlarni sinchiklab o'rganishga yo'naltirilgan. Miya mazkur axborotlarni tartiblashtiradi. Shu qatorda miya insonning turli his-tuyg'ulari qatorida g'azab, jahl, qahr hislarini ham bir maromda ushlab turishga harakat qiladi. Inson miyasi «bu odam g'azablanmoqda», «uning g'azabi menga qaratilgan» yoki «men g'azabdaman», «mening jahlim chiqyapti» degan xulosalarni qilishi bilan miya adrenalin moddasini ishlab chiqaruvchi bezlarga buyruq yetkazadi va miya qilgan xulosalarga muvofiq ravishda organizmga anchagina miqdorda adrenalin suyuqligini chiqaradi. Organizmga chiqarilgan favqulodda adrenalin sababli yurak urushi kuchayadi va tezlashadi. Adrenalin inson shakllanishida juda zarur bo'lgan moddalardan hisoblanadi. Chunki ibtidoiy

jamiyat davrlarida ko'p miqdordagi ortiqcha adrenalini odamga yirik hayvonlarni o'ldirish, tabiat tahdidlariga qarshi kun ko'rish, boshqa qabilalarni yengish, turli o'ljalarni qo'lga kiritish, ya'ni atrof-muhitning nihoyat darajada inson hayotiga tahdid qilishi sharoitida zarur moddalardan biri bo'lgan.

Adrenalin iusonga uning atrof-muhit bilan bo'lgan kurashlarida qo'rqmaslik, jasurluk, qat'iyat, qarshi tura olish, hujum qilish, o'zini himoya qilish uchun ko'mak bergan. Inson yirtqich hayvonni o'ldirayotgan vaqtida adrenalini unga kuch ato etib turgan, yirtqich hayvon o'ldirilgandan so'ng, adrenalini moddasi o'z funksiyasini bajarib bo'lganligi sababli u organizmdan chiqib ketgan. Ammo biz g'azablengandagi, jahlimiz chiqqandagi, qahrimiz kelganidagi organizmdagi vujudga kelgan adrenalini moddasi o'z-o'zidan organizmdan chiqib keta olmaydi. Shu bois sog'lom turmush tarzi bilan shug'ullanib yashayotgan odamlar turli sport turlari, o'yinlari, mashqlari orqali ortiqcha adrenalini qarshi o'z organizmi faoliyatini muvofiqlashtirib turadilar. Ammo hozir insonlarda hayot tarzi o'zgargan. Hozir bizning atrofimizda yirtqich hayvonlar yo'q, biz ularni faqat hayvonot bog'larida ko'rishimiz mumkin, dushmanlar bilan yakkama-yakka olishmaymiz, tinch va osuda hayotga intilib yashaymiz. Shu bois bizga organizmimiz ishlab chiqarishga odatlangan miqdordagi adrenalini moddasi zarur emas. Ammo aynan biz havotirlanganda, g'azablenganda, jahlimiz chiqqanida, umuman, biron-bir favqulodda tang vaziyatga kirib borganimizda organizmimizda adrenalini ishlab chiqariladi va u keragidan ortiq miqdordagi adrenalini to'yinadi. Uning keragidan ortiqligi sababli adrenalinning bu hajmini bizning tanamiz to'la hazm qila olmaydi. Adrenalin moddasining organizmdagi keragidan ortiq holati vujudga keladi. Adrenalinning organizmdagi muntazam mavjudligi esa inson yashash tarziga, uning salomatligiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Adrenalin g'azab jarayonida o'ziga xos o'zgarishlarni amalga oshiradi. G'azab jarayonida tanamiz harorati ko'tariladi. Bizning tana qon bosimimiz undagi qon miqdoriga bog'liq bo'ladi. G'azablenganda qon miqdori ko'payadi va venalarimiz devorlariga uning kuchli bosimi ta'sir eta boshlaydi. Tomirlar devorlari qon bosimi bilan kurasha boshlaydi. Ular qon bosimining kuchli bosimiga qarshi turib berishi lozim bo'ladi.

Ammo inson muntazam g'azablanaversa, qon tomirlariga bo'lgan tahdid va bosim ham kuchayib boradi. Natijada tomirlar devorlari yemirila boshlaydi. Yosh organizmda yemirilgan tomir devorlarini maxsus ishlab chiqiladigan xolesterin moddasi tiklash uchun ishlatiladi. Tomir devorlarini qayta tiklash maqsadida xolesterin moddasi ko'proq ishlanadi. Ammo yosh o'tgan sayin ortiqcha xolesterin tomir devorlarida to'plana boshlaydi. Organizmda moddalar almashuvi buziladi. U organizmning yog' yig'ishiga, qon tomirlarining og'irlashib qolishiga, tomir devorlarining bir tekis bo'lmashligiga olib keladi. Natijada tomir-yurak sistemasi kasalliklarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Qon tomiri xolesteriniga to'lib ketib, shu asosida qon bosimi kuchayib ketsa, yurak xurujlari vujudga kelishi mumkin bo'ladi. G'azab, jahl, qahr kabi hissiyotlar esa mana shunday holatlarning kuchayib ketishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. G'azab va jahl oshqozon yarasi, doimiy bosh og'riqlari, rak, yurak-qon sistemasining turli kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkinligi ilmiy isbotlangan. Shu bois, eng avvalo, tinchlaning. O'z g'azab, jahl va qahringizni yengishga o'rganing. Ularni jilovlay biling. Ularning o'z va o'zgaralar salomatligiga rahna solishiga yo'l qo'ymang. Inson xarakterini g'azab, jahl va qahrdan poklash sizni juda ko'p noxushliklardan saqlab qoladi va baxtli hayotingiz uchun yaxshi zamin bo'lib xizmat qiladi.

Siz o'z jahlingizni qanday jilovlaysiz? Har birimizning o'zimizgagina xos bo'lgan jahlimizni jilovlash usullarimiz mavjud. O'z do'stlaringizni esga oling. Ular ichida supراسi suv ko'tarmay, juda tez jahli chiqib, hech ham ularni tinchlantirib bo'lmaydigan, shu bilan birga, tamoman hissiyotsiz, suv toshsa ham to'pig'iga chiqmaydiganlari ham bor, shunday emasmi?!

Quyida jahlni jilovlashning mavjud usullaridan ba'zilarini keltiramiz¹. Ularni diqqat bilan o'rganib, o'zingizning toifangizni

¹ *Handling Conflicts. Conflicts: a positive approach. Participant's manual.* Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1997; WIN WIN. Based on the Fighting Fair model created by Fran Schmidt and Alice Friedman. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1998; Fran Schmidt/ Alice Friedman. Fighting Fair. For families. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1994.

aniqlashga harakat qiling. Siz o'z jahlingiz va emotsiyalaringizni boshqalar ustiga yog'dirasiz. Sizning g'azabingizni hamma odamlar yoki narsalar besabab qo'zg'atishi mumkin. Agar jahl uchun sabab bo'lmasa, siz uni o'zingiz o'ylab chiqarasiz. Siz baqirishga ustasiz, sizning g'azabingiz boshqalar ustiga yog'diriladi, g'azabingiz lava (vulqon) kabi o'z yo'lida hamma narsani buzishga qodir, g'azabingiz bois siz o'zingizni kuchli deb hisoblaysiz.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, biron-bir kishi kamchilik yoki xatoimizdan gap ochdi deguncha, g'azablana boshlaymiz. Holbuki, xatolarimizni yuzimizga aytgan birodarimizdan mutlaqo g'azablanmasligimiz kerak. Aksincha, unga mehr-muhabbat bilan boqib, gunohimizni anglab, bu xatolardan xalos bo'lish choralari-ni ko'rishimiz shart emasmi? Jahl aqlni ketkazadi, asab buzilishi ofat keltiradi. G'azablangan paytingda so'zga ro'zador bo'l. Zero, bu paytda har.so'z-u amaling nadomatga vosita bo'ladi. Ko'pincha g'iybat, ig'vo... g'azab va qahmi uyg'otadi. G'iybat ham, g'azab ham kishi ko'nglini og'ritadi. Shu bois g'iybatdan, nafsoniy g'azabdan saqlanmoq kerak. G'azabni yenggan o'z nafsini yenga oladi. Inson g'azablangan paytlarida shuursiz harakatlar qilib, so'ng qanday tuza-tishni bilmay arosatda qoladi. «Jahl chiqsa – ko'z qorayar, jahl ketsa – yuz qizaran» degan hikmat bor. Xulosa shuki, jahl kelganda tiliga va qo'liga hokim bo'lgan kishi yomon oqibatdan xalos bo'ladi¹.

O'zingizni bosing! Jahl va g'azabni jilovlash bo'yicha 10 foydali maslahat (1-ilovaga qarang).

Mustahkamlash uchun savollar

1. Qanday shart-sharoitlar nizolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi?
2. Konfliktning ildizlari va sabablarini tahlil qilish yo'llari nimalardan iborat?
3. Tahlillar natijasida necha foiz konflikt ishtirokchilarining mojaroga moyilligi aniqlangan?
4. Konfliktogen va konfliktogenlar eskalatsiyasi deganda nimani tushunasiz?

¹ *Tohir Malik*. Odamiylik mulki (Axloq kitobi). – T.: Sharq, 2013. – 723-724 b.

5. Siz o'z jahlingizni qanday jilovlaysiz?
6. Agressiya so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?
7. G'azab bizni «o'ldiradimi?»
8. Frustatsiya nima va uning oqibatlari?
9. Qanday holatlarda konflikt signallarini his qilamiz?
10. Konfliktli vaziyat, insident va konflikt oldi holatlarni hal etishda qanday qadamlardan foydalanamiz?
11. Konfliktga faol munosabat muammoga nisbatan qanday munosabatni talab etadi?
12. Konfliktlarni boshqarish usullari insondan qanday malakalarni talab etadi?

Talabalarning mustaqil tayyorlanishi uchun «Keys» topshirig'i

1-vaziyat. *Siz matematikadan sinovga tayyorlandingiz. Sinov faqat matematika kursining eng muhim boshlang'ich uchta bo'limi bo'yicha o'tkazilishi taklif etilgan. Siz universitetga kelgan vaqtda o'qituvchi sinov matematikaning to'la kursi bo'yicha bo'lishini e'lon qildi.*

Ushbu vaziyatda sizning harakatingiz qanday bo'ladi?

III bob. PEDAGOGIK KONFLIKTLARNING TURLARI

Tayanch iboralar: *xavotirlanish, e'tibor, tanqid, munosabat, oqibat, aziyat chekish, xato, og'riq, uyqusizlik, ochlik, to'qlik, yetishmovchilik, hissiyot, muloyim, talabchan, xarakter, o'smir, muloqot, noverbal, modernizatsiya, vosita, ehtiyotsizlik, qo'pollik, qiziqmaslik, tajribasizlik, faollik, mustaqil fikrlilik, etnopsixologik xususiyatlar, tinch-totuv, or-nomus, uyat va andisha, sharnhayo, erkin, farovon, beparvo, xalqaro, tafakkur, ong, axloqiy tuyg'u, ibo va iffat, qadr-qimmat, asabiy, tezeb.*

3.1. O'quvchilar va tengdoshlar orasidagi konfliktlar

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Bu yo'l jamiyatimiz kelajagini o'z qo'llariga oluvchi – yoshlarga beriladigan ta'lim-tarbiya asosida belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan 1997-yil 29-avgustda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, unda kadrlar tayyorlashning milliy modeli yaratildi. Mazkur modelda shaxs bosh va markaziy o'rinni egallab, modelninig qolgan qismlari shaxs manfaatlar uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimi individ hayotga kelgandan boshlab, to maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi «masofani» qamrab oladi.

Ta'lim-tarbiya muassasalari o'z vazifalarini amalga oshiraverishi mumkin. Ammo, hayot qarama-qarshilik va ziddiyatlardan iborat. Yoshlar, qolaversa, jamiyatning barcha a'zolari shu ziddiyatni yengib, ulardan to'g'ri xulosa chiqara oladimi?!

Demak, ta'lim-tarbiya muassasalaridan tashqari tarbiyaviy ta'sirlar, ya'ni kundalikdagi ijtimoiy voqealiklarning shaxsga ko'rsatayotgan ta'siri, ularni ijtimoiy-pedagogik, ilmiy, nazariy va amaliy o'rganish, pedagogikada shu kunga qadar yetarlicha e'tibor berilmagan pedagogik yondashuv zaruratini vujudga keltirmoqda. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalari shaxsga, ayniqsa, yoshlarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bunga ommaviy axborot vositalari, iqtisodiyot, ko'cha-ko'y, mahalladagi voqealiklar, ota-ona, yoshi ki-

chik va kattalar orasidagi munosabatlar, ishlab chiqish jarayoni, ilm-fanning turli sohalari. Ammo, pedagoglar uchun o'sha jamiyatdagi hodisa, jarayonlar va munosabatlarning yoshlar ongiga, insonlarning ma'naviy hayotiga, odob-axloq me'yorlariga bo'lgan ta'siri muhim.

Inson shaxsining pedagogik-psixologik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab ijtimoiy jarayondir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik-psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir.

Pedagogik-psixologik korreksiya, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quvchining qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydigan pedagogik-psixologik rivojlanish xususiyatlarini «to'g'rilashga» qaratilgan mutaxassis faoliyatini aks etiradi.

Psixologiya fanlari nomzodi Galina Sergeyevna Abramovaning fikricha, shaxsiy psixologik korreksiya odamning ichki dunyosini diskert tavsifiga (psixologning) asosli ta'sir qilishidir. Odam «Yerdagi jonli evolyutsiyaning so'nggi pog'onasidir», ijtimoiy tarixiy faoliyat subyektidir. Shaxs – ijtimoiy rivojlanish fonemeni, ong va tushunchaga ega aniq tirik odam.

Shaxsga doir rivojlanish-ijtimoiylashuv va tarbiya natijasida odamzodning ijtimoiy xususiyati sifatidagi shaxsning shakllanish jarayonidir.

Yosh inqirozi – keskin pedagogik-psixologik o'zgarishlar bilan xarakterlanadigan ontogeneznning alohida, nisbatan uzoq davom etmaydigan davrlaridir. Asabiy va jarohatli xarakterga ega tangliklardan farqli ravishda shaxs rivojlanishining izchillik qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Stress – turli xil ekstremal ta'sirlar – stressorlarga javoban yuzaga keluvchi keng doiradagi holatlarni belgilovchi holat.

Frustratsiya – ma'lum maqsad yo'lidagi mavjud mavhum to'siqlarni paydo bo'lishiga nisbatan hosil bo'ladigan muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechiruvchi ruhiy holat.

O'smirlilik 10–11 yoshlardan 14–15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismonan aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy

yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan 5-sinf dan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» – ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. *O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish* davri bo'lib, fiziologik va pedagogik-psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyib boradi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bo'yiga o'sish bir tekis bormaydi: qiz bolalar 5–7 sm o'ssa, o'g'il bolalar 5–10 sm ga o'sadilar. Bo'yiga qarab o'sish paysimon ilik suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri «*o'tish davri*», «*krizis davri*», «*qiyin davr*» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil yangi sharoitlarda o'z o'mini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L. S. Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan.

O'smirlik davriga, ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularni katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrof dagilar orasidagi obro'larini ko'radilar hamda havas qiladilar. O'smirda katta yoshli odam bo'lishga yoki hech bo'lmaganda katta yoshli odam bo'lib ko'rinishga qiziqish, intilish paydo bo'ladi va bu xohishni amalga

oshirish unga osondek bo'lib ko'rinadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalar, o'qituvchilar va boshqa murabbiylar o'rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Kattalar o'smirlarning foydali jamoa ishlarida muvaffaqiyatga erishishlarida yordam berishlari va bu bilan ularning o'z qadr-qimmatini namoyon qilishlariga imkon berishlari lozim. Aks holda, ular boshqalarning oldida o'zlarini yuqori qo'yishlari, bepisandlik qilishlari mumkin. Buni ular o'zlarining qadr-qimmatlari tan olinmaganligi yoki kamsitilganligiga qarshi chiqib salbiy ishlar va xatti-harakatlar orqali amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, ustozlarining to'g'ri yo'lini ko'rsatishlariga qaramay, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. O'smirlarga farosatlilik, tejamkorlik, ehtiyotkorlik va uzoqni ko'ra bilishlik kabi psixik xususiyatlar hali yetishmaydi.

Tengdoshlar va o'quvchilar bilan kelishmovchilik kelib chiqishiga qo'yidagi toifadagi o'quvchilar sabab bo'ladi:

Oilasi notinch, ota-onasi janjalkash bolalar, ko'pincha sinfda jizzakilik qilib, arzimagan sabablar tufayli ham tengqurlari bilan nizolashadi, ularni odatda sinfdoshlari va o'qituvchilari «tarbiyasi og'ir» bolalar deb ta'riflaydilar (6-rasm).



6-rasm.

2. Kamol topishida nuqsoni bo'lgan bolalarda, o'ta erka tarbiyalangan bola va yoshlarda bilimlar bilan tizimli shug'ullanish uchun iroda yetishmaydi. Hissiy qo'zg'alish va tormozlanish jarayoni kamchiliklar ham bilimlarni egallash va sinf jamoasiga kirishib ketishga to'sqinlik qiladi.

3. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan va aqli zaif bolalar va yoshlar ham darslar va berilayotgan bilimlarni o'zlashtirishi qiyinlashgani va murakkablashib borishi natijasida bilimlarning mazmuni va ma'nosini egallashga qiynaladilar, bu holat ularda janjalkashlikka moyillikni kuchaytiradi. Chunki dars ular uchun mashaqqatli ish, ular ilojini topsa darsga kelmaydi, kirmaydi. Janjal qiladi.

4. Iqtidorli bolalar. Ular darsda berilayotgan bilimlar darajasidan qoniqmaydi. Zerikadi. Ko'pincha sinfdan ajralib qoladi. O'qituvchi bilan kelisha olmaydi, shu sababli o'zlashtirishdan orqada qolayotgan tengdoshlari ham, uning talabi va istagi darajasida dars berilmayotgan pedagog bilan ham konfliktga kirishishga moyil bo'lib qoladi.

5. Doimo hammadan norozi, atrofdegilarga muxolifatda bo'lganlar. Bu o'quvchilar ota-onasiga, o'qituvchilarga va boshqa kattalarga salbiy munosabatda bo'ladilar. Ularning gapiga ishonmaydilar. Mavjud tartib-intizomga bo'ysunishni istashmaydi. Qasddan darsdan qochib ketadi, ota-onasiga azob berish uchun o'g'irlik qiladi, arzimagan narsalarga janjal ko'taradi.

6. Birovlarga taqlid natijasida yuzaga keladigan konfliktlar. Bolalar yoki yoshlar o'zidan katta kishilarga, ba'zan kino aktyorlarga va boshqa sevimli qahramonlarga taqlid qilib sinfdagi tartib-intizomga, axloq normalariga rioya qilishni istamaydilar.

Endilikda pedagogik yoki sinf jamoasidagi konfliktning kelib chiqish sabablarini ko'rib chiqamiz:

Jamoda (sinf jamoasi, mehnat jamoasi va boshqalar) har xil mavqedagi shaxslar o'rtasidagi kelishmovchiliklar ancha murakkab kechadi. Jamoaning rasmiy va norasmiy yetakchilari va ayrim tengdoshlar orasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklarda, agar jismonan kuchli bo'lsa salbiy xulq-atvori va xatti-harakati bilan o'z atrofiga o'ziga o'xshagan «mushtum zo'rlar»ni to'plagan bo'lsa, sinfdagi jismonan kuchsiz, **xavotirlanish** darajasi yuqori, qo'rqqoq,

o'ziga ishonchsiz o'quvchilarni ta'qib qilishi, zo'rlik bilan o'ziga bo'ysundirishi, ularni yomon yo'llarga boshlashi mumkin.

Ba'zan shunday jismonan kuchli va salbiy yetakchilar, kuchsiz o'quvchilarga «soliq to'lash»ga majbur qilingani yoki darsga yaxshi va a'lo baholarga tayyorlanib kelgan o'quvchilarni qo'rqitish (yoki haqorat) bilan darsda javob bermaslikka majbur qilinganini eshitib qolamiz. Bunday nizolar, albatta, sinf rahbari va boshqa o'qituvchilarning beparvoligi, sinfdagi ichki o'zaro munosabatlarni nazorat qilmasligi natijasida kelib chiqadi. Bunday holatning oldi tez olinmasa, jismonan kuchsiz o'quvchi (yoki o'quvchilar) uchun yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, 8-«V» sinf o'quvchisi jismonan kuchli bo'lib, u o'z atrofiga bir nechta tengdoshlarni to'plab, butun sinf jamoasini o'ziga bo'ysundiradi. Ayniqsa, shu sinfdagi «a'lochi» bir nechta o'quvchini ular ta'qib ostiga olishadi. Bu asosan ularni qizlar oldida jismonan va ruhan kamsitish, darsdan keyin ko'chada «jazolash», pul talab qilish va boshqa yaramas xatti-harakatlar bilan namoyon bo'lar edi.

Maktab psixologining tashabbusi bilan o'tkazilgan kichik pedagogik kengash – «konselium»da 8-sinfdagi ahvol muhokama qilinib, quyidagi tadbirlar belgilandi:

1) sinfdagi yuzaga kelgan kichik guruhning a'zolari, uning asosiy tashkilotchisi va yetakchisi bo'lgan «S» ismli o'quvchidan ajratish uchun, uni shu maktabdagi boshqa sinfga o'tkazish va tezlik bilan ota-onalar yig'ilishini chaqirish;

2) «S» bilan maktab ma'muriyati, maktab psixologi suhbat o'tkazishi va uni o'z xatti-harakatining oqibatlari bilan ogohlantirish;

3) «S»ning otasiga o'g'lini darsdan so'ng futbol to'garagiga qatnashishiga yordam berish tayinlandi («S» futbolga juda qiziqadi);

4) 8-«V» sinfdagi psixologik muhitni yaxshilash, jipslik, hamjihatlikni rivojlantirish uchun kechalar, sayohatlar uyushtirishiga kelishib olindi.

Kichik guruhlarda yuzaga keladigan konfliktlar. Jamoada 2–4 kishilik kichik guruhlarda yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni o'qituvchilar sezmasdan qolishi mumkin. Bordi-yu, bunday

kelishmovchiliklarning oldi olinmasa, o'z vaqtida janjalni keltirib chiqargan omillar bartaraf etilmasa, 2 yoki 3 o'quvchi orasidagi kelishmovchiliklarga boshqa o'quvchilar ham aralashib, bu nizo butun sinf jamoasiga tarqalishi mumkin. Masalan, yuqori sinf o'quvchisi psixolog qabuliga kirib: «Iltimos, menga yordam bersangiz. Sinfimiz men sababli ikkiga ajralib qolgan, bu janjal aslida Gulnora bilan mening oramizda boshlandi. Men Gulnoraga qo'pollik qilganim uchun ikkimiz arazlashib qoldik, lekin Gulnoraning o'rtoqlari men bilan gaplashmasdan, meni ajrata boshladilar. Bu mening o'rtoqlarimga qittiq tegdi va natijada ular meni himoya qilishdi. Hozir sinfdagi qizlar ikkiga bo'lingan va janjal davom etmoqda», – dedi qiz.

Qiz o'zining xatti-harakatidan iztirob chekmoqda edi. Ehtimol, sinfdagi raqobat, asabiy hol hammaning joniga tekkan bo'lsa ham kerak, natijada qizlar bilan alohida o'tkazilgan yagona suhbat bu nizoga chek qo'ydi va nizo takrorlanmadi. Bunday nizolarning yuzaga kelishiga sabab, ba'zi sinf rahbarlari va o'qituvchilar sinfdagi ichki o'zaro munosabatlarga bee'tiborliklari natijasida sinfda o'ta asabiy psixologik muhit yuzaga keladi. Bunday vaziyatning oldini olish yoki bartaraf etish juda oson, chunki bolalar, o'smirlar odatda juda kechiruvchan bo'ladilar. Ayniqsa, tengdoshlari bilan bo'lgan kelishmovchiliklardan o'zlari ruhan aziyat chekadilar, afsuslanadilar.

Tengdoshlari, shuningdek sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruhiga 'bog'liq va qaram bo'lgan holda shu guruhning umumiy fikriga qo'shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Guruh, ko'pincha o'smirda «biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O'smir yoshidagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'stlik juda qadrlil hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'stlarining hol-ahvol so'rashishi va ko'rishishlarida (qo'l berib, quchoq ochib ko'rishish) birga o'tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Ko'pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, o'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlaringiz inson qalbi va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

3.2. O'qituvchi—o'quvchi o'rtasidagi konfliktlar

O'qituvchilar o'z faoliyatlarida o'quvchilarning dars intizomi bilan bog'liq bo'lgan muammolar, ya'ni o'quvchilarning ta'limga, bilim olishga nisbatan salbiy munosabatiga duch kelishadi. Ular o'quvchilarga ma'lum talablarni qo'yadilar va o'quvchilar bu talablarga so'zsiz amal qiladilar deb o'ylaydilar. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni «ko'chadagi qarama-qarshi harakatga» qiyoslash mumkin, chunki o'quvchining o'qituvchiga munosabati konfliktli va muammoli xulq-atvor shaklida namoyon bo'ladi.

Intizomga rioya qilmaydiganlarga nisbatan konstruktiv ta'sir samarali bo'lishi uchun bu xatti-harakatning asl motivlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va shundan kelib chiqib, muammoning yechimini topish usullarini tanlash lozim. Bunday yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hurmatni shakllantiradi.

Muammoli xulq-atvorning motivlari. Intizomni buzgan o'quvchi bu xatti-harakat noto'g'ri ekanligini tushunadi, lekin u o'z xulq-atvorining motivini tushunmaydi. Har bir bola uchun bu xatti-harakatning turli sabab va maqsadlari mavjud. Pedagoglar bu motivlarning qanday bo'lishiga qaramay ularga ta'sir etish usullarini topishlari lozim. Agar pedagoglar xulq-atvorning buzilish maqsadlarini aniqlashga qodir bo'lsalar, u holda o'quvchi bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnatish oladilar, unumsiz muloqot samarali muloqotga aylanishi mumkin. Bunda to'g'ri strategiyani tanlash qadamma-qadam muammoning yechimini topish imkonini beradi. Bunday vaziyatga pedagogik aralashuv natijasida shunday sharoitlar yaratiladiki, bolalar o'z intizomlarini to'g'rilash borasida ma'lum qaror qabul qiladilar.

O'quvchining xulq borasidagi tanlovi, uning yomon xulq-atvorining maqsadi o'qituvchi tomonidan aniqlanishi va inobatga olinishiga bog'liq. Har bir o'qituvchi o'quvchiga o'zini maktab hayotining to'liq ishtirokchisi ekanligini anglashiga yordam berishi lozim. Bu borada pedagogga mazkur muammoga individual yondashish bo'yicha amaliy reja tuzish tavsiya etiladi. Bu reja o'quvchining xulq-atvoriga samarali ta'sir etishning usulidan iboratdir.

Rejani tuzishda o'qituvchi o'zining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi. Albatta, bunda vaqt va vaziyatni tahlil etish talab etiladi, lekin natijalar o'zini oqlaydi. O'qituvchining qarashlari, ya'ni ustanovkasi o'zgaradi, xavotirlik yo'qoladi, avvallari muammoli o'quvchidan faqatgina yomon xulq-atvorni kutgan bo'lsa, endi yutuqqa erishishga ishonchi komil bo'ladi.

Ushbu rejani quyidagilar tashkil etishi mumkin:

- «yomon» xulq-atvorning sababini aniqlash;
- uni bartaraf etish usullarini tanlash;
- o'quvchini qo'llab-quvvatlashning kelgusi taktikasini ishlab chiqish;

➤ muammoni hal etishga ota-onalarni va pedagoglarni jalb etish.

Rejani amalga oshirishda pedagog ketma-ketlikdagi 5 ta vazifani bajaradi:

1-vazifa. Muammoli xulq-atvorni xolisona izohlash. Barcha o'qituvchilarga o'quvchining xulq-atvorini izohlashda xolislik yetishmaydi. Intizomni buzganda o'quvchi aynan nimalar qilishi «hissiyotga berilmay» qisqa izohlanishi kerak. «U juda yomon bola», «uning fikri tarqoq, parishonxotir», «uni boshqarish juda qiyin» kabi izohlar o'qituvchining o'quvchiga nisbatan berilgan noto'g'ri bahosi hisoblanadi. Bu izohlar o'quvchining xulq-atvoriga berilgan baho bo'lmay, balki ayrim o'qituvchilarning o'quvchilar xulq-atvorini tuzatishda natijaga erisha olmaganligini bildiradi. Lekin bitta o'quvchi hamma o'qituvchilarga nisbatan ham bunday xatti-harakatni amalga oshirmaydi.

2-vazifa. Yomon xulq-atvorning sababini tushunib olish. Atrofdagilarning o'ziga bo'lgan e'tiborini xohlaydigan o'quvchilar o'zlarini xuddi haqiqiy artistlarday tutadilar va ko'p hollarda bunday xulq-atvorning sababi shu bo'ladi. Shunday bolalar borki, ular yoki butun sinfni jonlantirishlari mumkin yoki aksincha, barcha ishlarni juda sekinlikda amalga oshiradilar. Bunday bolalarni barcha ishlarda faol bo'ladiganlarga nisbatan «tuzatish» qiyinroq kechadi, chunki ular intizomni rasman buzmaydilar. E'tiborga bo'lgan ehtiyoj psixologik jarayon bo'lib, ovqat va suvdek zarur. Uydagi e'tiborning kamligi uning maktabdagi xulq-atvoriga ta'sir etadi. Bunday bolalar ijo-

biy muloqot qilishni bilmaydilar. Pedagogdan bunday o'quvchilarga imkon qadar ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi.

Ular o'zlarini ko'rsatish uchun turli usullardan foydalanadilar, ya'ni barcha ishlarning aksini qilishga, masalan, nazorat ishini hammadan keyin bajaradilar yoki umuman topshirmaydilar, sinf oldida o'qituvchining obro'siga putur yetkazadigan so'zlarni aytadilar. Bu esa, o'z navbatida, xavotir va zo'riqishni yuzaga keltiradi. Shunday bolalar ham borki, ular bir qarashdan intizomli, xushmuomala bo'lib ko'rinadilar, lekin o'zlari xohlagan ishni qiladilar, diqqatlarining tarqoqligi va xotiraning pastligi, jismoniy holatlari bilan o'zlarini oqlaydilar. Ular tartib-qoidalarga va o'zidan kattalarga bo'ysunish kerakligini aniq anglab yetmaydilar. Agar o'qituvchi o'quvchidagi bunday xarakterli xususiyatlarni tuzatishga erishsa, bunday o'quvchilar shaxsida liderlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Ular mustaqil fikrlashni, qaror qabul qilishni va o'z hayotlarini nazorat qilishni xohlaydilar. Murakkablik tomoni shundaki, bunday tomonlarni ular boshqalarga ham nisbatan qo'llashga, ularni boshqarishga ham harakat qiladilar.

O'quvchi intizomni buzganda aynan qanday xatti-harakatni amalga oshirishi, qanday vaziyatlarda buni qilayotganini qayd etish va nima uchun bunday qilayotganini aniqlash muammoli xulq-atvorni xolisona izohlash imkonini beradi.

E'tibor va birinchilikni talab qilayotgan bolalar o'ta yoqimli va xushmuomala bo'lishlari mumkin. Nojo'ya xatti-harakatlarni qasd olish maqsadida amalga oshiradigan o'quvchilar esa agressiv, xo'mraygan, jahldor bo'ladilar. Bunday xulq-atvor bolaning nimadandir noroziligi va ranjiganligining oqibatidir. O'qituvchi har kuni bolaning oldida bo'lganligi sababli u boshqalardan ko'rgan alamining qasдини o'qituvchidan oladi. U darsga xalaqit beradi, kitoblarni yirtadi, sinfdoshlari bilan janjallashadi, darslarga muntazam ravishda kechikib keladi. Bunday o'quvchilar o'qituvchini turli yo'llar bilan jahlini chiqarishga harakat qiladilar. Ayrim hollarda qasd olish uchun o'ylab topilgan nojo'ya xatti-harakatlar bolalarning o'zlariga katta zarar yetkazishi, ya'ni ular ichkilikka, giyohvandlikka ruju qo'yishlari, erta jinsiy aloqa va jinoyatga qo'l urishlari (qasd olish-

ning faol shakllari) mumkin. Lekin odamovilik, tortinchoqlik, befarqlik kabi qasdning passiv shakllari ham mavjud. Bunday holatlarda o'qituvchi bolaga yordam bermoqchi bo'ladi, lekin natijaga erishish biroz qiyin kechadi.

«Yomon» xulq-atvorning motivlari:

- e'tibor talab etish;
- o'z so'zini o'tkazishga harakat qilish;
- qasd olish istagi;
- omadsizlikdan qochish.

Bunday bolalar boshqalarni xafa qilish orqali o'zlarini himoya qiladilar. Agar odamovi, g'amgin bolalardagi bunday ruhiy holatlarining o'z vaqtida oldi olinmasa, ular depressiyaga tushib qolish oqibatida suitsid holatlarini ham sodir etishlari mumkin.

Shunday o'quvchilar ham borki, ular hech kimga zarar yetkazmaydilar, lekin yana omadsizlikka uchrayman deb, o'qituvchi sezmaydi deb hech nima qilmaydilar. O'zlarini «harakat qilsam, buni qila olaman, lekin o'zim xohlamayman» deb oqlaydilar. Fanlar bo'yicha nazorat yozma ishlarida birdan kasal bo'lib qoladilar yoki darsdan ketish uchun asosli sabab topadilar. Bunday tarzda ular o'zlarini anglanilmagan holda himoya qiladilar. O'qituvchida ko'p hollarda o'quvchining samimiyligiga shubha uyg'onadi. Mana shunday bolalar o'qituvchidan ko'proq «Sen buni uddalaysan, qo'lingdan keladi!» degan so'zlarni eshitishlari kerak. Muntazam ravishda ular o'qituvchining qo'llab-quvvatlashini sezsalor ularda o'ziga nisbatan hurmati va ishonchi ortadi, o'zini bunday xatti-harakatlar bilan himoya qilish esa kamayadi.

3-vazifa. O'qituvchining nuqtayi nazari va munosabatining o'zgarishi. O'quvchining xususiyatlarini tahlil qilgan holda o'qituvchining shaxsi, uning o'quvchilar bilan muloqot va munosabatlari ahamiyatga egadir.

O'qituvchilar o'quvchi bilan ma'lum qoidalar doiralari asosida munosabat qilishlari lozim.

1-qoida. O'quvchining shaxsiga emas, balki uning ayni vaqtidagi xulq-atvoriga diqqatingizni qarating. O'quvchining xulq-atvorini muhokama qilayotganda unga xolisona baho berishga harakat qiling.

Bunda ayni vaqtda sodir etilgan xatti-harakat haqida «shu yerda va hozir» gapiring. O'qituvchi tomonidan bunday xatti-harakatni avval ham sodir etgansan yoki kelajakda ham sodir etishing mumkin deb tanbeh berilsa, o'quvchi tushkunlikka tushib, bu xatti-harakatni tuzatib bo'lmas xato deb o'ylaydi. O'qituvchi o'quvchiga nisbatan qat'iyatli, shu bilan birga xayrixoh bo'lishi kerak. O'qituvchining: «mening senga munosabatim juda yaxshi, inson sifatida men seni hurmat qilaman, bu qilayotgan ishingni hoziroq bas qilishingga ishonchim komil» degan so'zlari o'quvchi uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, uning o'zini hurmat qilishga, xulqini yaxshi tomonga o'zgarishiga turtki bo'ladi.

2-qoida. O'zingizning salbiy his-tuyg'ularingizni nazorat qiling. O'quvchi bizning ayni vaziyatda unga jahl qilsak, g'azabimizni bildirsak, bunga javoban o'zini yanada qasdma-qasd yomon tutishi mumkin. O'qituvchi qachonki o'z his-tuyg'ularini nazorat eta olsa, o'quvchiga o'zini yomon tutishiga imkon bermaydi va kelgusida yaxshi shaxslararo munosabatlar uchun zamin hozirlaydi.

3-qoida. Vaziyatni yanada keskinlashtirmang. O'ta baland ovozda gapirish, «bu yerda o'qituvchi men, sen emas» degan iborani ishlatish, piching va istehzo bilan gapirish, shaxsiyatga tegish, nizoga boshqalarni ham jalb etish, tashqi ko'rinishini tanqid qilish, o'quvchilarni kalaka qilish va boshqalar qat'iyon man etiladi. Bularning ba'zilari qisqa vaqtga o'quvchini tinchlantirishi mumkin, lekin unda o'qituvchiga nisbatan hurmat uyg'onmaydi va ishonchli muloqotga kirisha olmaydi.

4-qoida. O'quvchining xatti-harakatini butun sinf oldida emas, balki darsdan so'ng bir o'zi bilan muhokama qiling.

5-qoida. O'quvchilar odatda o'qituvchining barcha aytganlarini «o'zlari xohlagandek», ya'ni aftlarini bujmaytirib, shoshmasdan, bajaradilar. Agar o'qituvchi bunga ahamiyat bermasa, o'quvchi o'z-o'zidan qoidalarga bo'ysunishi mumkin, ular o'rtasida qarama-qars-hilik paydo bo'lmaydi.

6-qoida. O'quvchiga do'q-po'pisa qilish, baqirish, uni ayblash kabi agressivlikni namoyon qilmang. Ular bu hatti-xarakatni sizga nisbatan ham «qo'llash mumkin» deb tushunadi.

Muammoli xulq-atvorda pedagogik ta'sir usullari. Agar bola e'tiborni talab etsa quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

1. E'tiborni kamaytirish:

– ko'p hollarda bolaning namoyishkorona xulq-atvorini to'xtatishning eng samarali usuli – unga ahamiyat bermaslik;

– ko'zlar orqali aloqa o'rnatish. O'quvchiga razm solib qarab turing, ko'z qarashlaringiz orqali o'quvchi sizni uning xatti-harakatidan norozi bo'layotganingizni tushunadi;

– hech qanday qarashlarsiz va so'zlarsiz uning yoniga kelib turing. Bolalar nimanidir noto'g'ri qilayotganlarini tushunadilar va ularni oldiga yaqinlashishingiz zahotiyiq nojo'ya harakatlarini to'xtatadilar;

– dars davomida intizomni buzmoqchi bo'lgan bolaning ismini dars mavzusiga bog'lab aytib o'ting. U tinchlanish kerakligini tushunadi;

– yozma tarzda ogohlantiring. Shunchaki bolaning oldiga «iltimos, shu ishingni qilmagin» degan mazmundagi yozuvni qo'yib keting. Bolaga bu qanday ta'sir qilganini kuzating;

– o'z noroziligingizni to'g'ri izhor eting. Ba'zida «hoziroq bas qiling!» deb baqirgisingiz keladi. Lekin buni boshqa tarzda aytish ham mumkin: «Lola, men darsni tushuntirayotganimda seni gaplashib o'tirishing mening xayolimni chalg'itadi, iltimos, gaplashma».

2. Dars davomida o'quvchilarga birmuncha vaqt xohlagan ishlarini qilishga ruxsat bering («taqiqlangan meva doim shirin»):

– nojo'ya harakatlar (o'tirishni xohlamasalar turaversinlar, birlari bilan gaplashaversinlar) va bema'nigarchilikka ma'lum vaqt ruxsat bering;

«hamma narsa mumkin» usulini qo'llang. Bu usul shundan iboratki, o'quvchilar intizomni faqat avvaldan kelishib olingan hajmda buzishlari mumkin. Shuningdek, bu hajm kichrayishi mumkinligi ham aytilgan bo'lishi kerak. Bu usul faqatgina o'quvchiga e'tibor kerak bo'lganda qo'llaniladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bunday alohida munosabatlar natijasida o'quvchi o'ziga nisbatan e'tiborning kerakli ekanligini his etadi.

3. O'quvchilarning yomon xulq-atvorini ular kutmagan tarzda to'satdan to'xtatish:

– kulgi va yumordan foydalaning;

– past ohangda gapirishni boshlang. Ko'p o'quvchilar «Maktabda siz uchun eng yoqmagan narsa nima?» deb savol berilganda «Baqirib va o'dag'aylab gapiradigan o'qituvchilar» deb javob beradilar. Qachonki o'qituvchilar sekin gapirsalar o'quvchilar ham shunga javoban qo'pollik qilmaydilar.

– darsni birmuncha vaqtga to'xtatib turing: «Avval tinchlanib olinglar va qachon darsni davom ettirish mumkinligini aytasizlar» deb, sinfga murojaat qilish mumkin. O'qituvchining bunday yengil bosimi tezda ta'sir etadi.

4. O'quvchilarni chalg'iting:

– «Sen bu savolga qanday javob bergan bo'larding?», «Sening fikring qanday?» kabi to'g'ridan-to'g'ri savollar bolani «yomon» xulq-atvordan chalg'itadi;

– unga biron-bir vazifani (daftarlarni yig'ib olish, bo'r olib kelish, sinf jurnalini olib kelish va hokazolar) yuklating;

– o'quvchilarning faoliyatini o'zgartiring (har biriga alohida topshiriq bering).

5. Sinfning diqqatini intizomga rioya qilayotganlarga qarating:

– sizni topshirig'ingizni bajargan o'quvchilarga minnatdorchiilik bildiring;

– ularni maqtang.

6. O'quvchilarning joyini o'zgartiring. Ularni boshqa joyga o'tkzangiz «tomoshabinlardan» mahrum etasiz va ular tinchlana-dilar.

Agar bola qasddan yoki boshqalarning ustidan hukmronlik qilish xulq-atvorini qo'llasa, quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Nizo kelib chiqmasligi uchun diplomatik yo'l tuting.

2. O'quvchining nimaga qodir ekanligini tan oling.

O'quvchiga qanchalik ko'p bosim o'tkzangiz, u shuncha ko'p qarshilik ko'rsatadi. «Sen topshiriqni bajarmasligingni men tushundim» degan mazmunda murojaat qilsangiz o'quvchi buni buyruq ham, nasihat ham emas deb qabul qiladi. Darsni davom ettiri-

shi yoki aksariyat hollarda o'quvchi hech qanday e'tirozsiz boshqa o'quvchilarga qo'shilishi mumkin.

3. Agar yuzaga kelgan nizoli vaziyatni muhokama qilmoqchi bo'lsangiz buni dars vaqtida emas, balki tanaffus vaqtida bajarish maqsadga muvofiq. Chunki atrofda gilarning guvohligi qarama-qarshilikni yanada kuchaytiradi. «Tomoshabinlarsiz» o'quvchi o'zgaradi.

4. Yuzaga kelgan vaziyatning muhokamasini keyinroqqa qoldiring: «Men hozir buni muhokama qilmoqchi emasman», «Balki, sen haqdirsan, kel bu haqida keyin gaplashamiz».

5. Muhokama uchun maxsus vaqt belgilang. «Sen bilan buni muhokama qilishga roziman. Oltinchi darsdan so'ng vaqting bo'ladimi?» Va yana xotirjam darsni davom ettirish mumkin.

6. O'quvchilarga topshiriq bering. «Balki, sen haqdirsan... Lekin hozir darsni davom ettirsak», «Men, albatta, bu haqida o'ylab ko'raman, hozir esa mavzuga qaytamiz...». O'quvchilarning nojo'ya so'zlari, albatta, qattiq ta'sir etadi, agar ularga javob bera olmasangiz mavzuni o'zgartiring, vaziyatni yumshating va o'quvchilarga topshiriq bering.

7. O'quvchilarni vaqtincha darsdan chetlashtirish texnikasini qo'llang. Lekin shu yerda aytish kerak-ki, ularni koridorga yoki «manzilsiz» chiqarib yuborib bo'lmaydi. Sinf ichidagi boshqa partaga, boshqa sinfga, psixologning, direktorning xonasiga chiqarish mumkin. Bu eng so'nggi choralardir. O'quvchiga taklif qiling: «Aziz, senga nima ko'proq ma'qul, darsda biz bilan o'tirishmi yoki direktorning xonasiga borishmi? Seni ko'rinishingdan direktorning xonasiga borishni tanlaganingni sezdim». O'quvchi ikkitasidan birini tanlashi kerak. Agar shunday davom etsa darsdan chiqib ketishi mumkin.

8. Jarima belgilash. Intizomni buzish oqibatsiz kechmasligini bolalar tushunishlari lozim. Intizom buzilishining har bir ko'rinishi uchun ma'lum jarimalar belgilanishi mumkin. Jarimalar nojo'ya harakatning yoki intizom buzilishining xarakteriga mos bo'lishi, masalan, *stulni sindirdingmi – tuzatib qo'y*, *xonani iflos qildingmi – tozala*, *haqorat qildingmi – uzr so'ra* kabi mazmunda bo'lishi kerak.

O'quvchilarga nisbatan bunday jarimalar kelgusida bu kabi xatti-harakatlarni takrorlamasligi uchun qo'llaniladi. Shu o'rinda jarimalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- o'quvchini tanaffusga chiqishdan mahrum qilish, darsdan so'ng birmuncha vaqtga olib qolish;
- darslikdan, jismoniy tarbiya darsida biron-bir sport inventaridan, kompyuterdan foydalanishdan mahrum qilish;
- zarar o'rini to'ldirish;
- maktab ma'muriyati bilan uchrashish;
- ota-onalar bilan uchrashish.

Pedagogik ta'siming usullari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- o'quv materialini tushuntirish usulini o'zgartirish. M. Montessorining ta'rifiga ko'ra, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun dars mavzusini tushuntirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samara beradi. Ular uchun maxsus topshiriqlar tayyorlash, juft bo'lib ishlash, o'quvchilarni bir-biriga biriktirish, «sen buni uddalaysan, qo'lingdan keladi» degan so'zlar bilan yutuqqa erishishi uchun sharoit yaratish, muvaffaqiyat qozonishga ishonchni shakllantirish, xatolikka yo'l qo'yganda tushkunlikka tushmaslik, o'quvchining kuchli tomonlarini ochib berish, o'quvchiga individual yordam berish muhimdir.

4-vazifa. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi.

1. Biz bolani qanday bo'lsa shundayligicha, ya'ni uning axmoqona qiliqlariga, kamchiliklariga, nojo'ya harakatlariga qaramay qabul qilishimiz kerak. Bu ularga o'zini hurmat qilish va o'z xulq-atvorini o'zgartirishiga imkon beradi.

2. O'qituvchi o'quvchiga dars davomida qanchalik e'tibor qaratrsa, uni eshitsa, uni maqtasa, shunga javoban o'quvchi tomonidan intizom buzish hollari kamayadi.

3. O'zining tan olinganligini his etish inson uchun juda muhim. O'quvchilarning fikri hurmat qilinishi, ularning qilayotgan ishlari sinf va maktab uchun foydali ekanligini ko'rsating. To'g'ri maqtov orqali intizomni tuzatishga erishish mumkin.

4. Ma'qullash. O'quvchilarga ularning ijobiy xarakter xususiyatlari yoki biron narsani amalga oshirish uchun qilayotgan harakatlari, ularning qiziqishlari, erishgan yutuqlari haqida gapirib turish lozim.

Chunki ularning ijobiy xususiyatlari o'qituvchi tomonidan tan olinsa ular o'qituvchilarga ham yaxshi munosabatda bo'ladilar.

5. Iliq munosabatlar. O'qituvchi kelgusida ham quvonch bilan eslab turiladigan iliq emotsional muhitni yarata olishi lozim. Chunki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yaxshi munosabatlar sinfda intizom bo'lishi uchun eng yaxshi vositadir.

5-vazifa. Ota-onalar va boshqa fan o'qituvchilarini jalb etish. O'qituvchining mazkur muammo bo'yicha olib borayotgan ishining samaradorligi bu jarayonga ota-onalarni jalb qilish orqali ham ortadi. Qachonki o'qituvchilar va ota-onalarning harakatlari birlasha, bir maqsad sari hamkorlikda ish ko'rsalar natijaga tezroq erishiladi. Sir emaski, tarbiyasi qiyin bolalarning oilalari, ota-onalari ham shundaylar qatoriga kiradi. Oilaviy tarbiyaning avtoritar yoki beparvolik usuli ta'lim olishda yaxshi natijalarga erishish imkonini bermaydi. Shuning uchun ota-onalar munosabatlari usulini o'zgartirish o'quvchi xulq-atvorining o'zgarishiga va uning fanlarni o'zlashtirishiga sabab bo'ladi. Tarbiyasi qiyin bolalarning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yish uchun bir necha qoidalarga rioya qilish zarur hisoblanadi.

Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning qoidalari.

Ota-onalarga farzandining yomon xulq-atvori haqida shunchaki umumiy tarzda emas («Sizni o'g'lingiz... barcha o'qituvchilarga ha-laqit beradi»), balki aniq dalillar keltirgan holda ma'lum qiling.

Ota-onalarga birdaniga farzandining barcha nojo'ya ishlari haqida gapirmang, aks holda ota-onalar darg'azab holda bolalarini do'pposlashga tushadilar.

Ota-onalar bilan shunchaki sodir bo'lgan vaziyatni («ikki» baho olganligi, kimdir bilan janjal, uy vazifasini bajarmaganligi, intizomni buzganligi) muhokama qilish kifoya. Oqibati nima bo'lishi haqida gapirmagan ma'qul.

Ijobiy holatlarni bashorat qilish esa foydali bo'lishi mumkin. O'quvchining ijobiy sifatleri, uning oz bo'lsa-da yutuqlariga urg'u berish va kelajakda ota-onalarning o'z farzandlariga yordami bilan yaxshi natijalarga erishish mumkinligiga ishonch bildiring.

Ota-onalar ham oddiy odamlar ekanligini unutmang. Ularning e'tiborsizligidan ranjimaslik lozim. Ko'p hollarda sizning talablarinigiz o'qituvchilarning muammosi (masalan, biron-bir o'quv predmetiga bo'lgan munosabati, biron-bir o'qituvchi yoki o'quvchiga nisbatan qo'pol muomalasi) bo'lishi mumkin.

Hamkorlikka faqatgina ota-onalarni emas, balki o'quvchilarning o'zlarini ham taklif eting. Bu bilan ularga ham qandaydir mas'uliyatni yuklagan bo'lasiz. Ba'zida o'quvchilar o'zlarida qandaydir o'zgarishlarni kattalarga nisbatan tezroq anglaydilar. Shu bilan birga, agar o'quvchilar ularning xulq-atvorini ota-onalari va o'qituvchilar birgalikda tuzatishga harakat qilayotganlarini ko'rib yaxshi tomonga o'zgarish kerakligini tushunadilar.

3.3. Ta'lim muassasasi rahbar xodimlar va o'qituvchilari o'rtasidagi konfliktlar

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgari gidek, ha bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz. Ota-bobolarimiz ong-u tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharm-hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar qadrlanadi.

Birinchi Prezident Islom Karimov bejizga ham «... agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim, hech qachon yenga olmaydi. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi, yoningizda turib, qo'lidan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi» – deya ta'kidlamagan¹.

¹ *I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 122 b.*

Har qaysi fuqaro, har qaysi inson, jamiyat taraqqiyoti va uni yan-gilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi va mas'uliyatini o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan kuchli fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida namoyon etishi darkor.

Muammoning yechimini topmasdan turib, konfliktni ijobiy hal etib bo'lmaydi. Agar konfliktga e'tibor berilmasa, muammo yechil-may qolib ketadi, u yo'qolmaydi, bilaks chuqurlashib, o't olib, og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Konfliktlar yechimini topa bilishda esa maxsus bilimlar qo'l keladi. Muammoning yechimiga qaratilgan umumiy sa'y-harakatlar esa uning chuqurlashib ketib, og'ir natija-larga olib kelishining oldini oladi. Shu bois, konflikt vujudga kelga-nida undan uzoqroqda emas, balki unga nisbatan faol munosabatda bo'lish darkor. Konfliktga nisbatan faol munosabat esa konfliktlar yechimi bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalarning qo'llanilishini anglatadi.



7-rasm. Jamoa – ijtimoiy munosabatlar va yagona ijtimoiy faoliyat asosida birlashgan guruh.

Konfliktlar turli joylarda sodir bo'lishi mumkin. Mana shunday konfliktlardan biri – siz ishlayotgan mehnat jamoasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan konfliktlardir. Jamoada sodir bo'lishi mumkin bo'lgan konfliktlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'ladi. Jamoada sodir bo'ladigan konfliktlar mana shu jamoada ishlayotgan barcha xodimlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi (7-rasm). Mehnat jamoasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan konfliktlar (1) sizdan tashqarida, ya'ni ziddiyat sizning manfaatlaringizni o'zida jam qilmagan yoki (2) unga siz ham tortilgan, ya'ni sizning manfaatlaringiz konflikt orqali buzilayotgan yoki aksincha, sizning manfaatlaringiz yutib chiqayotgan yoki (3) alohida holda siz va sizning hamkasbingiz, siz va sizning rahbaringiz o'rtasida yoki (4) umuman butun jamoa orasida vujudga kelishi mumkin. Jamoadagi konflikt kim o'rtasida sodir bo'layotganligiga qaramay mana shu jamoada ishlayotgan xodimlarning barchasini o'z domiga tortib ketadi.

Nima sababdan mehnat jamoalarida turli xil nizolar kelib chiqadi. Buning bir necha sabablari bor:

- alohida shaxs va jamoatchilik manfaatlarining mos kelmasligi;
- ayrim alohida jamoa a'zolari xatti-harakatlarining ijtimoiy, ruhiy normalarga zid kelishi (tartibsizlik, intizomning buzilishi, mahsulotdagi yaroqsiz (brak), ishning samarasizligi va hokazo);
- jamoa a'zolari qarashlaridagi nomuvofiqliklar;
- ishni tashkil etish va mehnatga munosabatdagi farqlar;
- ishchi xodimlar o'rtasidagi vazifalarning to'g'ri taqsimlanmaganligi va hokazo.

Siz jamoada sodir bo'lgan ziddiyatdan tashqarida bo'la olmaysiz. Agar siz konfliktga umuman aralashmasangiz ham, sizdan konfliktga nisbatan o'z munosabatingizni oydinlashtirish so'ralganda, istang-istamang ziddiyatga nisbatan o'z fikringizni, o'z xulosalaringizni aytishga majbur bo'lasiz. Bu esa, qaysidir masalalarda bir yoki boshqa tomonning manfaatlarini ustun qo'yishingizga, biron tomonning yonini olishingizga sizni majbur etadi. Agar siz maqsadli ravishda jamoadagi konfliktidan o'zingizni olib qochib, betaraf deb e'lon qilganingizda ham, har kuni o'sha jamoada bo'lganingiz uchun, konfliktning qanday rivojlanayotganligi, tomonlar o'zini qanday tutayot-

ganligi beixtiyor kuzatib borasiz, natijada o'zingizni haqiqatan ham ziddiyatdan tashqaridaman, – deb his qila olmaysiz.

Jamoada vujudga kelgan har turli konfliktlarga nisbatan ham passiv emas, faol yondashgan ma'qul. Siz o'zingizni bir tomonning yonini olgan yoki ikkinchi tomon uchun bo'ysungan holda emas, balki avval o'rganganimizdek, mana shu konflikt vaziyatni vujudga keltirgan muammoni aniqlashga sa'y-harakat qilib, butun jamoa diqqatini shaxslararo munosabatlarni taftish qilishga emas, balki muammoni aniqlashga, uning yechimini qidirishga, tomonlar har birining manfaatlarini o'zaro yaqinlashtirishga, har ikki tomonni ham o'zaro qoniqtiradigan yechimni qidirishga safarbar etishingiz lozim bo'ladi.

Mehnat jamoasida xodimlar o'zaro bir-birlarini hurmat qilish va bir-birlariga zarar yetkazmaslikka harakat qilib ishlaydilar. Ammo shunga qaramasdan ba'zan ular o'rtasida, ko'proq jamoa rahbarining o'z qo'lidagi xodimlarga nisbatan jamoa etikasining buzilish natijasida muammoli holatlar uchrab turadi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) rahbarning qo'l ostida ishlayotganlarga nisbatan dimog'dorligi, ya'ni o'z rahbarlik lavozimini suiste'mol qilgan hollarda rahbarlik qilish tartibini buzishi;
- 2) o'zini katta tutishi, ularni behurmat qilishi;
- 3) bergan va'dalar ustida turmaslik;
- 4) o'z fikrlaridan o'zgacha bo'lgan qarashlarni yoqtirmaslik, qo'l ostidagi xodimlarning fikrlarini inkor etishi va ta'qib ostiga olishi;
- 5) tanqidli fikrlarga yo'l qo'ymasligi;
- 6) o'z qo'lidagi xodimlar huquqlarini cheklashi;
- 7) xodimlarga ular mas'uliyatidan tashqari shaxsiy majburiyatlarni yuklashi va ularning bajarilishini talab etishi;
- 8) barcha uchun muhim bo'lgan ba'zi ma'lumotlarni yashirib, ulardan jamoani bexabar qoldirishi (masalan, shtatlar qisqarishi, mukofotlardan yoki chet elga ketish uchun kelgan xizmat safarlar);
- 9) inson nafsoniyatini pastga uradigan tanqid bilan shug'ullanishi;
- 10) xodimlar orasiga ataylab g'alva va nifoq solib qo'yishi;
- 11) xodimlarni guruh-guruh qilib, ular o'rtasidagi nizolarni keltirib chiqarishi;

12) xodimning vaqtini tejamaslik (masalan, xodim agar rahbar bilan muhim masala yuzasidan maslahatlashmoqchi bo'lsa, o'zini bir necha kun «kutish»ga yoki uzoq vaqt kutishga majburlash);

13) xonasiga kirgan odam bilan o'z qog'ozlaridan ko'z uzmay suhbatlashishi;

14) kirib kelgan odamga «o'tirishni» taklif etmaslik va boshqalar.

Yuqoridagilarga asoslanib misol keltirishimiz mumkin. Masalan, Toshkent shahridagi maktablardan birida direktorni boshqa ishga o'tgani uchun uning o'miga yosh, ammo qaysidir maktabda o'quv bo'limining mudiri bo'lib ishlagan ayolni tayinlashdi. Jamoa yangi rahbari iliq kutib oldi, ayniqsa, uning yoshligi va «men bu maktabda tartib o'rnatishga keldim, o'zim ham kuchimni ayamayman va sizlardan ham shuni talab qilaman», – deb ishonirishi ko'pchilikka yoqib qoldi.

Chunki eski direktorning ba'zan o'z bilganicha, adolatsiz qarorlar qabul qilishini o'qituvchilar jamoasi hazm qila olmasdi.

Darhaqiqat, maktabda tartib-intizom ancha yaxshilandi. Oldingi direktorning «erkalari»ni yangi rahbar «joyiga o'tkazib qo'ydi». Maktabning o'quv jarayonida, tashqi va ichki ko'rinishida sezilarli o'zgarish yuz berdi. Lekin yangi direktor yoshligi uchunmi, o'qituvchilar bilan gaplashganda, yig'ilishlarda qo'pol, ortiqcha o'ziga erk berib gapirishidan ayrimlar qattiq ranjiy boshladi. Shundaylar orasida maktabning o'quv bo'limi mudiri ham bo'lib, u ancha tajribali, jamoada o'rni va obro'siga ega edi. Yangi direktor o'zidan ancha yosh bo'lishiga qaramay ayrim vaqtda qo'pol munosabatda bo'lishi mudirning nafsoniyatiga tegdi. U bir-ikki marta rahbarga odamlarga nisbatan munosabatini o'zgartirishni maslahat berdi. Asta-sekinlik bilan maktab jamoasi ikkiga bo'linib, bir qismi rahbar atrofida, ikkinchi qismi mudir atrofida kichik guruhni tashkil etdi. Tashqaridan qaraganda bu holat sezilmas, odamlar bir-biri bilan avvalgiday quyuq salomlashar, birgalikda tadbir o'tkazishar edi, lekin o'rtada o'zaro ishonch yo'qolib, «o'zimizniki» va «dushman tomon»ga jadal ravishda taqsimlanishdi. Har bir guruh o'zining keyingi harakat taktikasini va strategiyasini burchak-burchakda yashirincha muhokama qilardi.

O'zaro tortishuvlar, bir-birining ustidan shikoyat xati yozishlar, katta-kichik yig'ilishlarda dahanaki janglar avj oldi. Ba'zilarning esa asabi chidamasdan ishdan bo'shsh haqida ariza yozishgacha bordi. U konflikt agarda shunday davom etsa, nima bilan tamom bo'lishini hech kim bashorat qila olmasdi.

Yaxshiyamki, tuman Xalq ta'limi bo'limi bu konfliktga aralashib, direktor va mudiri ishdan olib, o'rniga boshqa kishilarni tayinlash bilan barham berdi.

Yana bir misol, jamoada ikki xodim o'rtasida o'zaro konfliktli vaziyat vujudga keldi. Bo'lim muhim bo'lgan masala yuzasidan yillik hisobot tayyorlashi lozim edi. Hisobotning tarkibiy qismlari turli xodimlarga bo'lib berildi. Kimdir hisobot yozishga mas'uliyat bilan yondashdi, kimdir mas'uliyatsizlik qilib, kechikib, o'zi tayyorlashi bo'lgan sahifalarni yozib ulgurmad. Buning natijasida butun bo'lim yillik «mukofot»dan quruq qolishi ehtimoli vujudga keldi.

Kimdir «O'zi kim bu landovurni ishga olib kelgan», – dedi. Boshqa bittasi «Avval so'raylikchi, oilasida biron kor-hol bo'lgandir», – dedi. Uchinchilar «Mana biz kechalari uxlamay, qog'ozlarni uyga olib ketib, xo'jayinlardan gap eshitib bo'lsa ham, yozib ulgurdikku», – dedi. Boshqa bir xodim «Haydash kerak bunaqa bezbetlarni, birovlar hisobiga kun ko'radiganlarni. Qutulish kerak ulardan. O'zi ham ishlamaydi, birovlarni ham oyog'iga bolta uradi», – dedi. Hamma gapga chidayotgan ishni bajarib kelmagan xodim, «Kim bezbet? Kimning oyog'iga bolta uribman?!» – deb qarshisida turgan odamga tashlanib qoldi. Orada shovqin-suron bo'lib ketdi. So'z bilan urish-hish mushtlashishga aylanib ketdi. Shovqinga bo'lim boshlig'i kirib qoldi. Ikkala urishgan xodimni o'z xonasiga taklif etdi. Boshliq hisobotni muddatida qilmagan odamni o'zi ishga olib kelgan edi. Shu bois uni ko'p urishmadi. Gaplarining oxirida «Hammaga aytib, tinchlantirib qo'yinglar. Hamma o'z mukofot pulini oladi», – dedi. So'ng, «Biz bir bo'limdamiz. O'zaro janjal qilmanglar. Uyat bo'ladi. Murosa-yu madora. Qani bir-birlaringizga qo'l berib, yaras-hib olinglar-chi», – dedi-da ularni qo'yib yubordi.

Ana, endi siz javob bering. Boshliq o'rtadagi nizo va ziddiyatni yechib, muammoni hal qilganmi?! Eng oson yo'li, xuddi muam-

mo mavjud emasdek, tomonlarga «urushmanglar», – deyish. Ammo «urushmanglar» deyish bilan odamlar urushmasdan qolmaydi-ku... Shu bois, jamoada vujudga keladigan konfliktlarda ham o'zini tutish va konfliktda bo'lgan munosabalar bo'yicha ma'lum tartib-qoidalariga rioya qilgan ma'qul bo'ladi. Jamoadagi konfliktlar bo'yicha mutaxassislar konfliktni boshqarishning sakkiz muhim qoidalarini ajratishadi.

Yuqorida keltirilgan misollar bilan maktab jamoalarida (yoki ishlab chiqarishdagi mehnat jamoalarida) nizoga faqat o'quvchi sabab bo'ladi, demoqchi emasmiz. O'qituvchilar orasida ham ish yuritish shakli, xatti-harakati, xulq-atvori nizoga sabab bo'ladigan o'qituvchilar ancha bo'lib, ular ham o'quvchilarning maktabdan bezishiga, o'ziga ishonchsiz, qo'rqq, tashabbusiz, asabiy bo'lib o'sishlariga sabab bo'lar ekan, bunday o'qituvchilar tibbiy, ruhiy va asabiy yordamga doim muhtoj bo'lib yuradilar.

Jamoadagi konfliktni boshqarish tartiblari

1. Konflikt vujudga kelganini, uning mavjudligini tan olish va uni o'rganish.

2. Konfliktga tortilgan xodimlar, bevosita konflikt ishtirokchilari hamda konfliktga aloqador bo'lmagan, ammo mana shu jamoaning barcha xodimlari ziddiyat to'g'risidagi xolis fikr-mulohazalarini o'rganish.

3. Konfliktning asl mazmunini, nima sababdan kelib chiqqanligini aniqlash. Ziddiyatning shaxslararo konflikt ekanligi yoki tomonlararo konflikt ekanligini belgilash. Shuningdek, jamoadagi osoyish-talikni buzish jamoaga o'z salbiy ta'sirini o'tkazish, ish jarayoni-ning buzilishiga sabab bo'layotgan odam mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash. Umuman, konflikt vaziyatining subyektiv va obyektiv kelib chiqish sabablarini o'rganish. Obyektiv sabablar mavjudligi aniqlansa, ularning oldini olish choralarini ko'rish, masalan, kompyuterning buzilib qolganligi, elektr chirog'ining o'chib qolganligi, qog'ozlarning yetishmovchiligi va hokazo.

4. Konflikt yechimini rejalashtirish. Konflikt yechimini topish bo'yicha turli alternativ usullar, yo'llar va ssenariylarni ishlab chiqish. Konfliktning qanday rivojlanib va o'sib borishi mumkinligini aniqlash. Konfliktning o'sib ketmasligi oldini olish choralarini ko'rish.

5. Konflikt yechimi jarayoniga barcha xodimlarni jalb qilishga harakat qilish. Ko'pchilik hollarda bargalikda ziddiyat mazmuni, uning kelib chiqishi va uning yechimini topish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash yo'nalishida hamkorlik va birgalikda ishlashning o'zi konflikt vaziyatni yumshatishga, tomonlar manfaatlarini uyg'unlashtirishga, umumiy maqsadlarni topishga, shuningdek uyg'unlik asosida tomonlarni yangitdan bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Muammoni ochiq muhokamaga qo'yish, har bir xodinning fikr va qarashlarining samimiy bayon qilinishiga erishish, qarashlardagi plyuralizmga erishish, konflikt yechimi bo'yicha har bir tomon qarashlarining ifodalinishini yo'lga qo'yish jamoadagi har turli keskinliklar, mavhumlik, gina-qudrat, g'iybat, xafagarchilik, fikrlarning ichida qolib ketishi, g'alamislik, fitna, bo'xton va aniq bo'lmagan ma'lumotlar tarqalishining oldini olish.

6. Butun jamoadagi diqqatni konfliktning mazmunini, muammo-ning mohiyatini anglashga qaratish va yo'naltirish yaxshi natijalar beradi. Chunki konflikt – bu hayotning yoki jamoadagi faoliyat jarayonining oxiri emas. Kollektiv bundan keyin ham birgalikda, hamkorlikda ishlashi lozim. Ish yuzasidan esa turli ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Ish yuzasidan bo'lgan ziddiyatlarga ish jarayonini yaxshilash uchun vujudga kelgan yangi vaziyat, ish unumdorligini oshirish imkoniyati; mehnat jarayonlaridagi nizolarni olib tashlash orqali yangi munosabatlarni o'rnatish jarayoni sifatida qarash o'rinlidir. Konflikt – jamoada yuzaga kelganda ham oddiy va tabiiy hayot jarayoni bo'lib qolaveradi. Konflikt ko'pincha jamoada vujudga kelgan notabiiy va nizoli holatning yangi mazmunda qayta shakllantirilishi uchun katta imkoniyat beradi. Katta ishlab chiqarish jarayonlarida, biznes strukturalar faoliyatida konflikt mehnat unumdorligini oshirish va mehnat jarayonini jonlantirishning muhim va zarur bo'lgan xususiyatlaridan hisoblanadi. Konflikt kelib chiqishidan so'ng

vujudga kelgan yangi vaziyat aynan yangi qarorlar uchun yo‘l ochib beradi. Yig‘ilib qolgan muammolarni yuzaga chiqaradi. Ular yechimini topishga butun jamoani yo‘naltiradi. Tashkilotdagi atmosfera qanchalik osuda va tinch ko‘rinmasin uning ichki rivojlanish tamoyillarida konfliktlar rejalashtirilgan va tabiiy o‘mashtirilgan bo‘ladi. Konflikt jamoadagi muammoni yorqin va aniq ko‘rish, uni his qilish va uning yechimini topish orqali, yangi ilg‘or va taraqqiyot tamoyillarini belgilab olish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Bu holat – konflikt mazmunida yashiringan uning yaratuvchanlik imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Agar tashkilot rahbari jamoada ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni oldindan bashorat qila olsa yoki vujudga kelgan konfliktlarni yaratuvchanlik tamoyillari asosida rivojlantira olsa, jamoa ichidagi ziddiyatlardan qo‘rqmasa, mana shu tashkilotda o‘shish va ulg‘ayish ta‘minlangan bo‘ladi.

7. Konflikt yechimi doirasida qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta‘minlash va konfliktli vaziyatni hamkorlikda qabul qilingan yechimga olib kelish. Har bir tomonning amallari aniq, o‘zaro muvofiqlashgan, bir-birini to‘ldirgan, adolatli va oddiy bo‘lishi zarur. Yechimni o‘z vaqtida topish konfliktning kuchayib ketmasligini ta‘minlashini esdan chiqarmang.

8. Konfliktli vaziyat bo‘yicha belgilangan qaror va xulosalarning o‘z vaqtida joriy etilishini ta‘minlash zarur. Konfliktli vaziyatda bir marta qaror qabul qilib, undan so‘ng konflikt o‘z-o‘zicha yechiladi, deb o‘ylash noto‘g‘ri. Konflikt yechimi bilan aloqador bo‘lgan qarorlarning bajarilishigina konfliktning haqiqiy yechimi bo‘la oladi. Vaziyat konflikt yechimi topilganini ko‘rsatishi mumkin, ammo ana shu konflikt yechimi amalga oshirildimi, bu sizning keyingi sa‘y-harakatlaringizga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Agar siz konflikt yechimi topilganligi bosqichida muallaq turib qolsangiz, konflikt o‘z yechimi ijrosini hech qachon topmaydi, konflikt – konflikt vaziyatida qolib ketaveradi. Shu bois ziddiyatga doimiy e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Jamoadagi konfliktni to‘g‘ri hal etishda boshqaruvchidan juda keng dunyoqarashga ega bo‘lishni, o‘ta sabrli, o‘tkir mulohazali, madaniyatli va ma‘naviyatli bo‘lishni talab etadi. Har bir chiqarilgan

qaror jamoani tarqalib ketishiga yoki hamjihat bo'lib ishlashiga sabab bo'ladi. Shuning uchun konflikt masalasiga shoshma-shosharlik qilmasdan, ishchilar tomonidan bildirilgan shaxsiy va onmaviy fikrlarga berilib qolmasdan chuqur tahlil qilish bilan yondashish lozim. Konflikt yechimini to'g'ri hal etish nafaqat jamoani, balki jamoaning har bir a'zosi va uning yaqinlarini salbiy oqibatlardan saqlab qoladi, osoyishtaligini buzmaydi. Donishmandlarning fikricha: «Janjal bo'lgan yerdan baraka qochadi».

Mustahkamlash uchun savollar

1. Jamoadagi konflikt va uning yechimiga olib kelish yo'llarini aytib o'ting.
2. O'qituvchilar va o'quvchilar bilan kelishmovchilik kelib chiqishiga nima sabab bo'ladi?
3. Kichik guruhlarning yuzaga kelishidagi konfliktlar.
4. Jamoadagi konfliktni hal etishda nimalarga e'tibor berish kerak?
5. O'qituvchi va o'qituvchi munosabatlarida «Ism»ning ahamiyati nimada?
6. O'qituvchi va o'quvchi muloqotida nutq texnikasining roli.
7. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kattalar bilan muloqot intonatsiyasi necha foiz axborotga ega ekanligini tasdiqlaganlar, ularni izohlang.
8. Qanday hollarda konfliktga o'qituvchi sabab bo'ladi?
9. Muloqotning «noverbal» vositalari va tinglash ko'nikmasi haqida ma'lumot bering.
10. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda uchinchi kishining ta'siri.
11. Rahbar etikasining buzilishi natijasida konfliktlarning yuzaga kelish sabablari.

Talabalarning mustaqil tayyorlanishi uchun

«Keys» topshirig'i

2-vaziyat. *Dilnozaning uyatchanligini bilib, o'qituvchi ogohlantirmoqda:*

– *Hozir, sendan darsni so'rayman. Tayyorgarlik ko'r. Mana bu sen o'zing mustaqil uddalay oladigan matn.*

U qizga matn yozilgan kartochkani berdi. Dilnoza uni o'qishi kerak. Dilnozaning dovdirash holatini yengib, fikrini bir nuqtaga to'plashga vaqti bor. O'qituvchi ko'pchilikka ushbu mavzu bo'yicha rag'batlantiruvchi baho qo'yib bo'lgan, Dilnozada esa hozircha baho yo'q. Dilnoza tabiatan juda hayajonlanuvchilardan.

Savollar:

1. Bilimlarni bunday nazorat qilishni tashkil etishning pedagogik qimmati nimada?
2. Pedagog qanday ko'rsatmalar bermoqda?
3. Ushbu vaziyatda ta'limni tashkil etishning qanday yondashuvi amalga oshirilgan?

IV bob. PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI OLDINI OLIISHDA MULOQOT MADANIYATI

Tayanch iboralar: *mentalitet, muomala madaniyati, muloqot madaniyati, axborot, so'kinish, qarg'ish, kesatq, qochirim, jerkimoq, behurmat qilmoq, idrokli, ma'naviyatli, insoniy qadriyatlar, ichki madaniyat, pedagogik-psixologik bilimdonlik, pedagogik-psixologik muloqot, tartib-intizom, motivatsiya, iste'dod belgilari, Davlat ta'lim standarti, o'quv dastur, o'quv reja, yondashuv, davlat dasturi, tajriba-sinov, imkoniyati cheklangan, tarbiyasi qiyin, layoqat, o'zgani anglash, eshitish, o'zini anglatish, faol eshitish, formalizm, qat'iylik (категоричность), o'zini soxta tutish, o'z fikrini singdirish, effektiv eshitish, omil, sabotajchilik, ehtiyoj.*

4.1. Muomala madaniyati va muloqot qoidalari

O'zbeklar mentalitetida muomala madaniyati ko'pchilik hollarda o'zaro salom-alik qilish, hol-ahvol so'rash, oiladagi holat bo'yicha axborotlarga qiziqish ko'rsatish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ammo aslida muomala madaniyati – o'zga insonga bo'lgan munosabat madaniyati bilan belgilanadi. Faqat salom-alik qilgandagina emas, balki hayot tartibida, har kunlik hayot tarzida insonga ko'rsatiladigan hurmat va e'zozni, samimiy va to'g'ri munosabatni anglatadi. Ichki madaniyatga ega bo'lgan odamgina har turli vaziyatlarda har qanday boshqa insonga nisbatan doimiy to'g'ri, samimiy va aniq munosabat ko'rsata oladi. Muloqot madaniyati insondan boshqa insonga nisbatan har doim bir tekis munosabat ko'rsatilishini talab etadi. Qarshingizda turgan odam boymi, qambag'almi, qishloqlikmi yoki shaharlikmi, mansabdormi yoki oddiy o'qituvchimi, bundan qat'i nazar unga to'g'ri munosabat ko'rsata olish haqiqiy insonparvarlik mezoni bo'lib kelgan. Ammo muloqot madaniyati insondan o'z ustida muntazam ish olib borishni talab etadi. Muloqot madaniyati o'z-o'zidan vujudga kelib qolmaydi.

Hayotda, ko'pincha odamlar orasidagi muloqotda ularning rasmiy, xushomadgo'y, kibr-havoli munosabatlari shohidi bo'lamiz. Ba'zan inson yuqori martabaga erishsa, u o'zini boshqalardan ustunligini ko'rsatish uchun, ko'pchilik bilan salom-alik ham qilmay

qo'yadi. Asl madaniyatda esa aksincha, insonning qanchalik martabasi ko'tarilsa, shunchalik oddiy insonlarga o'zining yaqinligini ko'rsatish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, muloyimlik, xalimlik, ochiqlik, samimiylik, to'g'rilik va boshqa bir necha tamoyillar ulug'lanadi va targ'ib qilinadi. Yoki, yigit taraf qudalar qiz tarafdagilarga sal yuqoridan turib, buyruq berib gapirishadi. Boyvuchcharoq qarindoshlar o'zining moddiy tarafdin muhtoj qarindoshlariga nisbatan kerilib, boshqa tarafdin ularning moddiy tarafdin uyalibroq munosabat ko'rsatishadi. Bunday vaziyatlarning barchasi – noto'g'ri holatlar hisoblanadi.

Demak, real hayotda, odam yoshligidanoq muloqot madaniyatiga oid ma'lum insoniy qadriyatlarining buzilayotganligi bilan to'qnash keladi. Oqibatda, bola hayotida ikki xil standartlar holati vujudga keladi. Bir tomondan, bola muloyim bo'lishi lozim. Ikkinchi tomondan esa, atrofidagi ko'pchilik odamlar, hattoki eng yaqin va hurmatli kishilar ham bu tartib-qoidalarga rioya qilmaydi.

Masalan, «so'kinish» – erkaklar rioya qilmaydigan noto'g'ri holat, «qarg'ash» – ayollar rioya qilmaydigan noto'g'ri holat. O'g'il bolalar «so'kinish»ni odatda o'z otalaridan meros qilib oladilar. Ko'pchilik «so'kinish» yomonligini biladi, ammo ishlatavradi. Uning yomon odatligini o'ylab ham ko'rmaydi. Uni ishlatganda betarbiya odamlar ichki g'urur his qiladi, aslida birovlarini kamsitish, ularni mensimaslik, birovlariga aziyat ulashayotganligini bilmaydi. Ayollar esa ba'zan o'z farzandlarini «qarg'ab» turib ularga ish buyuradi yoki ularni jazolaydi. Aslida ayol kishiga mayinlik, mehribonlik xos bo'lishi lozimligini ular unutib qo'yishadi. Agar, haqiqatda ham bolalari bilan biron noxush hodisa yuz bersa, ular kuyinishi aniq. Ammo til hamma narsani ko'taravradi deb, og'izlariga erk berib yuborishadi. Doimiy jerkib, behurmat qilib, faqat o'zinikini o'tkazib, bolaning erkini bo'g'ib yaxshi xulqli, idrokli, ma'naviyatli, barkamol farzandni tarbiyalab bo'lmaydi. Demak, muloqot va muomala madaniyatining ham hayotda o'z o'rnini va ahamiyatini mavjud.

Shunday qilib, muomala madaniyati nima va konflikt vaziyatlarida mana shu muomala madaniyati talablariga rioya etish ziddiyat-

ni yengishga ko'mak beradimi, degan savollar dolzarblik kasb eta boshlaydi.

Muomala madaniyati bo'yicha bilimlar ziddiyat ichida tomonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, ular orasidagi muloqotni yangitdan bir tizimga tushirish, tomonlarning o'zaro axborot olishlarini yengillashtirish uchun xizmat qiladi. Muomala madaniyati bironi eshitish va birovga o'z axborotlarini to'g'ri yetkazish qoidalari va tartiblaridan iboratdir. Shu bois konflikt yechimi tartiblariga muomala madaniyati bo'yicha o'qituvchining ovoz xususiyatlari qoidalari kiritiladi.

O'qituvchilik kasbi bevosita o'qituvchining ovoz xususiyatlari bilan bog'liq. Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi o'z talabalarini ovozing shiradorligi bilan asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovoz kuchini, shiradorligini, yoqimlilikini bilishi zarur. Lozim bo'lganda undan foydalana bilish malakasiga ega bo'lishi kerak. O'z ovozida kamchilik sezgan o'qituvchi uni yo'qotishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida hamma vaqt uzluksiz mashq qilib borishi lozim bo'ladi. Chunki bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bo'lmaydi.

O'qituvchining ovozida quyidagi xususiyatlar bo'lmog'i lozim: jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi); keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi); havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lishi); ixchamlik, harakatchanlik; chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi); moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikaning eshutilish sharoitiga moslasha olishi); qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (halaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o'zgarib turishi); suggestivlik (ovozning hayajonli ifodalanishi va bu orqali, qanday so'z aytilayotganidan qat'i nazar, tinglovchining xulqiga ta'sir qilish xususiyati).

Nutq texnikasi deyilganda – nutqning tinglovchi yoki talabaga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi.

Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganidan, uning texnikasini ham ikki xil ko'rsatish mumkin: og'zaki va yozma nutq texnikasi.

Og‘zaki nutq texnikasi tovush, bo‘g‘in, so‘zlar, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga nafasdan foydalanish, tovush tembrlarini yaxshilash, fiksiyaga e‘tibor berish, tovushlarning past-baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar kiradi.

4.2. Muomalada samimiyat


«Qalovini topsang qor ham yonadi», – deydi dono xalqimiz. Har bir ishda, xatti-harakatda o‘ziga xos bilimdonlik, ustomonlik qo‘llanilmasa, u ko‘ngildagidek natija bermaydi. Biz yashayotgan jamiyatda har kimning o‘z hunari, o‘z o‘mi bor. Odam borki nima-gadir qodir.

Alisher Navoiy bobomizning «**Mahbub ul-qulub**» asarida «**Falak jismining joni – so‘z**», degan gapi bor. Dunyoda jonsiz narsani o‘zi yo‘q. Hamma jismlar harakatda, bir dam to‘xtamaydi.

Umar Hayyom ham «**Navro‘znoma**» asarida shunday yozadi: «**Men so‘zdan mo‘tabarliroq hech narsa topolmadim... Undan afzalroq narsa bo‘lganida edi, Haq taolo Payg‘ambar (s. a. v.)ga o‘sha narsa bilan murojaat qilgan bo‘lardim**».

Afsuski, oddiygina xushmuomilalik va samimiy munosabatni o‘miga qo‘ya olmaydigan odamlar ham ko‘plab uchraydi. Ular kimningdir dilini og‘ritib gunohkor bo‘layotganliklarini anglab yetishdan oqizdirlar. Hammani hayron qoldiradigan, butun dunyoga shov-shuv bo‘ladigan kashfiyotlar yaratmasin, muomala me‘yorini va insoniy samimiyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olmasalar, ko‘zlangan maqsadlariga erisha olmaydilar.

Sahifalovchi, portret-dagi rasm yozuvini olib tashlang



8-rasm. Garvard universiteti



Uilyam Jeyms
(1842–1910).

Garvard universitetining professori Uilyam Jeyms shunday yozadi: «Qanday bo‘lishimiz kerakligini qiyoslab ko‘rsak, biz hali mudrab yotibmiz. O‘z jismoniy va aqliy imkoniyatlarimizning arziyas qismidangina foydalanib kelmoqdamiz. Aytish mumkinki, inson o‘z salohiyatidan ancha quyida yashamoqda. U odatda foydalanmayotgan juda ko‘plab turli qobiliyatlarga ega» (8-rasm).

Shunday qobiliyatlardan biri – insoniy muomala va samimiy

munosabat. Bunda maqtozni ham, rag‘batni ham ishga solib suhbatdoshingizning ham mehrini qozonasiz, ham ulkan ishlarni qilishga da‘vat etgan bo‘lasiz. Suhbatdoshingizning dilini og‘ritmagan holda samimiy munosabatda bo‘lib, o‘z ta‘sirangizni o‘tkazing. Uy qurgan bo‘lsa uyini maqtang, mashina olgan bo‘lsa, mashinasini maqtang biron yutuqqa erishgan bo‘lsa, xayrixohligingizni bildiring, hatto ro‘zg‘orda rafiqangiz tayyorlagan ovqatni maqtab iste‘mol qiling, farzandingiz maktabdan «5» baho olib kelgan bo‘lsa, qizingiz uyni tozalab supurgan bo‘lsa, ularni ham maqtang. Maqtovdada o‘rtacha, muomalada samimiy bo‘ling.

Munosabatingiz hurmatga yo‘g‘rilgan bo‘lsa, oddiy odamlarni, ayniqsa, oila-a‘zolarangizni boshqarish oson kechadi. Insonning turmush tarzi, yashashi, barcha mehnat va harakatlarida muhim bir qonuniyat bor. Kimki unga amal qilib yashasa, qoqilmaydi. Biroq uning aksi bo‘lsa, o‘zini ko‘p qiyinchiliklarga duchor qilishi mumkin. Siz bilan suhbatdosh bo‘lgan kishilarning o‘zligini anglashga, o‘zining shaxsiy ahamiyatini tushunishga undang. Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek: «**El netib topgay menikim, men o‘zimni topmasam**». Suhbatdoshingizga o‘zini topishga yordam bering. U, avvalo, odam bolasi ekanini anglasin. Insonlararo muomala, muno-

sabat nimaligini tushunsin. Boshqa jon-zodlardan inson nimasi bilan farqlanishini, odamlar o'rtasidagi mehr-muruvvatni, uvol va savobni anglasin.

Donishmandlar ming yillar davomida insonlararo munosabatlar me'yorixususida bosh qotirganlar. Bunday muhokamalardan bitta xulosaga kelishgan: **«Odamlar sizga qanday munosabatda bo'lishlarini istasangiz, siz ham ularga shunday munosabatda bo'ling».**

Shaxs saodati va jamiyat osudaligi borasida totuvlik va inoqlik muhim o'ringa ega. Inoq oila-a'zolari baxtiyor, totuv jamiyat osuda va to'kin bo'ladi.

O'zaro hurmat bilan ish yuritish hammaning ham qo'lidan kelishi mumkin. Agar u kishi notiqlik mahoratini egallagan bo'lsa. Buning uchun ko'plab badiiy kitoblarni o'qish, hayot tajribasini ishga solish, gapirganda ohangga e'tibor berish juda muhim. Nemis faylasuf olim Iogann Volfgang fon Gyotedan universitetda ma'ruza o'qigani borganida **«Shu bir juft soatlik darsga necha soat tayyorgarlik ko'rdingiz»**, deganida Gyote: **«Bir umr»**, deb javob bergan ekan. Shu ulug'larning gaplaridan ham ko'rinib turibdiki, muomala-munosabat oson ish emas. Agar hamsuhbatingizga biron narsani tushuntirmoqchi bo'lsangiz qisqa va lo'nda hamda ta'sirchan qilib yetkazing. Ko'p gapirib, uni bezdirib qo'ymaslik yo'lini tuting... Kimlamidir gap bilan qo'rqitaman desangiz, xato qilasiz.

«Buyuk olimlarning buyukligi uning kichik odamlar bilan munosabatida, muomalasida namoyon bo'ladi», – deydi filolog olim Tomas Karleyl.



Nemis faylasuf olimi
Iogann Volfgang fon
Gyote (1749–1832).



Filolog olim
Tomas Karleyl
(1795–1881).

Qadimda donishmandlar yig'ilishib, bir masala ustida bahslashib qolishibdi. Bahsga sabab bo'lgan masala esa – «Bu dunyoda kim baxtli hayot kechiradi?» degan savolga javob topish ekan. Hammalarining fikrlari bir nuqtaga borib taqalibdi. «**Kimki xushmuomali, shirin so'zli va so'zlarni qayerda va qanday ishlata bilsa o'sha odam baxtli hayot kechiradi**», degan qarorga kelishibdi. Bunday o'ylab qarajak, atrofimizdagi ba'zi odamlar hayoti misolida buni yaqqol ko'rish mumkin. Xalqimizda «**Birni ko'rib fikr qil, mingni ko'rib shukur qil**» degan maqol bor. Bu maqol zamirida katta falsafa yotibdi. Hamma o'zining turmush tarzi haqida o'ylaydi, qayg'uradi. O'zidan to'qroq odamni ko'rsa, fikr qilib uning yo'lidan borishga harakat qiladi. Lekin ko'plar hasad ham qiladi – bu yomon odat. Havas qilish kerak va mehnat mashaqqatidan qochmaslik lozinligini anglamoq darkor. O'zidan pastroq yoki o'ta past ta'minlangan odamlarni ko'rsa, fikrida, tafakkurida o'ylab ko'rib shukur qiladi. Agar aql-idroki shunga yetsa, bo'lmasa undaylar odamlarni pisand qilmaslik yo'lidan boradi. Ba'zan qiynalib yurgan paytlarda kimningdir bir og'iz so'zi sizga katta yo'lga chiqishingizga, biron muammoingiz oson hal bo'lishiga sababchi ham bo'lishi mumkin.

Muomalada gap ko'p

I. Insonlarga yoqishning besh yo'li:

1. Suhbatdoshingiz bilan chin dildan qiziqing.
2. Insonlarga ochiq chehra va nim tabassum bilan munosabatda bo'ling.
3. Unutmang, insonning ismi u uchun eng yoqimli va eng muhim ohangdir.
4. Eng yaxshi tinglovchi bo'ling. Boshqalarga ko'proq o'zlari haqida gapirishga imkon bering.
5. Suhbatdoshingizni qiziqitiruvchi mavzular to'g'risida ko'proq gapiring.

II. Insonlar e'tiboriga erishishning o'n ikki yo'li:

1. Tortishuvlar paytida ma'naviy balandlikda bo'lishning yagona yo'li – tortishuvdan vos kechish.

2. Suhbatdoshning har qanday fikriga hurmat ko'rsating. Insonlarga hech qachon «nohaqsan» demang.
3. Agar siz nohaq bo'lsangiz, tez va keskin tan oling.
4. Suhbatni do'stona ohangda boshlang.
5. Suhbatdoshni har qanday masalada fikringizga «ha to'g'ri», deb aytishga undang va erishing.
6. Suhbat davomida kamroq gapiring, uni ko'proq gapirishga imkoniyat yarating.
7. Mazmunli fikrlarni suhbatdosh o'ziniki deb hisoblasin.
8. Har bir masalaga suhbatdoshning nuqtayi nazari bilan qarang.
9. Boshqalarning fikri va xohishlariga ta'sirchan bo'ling.
10. Marhamatli inson ekanligingiz bilinib tursin.
11. Kinolarda va radiolardagi eng yoqimli harakatlarni o'zingizga singdiring va kinoradio qahramonlaridek harakat qiling.
12. Otashin, aniq, insonga ichki quvvat beruvchi gaplarni gapiring.

III. Insonlar hurmatini qozonishning to'qqiz yo'li:

1. Gapni suhbatdoshingizni maqtash va yaxshi tomonlarini tan olish bilan boshlang.
2. O'zgalarning xato-kamchiliklarini to'g'ridan-to'g'ri aytmang, boshqalar misolida gapiring.
3. Oldin o'zingizning xatolaringiz to'g'risida va shundan so'ng suhbatdoshingiz to'g'risida gapiring, so'ngra suhbatdoshingizni sekinlik bilan tanqid qiling.
4. Suhbatdoshga buyruq bermasdan, unga savol berish orqali ishni bajartiring.
5. Insonlarga o'z muvaffaqiyatlarini saqlab qolishlari va yanada oshirishlariga imkon bering.
6. Har bir insonning eng kichik muvaffaqiyatlarigacha qo'llab gapiring.
7. Odamlar o'rtasida sog'lom, obro'li muhit yarating va natijada ular shu darajada qolishga harakat qilsinlar.
8. Shunday qilingki, inson yo'l qo'ygan xatoliklarini osonlik bilan to'g'rilashi mumkinligini va qiyin emasligini his etsin.

9. Shunga erishinki, insonlar sizning bergan taklif-mulohaza va ko'rsatmalarigizni bajarib, natijalaridan o'zlari zavqlansinlar.

IV. Oilani yanada baxtli qilishning 10 qoidasi:

1. Hech qachon tortishmang.
2. O'z umr yo'ldoshingizni to'g'ridan-to'g'ri o'zgartirishga urunmang.
3. Bir-biringizni tanqid qilmang, yaxshilab o'ylab, so'ng gapiring.
4. Bir-biringizga chin dildan minnatdorchilik bildirib turing.
5. Bir-biringizga doim e'tiborli bo'ling.
6. Har bir masalaga ehtiyotkorlik bilan yondashing.
7. Bir-biringizdan yaxshi tomonlarni qidiring.
8. Jahlingiz chiqqanda masala yechimini keyinga qoldiring va maqsadga erishish uchun to'g'ri yo'l tuting.
9. Oilaning or-nomusini hamma narsadan ustun qo'ying.
10. Oilaning jamiyat o'rtasidagi obro'-e'tibori uchun har bir oila a'zosi mas'uldir.

Nayrang va yolg'onni fosh etish sirlari

Inson zoti boshqa jonzotlardan uchta xususiyati bilan farqlanadi. Insonga aql, nutq va qalb berilgan. Boshqa jonli mavjudotda bu ne'matlar mavjud emas. Biz insonlar ko'pgina hollarda o'zimizni haq, boshqalarni nohaq hisoblaymiz. Natijada nutqimizda bir-birimizni aldaymiz va aldanamiz. Albatta, aldayotgan odam o'z manfaatini ko'zlab aldaydi, aldanayotgan odam suhbatdoshiga ishonib o'sal bo'lishi mumkin. Nima qilish kerak? Suhbatdoshni zimdan kuzatgan odamni aldash qiyin.

4.3. Nutqiy mahorat pedagogik konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida

Nutqiy mahorat nutq sohibining matnga hamda shu matn asosida tinglovchi, tomoshabin yoki o'quvchiga og'zaki yoxud yozma shakldagi murojaati bilan reallashadi. Ana shu murojaat, munosabatga yuqori darajadagi e'tibor esa pedagogning iste'dodidan dalolatdir.

«Nutq madaniyati tugal fikr, go‘zal ifoda demakdir», – deb yoza-di tilshunos olims Lola Xo‘jayeva. Haq gap. Izchillik bilan mantiqan bir-biriga bog‘lanmagan tugal fikr va uning ta‘sirli ifodasi bo‘lmasa, u kishi qalb-u ongiga sig‘maydi, qabul qilinganda ham chuqur ang-lashilmaydi. Shunday ekan, tugal fikr, go‘zal ifodaga erishish uchun nimalarga e‘tibor berish kerak? Nutq mezonlari qaysilar? Shu haqda to‘xtalamiz.

Har qanday nutq o‘z xususiyatlariga ega. Namunaviy nutqning sifat-lari haqida so‘zlashdan oldin «nutqda nima birlamchi?» degan savolga javob berish lozim. Mashriq-u mag‘ribda bunga javob izlash uzoq davrlardan buyon bor.

Mashhur notiq Mark Tuli Sitseron: «**Aniqlik va tozalik – nutqning zaruriy sharti**», desa, Aristotel: «**Chiroyli so‘zlash, ishontirish va mantiqiy asoslash**»ni birlamchi hodisa deb qaraydi.

Notiq Dionis Galikarnas esa nutqda «**maqsadga muvofiqlik**»ni muhim hisoblaydi.

E‘tibor bergan bo‘lsangiz, bular orasida Xitoy devori yo‘q, biri ikkinchisini taqozo etadi. O‘zaro bog‘langan, birini ikkinchisiz tushunish qiyin.

Har qanday nutq muayyan shart-sharoitlarda amalga oshiriladi. Bunda makon (joy), zamon (vaqt), mavzu, auditoriya (omma) singari omillarning o‘rni bor. Bu aloqaviy munosabat jarayoni omma bilan yuzma-yuz shaklda, auditoriyada, radio yoki televideniye orqali amalga oshiriladi.

Nutq xususiyatlari ayrim manbalarda nutqning aloqaviy (kommunikativ) sifati deb ham yuritiladi.

Bular nutqning to‘g‘riligi, tozaligi, aniqligi, soddaligi, jo‘yaliligi, boyligi, ifodaviyligi, mantiqiyiligi, qisqaligi, ta‘sirchanligi, obrazlilik-gi, tushunarlilik va maqsadga muvofiqligidir.

Qoidali nutq – foydali nutq. Nutqning to‘g‘riligi deganda, dastavval, uning adabiy til me‘yorlariga mos kelishi tushuniladi. Busiz boshqa aloqaviy sifatlar bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun ham birinchi xususiyat sifatida e‘tirof etiladi. Hatto, oddiy so‘zlashuv jarayonini busiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Nutq esa, sof holda adabiy til normalariga muvofiq bo‘lgan namunaviy nutq bo‘lishi zarur.

Nutqning to'g'riligi haqida fikr bildira turib filologiya fanlari doktori, professor, akademik Vitaliy Grigoryevich Kostomarov (1973–2000, Pushkin nomidagi Rossiya davlat rus tili va adabiyoti instituti rektori bo'lgan) shunday yozadi: «**Nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy lug'at va grammatik normalarini egallashini tushunish lozim bo'ladi.**»

Demak, nutq ham nazariy, ham amaliy hodisa. Uni bilish, his etishgina emas, amalda o'rinli, qoidali qo'llay olish nutqning muhim talablaridan biridir. Nutqning to'g'ri bo'lishi urg'u hamda grammatik normani puxta bilishni talab etadi. Matnни o'qishda, so'zlab berishda bu mezon to'la amal qiladi. Urg'u har bir tilning tabiatiga ko'ra turli o'rinlarda qo'yiladi. So'zlardagi ba'zi bo'g'inlarning zarb bilan aytilishi, ya'ni urg'uning ma'no va mazmunni ifodalashdagi ahamiyati katta.

Shunday ekan, biz ko'rgan-bilgan, eshitgan, o'qib o'rgangan yoki shohid bo'lgan har bir narsa-hodisaning o'z tayanch nuqtasi bor. Bu faqat kurrai zaminimizdagi voqelikka taalluqli bo'lib qolmasdan, galaktikadagi barcha sayyora, yulduz, samoviy jinslarga ham dahldor. Tayanch nuqtasi bor bo'lmagan narsaning o'zi yo'q bo'lgan taqdirda ham, u omonat. E'tibor bering. Hashamatli, naqshinkor, baland imorat oldida turibsiz. Qanchalik ko'kka bo'y cho'zmasin yoki qanchalik «viqor»li bo'lmasin, uning tayanch nuqtasi – poydevori bo'lmasa, u hech nimadir. erta-indin qulashi, xarobaga aylanishi tayin. Hatto, Yerning ham tayanch nuqtasi bor. Buyuk alloma va olimlar Beruniy hamda Arximed bu haqda qanchalik o'y surib, umrini band etgan bo'lmasin, tayanch nuqta mutlaq haqiqat ekanligini anglab yetishgan. Yerning tayanch nuqtasi bo'lmaganda edi, u allaqachon orbitadan chiqib ketgan bo'lardi.

Insoniyatning, ellarning, tillarning ham o'z tayanchi, suyanchi bor. Tinchlik, totuvlik, o'zaro birdamlik har bir damda, har qadamda bir-birini tushunishlik xalqlar osoyishtaligi va farovonligining tayanchi bo'lsa, har bir tilning tayanchi esa ayni xalq nutqida istifoda etiluvchi so'zlardan iborat.

Ajdodlarimiz soʻzni, nutqni ilohiy neʼmat va hikmat deb qarashganliklarini yuqorida qayd etib oʻtkanimizdek, Kaykovus «**Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir**», – degan boʻlsa, Navoiy «**Koʻngil durji ichra guhar soʻz durur. Bashar gulshani-da samar soʻz durur**», – deb yozgan edi. Gʻarbda ham xuddi mashriq zamindagi singari soʻz qudratiga katta ishonch bilan qaralgan. Siyosatshunos olim Emil de Jirarden (1806–1884) «**Soʻzning kuch-i behaddir. Chekinayotgan qoʻshinni toʻxtatish, magʻlubiyatni zafarga aylantirish va mamlakatni qutqarib qolish uchun goho oʻrinli aytilgan birgina soʻz ham kifoya boʻlgan**», – deb yozadi. Faylasuf olim Ralf Uoldo Emerson (1803–1882) esa «**Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi**», – deydi.

Shunday ekan, oʻrinli soʻz, jozibali nutq xalq bilan bogʻliqlik va birlikning tayanchidir. Ayniqsa, pedagog, shu bilan birga, elektron ommaviy axborot vositalari – televideniye va radioda faoliyat koʻrsatuvchilar nutqining koʻrki va jozibasi xalq tilining boyligi va nafosatini koʻrsatuvchi omildir.

Nutqqa xos boʻlgan, yuqorida koʻrib chiqqanimiz aniqlik va toʻgʻrilik sifatlarisiz nutqning mantiqiyligini tasavvur etish qiyin. Aniq va toʻgʻri boʻlmagan nutq mantiqsiz hamdir. Chiroyli ibora va soʻzlarni qoʻllagan bilan nutq mantiqli va mazmunli boʻlmasligi mumkin. Jumlamaming grammatik jihatdan notoʻgʻri tuzilishi va unda ishlatilgan soʻzlarning notoʻgʻri qoʻllanilishi mantiqning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun oʻqituvchi matnni oʻqishdan oldin bir necha bor tahririy nazar bilan koʻrib chiqqani durust.

Nutqning mantiqiy boʻlishi bu faqat til hodisasi emas, balki tafakkur dialektikasi bilan ham bogʻliq. Mantiqiy fikr yuritish uchun esa, keng qamrovli bilim ham kerak. Shuning uchun ham faylasuf olim Nikolay Gavrilovich Chernishevskiy (1828–1889) «**Nimani noaniq tasavvur qilsang, shuni noaniq ifoda etasan, noaniqlik va ifodani chalkashtirish fikrlar chigalligidan dalolatdir**», – deyishi bilan haqli edi. Soʻylab turib oʻylash, fikr yuritish va uni yetkazish nutqning muhim omillaridandir. Soʻz birikmalari oʻrtasidagi grammatik aloqani his etmasdan aytishlik eshituvchiga malol keladi va mantiqni buzadi.

Mohiyati har xil bo'lgan so'zlarni avtomatik ravishda uyg'unlashtirish mantiqli nutqqa ziddir. Shunday xususiyatlarning yana biri so'z tartibining buzilishidir. So'z o'rning almashinishi jumlada mantiqning aniq va tiniq bo'lishiga ta'sir etadi.

To'g'ri, nutqda pauza, intonatsiya orqali nuqsonni to'g'rilab ketish mumkin. Lekin matn silliq, ravon va tushunishlik bo'lishi uchun mantiqiylikka rioya etilishi zarur.

So'zlarni bilib-bilmasdan tushirib qoldirilishi ham nutqdagi mantiqni buzadi. Bu xususiyat, ko'pincha nutqda unchalik sezilmas-da, diqqat bilan tinglagan kishi notabiiylikni sezadi.

«O'ylamasdan, e'tiborsizlik bilan qo'llangan so'z ma'noni xiralashtiradi, mazmuni buzadi, e'tiborni susaytiradi. «O'ylaganda ham, so'ylaganda ham o'zni nazorat etish lozim. Nutq, notiq, mantiq so'zlarining bir o'zakdan yasalgani ham bekor emas»¹.

Toza nutq – andozali nutq. Qaysi tilda ma'ruza o'qishdan qat'i nazar, o'sha tilning sofligi, boyligi o'qituvchi nutqida aks etadi. Bir tilga xos xususiyatlarni yoki so'zlarni ikkinchi tilga qo'shib so'zlash yoki adabiy til me'yorlariga mos bo'lmagan so'z va iboralarni qo'llash nutqning tozaligiga zid.

Demak, nutqning tozaligi, uning adabiy til mezonlariga mos kelish-kelmasligi, g'ayri adabiy til unsurlaridan holi bo'lishidir.

Anglashilyaptiki, deyarli barcha tillarda bor bo'lgan sheva, varvarizm, kanselyarizm, professionalizm, akademizm, vulgar kabi so'z va iboralarni adabiy tilga aralashtirib qo'llashdan qochish ma'qul.

Badiiy adabiyotda bularni qo'llash holatlari mavjud. Unda milliy koloritni berish, qahramonning qalb-qiyofasini ochish uchun xizmat qiladi. O'zbek tili sheva va lahjalarga boy. Shu bois adabiy til normasida fikrlash lozim bo'ladi.

Ana shu nuqtayi nazardan yondashilsa, ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar nutqi maqtovg'a sazovor bo'ladi. Shu sababli, adabiy tilda so'zlashga harakat qilinsa ham, shevada fikrlash g'ayri ixtiyoriy tarzda dialektlarga xos so'z va atamalarni qo'llab

¹ Nizomiddin Mahmudov. «O'qituvchi va nutq texnikasi». Til va dabiyot ta'limi. 2-son. – T., 2007-yil. – 4-9 b.

yuborishga olib keladi. Pedagoglar nutqidagi sheva unsurlari, ayniqsa, nutq tovushlarining talaffuzida yaqqol seziladi.

Bu unli tovushlarning cho'ziq yoki qisqaligini, lablangan yoki lablanmaganligini farqlay olmaslikda ko'rinadi. «O» unlisini tojikcha «o'»ga yaqinroq qilib talaffuz etish. Masalan: bor – bo'r.

«I» qisqa unlisini cho'ziq varianti bilan almashib qo'llash. Masalan, қыз – qiz.

«Q» undoshi o'miga «g'»ni («chiqmoq – chig'moq»), «h» undoshi o'miga «x»ni (bahor – baxor, hamma – xamma) qo'llash kabi fonetik sheva unsurlari kuzatiladi.

Chet tillardan o'zlashgan so'zlarni qorishtirib ifodalash mavjud. «Mentalitet», «immunitet» kabi so'zlarning muqobili bo'lgani holda, omma anglashi mushkul bo'lgan atamalarni keltirish nojoizdir. Shu o'rinda ushbu fikr e'tiborlidir: «Turmushga oid turli xil narsa va hodisalar borki, hayotga singib ketgan. Tilda uni nomlovchi so'z bo'lmasa, shunday so'zni qo'shni tildan olish mumkin. Lekin tilda mavjud so'zlar o'mida boshqa so'zni qo'llash zararlidir».

Nutqda kanselyarizm (idoraviy atamalar), akademizm (ilmiy uslub) imkon qadar qo'llanilmagani, ommaviylik yetakchi o'rin tutganini durust. Keng jamoatchilikka tushunarli termin va atamalarni ishlatish maqsadning, nutq mohiyatining tez anglanishini ta'minlaydi.

Ba'zi hollarda o'quvchilar muloqot mavzusini chuqur bilmasdan, fikr ifodalashda qiynaladilar va odatga aylangan ushbu so'zlarni ishlatadilar. Masalan, «xo'sh, haligi, anaqa, o'sha, nimaydi, deylik, demakkim» va hokazo.

Bular tilshunoslikda «parazit so'zlar» deyiladi. Nutqning tozaligiga putur yetkazuvchi bunday so'zlarni qo'llamaslik uchun mavzuni sinchiklab o'rganish va nutqiy mashqlar qilish lozim. Nutq tozaligiga salbiy ta'sir etuvchi holatlardan biri vulgar (qo'pol) so'zlarni istifoda etishdir. Qarg'ish, haqorat ma'nolarini anglatuvchi bunday so'zlar oynai jahon orqali namoyish etiluvchi badiiy film va spektakllarda qahramon qiyofasini, sajiyasini, ruhiy holatini ochishda ba'zan qo'llaniladi. Nutq uchun soffik deganda, ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi orasidagi muloqotni oson tushunilishi anglatiladi. Bu esa bir jihatdan, nutqning soddaligi va qisqaligini ham

anglatadi. Alloimalardan biri «**Tilning tozaligi, ma'no aniqligi va o'tkirligi uchun kurash madaniyat quroli uchun kurashishdir. Bu qurol qanchalik o'tkir, qanchalik aniq yo'naltirilgan bo'lsa, shunchalik g'olib bo'ladi**», – degan.

Nutq tozaligiga erishish uchun o'quvchi og'zaki nutq madaniyati va nutq texnikasini yaxshi bilishi va unga amal qilishi zarur bo'lgani holda o'z nutqini nazorat qilib, o'zgalar nutqi bilan solishtirib borishi kerak.

Ta'sirli nutq – tasvirli nutq. Yuqorida ko'rib o'tilgan nutqiy sifatlar bilan bevosita daxldor bo'lgan omillardan biri nutqning ta'sirchanligidir. Ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi orasidagi muhoqot qanchalik ta'sirli bo'lsa, dars shunchalik mazmunli, samarali bo'ladi.

Ta'lim beruvchining ta'sirli nutqi nolisoniy omillarga bog'liq. Nutq ta'sirchanligi, asosan, og'zaki nutq jarayoniga tegishli. Ayni paytda auditoriyaning texnik imkoniyatlarini e'tiborga oladi. Hozirgi kun talabi esa butun bir manzara, o'qituvchining joylashishi, ko'inishi, turishi, so'zlash manerasi singarilarni o'z ichiga oladi. Albatta, ta'lim beruvchi yoki ta'lim oluvchining kasbi, saviyasi, jinsi, o'sha ondagi holati, kayfiyati e'tiborga olinsagina nutqning ta'siri anglashiladi. O'qituvchi nutqining ta'siri esa mavzu haqida keng qamrovli bilimga ega bo'lishlik, qiyofa, ovoz kabi nolisoniy faktorlarga ham bog'lanadi. Bulardan tashqari omma tez tushunadigan jonli tilda gapira olish, suhbat vaqtini hisobga olish, hayotiy misollarga murojaat qilish orqali fikrni isbotlash, turli tasviriy vositalardan, yumordan o'rinli foydalanish, kiyinish, imo-ishora, muomaladagi samimiylilik kabilar ta'sirli nutqning garovidir. So'zlayotganingizda eshituvchining ko'z o'ngida tasviriy manzara hosil qila olsangiz, obrazli fikr yuritsangiz, o'z so'zingizga ishonтира olsangiz, qiziqirtsangiz, nutqingiz ravon bo'ladi va ta'sir darajasi oshib boraveradi.

Missiy ta'sir o'tkazish haqida tarixchi, professor Vasiliy Osipovich Klyuchevskiy (1841–1911) shunday yozadi: «**Jamoat orasida gapirganingizda tinglovchilarning qulog'iga, aqliga murojaat qilinang, shunday gapiringki, ular sizni tinglab turib, so'zlaringizni eshitsin, narsalarni siz bilan ko'rib, sizning hola-**

tingizga kirishsin. Tinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu narsani yaxshiroq kuzatadi. Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning tuzilishini tinglovchining aqliga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyat, chiroyli, lirik tasvirlar bilan ehtiyohtkorona uni tinglovchining yuragiga jo qiling, ana shunda tinglovchi asiringiz, qochib ketmaydi, hatto, siz uni erkin qo'yib yuborsangiz ham sizning adabiy itoatguy mijozingiz bo'lib qoladi».

Shuningdek, obrazli fikrlash, tasviriy vositalardan foydalanish ham ana shu maqsadga xizmat qiladi. E'tibor qiling. Har bir narsa-hodisaning, bizni qurshab olgan borliqning o'z tayanch nuqtasi bor. Tayanch nuqtasi bor bo'lmagan narsa bari omonat. Baland imoratga nazar soling. Uning tayanchi, poydevori bo'lmasa, ko'kka bo'y cho'zishi, hashamati hech nimadir. Daraxtning gullashi, meva qilishi, barg, shoh, novdalari uning ildiziga bog'liqligi ayon. Hatto, Yerning ham tayanch nuqtasi bor. Agar bo'lmaganda edi, u allaqachon o'z mehvaridan chiqib ketgan bo'lardi. Har bir yurtning, elning ham tayanch nuqtalari bor. Bu finchliksevar xalqning ezgu maqsadlarini o'ziga jo etgan g'oyasi, milliy mafkurasi va yo'l boshchisidir.

Hozirgi kun auditoriyalarida o'qituvchi nutqiga mos, uni to'ldiruvchi video tasvirlardan foydalanish singari imkoniyatlar mavjud. Undan unumli foydalana olish pedagog mahoratiga bog'liq.

Jo'yali nutq – uyali nutq. Jo'yalilik qaysidir ma'noda nutqning boshqa xususiyatlarining samarasini so'zlovchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi munosabatni, holatni anglatadi. Agar bu xususiyat bo'lmasa, ikkala tomon orasidagi munosabat to'la anglashilmaydi. Anglashilgan taqdirda ham, butunlay noxush, teskari holat yuz beradi.

So'zni topib, tanlab, o'z o'mida aytilishini taqozo etuvchi bu sifat so'zlovchining didi, xarakteri, omma bilan muomala qila olishiga bog'liq. Shu sababli nima deyishlikdan ko'ra, nima demaslikni bilish ham muhim. Har bir so'zning jumladagi o'mi til hodisasi bo'lsa, uning muayyan davrada qanday aytilishi etik–estetik va psixologik hodisadir. Har bir so'zning, nutqning o'mini bilish, aslida, auditoriyadagilarning saviyasi, kasbi, qiziqishi, jinsi, yoshi singlarilarni

e'tiborga olishdir. Shuning uchun ham aytilmoqchi bo'lgan so'zning, nutqning o'z uyasi bo'ladi. Xuddi shu uyani anglagan so'zlovchi e'tibor qozonadi, obro' topadi. Aks holda, kulgili, ayanchli holatga tushadi. Auditoriyada o'ng'aysiz vaziyat tug'iladi.

So'zning o'z o'rni, vazni, bo'y-basti, o'lchovi, hajmi, hidi bor. Uni esa didi borlarga anglaydi.

Shunday ekan, ma'lum sharoitlarda so'zning, nutqning o'z egasi bo'ladi. E'tibor qiling. Katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan keksa, nuroniy kishilar orasida yosh notiq «umr mazmuni» mavzuida suhbat uyushtirsa yoki bolalarga tajribali, keksa notiq «Oila, uy-ro'zg'or va turmush muammolari» mavzusida ma'ruza o'qisa, qay darajada kulgili va yarashiqsiz bo'ladi. Hatto, shunday sharoit bo'ladiki, chin so'zni aytish joiz emas. Faqat sukut orqali javob berish mumkin. Alisher Navoiy «Xiradmand chin so'zdin o'zgani demas, Vale barcha chin ham degulik emas» – deganida, shuni nazarda tutgan bo'lsalar kerak. Shoir Shuhrat ham:

Har so'zning o'rni bor, ba'zan ko'rk-u zeb,

Ba'zida nam o'rik o'tidek so'nik.

Qabrison qoshiga xush kelibsiz deb,

Yozilsa, qandayin bo'lardi xunuk

– deyishi bilan haq.

Nutqning jo'yaliligi deganda, so'zlovchi qaysi fikmi, qaysi davrada, qachon, qanday qilib, qay holatda, qay ohangda ayta olishi anglashiladi.

Ta'lim beruvchi nutqi esa dars kimlar uchun mo'ljallab tayyorlanganiga qarab tuziladi. Uning ohangi, yo'nalishi, munosabat tarzi shunga qaratiladi. Bolalar, o'smirlarga mos holda nutq tanlanadi. Shundagina maqsad anglashiladi, nutq jo'yali bo'ladi.

Sodda nutq – sara nutq. Inson tabiatan har bir narsani go'zal va sodda holda qabul qilishga odatlanadi. Shunday ekan, nutqning soddaligi ham muhim xususiyatlardan.

Nutq esa nihoyatda sodda, oddiy bo'lishi bilan ajralib turadi. Hatto, murakkab ilmiy kashfiyotlar, fan va texnika muammolari ham oddiy tarzda, sodda nutq bilan tushuntirilishi zarur. Shuning uchun

ham soddalik iste'dodning belgisidir. Aslida, sodda so'zlash, sodda yozish murakkab. Keksa yozuvchilarning biridan «Yozish san'atida orttirgan tajriba va xulosangiz qaysi?» – deb so'rashibdi. «Anglab yetganim shuki, eng mashaqqatli, murakkab ish – sodda yozish ekan», – deb javob beribdi.

Burama jumalardan qochish, aylantirma gaplarni ishlatishdan o'zni tiyish, so'z jimjimadorligidan ko'ra, fikr bezagiga ko'proq e'tibor qilish muhimdir. Aks holda, tinglovchi fikri chalg'iydi, tushunishda mavhumlik bo'ladi.

Mumtoz adabiy merosimizga mehr bilan qarab, ixlos qo'ygan, qadimiy manbalarni ko'p mutolaa qilgan ayrim hamkasblarimiz eski turkiy nasrimizga xos bo'lgan gap qurilishlarini qo'llaydilar. Bu ham o'ziga xos uslub, albatta. Har kim ham buni uddasidan chiqolmaydi. Lekin mazkur mahobatli uslub har doim ham o'zini oqlayvermaydi. Ko'p so'zlardan tarkib topgan uzun jumlar, sifatlash va tashbehlar-ga boy bo'lgan, ergashgan qo'shma gaplarni qo'llash nafaqat tinglovchining, balki so'zlovchi o'zining ham fikr tizgisini jilovlashiga xalaqit beradi, chalkashtiradi. Tinglovchi jumla tuzilishiga mahliyo bo'lib, aytilmoqchi bo'lgan fikrdan uzoqlashadi.

Iqtidorli olim, marhum san'atkor Orif Alimaxsumovning televi-deniyе orqali qilgan ma'ruzalari, fikriy bayoni sharq adabiyotidagi klassik lisoniy uslubga xos ohorli nutq bo'lsa-da, hozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlariga har doim ham muvofiq kelavermas-di. Nutqning soddaligi qabul qiluvchining tez va soz tushunishini ta'minlovchi lisoniy mezondir.

«Chin so'z – mo'tabar, yaxshi so'z – muxtasar». Alisher Navoiyning bu hikmati nutqning muhim sifatlaridan biri qisqalik ha-qida. Xalq nutqning qisqa bo'lishini odob belgisi deb bilgan. Uni ax-loqiy mezonlar sirasiga kiritishgan. Maqollarga e'tibor qiling. «Ko'p o'yla, kam so'yla». «Izzat tilasang, kam de, Sihat tilasang kam ye». «So'zning ozi yaxshi, Ishning sozi yaxshi» va hokazo. Nutq qisqa shaklda ko'p mazmun anglatishga qaratilishi kerak. Nutqning qisqa yoki kengligi mazmun ifodasi talabi. Shunday tilshunoslar borki, besh-olti daqiqada (yoki besh-olti sahifada) aytish mumkin bo'lgan fikmi bir daqiqada (yoki bir sahifada) ifoda etishga qodir.

Nutq esa yo'naltiruvchi, bog'lovchi, izohlovchi vosita rolini o'ynagani durust. Tinglovchining tez fahmligi nutqning qisqa bo'lishi omillaridan. Buning uchun ta'lim beruvchi quyma fikrlar, ko'chma iboralar, falsafiy mazmundagi she'rlar, maqol va hikmatli so'zlarni ifodalash bilan maqsadiga erishadi. Bu vositalar izoh talab, tafsilotli nutqqa chek qo'yadi.

Ifodali nutq – iborali nutq. Nutqning bu xususiyati o'quvchining e'tiborini tortishi, qiziqtirishi, unda his-hayajon uyg'otishi bilan aloqador. Ifodaviylikning zahirida esa lisoniy o'lchovlar yotadi. Fikrning ifodaviyligini oshirish uchun kerakli so'z, so'z birikmalari, obrazli iboralarni topish, tanlash va o'rinli qo'llash lozim. Nutqning ifodaviyligi xuddi shu xususiyatlari bilan ta'sirli va obrazli nutqqa uyqashib ketadi¹.

Ta'lim beruvchi nutq ifodaviyligiga erisha olmasa, tasvir kuchidan foydalanadi. Nutqda ta'lim beruvchi fikr ifodasi bilan yuz ifodasi uyg'un kelishi ham muhimdir. Aks holda, ta'lim oluvchi uni ishonch-e'tibor bilan qabul qilmaydi.

Nutq ifodaviyligida chuqur anglash bir tomon bo'lsa, anglash darajasi ikkinchi tomondir. Anglashilayaptiki, har qanday ifodaviy nutq teleboshlovchidan bilim, saviya bilan bir qatorda did, qo'llanayotgan iboraning ta'sir kuchini nozik ilg'ash va muloqot vaziyatini tushunib yetishni ham taqozo etadi.

Muxbir «Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni»ga bag'ishlangan tadbirni sharhlay turib, chiroyli so'zlar va iboralardan keyin ushbu maqolni to'laligicha keltirishi o'rinsizdir: «Bolalik uy-bozor, bolasiz uy-mozor». Maqolning ikkinchi qismini aytmaganda ham mazmun anglashilib turibdi. Bu esa tinglovchida noxushlik tug'dirishi tabiiy. Har qanday ibora, hikmatli so'z, maqol, matal nutq ifodaviyligiga xizmat qilavermaydi. Har bir so'zning, jumla yoki iboraning o'mi va ta'sir doirasini bilish ta'lim beruvchi uchun zarur.

Nutq boyligi – nutq chiroyligi. Nutq boyligi fikrni ravon, jozibali, e'tiborli qabul qilinishiga zamin hozirlaydi.

¹ *Rahimboy Jumaniyozov. «Nutqiy mahorat» o'quv metodik qo'llanma. – T., 2005. – 91 b.*

Soʻz boyligi boʻlmagan oʻquvchi nutqda duduqlanadi, «hali, nimaydi, anaqa, oʻsha» kabi soʻzlarni qoʻllaydi, takrorlarga yoʻl qoʻyadi. Chaynash, soʻz takrori esa oʻquvchining soʻz boyligi sustligidan dalolat beradi. Badiiy va ilmiy manbalarni oʻqish, oʻquvchilar nutqini tinglash, eshitganda ham eʼtibor bilan oʻrganish nuqtayi nazaridan qabul qilish ayni muddaodir.

Koʻp soʻz zaxirasiga ega boʻlishlik va undan unumli, oʻrinli foydalana olishlik oʻqituvchi nutqiy mahoratining muhim belgisi.

Soʻz takrori ezinalik va soʻzga kambagʻallikdir. Arab afsonalaridan birida aytilishicha, Vayl degan shahzodaning oʻgʻli Sahbon bitta soʻzni ikki marotaba qaytarmagan holda butun yil boʻyi gapirishga qobil boʻlgan ekan.

Soʻzlarning xarakteriga koʻra turlari, yaʼni sinonimik, omonimik, antonimik xususiyatlarini bilish nutq chiroyini belgilaydi. Oʻquvchilar nutqiy nafasatning ana shu jihatlarni koʻp ham his eta-vermaydilar.

«Hammaning diqqat-eʼtiborini yana bir diqqatga sazovor musobaqaga qaratmoqchimiz» («Davr» dasturidan.) Shu fikrni soʻz takrorisiz bunday ifodalash mumkin-ku. Yaʼni, «Eʼtiboringizni yana bir muhim musobaqaga tortamiz».

Demak, takror, aniqrogʻi, bemaqsad aytilgan takror soʻz oqibat-sizdir. Shoir bu borada «takror aytilganda rangsizdir kalom», – deyishi bilan haqli.

Yuqorida nutqning asosiy xususiyatlariga umumiy yoʻsinda toʻxtab oʻtildi. Shulardan kelib chiqqan holda quyidagilarni qayd etish mumkin.

Nutqning toʻgʻri boʻlishi uning adabiy til meʼyorlariga muvofiq kelishidir.

Nutqning aniq boʻlishi undagi soʻzlar, soʻz birikmalarining maʼnolari ular ifodalagan tushunchalar koʻlamiga mos kelishidir.

Nutqning mantiqli boʻlishi undagi soʻz va soʻz birikmalari maʼnolarining oʻzaro munosabati mantiq va tafakkur qoidalariga muvofiq kelishidir.

Nutqning tozaligi adabiy tilga yot boʻlgan oʻzlashmagan soʻzlar, gap qurilishlarining qoʻllanmasligidir.

Nutqning ta'sirli bo'lishi so'zlovchining tinglovchi ongini tamomila egallab, o'ziga, so'ziga maftun, tobe' qilib qo'yishidir.

Nutqning jo'yaliligi deganda, o'z joyida, o'z vaqtida, o'z janri, shakl-u shamoyilida, o'z uslubida aytiluvchi, ma'lum sharoit yoki vaziyatga mos bo'lgan nutq anglashiladi.

Nutqning soddaligi esa tinglovchining tushunishini osonlashtirishga xizmat qiluvchi til tuzilishiga ega bo'lgan nutq hisoblanadi.

Nutqning qisqaligi deganda, qabul qiluvchini zeriktirmaslik, oz so'z orqali ko'p fikr yetkazish, ma'lumot berishlikni nazarda tutishdir.

Nutqning ifodaviyligi deganda, til vositalarini tanlab, topib qo'llash, joylashtirish, tomoshabinni ongigagina ta'sir etib qolmasdan, unga his-hayajon baxsh etish, uni qiziqtirish nazarda tutiladi.

Nutqning boyligi unda ko'p va har xil adabiy til belgilaridan, ifoda vositalaridan takrorsiz foydalanishdir.

Biz yuqorida nutqning asosiy xususiyatlariga to'xtaldik. Nutqiy madaniyat faqat shu bilan cheklanmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, har qanday tangananing ikkinchi yoni bo'lganidek, nutqiy mahoratning ham ikkinchi tomoni bor. Bu nutqiy texnikadir. Har ikkalasini puxta bilib, amalda qo'llay oladigan pedagog doim muvaffaqiyat qozonadi. Nutq vositalari deya yuritiluvchi nafas, ovoz, tembr, diksiya, urg'u, pauza (to'xtam), intonatsiya, temp va ritm keng ma'noda nutq texnikasini tashkil etadi. Bulardan o'rinli va unumli foydalanish maqsadning ro'yobini tashkil etadi.

4.4. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda kommunikativ qobiliyat

Kommunikatsiya:

1) bir shaxsdan ikkinchisiga, bir madaniy birlikdan boshqasiga axborot (g'oyalar, obrazlar, baholar, ko'rsatmalar) uzatish;

2) axborot almashinuvi ishtirokchilarini o'zaro bog'lab turgan liniya yoki kanal;

3) axborotni uzatish yoki qabul qilishga yordam beradigan o'zaro harakat, axborot uzatish yoki qabul qilish jarayoni.

Kommunikatsiyalarning asosiy vazifalari: odamlarning bir-biriga o'zaro ta'siri; turli g'oyalar, manfaatlar, kayfiyatlar, his-tuyg'ular bilan almashinuv.

Odamlar o'rtasidagi kommunikatsiyaning xususiyatlari:

1) har biri faol subyekt bo'lgan ikki individning mavjud munosabatlari (bu holda ularning o'zaro axborot almashinuvi birgalikdagi faoliyat yo'lga qo'yilishini ko'zda tutadi);

2) hamkorlarning bir-biriga belgilar tizimi orqali o'zaro ta'sir ko'rsatish imkoniyati (verbal va noverbal kommunikatsiyalar);

3) kommunikatorlarda (axborot yo'llayotgan odamda) va retsipiyentda (uni qabul qilayotgan odamda) yagona yoki o'xshash kodlashirish va kodni ochish tizimlari mavjud bo'lgan holdagina kommunikativ ta'sir ko'rsatish;

4) kommunikativ to'siqlar yuzaga kelish ehtimoli (bunday holda muloqot va munosabat o'rtasida mavjud bo'lgan bog'liqlik aniq va ravshan namoyon bo'ladi).

Muloqotning kommunikativ uslublari – bu boshqa odamlar bilan muloqot qilish jarayonida birga harakat qilish usullaridir.

Kommunikativ muloqotning o'n uslubi:

1) dominant – kommunikatsiyada boshqalar roli (o'rni, ahamiyati)ni kamaytirishga yo'llangan strategiya;

2) dramatik – ma'lumot (xabar) mazmunini bo'rttirish va unga emotsional bo'yoq berish;

3) bahsli – kommunikativ muloqotning tajovuzkor yoki isbotlashga qaratilgan uslubi;

4) tinchlantiruvchi – bo'shashtiradigan, maqsadi, ayniqsa, konfliktli vaziyatlarda hamsuhbatining xavotirini kamaytirishga qaratilgan muloqot uslubi;

5) taassurotli – muzokaralar bo'yicha hamkorda taassurot qoldirishga qaratilgan strategiya;

6) aniq – xabarning aniq-ravshanligiga qaratilgan;

7) e'tiborli – hamsuhbatlar kommunikativ muloqot jarayonida nimalarni so'zlayotganiga qiziqish bildirish;

8) ko'tarinki (ruhlangan) – noverbal axloq – ko'z, imo-ishora, tana harakatlari kabilardan tez-tez foydalanish;

9) do'stona – hamsuhbatini ochiq rag'batlantirish va uning mu-loqotga qo'shgan ulushidan manfaatdorlik;

10) ochiq-oydin – o'z fikri, his-tuyg'ulari, emotsiyalari, o'zligini, shaxsini namoyon etadigan jihatlarini qo'rqmay ifodalashga bo'lgan intilish.

Kommunikatsiya kanali – ular yordamida yoki ular orqali ax-borot uzatiladigan vositalar yoki yo'llar.

Kommunikatsiya kanal turlari:

1) bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) – bunda axborot bevosita axborot tashuvchidan xabardor shaxsга uzatiladi;

2) bilvosita – bunda axborot uchinchi shaxslar orqali uzatiladi;

3) rasmiy – aniq va ishonarli axborotni taqdim etadi;

4) norasmiy – ishonchli manbalarga ishora qilmagan holda mish-mishlar, fikr almashinuvi orqali tekshirilmagan axborot taqdim etadi.

Kommunikatsiya quyidagi sabablar tufayli konflikt manbai bo'lib kelishi mumkin: fikrlar, qarashlar, voqealarni baholashdagi farqlar; voqea-hodisani ikki xil talqin qilish; odamlar axloqi (o'zini tutishi)dagi farqlar.

Odamlar axloqiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi: hayot tajribasi, muayyan vaziyat, shakllangan qarashlar yoki individning baholash-ga moyilligi.

Uch elementi: kognitiv (bilimlar), ularning affektiv (kuchli ehti-roslar), axloqiy (o'zini tutish shakli) mavjud.

Sotsial qarashlar – ruhiy-asab tizimining tayyorlik holati, tajri-ba asosida shakllanib boradi va individning u bog'liq bo'lgan barcha obyektlar va vaziyatlarga nisbatan reaksiyalariga yo'naltiruvchi di-namik (o'zgaruvchan) ta'sir ko'rsatadi.

Ishontirishning ikki usuli – bevosita va bilvosita.

Bevosita usul – manfaatdor auditoriya butun e'tiborini maqbul (ijobiy) dalil-isbotlarga qaratgan holda mavjud bo'lgan ishonch. Bunda dalil-isbot (argument)larning o'zigina emas, balki ular keltirib chiqaradigan fikr-mulohazalar ham ishonchli (ishonarli) bo'ladi.

Bilvosita usul – odamlarga tasodifiy omillar ta'sir ko'rsatib, ular ongiga murojaat qilish talab etilmaydigan holda mavjud bo'lgan

ishonch (ishontirish). Bu ta'sir usulida ishora (shama)lar qo'llanib, ular o'ylab o'tirmay qo'llab-quvvatlashga rozi qiladilar.

Ishonchning to'rt tarkibiy qismi:

- 1) kommunikator;
- 2) axborot (xabar);
- 3) uzatish kanali;
- 4) auditoriya.

Axborot uzatish xususiyati: nafaqat kim gapirayotganligi, balki uning aynan nimani gapirayotganligi ham muhim.

O'zini tutishiga qarab auditoriya quyidagicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

1) fikrlaydigan, mulohaza qiladigan, manfaatdor, ya'ni bevosita ishontirishga bo'yin berish, moyil bo'lish. U, ayniqsa, ongli dalil-isbotlarga ta'sirchan bo'ladi;

2) e'tiborsiz, ya'ni bilvosita shamalar ta'sirida qolish. Unga hammasidan ko'proq kommutator yoqish-yoqmasligi ta'sir ko'rsatadi.

Yaxshi kayfiyat samarasi. Ijobiy his-tuyg'ular qobig'iga «o'ralgan» xabarlar ishonarliroq bo'lib chiqadi. Yaxshi kayfiyatdagi odamlar olamni ijobiy tarzda ko'rib, shoshilinch qarorlar qabul qilishga moyil bo'lib, ko'proq bilvosita shamalarga ishonadilar.

Qo'rquvni faollashtirish samarasi. Ba'zan salbiy (negativ) his-tuyg'ularga qaratilgan xabar ham ishonarli chiqishi mumkin. Salomatlik bilan bog'liq xabarlar qo'rquv uyg'otishda ko'proq ta'sir ko'rsatib, odamni «chekkaga» taqab qo'yishga xizmat qiladilar va bunda axborotni qabul qilmaslik yoki siqib chiqarish hodisasi yuz beradi. Samarali himoya strategiyasini taklif qilib, buning oldini olish mumkin.

Axborotni buzib ko'rsatish mexanizmi. Axborotning qabul qilinishi quyidagilarga bog'liq:

1) xabar beruvchiga bo'lgan ishonch, uning bilimdonligi, xabar-dorligi. Auditoriyaning ishonchini qozonish usullaridan biri – auditoriya qo'shiladigan (rozi bo'lgan) mulohazalarni bildirish, yana bir usuli – ushbu masaladan xabardor kishi sifatida tanishtirish (taqdim etilish)dan iborat;

2) kommunikatorning soʻzlash uslubi – u ishonchga sazovor uslub tarzida qabul qilinish yo qilinmasligi;

3) nutq ishonchliligi va surʼati, toʻgʻri koʻzga qarab soʻzlash, biron nimani oʻz manfaatlari zarari hisobiga boʻlsa ham himoya qilish.

Koʻpgina odamlar mashhur shaxslar fikri ularga taʼsir koʻrsatishini tan olmaydilar, chunki ular bu yoʻnalishda mutaxassis emasligini anglab yetadilar. Bu holda bir qancha jihatlariga ega boʻlgan jozibadorlik muhim oʻrin tutadi: jismoniy yoqimtoylik, simpatiya (dalil-isbotlar chiroyli, oʻktam shaxslar tomonidan bildirilganida koʻproq taʼsir qiladilar) va oʻxshashlik (biz oʻzimizga koʻproq oʻxshaydigan odamlarga moyillik bildiramiz).

Fikrlar har xilligi: 1) agar kommunikator bilimli va shu bilan birga, ishonchli manba boʻlsa-yu, auditoriya bu muammoga u qadar qiziqish bildirmasa, u oʻta ziddiyatli, ekstremistik nuqtayi nazarni taqdim etishi mumkin. Nifoq-kelishmovchiliklar qancha koʻp boʻlsa, dastlabki pozitsiyaning oʻzgarish ehtimoli shuncha katta; 2) agar kommunikator ishonarli manba boʻlmasa, u noxush xabarni taqdim etish bilan, umuman, ishonchdan mahrum boʻlishi, oʻzini shaxsiy manfaatlarini koʻzlagan va noxolis shaxs sifatida namoyon etishi mumkin. Auditoriyani mazkur muammo qiziqitrsa, biroz farqli, ayniqsa, qarama-qarshi nuqtayi nazarga asoslangan fikr unga radikal qarash boʻlib tuyulishi mumkin.

Asil dalil-isbotlarga murojaat qilish: 1) bir tomonlama xabar usiz ham bildirilayotgan fikrga qoʻshilgan odamlar uchun samaralidir; 2) asil dalil-isbotlarni koʻrib chiqadigan xabar, dastlab unga qarshi boʻlganlarga koʻproq taʼsir koʻrsatadi; 3) ikki tomonlama taʼsiri xotirada uzoqroq vaqt saqlanib qoladi.

Agar auditoriyaga qarama-qarshi qarashlar (fikrlar) toʻgʻrisidagi xabar (maʼlumot) maʼlum boʻlsa, bu holda ikki tomonlama xabar koʻproq samara keltiradi. Bir tomonlama xabar (axborot) auditoriyani asil dalil-isbotlar (kontrargumentlar) toʻgʻrisida va kommunikatorni bir tomonga yon bosyapti deb oʻylashga majbur qiladi.

Birlamchilik va ikkilamchilik samarasi: birinchi kelib tushgan axborot ishonchliroq yangraydi, soʻnggi axborot (xabar) yaxshiroq esda qoladi.

Ikkilamchilik samarasi kamroq uchraydi. Yoddan chiqarish quyidagi hollarda ikkilamchilik samarasini hosil qiladi:

ikki xabar (axborot) o'rtasida ancha vaqt o'tgan bo'lsa;

auditoriya ikkinchi xabar (axborot)dan so'ng ko'p o'tmay qaror qabul qiladi.

Kommunikatsiya kanalini tanlash muammosi. Kommunikatsiya kanali – xabar (axborot) uzatiladigan usul (yuzma-yuz, yozma ravishda yoki boshqa yo'l bilan).

Kommunikatsiya kanalini tanlash xususiyatlari: bunda chop etilgan so'z (matn) kuchi ustuvor hisoblanadi. Odamlar avvalroq o'zlari o'qigan yoki baholagan fikrlarni nisbatan haqqoniy deb biladilar.

Kommunikatsiya kanalini tanlash qoidasi: xabar (axborot) naqadar obrazli qilib uzatilsa, taqdim etilayotgan xabar (axborot) shu qadar ishonarliroq chiqadi. Ayniqsa, oson tushuniladigan (anglanadigan) xabarlar video tasvir ko'rinishida ishonarliroq bo'ladi. Nashr etilgan xabar (axborot)lar uning ma'nosi ichiga chuqurroq kirish va uni yaxshiroq tushunib yetishni ta'minlab, tushunilishi murakkab xabar uzatilgan holatda ishonarliroq chiqadi. Ishonarlilik xabarning murakkabligi va tanlangan kommunikatsiya vositasi turining o'zaro muvofiqligi bilan belgilanadi.

Odamlarga bilvosita uzatilgan axborot emas, balki ular bilan bevosita, yuzma-yuz uchrashish ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Ammo ommaviy axborot vositalari va shaxsiy qarashlar o'zaro bog'liqdir, chunki ular aynan ommaviy axborot vositalari ta'sirida shakllanadilar. Ommaviy axborot vositalari ta'siri ikki tabaqali kommunikatsiya oqimida yuz beradi: ommaviy axborot vositalaridan – odamga, odamdan – ommaga.

Ijtimoiy (sotsial) va siyosiy ustanovka (qarash)larning yoshga bog'liq ravishda tabaqalanishi kuzatilmoqda. Bu quyidagi ikki omil bilan izohlanadi:

1) yosh o'tishi bilan hayot sikllariga bog'liq ravishda qarashlar o'zgarib borishi;

2) katta yoshdagi (qari) odamlarning yoshlikda o'zlashtirib olgan qarashlari asosan o'zgarib qolishi, avlodlar o'rtasidagi uzilish

(ajralish) ana shu qarash (ustanovka)lar orasidagi farqlanish tufayli paydo bo'lishi.

Auditoriyaning xabarga turlicha reaksiya bildirishi:

1) agar xabar shunga muvofiq fikrlar keltirib chiqarsa, u ishon-tiradi;

2) agar xabar kontrargumentlar (asil dalil-isbotlar) to'g'risida o'ylab qolishga majbur qilsa, avvalgi fikrni o'zgartirish murakkab-roq kechadi;

3) hozir ishonarli bo'lmagan xabar kelib tushishi to'g'risidagi ogohlantirish aksil dalil-isbotlarni rag'batlantiradi (kuchaytiradi) va uning ishonarlilik darajasini pasaytiradi;

4) auditoriya e'tiborini ehtimol tutilgan e'tirozlarni bartaraf etish darajasida chalg'itishning imkoni bo'lsa, munozara (bahs)li xabar-ning ishonarliligi ortib boradi.

Fikrlash jarayonlarini rag'batlantirish usullari:

1) ritorik savollar, kommunikatorlar qatori (barcha uch dalil-is-botni keltiradigan bitta notiq o'miga bittadan dalil keltirgan uch no-tiqning ketma-ket chiqishi);

2) xabarga baho berganlik yoki unga nisbatan e'tiborsizlik uchun mas'uliyat hissini paydo qilish;

3) notiq tomonidan erkin holat (poza)larni, ko'p marotaba tak-rorlashlar va auditoriyaning tarqab ulgurmagan e'tiborini jalb qilish uslublarining qo'llanishi.

Konfliktli vaziyat sharoitida qaror qabul qilish jarayoni

Konfliktni hal qilish konfliktni keltirib chiqargan sabablarni to'liq yoki qisman bartaraf etish yoxud konflikt ishtirokchilari maq-sadlarini o'zgartirishdan iborat.

Konfliktli vaziyatni hal qilishdagi qiyinchiliklar quyidagilardir: axborot yetishmasligi – nizolashayotgan taraflar konfliktni hal qilish uchun barcha zarur ma'lumotlarga ega bo'lmagan jarayon;

kommunikatsiyalar cheklanganligi – axborot almashinish ishti-rokchilarini o'zaro bog'lab turgan kanallar yetishmasligi.

Konfliktli vaziyatni hal qilish

1. Konflikt mavjudligini tan olish. Opponentlarning qarama-qarshi maqsadlari, uslublari mavjudligini e'tirof etish, ana shu ish-

tirokchilarni o'zini aniqlab olish. Ba'zan konflikt ko'pdan mavjud bo'lishiga qaramay, ammo u ochiq e'tirof etilmagan bo'lib, har bir tomon boshqa tarafga ta'sir ko'rsatish yo'li va uslubini tanlaydi hamda yuz bergan vaziyatdan chiqib ketishning iloji yo'q.

2. Muzokaralar imkoniyatini aniqlab olish. Konflikt mavjudligi e'tirof etilib, uni «yo'l-yo'lakay», birdaniga hal qilish imkoniyatini aniqlanganidan so'ng muzokaralar, aynan qanday, ya'ni vositachilar ishtirokidagi yoki ularsiz muzokaralar o'tkazish, kim har ikki tomonni ham qoniqtiradigan vositachi bo'la olishi mumkinligi to'g'risida kelishib olish.

3. Muzokaralar amaliyotini muvofiqlashtirib olish. Muzokaralar qayerda, qachon va qay tarzda boshlanishini aniqlab olish: o'tkaziladigan muzokaralarning muddatlari, joyi, amaliyotini, birgalikdagi faoliyatning boshlanish vaqtini kelishib olish.

4. Konflikt mavzusini (predmetini) tashkil qilgan masalalar doirasini belgilab olish. Asosiy muammo shundaki, birga ishlatiladigan atamalar yordamida nimalar konflikt predmeti ekanligi, nimalar esa yo'qligini aniqlab olishdan iborat. Bu bosqichda muammoga bo'lgan birgalikdagi yondashuvlar ishlab chiqilib, tomonlar pozitsiyalariga aniqlik kiritiladi, ko'proq munozarali masalalar va pozitsiyalarni o'zaro yaqinlashtirish ehtimoli imkoniyatlari aniqlashtiriladi.

5. Yechim variantlarini ishlab chiqish. Tomonlar birga ishlashda har biri yuzasidan xarajatlar hisob-kitobi bilan, ehtimol tutilgan oqibatlarni hisobga olgan holda bir necha yechim variantlarini taklif etadilar.

6. Kelishilgan qaror qabul qilish. O'zaro muhokama qilinib, ehtimol tutilgan bir qator variantlar ko'rib chiqilganidan keyin, tomonlar o'zaro bitimga kelishi sharti bilan, bu umumiy qarorni yozma, ya'ni kommyunike, rezolyutsiya, hamkorlik to'g'risidagi shartnoma ko'rinishida taqdim etish maqsadga muvofiq.

7. Qabul qilingan qarorni amalda tatbiq etish. Dastlabki konfliktni keltirib chiqargan sabablar yo'qolmay, bajarilmagan va'dalar tufayli faqat kuchaygan bo'lsa, qayta muzokaralar o'tkazish ancha murakkab kechadi.

Kommunikatsiya to'siqlari – o'zaro muloqot qilayotgan hamkorlar o'rtasida adekvat axborot uzatish yo'lidagi ruhiy (psixologik) to'siqlar. Kommunikatsiya jarayonida turli baryerlar yuzaga kelishi mumkin:

- 1) tushunish (tushunmaslik) baryeri;
- 2) ijtimoiy-madaniy farqlarga oid baryer;
- 3) munosabatlar baryeri.

Tushunish (tushunmaslik) baryerining kelib chiqishi, odatda, ruhiy hamda kelib chiqishi o'zgacha turlicha sabablar bilan bog'liq. Bu axborot uzatish kanalining o'zidagi xatoliklar tufayli yuzaga kelishi mumkin – bu fonetik tushunmovchilik (tushunmaslik) deb nomlanadi. Fonetik tushunmaslik baryeri (to'sig'i) tez va tushunarsiz so'zlash (nutq) va ko'p miqdordagi parazit-tovushlar ishtirokidagi nutq kabi omillar sababli paydo bo'ladi. Shuningdek, muloqot ishtirokchilarining ma'nolar (tezauslar) tizimidagi lingvistik farqlar tufayli kelib chiqadigan semantik tushunmaslik to'siqlari ham mavjud. Shaxslararo normal kommunikatsiya yo'liga stilistik to'siq ham to'g'onoq bo'lishi mumkin va u kommunikator nutq uslubi, muloqot vaziyati yoki retsiyentning hozirgi ruhiy holati nomuvofiq kelgan sharoitda yuzaga keladi. Shuningdek, mantiqiy tushunmaslik to'sig'i (baryeri) ham mavjud bo'lib, u kommunikator tomonidan taklif etilgan mulohaza yuritish mantiqi retsiyent idroki uchun juda murakkab yoki unga noto'g'ri bo'lib tuyulgan hollarda paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy, ya'ni ijtimoiy-siyosiy, diniy va kasb-hunarga oid farqlanishlar ham tushunmaslik sababi bo'lib kelishi mumkin, chunki ular muloqot jarayonida qo'llanadigan u yoki bu tushunchalarning turlicha anglanishiga olib keladilar. Muloqot qilinayotgan hamkor (suhbatdoshi)ni muayyan kasb egasi, millat, jins vakili yoki ma'lum yoshdagi shaxs sifatida qabul qilish, idrok etishning o'zi ham to'siq vazifasini o'tashi mumkin. Baryer (to'siq)ni olib tashlash yo'lida kommunikatorning retsiyent nazari-dagi obro'-e'tibori ham muhim o'rin tutadi.

Munosabat to'siq (baryer)lari – kommunikator va retsiyent o'rtasidagi muloqot jarayonida yuzaga keladigan sof psixologik (ruhiy) hodisalar bo'lib, ular qatoriga kommunikatorni yoqtirmaslik,

unga nisbatan ishonchsizlikni ruhan kiritish mumkin bo'lib, bularning bari uzatilayotgan axborotga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Retsipiyentga kelib tushayotgan har qanday axborot uning xulqi (o'zini tutishi), fikri, qarashlari va istaklarini to'liq yoki qisman o'zgartirish maqsadida u yoki bu ta'sir ko'rsatish elementiga ega bo'ladi. Kommunikativ to'siq – ishtirokchilar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayonida o'tkaziladigan begona ruhiy ta'sirdan o'ziga xos psixologik (ruhiy) himoyalalanish shakli sifatida ifodalash mumkin. Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqa (bog'liqlik) mavjud bo'lganda quyidagi kommunikatsiya kanallari o'rnatiladi. Ya'ni:

Kommunikativ jarayon modeli – bu muloqotni tashkil etuvchi komponentlaridir (subyekt va obyektlari). Odatda ular beshta bo'ladi: kommunikator – xabar (matn) – kanal – auditoriya (retsipiyent) – teskari aloqa (bog'liqlik).

1. Kommunikator – axborot uzatayotgan shaxs. Kommunikatorning uch pozitsiyasi:

1) kommunikator ochiqdan-ochiq o'zini bayon etilayotgan nuqtayi nazar tarafdori deb e'lon qiladigan, uning tasdig'i sifatida turli faktlar keltiradigan holat;

2) chetlashgan pozitsiya – kommunikator o'zini ko'ra-bila turib neytral (betaraf) tutadigan holat;

3) yopiq pozitsiya – kommunikator o'z nuqtayi nazari to'g'risida fikr bildirmaydigan holat.

2. Xabar (matn) – kommunikatsiya jarayonida uzatiladigan axborot.

Axborot ikki tipli bo'lishi mumkin – undaydigan va qayd etadigan.

Undaydigan axborot – buyruq, maslahat yoki iltimos ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Stimulyatsiya (rag'bat) quyidagi turlarga ajratiladi:

1) faollashtirish (aktivizatsiya) – berilgan yo'nalishda harakat qilishga undash;

2) interdiksiya – istalmagan faoliyat turlarini taqiqlash;

3) barqarorlashtirish (stabilizatsiya) – muayyan o'zini tutish yoki faoliyat avtonom shakllarining buzilishi.

Qayd etadigan axborot xabar shaklida namoyon bo'ladi va o'zini tutish (axloq)ni bevosita o'zgartirishni nazarda tutmaydi.

3. Kommunikatsiya kanali – ular yordamida yoki ular orqali axborot uzatiladigan vosita yoki yo'llar. Jamiyatda axborot tarqalishi o'ziga xos «ishonch-ishonchsizlik» filtri orqali o'tadi. Bunday filtr ishlashi natijasida haqiqiy axborot rad etilib, aksincha – soxta (yolg'on) axborot esa qabul qilinishi mumkin. Axborot qabul qilinishiga ko'maklashadigan va filtrlar ishini bo'shashtiradigan vositalar mavjud bo'lib, ular yig'indisi **fassinatsiya** deb nomlanadi. Fassinatsiyaga misol tariqasida nutqqa musiqa, rang yoki makon (bo'shliq) ning jo'r kuzatilishini keltirish mumkin.

4. Auditoriya (retsipiyent) – axborotni qabul qiluvchilar (idrok etadiganlar). Ular norefleksiv va refleksiv tinglash kabi kommunikatsiya ko'nikmalariga ega bo'lishlari talab etiladi. Norefleksiv tinglash yoki e'tibor bilan sukut saqlash muammoni qo'yish bosqichida, u so'zlovchi tomonidan muloqot maqsadi – holatni emotsional yumshatish, bo'shashtirish bo'lganiqda qo'llanadi. Refleksiv tinglash so'zlovchi muayyan muammolarni hal qilishda yordamga muhtoj bo'lgan holatlarda ishlatiladi.

5. Teskari aloqa (bog'liqlik) – kommunikativ muloqot jarayonida muhokama qilinadigan turli vaziyatlar yoki muammolar yuzasidan umumiy mazmun, yagona nuqtayi nazar ishlab chiqish va kelishib olish maqsadidagi faoliyat.

Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbeklar mentalitetida muomala madaniyati qanday namoyon bo'ladi?
2. O'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotini qanday talablar asosida mukammal tashkil etish mumkin?
3. Iliq muomala yuzasidan keltirilgan 10 maslahatga munosabatingiz?
4. Konfliktli vaziyat yuzaga kelgan emotsional tang holatda inson qanday o'zini himoya qilishi lozim?
5. Insonlararo munosabatlarda o'z hissiyotlarini tahdidsiz va adekvat tarzda bayon qilish deganda nimani tushunasiz?

6. Muloqotni «sovuqlashtiruvchi» va «iliqlashtiruvchi» omillarni sanab bering va tushuntiring.
7. Odamlar fikrini faol eshitishning qanday ko'nikma va talablari mavjud?

**Talabalarning mustaqil tayyorlanishi uchun
«Keys» topshirig'i**

3-vaziyat. *Siz informatika o'qituvchisi, deylik. Darsda, a'lochi o'quvchilardan biri qator bo'yicha qog'oz uzatmoqda. Qog'ozni tortib olib, tasodifan uni ochasiz va o'sha o'quvchining sinfdosh qizga atab yozgan she'riga ko'zingiz tushadi.*

Ushbu vaziyatda sizning muomalangiz qanday bo'ladi?

V bob. PEDAGOGIK KONFLIKTLI VAZIYATDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XIZMAT

Tayanch iboralar: *salbiy intizom, konstruktiv ta'sir etish, ijobiy munosabat, tashxis muammosi, motivatsiya, iste'dod, pedagogik-psixologik xizmat, imkoniyati cheklangan, tarbiyasi qiyin, layoqat, mediatsiya, vositachilik, mediator, neytral, maxfiy (konfiditsial), konflikt yechimi, kelishuv jarayoni, xalqaro, milliy, huquqiy, ekologik, shaxsiy konfliktlar, bahs.*

5.1. O'quvchilarga pedagogik-psixologik xizmat ko'rsatish orqali o'quv jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirish

Ma'lumki, shaxsning ijtimoiylashuvi asosan maktab yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun maktab oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri bolaning kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratish, uning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiyaning eng maqbul shakllarini joriy etishdir. Ammo ma'lumki, hozirgi sharoitda maktab oldida ko'plab muammolar, hal qilinmagan masalalar mavjudki, ular barchasi maktabga har taraflama yordamni taqozo etmoqda.

Ta'lim jarayonini boshqarish. Ko'pgina pedagog-psixologlar ta'lim jarayonini tahlil qilar ekan, uni yetarli darajada boshqarib bo'lmaydigan jarayon deb ta'kidlaydilar. Lekin uni butunlay boshqarib bo'lmaydigan stixiyali ravishda tartib topadigan jarayon deb atash noto'g'ri – bu hol aniq maqsadni ko'zlab ta'lim berish g'oyasining o'ziga zid bo'lar edi. Biroq o'qituvchi ta'limni tashkil etadi, unga rahbarlik qiladi, uni amalga oshiradi va yo'naltiradi, degan fakt ta'lim yetarli darajada boshqariladigan va tartibga solinadigan jarayondir, degan ma'noni anglatmaydi. Chunki biz boshqariladigan ta'lim deb, shunday ta'limni ayta olamizki, bunda har bir bolaning harakatidagi har bir qadam nazorat qilinadi, o'qituvchi har bir o'quvchining har bir bosqichida muayyan bilimlarni o'zlashtirishi yoki muayyan ko'nikma va malakalar hosil qilishi haqida uzluksiz axborot olib turadi, yangi material avvalgi materialni o'zlashtirish xarakterga qarab taqdim qilinadi. Albatta, o'qituvchi ta'lim jarayoni-

da o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish jarayonini va aqliy rivojlanishning borishi har bir paytda, har bir o'quvchiga nisbatan hamma tafsilotni nazorat qilmaydi va nazorat qila olmaydi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan material qanday o'zlashtirilayotgani haqida juda umumiy tasavvurgagina ega bo'ladi, o'qitishda esa u odatda har kimning individual imkoniyatlarini emas, balki o'rtacha o'qiydigan o'quvchini nazarda tutadi. Mumkin bo'lgan yo'llardan biri – o'zlashtirish jarayonini berilgan topshiriqni o'zlashtirish jarayoni sifatida maxsus tashkil etishdir. Bunday uzoq o'rganilgan tizim (Rossiya) psixologiya fanlari doktori, professor Pyotr Yakovlevich Galperin (1902–1988)ning aqliy harakatlarini bosqichma-bosqich tarkib toptirish nazariyasiga asoslangan ta'lim tizimidir. Bu nazariya Rossiya psixologi Lev Semyonovich Vigotskiy (1896-1934) ning takliflari asosida vujudga kelgan bo'lib, Vigotskiyning shogirdi pedagogika fanlari doktori, professor Aleksey Nikolayevich Leontev (1903–1979)ning aqliy harakatlarini tarkib toptirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tadqiqotlarida rivojlantirilgan mazkur nazariya odamning psixik faoliyatini tarkib toptirishga oid umumiy nazariyaning tarkibiy qismidir. Ana shu nazariyaga muvofiq, odamning anogenetik rivojlanishida harakatlar interiorizatsiyasi degan jarayonlar, ya'ni tashqi harakatlarning sekin-asta ichki, aqliy harakatlarga aylanish jarayonlari ro'y beradi.

Ta'lim jarayonini boshqarishning boshqa imkoniyatlarini qidirish dasturlashtirilgan (rejalashtirish) ta'limning psixologik asoslarini ishlab chiqish bilan bog'langan. Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, dasturlashtirilgan ta'lim nima? U odatdagi ta'limdan nima bilan farq qiladi? Buni tushunish uchun o'quv jarayonini uning qatnashchilari, shuningdek ta'lim beruvchi va bilimlarni yetkazuvchi o'zini o'quvchi sifatida sxematik tarzda tasavvur qilib ko'rishi kerak. O'qituvchi bilan o'quvchi, ma'lumki o'quv jarayonining ikki qismidir. O'qituvchi tushuntiradi, isbotlaydi, dalil keltiradi, chizadi, rasm soladi, tajriba qilib ko'rsatadi. O'quvchi esa ko'radi, tinglaydi, tushunishga, o'zlashtirishga, esda olib qolishga harakat qiladi, fikr yuritadi, umumlashtiradi. Buning ma'nosi shuki, «to'g'ri aloqa kanali» orqali axborot subyektidan obyektga, o'qituvchidan o'quvchiga

yetkaziladi. O'qituvchi o'quvchining qanday ta'lim olayotgani haqida axborotga ega bo'lmay turib, ko'r-ko'rona ta'lim bera olmaydi.

Dasturlashtirilgan (rejalashtirilgan) ta'limda oddiy, an'anaviy ta'limning barcha ana shu salbiy tomonlariga barham beriladi, dasturlashtirilgan ta'lim o'quv jarayonini doimiy nazorat qilib turish va boshqarishni ta'minlaydi.

Dasturlashtirilgan ta'limning mohiyati uning mashinalashgan bo'lishida (texnika vositalarini qo'llagan holda) ham, mashinalashmagan bo'lishida ham emas. Dasturlashtirilgan ta'lim o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'rganayotgan o'quvchi oldingi materialni egallamay turib, o'zlashtirishda navbatdagi qadamni qo'ya olmaydi.

Buning uchun o'quv materiali qat'iy mantiqiy izchillikda joylashtirilgan kichik qismlarga bo'linadi.

Dasturlashtirilgan (rejalashtirilgan) ta'lim bilish faoliyatining har bir qadamini haqiqatda nazorat qilishni ta'minlaydi va bu bilan o'quv jaryonining to'la-to'kis boshqarish imkonini yaratadi. Qaytarina aloqa hamma vaqt harakatda bo'ladi va o'zlashtirishning individual xususiyatlariga muvofiq ravishda o'quv jarayonini tartibga solish imkonini beradi.

Dasturlashtirilgan ta'lim o'qituvchini chetlashtirmaydi, uning o'quv jarayoniga o'tkazadigan ta'sirini pasaytirmaydi, balki uni qora, texnik ishlardan xalos qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quv jarayonining borishiga faolroq ta'sir ko'rsata oladi, ta'limga individual yondashishni muvaffaqiyatli amalga oshiradi, tarbiya jarayoniga ko'proq e'tibor beradi, ta'limga individual yondashishni samarali amalga oshiradi.

Boshqaruv bu shunday yo'naltiruvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potensial imkoniyatlarini oladigan sharoitlarni yuzaga chiqarishni maqsad qilib qo'yadi.

Ta'limdan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyiladi. Ulardan birinchisi, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil eta olish, ikkinchisi esa o'quvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirishdir. Ana shu maqsadlar boshqarishning vazifalarini belgilab beradi. Demak, ta'lim jarayonini boshqarishning birinchi vazifasi tashkiliy

bo'lib, o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi bo'yicha ijtimoiy buyurtmalarni qondirish bo'lsa, ikkinchi vazifasi – bevosita o'quvchining qiziqish va talablarini qondirishga yo'naltirilgan holatdagi ijtimoiy vazifadir.

Shuningdek, bu vazifalar o'quvchilarning ko'tarinkilik, yaxshi kayfiyat va o'quv jarayonidagi ishchanlikni yuzaga keltirishni ham o'z ichiga oladi. Afsuski, ko'p yillar davomida boshqarishning ana shu ijtimoiy vazifasiga juda kam e'tibor berilgan.

Boshqaruvning ikkinchi vazifasi – bu ijtimoiy psixologiyadir. Bu vazifa o'quvchilarda samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-psixologik holat va xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Ta'lim jarayonini boshqarish uchun o'qituvchi quyidagi tarkibiy qismlarni egallashi lozim. Ya'ni:

1. Berilgan o'quv topshiriqlarini bajarish uchun vositalar tanlash.
2. Topshiriqlarni bajarish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish.
3. O'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar sifatini baholash.
4. O'quv topshiriqlarini bajarilganligini tekshirish.
5. O'z oldiga maqsad qo'ya olish.
6. Turli belgilar bilan predmetning ichki munosabatlari muvofiq-ligini ko'ra olish.

O'qitishning ikkita usuli mavjud. Biri an'anaviy o'qitish usuli – bunda o'qituvchi muammoni belgilaydi, vazifalarni aniqlaydi va muammoni yechinini topadi. O'quvchi esa masalani yechish yo'llarini eslab qoladi va uni yechish uchun mashq qiladi. Natijada o'quvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi.

Rivojlantiruvchi ta'lim o'qitishning muammoli usulida o'qituvchi o'quvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashkil etadi va nazorat qiladi. O'quvchi esa muammoni tushunadi.

Uni yechish yo'llarini qidiradi va uni yechadi. Bunday hollarda o'quvchi tafakkurining mahsuldorligi oshadi va uning mustaqilligi rivojlanadi.

O'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi qoidalarga tayanishi lozim:

1. O'quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bunda o'quvchi faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o'zi kashf

etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni yechish uchun sharoit izlashi kerak.

2. O'quvchilarga bir xil o'qitish usullari va bir turdagi ma'lumotlarni berishdan qochish kerak.

3. O'rganilayotgan fanga nisbatan qiziqishning namoyon bo'lishi uchun ayni shu fan yoki bilim, o'quvchining o'zi uchun qanchalik ahamiyatli va muhim ekanligini bilishi kerak.

4. Yangi material qanchalar o'quvchi tomonidan avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'liq bo'lsa, u o'quvchi uchun shunchalik qiziqarli bo'ladi.

5. Haddan ziyod qiyin material o'quvchida qiziqish uyg'otmaydi. Berilayotgan bilimlar o'quvchining kuchi yetadigan darajada bo'lishi lozim.

O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu yoki bilimning ahamiyatini ko'rsatish. O'quvchining o'quv faolligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy o'yinlardan keng foydalanishi lozim. Lekin ta'limdagi har bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bo'lavermaydi, shuning uchun o'quvchilarda iroda, qat'iylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarning kamol toptirilishi nihoyatda zarurdir. Ana shu xislatlar o'quvchining kelgusida o'z-o'zini nazorat qilishga o'z-o'zini baholashga va mustaqil ta'lim olishga asos bo'lish kerak.

Ta'limni individuallashtirish ustidan maxsus to'xtalib o'tish kerak. Ta'limni individuallashtirish har bir o'quvchi individual (alohida) boshqalarga bog'liq bo'lmagan holda ta'lim oladi degan ma'noni bildirmaydi (garchi prinsip jihatidan shunday ta'lim bo'lishi mumkin bo'lsa ham).

Har bir o'quvchi o'rgatuvchi mashina yoki dasturlashtirilgan darslik bilan ishlaydi. Har kim individual ravishda ta'lim oladi, bunda har xil tezlik bilan va ma'lum ma'noda turli yo'l bilan harakat qiladi, o'quvchi oldingi materialni o'zlashtirganligini isbotlab bermaguncha mashina yoki darsliklar uni olg'a qarab harakat qilishiga imkon bermaydi.

Ta'limni individuallashtirishning ma'nosi shuki, u o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga tayanadi, ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda quriladi. Shu nuqtayi nazardan sinfdagi

oddiy ta'lim usulini qanday ro'y berishini qarab chiqamiz. Sinf rivojlanishi tayyorgarlik darajasi bir xil bo'lmagan, o'zlashtirish turlicha va o'qishga munosabati har xil, qiziqishlari xilma-xil bo'lgan o'quvchilardan tashkil topgan, o'qituvchi an'anaviy tashkil etilgan ta'lim sharoitida hammaga bir xilda baravar kela olmaydi. Shuning uchun u ta'limni o'rtacha darajaga – o'rtacha rivojlanishiga, o'rtacha tayyorgarlikka, o'rtacha o'zlashtirishga tatbiq qilgan holda olib borishga majbur bo'ladi.

Bu narsa muqarrar ravishda shunga olib keladiki, «kuchli o'quvchilar o'z rivojlanishida sun'iy ravishda ishlab turiladi, o'qishga qiziqishlari qolmaydi, o'qish ulardan ko'p aqliy kuch sarflashni talab qilmaydi, «kuchsiz» o'quvchilar esa surunkasiga orqada qolishga muhtalo bo'lganlar, ular ham o'qishga ko'proq aqliy kuch sarflashni talab qiladi. «O'rtacha» darajaga kiruvchilar ham juda har xil bo'ladilar, qiziqish va mayllari turlicha, idrok, xotira, xayol va tafakkur xususiyatlari xilma-xil bo'ladi. Bir o'quvchi ko'rgazmali obrazlar va tasavvurlarga asosli ravishda tayanmog'i zarur, ikkinchisi bunga kamroq ehtiyoj sezadi, biri sekin fikrlaydi, ikkinchisining aqliy mo'ljali nisbatan tezligi bilan ajralib turadi; biri tez esda olib qolsa-da mustahkam emas; ikkinchisi sekin esda olib qolsa-da, ko'p narsani yodida saqlaydi; birini uyushgan holda ishlashga o'rgangan, boshqasi kayfiyatiga qarab asabiylashib va notekis ishlaydi; biri as-toydil, ikkinchisi majburan shug'ullanadi.

Avstriya kompozitori Alban Berg (1885–1935) bu holatni obrazli qilib quyidagicha tasniflab bergan. (Moskvada harorat -10 dan +19 gacha, o'rtacha yillik harorat +5, lekin kiyim-boshni yillik o'rtacha haroratdan kelib chiqib ishlab chiqarish hech kimning xayoliga kelmaydi. Haqiqiy harorat hisobga olinadi. Ammo ta'limda xuddi shunday o'zlashtirishga yo'l qo'ysa bo'ladi va hatto muqarrardir, deb hisoblaydi.

Ta'limni individuallashtirish prinsipi o'qitishda o'quvchilarning real toifalariga tayanish zarurligiga asoslanadi.

Bu prinsipni biz ko'rib o'rganishimizdek, dasturlashtirilgan ta'lim juda yaxshi amalga oshiradi. Lekin odatdagi ta'lim sharoitida ham bu prinsip tatbiq etilishi mumkin va lozim.

O'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari ta'limning ayrim metodlari va usullarini tanlash hamda qo'llanish vaqtida, uyga berilgan topshiriqlarni qismlarga bo'lishda, sinf va yozma ishlarning variantlarini (ularning qiyinlik darajasiga qarab) aniqlashda hisobga olinadi.

Sinf bilan olib boriladigan ishni ayrim o'quvchi bilan olib boriladigan individual ish bilan birga qo'shish mumkin. Bu orada psixologlar va pedagoglar ancha izlanish olib bormoqdalar. Ta'lim metodlari turlicha bo'lishi, o'quvchining individual xususiyatlariga qarab o'zgartirilishi kerak. Lekin bu 40 ta o'quvchi bor bo'lgan sinfda 40 xil individual yondashishni, ta'lim metodikasining 40 xil individual variantini amalga oshirish zarur degan ma'noni anglatmaydi. Odatdagi maktab ta'limi sharoitida bunday haddan ziyod individuallashtirish mumkin ham emas. O'quvchilarning fikrlash faoliyatining asosiy toifalarini faqat hisobga olish kifoya qiladi. O'quvchi tafakkurining individual xarakteristikasini, uning biron-bir toifaga mansub ekanligini qanday aniqlash mumkin?

Bunday holatni tegishli psixologik va pedagogik adabiyot bilan tanishib chiqilgach, bu ishni amalga oshirish unchalik murakkab bo'lmaydi. Chunki har bir o'qituvchi, odatda, o'z o'quvchilarini, ularning individual xususiyatlarini, ular tafakkurining kuchli va ojiz tomonlarini yaxshi biladi. Rossiya pedagog-psixologi Nataliya Aleksandrovna Menchinskaya (1905–1984) hamda psixologiya fanlari doktori, professor Dmitriy Nikolayevich Bogoyavlenskiy (1898–1981) tomonidan to'g'ri ko'rsatib o'tilganidek, o'qituvchi o'quvchining muayyan tarzda nimani o'zlashtirgan va nimani o'zlashtirmaganligini bilish bilangina cheklanib qolmasligi kerak.

Ta'kidlash kerakki, tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsiy shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir.

Tarbiya – bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatini tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Tasavvur qiling, ilmli, katta ixtirolarga qurbi yetadigan qonunlarni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassis – ma'naviyatsiz, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lsa nima bo'lishi mumkin? U o'z manfaatini o'ylaydi, Vatan uchun biron narsa qurbon qila olmaydi, chunki u xudbin, unda mehr, muhabbat, oqibat, fidoiylilik, vatanparvarlik, milliy g'urur yo'q, u muhtojlarga yordam bermaydi, chunki unda tarbiya shakllanmagan.

Tarbiya juda murakkab jarayondir. Odamzod farzandini oq yuvib, oq tarab, boqib, ta'lim berib voyaga yetkazish uchun qilinadigan g'amxo'rlik tarbiya deyiladi. Odamga kasb-hunar o'rgatish va, umuman, kishining g'oyaviy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi ham tarbiyadir.

Tarbiya-shaxs oqimini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok ettirishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmuidir.

Ta'lim bilan tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim tarbiyaning muhim vositasi bo'lib, maqsad va vazifalarga u orqali erishiladi. Oila, turli jamoat tashkilotlari, fan-texnika, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari, radio va televedeniye, targ'ibot-tashviqot ishlari ham tarbiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bolaga avval ta'lim berish kerakmi yoki tarbiya berish kerakmi degan savollar uchraydi, el orasida tarbiya ishi farzand dunyoga kelishi bilanoq darhol shafqat tuyg'usini uyg'otadi, deydilar.

Pedagog-psixologlar tarbiyaviy ish metodlarining texnologik asoslarini ishlab chiqayotganlarida, tarbiya – uni baholab bo'lmaydi, degan fikrga asoslanadilar. Bu metodlar qo'llanilayotganda, birinchidan, tarbiyalanayotgan o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini, ikkinchidan, shu o'quvchi a'zo bo'lgan bolalar jamoasining xususiyatlarini, nihoyat, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan aniq sharoitlarni hisobga olish zarur.

Tarbiya metodi deb tarbiyachi, murabbiyning tarbiyalanuvchilarida onglilik, iymon, e'tiqod va insoniy xulq-atvor qoida normalarini shakllantirish maqsadida ularga pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish usuliga aytiladi.

Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun maktab o'quvchisining barcha vaziyat va holatlarda to'g'ri yo'l tutishini istashi hamda to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishini bilishi, o'zi hurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganlarini ko'rish va o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishini mashq qilishi zarur.

Psixologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish juda murakkab jarayon bo'lib, unga maxsus rahbarlik qilishi talab etiladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun quyidagilarga amal qilish va e'tibor berish kerak.

Ishontirish tarbiya metodi sifatida. O'quvchilar axloqini, dunyoqarashini shakllantirishda ishontirish asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Ishontirish orqali o'qituvchi o'quvchilarda har tomonlama kompleks tarbiyani amalga oshiradi. O'ziga bo'lgan ishonchi natijasida talabalar kelajakda respublikamiz hayotiga o'zlarining shaxsiy ishtirokchiligini chuqur sezadilar va shunga yarasha bilim, ko'nikmalarni egallashga harakat qiladilar.

Ijobiy-shaxsiy namuna tarbiya metodi sifatida. Shaxsning rivojlanishida turli ta'sirlar, o'quv jarayoni va boshqa vositalardan tashqari tarbiyaning shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. Bolalar balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar ko'pchilik sharoitlarda bilish, o'rganish jarayonida asosan o'quvchi ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, doston yoki drama qahramonlariga taqlid qilishadi.

Mashq tarbiya metodi sifatida. Yaxshi, ijobiy odatlarga o'rgatishda axloqiy ko'nikmalarni hosil qilishda mashq metodining ahamiyati katta. Bunda o'quvchi ma'lum bir faoliyat bo'yicha biron-bir vaziyatda ayrim harakatlarni takroran bajaradi.

Rag'batlantirish va jazolash tarbiya metodi sifatida. Intizomlilikni shakllantirishning klassik metodlaridan biri rag'batlantirish va jazolash metodi hisoblanadi.

Tarbiyadagi rag'batlantirish va jazolash metodi o'quvchilardagi ijobiy xislatlarni rivojlantirishdagi ularning ijobiy fazilatlarini ta'komillashtirishda vosita bo'lmog'i lozim. Rag'batlantirishning yozma, og'zaki yoki imo-ishoraviy shakllari qo'llaniladi. Imo-ishoralar bilan boshni qimirlatib, tabassum va yuz-qo'l harakatlari bilan

ma'qullash, «barakalla», «ko'p yasha», «rahmat» va hakovolar. Rag'batlantirishning yana bir turi mukofotlashdir.

Tarbiya jarayonida **jazolash** ham katta ahamiyatga ega. Maktabda jazo choralari o'qituvchilar va maktab ma'muriyatining og'zaki tanbehi, sinf o'quvchilarining o'rtasida ogohlantirish, uy vazifasini bajartirish uchun darsdan keyin olib qolish choralari ko'riladi.

Tarbiyachining, o'qituvchining **shaxsiy namunasi** o'quvchilar shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'qullash va qoralash, rag'batlantirish hamda jazolash o'quvchining xulq-atvorini boshqarish va tuzatishning haqiqiy vositasidir. Ma'qullash, rag'batlantirish xatti-harakatlarning to'g'ri motivlari va shakllarini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Qoralash, jazolash xatti-harakatlardagi salbiy qo'zg'alishlarni hamda noto'g'ri shakllarni tormozlab turish vositasidir.

Aqliy tarbiya. Mustaqillik o'quvchi shaxsining har tomonlama taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni vujudga keltiradi. O'quvchilarni mustaqil Vatanimizga sadoqat ruhida tarbiyalash ishi dastlab fan asoslari bilan qurollantirish yo'li bilan boshlanishi lozim.

Estetik tarbiya. Estetik tarbiya dunyoni bilishga san'at asarlarini o'rganish orqali olib boriladi. San'at asarlarida kishilik jamiyatining g'oyaviy katta tajribasi aks ettirilgan. Shuning uchun eng yaxshi san'at asarlaridan foydalanib, bolalarni, obrazlar orqali, fikrlash yo'li bilan voqelikni tushunishga o'rgatish, ularning emotsiyasga ta'sir qilish, istiqloq g'oyasi, mafkurasini amalga oshirish uchun bo'layotgan aktiv kurashga ularni rag'batlantirish zarur. Estetik tarbiya bolalarni san'atning biron tarmog'idagi turli ijodiy ishlarni boshqarishga jalb etib, ularning his-tuyg'ularini boyitib, xayolini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Estetik tarbiya bolalarda tabiatdagi go'zalliklardan lazzat olish hamda mehnatni va kundalik maishiy turmushni, shu jumladan bo'sh vaqtni yanada go'zalroq o'tkazish qobiliyatini o'stirishga qaratilgan.

Mehnat tarbiya. Mehnat kishining va kishilik jamiyatining eng zarur yashash sharti. Mehnat va mehnat faoliyati bo'lmaganda,

odamning o'zi ham bo'lmagan bo'lar edi, mehnat tarbiyasi vazifasiga kishini o'z-o'ziga xizmat qilishning birinchi ko'nikmalari bolalikdan boshlanadi. Yuqorida qayd etilgan inson tarbiyasining tarkibiy qismlari darsda, darsdan tashqari tadbirlarni amalga oshirish orqali bajariladi.

Jinsiy tarbiya. Umuminsoniy tarbiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri jinsiy tarbiya hisoblanadi. O'smirlik davri insonni bolalikdan yoshlikka va boshqa davrlarda o'zining keskin, biroz murakkab kechishi bilan farq qiladi. Bu davr psixologik-pedagogik adabiyotlarda «o'qitish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi iboralar bilan ataladi. Bunday davrda o'smirlarga nazoratni kuchaytirish kerak. Ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, shifokorlar tomonidan turli-tuman chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali jinsiy tarbiya beriladi.

O'smirlik yoshidan boshlab tarbiyaning yangi omili o'z-o'zini tarbiyalash vujudga keladi. O'quvchilar o'zlarini ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan shaxs xislatlarini tarkib toptirish sohasida xulq-atvordagi kamchiliklarga salbiy xislat va sifatlarga barham berish sohasida ongli ravishda muntazam ishlay boshlaydilar. Odam yuksak darajada o'z-o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan-bir tizimdir.

O'qituvchi, tarbiyachi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashiga rahbarlik qilishda 4 vazifani ko'zda tutishi kerak¹.

*Birinchi*dan, o'quvchi o'zida shaxsning ijobiy xislatlarini taraqqiy ettirishga va o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlardan xalos bo'lishga intilish istagini uyg'otish kerak.

*Ikkinchi*dan, o'quvchiga o'z shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishda o'z xulq-atvoridagi xususiyatlarini diqqat bilan odilona tushunib olishda, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab yordamlashishdan iborat.

¹ R.H. Djurayev, F.M. Kuchukbayev va boshqalar. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta'sir etish texnologiyasi. Maktablarning pedagog-o'qituvchilari va psixologlari uchun ilmiy metodik qo'llanma. – T., 2012. – 100 b.

Uchinchidan, o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzishda, shaxs xulq-atvori xislatining xususiyatlarini (o'zini tuta bilish; qat'iylik, mardlik va hokazo).

To'rtinchidan, o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, o'quvchini shaxsning ijobiy xislatlarini tarkib toptirish va kamchiliklarga barham berishga oid maqsadga muvofiq va samarali ishlash usullari bilan qurollantiradilar.

«**Tarbiyasi qiyin**» bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S. Vigotskiyning fikricha, «qiyin» o'smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir.

Bular, avvalo, qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir.

Ularning ma'lum bir qismi intizomsiz, qo'pol bolalardir. Ularning faolligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi huquqlarni berish yo'li bilan ularga ta'sir o'tkazish mumkin. Psixologiyada «**tarbiyasi qiyin**» bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud.

Birinchi guruh – ijtimoiy salbiy mustahkam qarashlarga ega bolalar.

Ikkinchi guruh – qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar.

Uchinchi guruh – ijobiy va salbiy xulq-atvor steriotifalari o'rtasida ikkilanuvchi, o'z xatolarini tushunuvchi bolalar.

To'rtinchi guruh – irodali bolalarga bo'ysunuvchilar.

Beshinchi guruh – qonunbuzarlik yo'liga tasodifan kirib qolganlar.

Shuni aytish kerakki, tarbiyasi og'ir bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o'qiyotgan jamoa va sinfning roli juda katta.

Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari

Xitoy faylasufi Konfutsiy shunday degan: «**Eskini o'zlashtirish va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi**». Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat – xalqimiz, millatimiz qonidadir.

An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashinishi, shuningdek milliy mustaqillik va uning ne'matlari respublikamiz fuqarolarida tub o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Milliy tuyg'u, qiyofa, xarakter, ta'b, kuy, raqs, ma'naviyat, qadriyat hamda ruhiyat ta'siri ostida o'zining tub mohiyatini aks ettira boshladi. O'tmishning boy merosi, uning an'analari milliy istiqlol tufayli o'z egalariga qaytarib berildi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi asta-sekin o'zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshlandi, milliy va umum-bashariylik xislatlari o'rtasida adolatlilik, teng huquqlilik aloqalari o'rnatilmoqda.

XXI asrda shaxs shakllanishida, uning tarbiyalanganlik darajasini orttirishda dinning, xususan «Hadis» ilmining ahamiyati kattadir. Shaxslararo munosabatda tenglik, g'amxo'rlik, samimiylilik, o'zaro yordam, simpatiya, hamdardlik, sevgi-muhabbat singari milliy xususiyatlarini tarkib toptirishda hadislarning roli yanada ortmoqda¹.

O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqlol rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq an'analari yotadi.

O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».²

Yosh avlod tarbiyasida milliy ruhiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'alar yetakchi o'rin tutmog'i lozim (tarbiya etnopsixologik va etnopedagogik munosabat). Bular orqali yoshlarda quyidagi fazilatlar tarbiyalash lozim:

¹ O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 31-60.

² O'sha manba.

- a) yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish;
- b) xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr-shafqat;
- d) kattalarni hurmat qilish, e'zozlash;
- e) muloyimlik;
- f) ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur;
- g) kichik yoshdan mehnatsevarlik
- h) jismoniy baquvvatlik;
- i) axloq-odob;
- j) oilaparvarlik;
- k) ayollarga hurmat;
- l) o'zaro hamkorlikka intiluvchanlik.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug'ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarning hamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. Hamjihatlikda gap ko'p.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirish vazifalari ana shuni taqozo qiladi.

O'qituvchi psixologiyasi. O'qituvchining o'rni va uning vazifalari, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi – sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars paytida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga, darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmashligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur.

O'qituvchi maktabning pedagog jamoa a'zosi sifatida maktab hayoti faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o'qituvchilari va sinf rahbarlarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o'qituvchi o'quvchilarning o'taonalari va jamoatchilik oldida ma'ruza o'qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar targ'ibotchisi hamdir. Vazifalarining shu qadar ko'pligi uchun ham jamiyatning o'qituvchilar oldiga qo'yadigan talablari tushunarlidir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat:

o'qituvchining o'z Vatanga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan ibratdir;

- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
 - olijanoblighi, aqli, farosati, ma'naviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;
 - o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatlilikidir.
- Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilar:

■ shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylıklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalari sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

■ yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

■ o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

■ ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

■ bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;

■ pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

■ o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lishiga intilishi shart.

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xalq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan, birinchi navbatda, o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirilishini talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda ekanligiga e'tibor bermaydilar, maktab direktori esa bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadi.

O'qituvchining kasbiga xos xislatlari. Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'i nazar farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradi. Jumladan, birinchidan, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari; ikkinchidan, o'qituvchining sezgirliги, talabchanligi bilan bog'liq tashqi xislatlari

va xulq-atvoriga qarab; uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntirish darajasi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq xislatlariga qarab xarakterlab beradilar.

Ta'kidlash joizki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda.

O'qituvchilar jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Shunisi muhimki, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlarni batafsil ko'rib chiqish kerak. Bu qanday xislatlar ekan?

Ko'pchilik psixologlar, shuningdek yurtimizdagi psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi.

Rossiya psixologlaridan N.V. Kuzmina, V. Slastenin, F.N. Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Z. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, S. Jalilova, A. Jabborov, M. Qoplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar o'qituvchilik kasbining professiogrammasining yaratilishiga asos bo'lgan. Professiogramma psixologik nuqtayi nazardan ishlab chiqarish faoliyati xarakteristikasi (biron aniq kasb-bo'yicha kelgusi amaliy ishlar uchun zarur bo'lgan mazmundagi barcha tomonlarini o'z ichiga olishi kerak) ustida boradi.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim.

Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M. Abdullajonova, Y. Gladkova, A. Mashkurov, T. Hamroqulov, E. Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'zbek tili va adabiyoti, o'zbek maktablarida rus tili va adabiyoti, matematika, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining taxminiy modeli (namunasi)ni aniqlab olish imkoniyatini berdi.

Har bir mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi. Jumladan, maktabning o'qituvchi-murabbiysi professiogrammasini misol qilib keltiramiz. Professiogrammada muhim xislatlaridan borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining quyidagi xislatlari ko'rsatib berishi lozim.

1. O'qituvchining shaxsiy xislatlari:

- bolalarni yaxshi ko'rishi, ularni sevish;
- amaliy-psixologik aql-farosatlilik;
- mehnatsevarlik;
- jamoat ishlarida faollik;
- mehribonlik;
- kamtarlik;
- odamiylik, dilkashlik;
- uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish;
- o'z bilimini oshirishga intilish.

2. Kasbiga xos bilimi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;
- pedagogik-psixologiya asoslarini bilishi;
- etnopsixologik bilimlarni egallash;
- hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi;
- hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egalaganligi;
- maktab yoshida bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi;
- o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi;
- o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi;
- ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

3. O'z kasbiga xos xislatlari:

- milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasi-ni tushunishi;

– zamonaviy maktabda olib boriladigan o‘quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an‘analar va urf-odatlarining ahamiyatini tushunishi;

– o‘qituvchining kuzatuvchanligi;

– o‘z diqqat-e’tiborini taqsimlay olishi;

– pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi;

– o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lishi;

– o‘zini qo‘lga ola bilishi, o‘zini tuta bilishi;

– pedagogik takt;

– nutqning emotsional ifodalanishi.

4. Shaxsiy-pedagogik uddaburonligi:

– dars mashg‘ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;

– o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;

– ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;

– pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;

– bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o‘z faoliyatini rejalashtirishni bilishi;

– o‘quv maqsadlarini rejalashtira olishi;

– o‘zining ta’lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

5. Tashkilotchilik malakalari:

– bolalar jamoasini uyushtira bilishi;

– turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi;

– bolalarni biron narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;

– amaliy masalalarni hal etishda o‘zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo‘llay olishi.

6. Kommunikativ malakalari:

– bolalarni o‘ziga jalb etishni bilishi;

– bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi;

– bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o‘zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi;

– bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilishi.

7. Gnostik malakalar:

- bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;
- salbiy munosabatlarini, xulq-atvoridagi o'zgarishlarni kuzatish;
- o'zining tajribasi va pedagogik natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi;
- psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;
- o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntirishni bilishi.

8. Ijodiy xislatlari:

- pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilishi;
- o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;
- o'zini o'quvchi o'rni qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;
- avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati;
- o'zining o'quvchiga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra bilishga intilishi.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi;

- ❖ shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo'nalishi;
- ❖ pedagogik mahorat va qobiliyati;
- ❖ xarakterning psixologik xususiyatlari;
- ❖ bilish faoliyati;
- ❖ o'qituvchi shaxsinig bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti.

Professiogrammani kasbga xos ravishda o'qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko'nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyat va shaxsiy xislatlariga bog'liq ekanligini albatta ko'rsatish zarur.

Qobiliyat – bu kishining biron faoliyatga yaroqlilik darajasi va shu faoliyatni amalga oshirishidir.

Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo‘lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik qobiliyatning tuzilishi qanday? Quyida bu masalani ko‘rib chiqamiz.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko‘pqirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko‘rsatib berdi. Ana shu tadqiqot ma‘lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o‘rin egallaydigan qator komponentlar (tarkibiy qismlar)ni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Didaktik qobiliyat – bu bolalarga o‘quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarga fanga qiziqish uyg‘otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg‘ota oladigan qobiliyatlardir.

Didaktik qobiliyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi zarurat tug‘ilganda qiyin o‘quv materialini osonroq, murakkabrog‘ini soddaroq, tushunishi qiyin bo‘lganini tushunarliroq qilib o‘quvchilarga moslashtirib bera oladi. O‘qituvchining mana shu xislatlarini bilib olgan o‘quvchilar odatda: «o‘qituvchining eng muhim tomoni ham uning hamma narsani aniq va tushunarli qilib berishida-da. Bunday o‘qituvchining qo‘lida mazza qilib o‘qigin keladi»; «unisi esa hech narsaga yaramaydigan o‘qituvchi, hech ham aniq tushuntirib bera olmas edi»; «o‘quv materialini oldida tirik odamlar emas, balki qandaydir mexanizmlar bordek, zerikarli va noaniq mujmal qilib tushuntiradi. Biz bunday o‘qituvchilarni yoqtirmaymiz» – deydilar.

Ko‘pchilik o‘qituvchilarga, ayniqsa, hafsalasiz o‘qituvchilarga, o‘quv materiali oddiygina va hech qanday alohida tushuntirish hamda izoh berishni talab qilmaydigandek tuyuladi.

Bunday o‘qituvchilar o‘quvchilarni emas, balki birinchi holda o‘zlarini nazarda tutib ish olib boradilar. Shuning uchun ham o‘quv materialini o‘ziga qarab tanlaydilar.

2. Akademik qobiliyat – matematika, fizika, biologiya, ona-tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos qobiliyatlardir.

Qobiliyatli o‘qituvchi o‘z fanini faqat hajmidagina emas, balki atroflicha, keng, chuqur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kash-

fiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga katta qiziqish bilan qaraydi hamda ozgina bo'lsa-da tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim saviyasiga erishish, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirish, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng eruditsiyali (bilimdon) odam bo'lmog'i lozim.

3. Perseptiv qobiliyat – bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat bo'lgan qobiliyatdir.

4. Nutq qobiliyati – kishining o'z his-tuyg'ularini nutq yordamida, shu bilan birga, mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchidan o'quvchilarga o'zatiladigan axborot, asosan, ikkinchi signal tizimi-nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi.

Darsda qobiliyatli o'qituvchining nutqi hamma vaqt o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o'quvchilar javobini sharhlab beradimi, xullas qanday metod qo'llashidan qat'i nazar, nutqi hamma vaqt o'zining ishonchligi jozibadorligi kabi ichki quvvat bilan alohida ajralib turishi lozim.

Shoshqaloq nutq bilim o'zlashtirishga xalaqit berib, bolalarni tez toliqtiradi. O'ta sekin nutq lanjlik va zerikishga olib keladi.

Nutqi, imo-ishoralar turli, keskin harakatlar o'quvchilarni jonlantiradi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – bu birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir. O'quvchilar o'z o'qituvchilari haqida turlicha fikrda bo'ladilar.

O'qituvchining o'z ishini tashkil qila bilish deganda, uning o'z ishini to'g'ri rejalashtirib, uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtga nisbatan o'ziga xos sezuvchanlik

ishini vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlab, mo'ljallangan vaqtdan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

6. Avtoritar qobiliyat – bu o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir etib, ularda obro' orttira bilishdir.

Avtoritar qobiliyat o'qituvchining rostgo'yligi, irodaviy ud-daburronligi, o'zini tuta bilishi, farosatligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari hamda qator shaxsiy xislatlarga, shu bilan birga, o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasida javobgarlikni his etish, uning e'tiqodi, o'quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni singdira olganligiga ishonchi kabi xislatlarga ham bog'liq.

7. Kommunikativ qobiliyat – bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

5.2. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv yondashuv va uni loyihalash

Dars jarayonida o'quvchi faoliyatini nazorat qilish va baholashning eng samarali mexanizmlarini izlab topish va qo'llash, o'quv-biluv jarayonini modullashgan integral dasturlar, ta'limning modullashgan shakllari asosida tashkil etishga erishish ham muhim masalalardan biridir. O'quvchi faoliyatini individuallashtirish ning turli yo'l va variantlarini ishlab chiqish va o'quv jarayonida qo'llash o'qituvchi faoliyatida ham samaradorlikka erishish imkonini beradi. Agar, o'quvchi faoliyatida to'xtash hollari aniqlansa, uni tuzatish yo'llarini izlash maqsadga muvofiqdir. Maktab o'quvchilarining dars intizomiga salbiy munosabatdagi sifatlariga nisbatan konstruktiv ta'sir etish orqali ta'lim mazmunini modullashgan shakllarini amaliyotga tatbiq etish istiqbolli yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Olimlar va tadqiqotchilar ko'proq nazariy masalalarni hal qilish, umumiy qonun-qoidalarni sharhlash, tushuntirish orqali jamiyat va insoniyat taraqqiyoti sabablarini yoritishga uringanlar. Lekin biz uchun ijtimoiy taraqqiyot va inson tafakkuri rivojlanishini tezlash-

tiruvchi, uning davr va kishilar ruhiga hamohang tarzda kechishini ta'minlab beruvchi tatbiqiy xususiyatli ishlar va ilmiy izlanishlar zarur. Zero, mamlakatimizda ro'y berayotgan tub ijtimoiy-siyosiy islohotlar aynan shuni talab qilmokda. Bunda e'tiborga loyiq dolzarb muammolardan biri-yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, ularni yangicha demokratik munosabatlarga ruhiy jihatdan tayyorlashdir.

Bu vazifani ado etishda psixologiyaning o'ri va rolini aniqlash, tatbiqiy izlanishlarni amalga oshirish va ijtimoiy psixologik amaliyot doirasida ushbu vazifani amalga oshirish yo'llarini topish uchun hozirgi zamon psixologiyasining asosiy tatbiqiy yo'nalishlarini belgilashi maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda psixologiyaning dolzarbligi va uning jamiyatdagi sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga aloqadorligi uning tatbiqiy sohalar doirasini ham kengaytiradi. Uning asosiy-tatbiqiy amaliy sohalariga: sanoat-sotsial psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, oilada va nikoh borasidagi sotsial-psixologik ishlar, siyosat va iqtisodiyotni takomillashtirish muammolari, qonunbuzarlikni oldini olish ehtiyoji hamda ommaviy axborot vositalarida borasidagi amaliy vazifalar kiradi.

Maktab o'quvchilarining dars intizomiga salbiy munosabatdagi sifatlariga nisbatan konstruktiv (amaliy, ishchan) ta'sir etishga xos umumiy xususiyatlar mavjud bo'lib, ularga:

a) o'quvchi sifatlariga nisbatan konstruktiv ta'sir etishning bevosita talab ehtiyojiga ko'ra tashkil etilishi;

b) shu yo'nalishda qilingan tatbiqiy ishlarning «tili» muammosining borligi, ya'ni professional til (jargon) bilan tadqiqot natijalarini bayon etishdagi uyg'unlik masalasi;

d) amaliy ehtiyojlarga monand ilmiy farazlarni ishlab chiqish;

e) samaradorlik mezonlarining o'ziga xosligi, ya'ni bajarilgan ishga qarab samaradorlikni baholash;

f) «o'qituvchi-amaliyotchi» bilan «o'quvchi-nazariyotchi» rollarining aniq farqlanishidagi muammolar;

g) salbiy munosabat xislatiga ega bo'lgan boladagi xususiyatlarini o'rganib chiqib, ularga nisbatan munosabat bildirish;

h) o'qituvchi–amaliyotchi va o'quvchi–nazariyotchi o'rtasidagi muomalaning psixologik xususiyatlarini tashkillashtirish;

i) o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlarini oshirish va qobiliyatlariga qarab psixologik ta'sir etish;

j) darsda bevosita ta'lim va tarbiyaning uzviylikini ta'minlash kiradi.

Yurtimizda ma'naviyat sohasidagi islohotlar va amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlarning ahamiyati shundaki, ular yoshlarda o'z xalqining madaniyati, Vatanining o'tmishi va buguni, milliy qadriyatlarga to'g'ri munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi va bu – ziyoli, bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatlaridir. Aks holda olam siru asrorlarini chuqur bilgan, qiziqishlari doirasida jiddiy izlanishlar olib borishga tayyor shaxs, agar u, bu bilimlarni avval o'z xalqi, millati, yaqinlari manfaatiga yo'naltira olmasa, uning jamiyat taraqqiyotiga hissasini tasavvur qilolmasa, ma'naviyati qashshoq, iqtidori esa samarasiz, xudbin shaxs sifatida baholanadi.

Shuning uchun ham yaqin kelajakda maktablarda o'quvchilar uchun psixologlar tomonidan o'tkazilishi mumkin bo'lgan tadqiqot tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Darsga salbiy munosabatdagi bolalar o'rtasida vertikal munosabatlarni o'rganish (o'qituvchiga bo'lgan munosabatlari, darsdan qoniqishlari).

Darsga salbiy munosabatdagi bolalar o'rtasidagi gorizontaal munosabatlar, ya'ni jamoaning uyushganligi shaxslararo munosabatlarning o'ziga xosligi va ularning toifalari, ziddiyatlar ularning oldini olish choralari.

O'qishga va mehnatga munosabat, undan o'quvchilar darsdan qanchalik qoniqishlari va uning samaradorlik ta'siri, darsda faoliyat motivlari amalga oshirilayotgan faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy foydali jihatlarini qay darajada tasavvur qilishi va hokazo.

Psixologning yuqoridagi masalalarini o'rganishi uchun tabiiy metodik vositalar zarur. Amaliyotchi psixolog oddiy kishidan shu tomonlari bilan farq qiladiki, u har bir yaqqol sharoitda o'ziga kerakli maqbul uslublarni qo'llaydi, ba'zilarini sinab ko'radi, agar ular maqsadga muvofiq bo'lmasa, boshqasi bilan almashtiradi. Olingan

natijalarga asoslanib u darsga salbiy ta'sir etuvchilar uchun ruhiy muhitni «yaxshi, yomon, o'rtacha, qarama-qarshi» toifalarga bo'ladi va ularning har biridan o'ziga xos ilmiy-amaliy xulosalar chiqaradi.

Maktablarda tashkil etiladigan psixologik xizmatning ijtimoiy psixologik yo'nalishi, avvalo, turli toifadagi o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy ziddiyatlarni bartaraf etishga o'rgatish, shaxslararo munosabatlarning demokratik sog'lom shakllariga o'tish, mahorat sirlarini o'zlashtirish va ulardan kundalik faoliyatda oqilona foydalanish malakalarini shakllantirishdir. Bunda shubhasiz psixolog tomonidan tashkil etiladigan turli trening mashg'ulotlari muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik-psixologik muloqotdagi shaxsga bog'liq to'siqlar va uni bartaraf etish yo'llari


Ongiy noto'g'ri to'siqlar

1. Tafakkur.
2. Xato o'ylash.
3. Bir-biriga noto'g'ri munosabat.
4. Qiziqishning yo'qligi.
5. Haqiqatni mensimaslik.

His-tuyg'ular va emotsiya


1. Qo'rquv tuyg'usi.
2. Iztirob tuyg'usi.
3. Yomon kayfiyat.
4. Nafrat, jirkanish.
5. Munosabatning zaruratini to'liq anglamaslik.
6. Nutq.

Pedagogik-psixologik muloqotdagi shaxsga bog'liq to'siqlar bola ruhiyatiga va o'zaro munosabatlariga ta'sir etishi qayd etilgan (9-rasm).




- Kv. 1
- Kv. 2
- Kv. 3
- Kv. 4

9-rasm. Shaxsning muloqot davridagi to'siqlar.



Ongiy noto'g'ri to'siqlar



Darsda salbiy holatlar yuz bermasligi uchun o'quvchilarni pedagogik-psixologik munosabatlarini chuqur o'rganish, ulardagi bir-biriga bo'lgan muomala va madaniyatni to'g'ri tashkil etish zarur.

Munosabatlarning yomonlashuvi darsda boshqa o'quvchilarga salbiy ta'sir etadi. Natijada bu holatlar darsning borishi, mashg'ulotlarning o'tilishi va ta'siri boshqa bolalar uchun qiziqish uyg'otmaydi. Bu holatlarni oldini olish maqsadida hamma o'quvchilar uchun bir xillik bo'lish, ya'ni barcha bolalarga nisbatan bir xil muomala va e'tibor qilish muhim. Chunki ba'zida bolalar o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi muomala va munosabatlarga ko'proq e'tibor qaratadilar. Menga boshqacha muomala va munosabatda, boshqa bolalarga yaxshi munosabatda, chunki u yaxshi o'qiydi, oilaviy sharoiti yaxshi – degan mazmundagi gap-so'zlar bola miyasiga o'tirib qoladi. Uning psixikasiga, ya'ni ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Shuning uchun o'qituvchi oq-qorani tanigan holda, bolalarni jerkimasdan, pala-partish, ust-bosh kiyimi toza bo'lmagan bolalardan jirkanmay, ularni ozodalikka, tartibga va odobga chaqirishlari zarur.

Pedagogik-psixologik muloqotdagi shaxsga bog'liq to'siqlarni bartaraf etishda shaxsning muloqot davridagi to'siqlar va ongiy noto'g'ri to'siqlar paydo bo'lmashini ta'minlashlari kerak. Buning uchun yuqorida ko'rsatilgan barcha bandlarni yaxshilab o'rganib chiqib, bola ruhiyatini qiynamagan holda, ularni bu vaziyatdan olib chiqishga yordam berishlari chuqur ahamiyat kasb etadi. Sinfda bolalar 3 guruhga bo'linadi (10-rasm).

Dars intizomiga salbiy ta'sir etuvchi o'quvchilar ongiy noto'g'ri rivojlanib, ulardagi emotsional holatlar munosabatlarning zaruratini to'liq anglamaydi. Darsda tinch o'tirolmaydi, o'qituvchining va o'rtoqlarining



10-rasm. Uch guruh toifasidagi o'quvchi bolalar.

asabiga tega boshlaydi. Natijada dars buziladi, o'qituvchining ko'proq vaqti bolalarni tinchlantirishga ketadi. Bu holat boshqa bolalarning asabiga tegib, darsdan to'liq qoniqa olmaydilar. Aktiv o'quvchini yaxshi o'qiydigan, intizomli deb, ijobiy baholadik; passiv o'quvchini aralash turiga kiritdik; sust o'quvchini, ya'ni past o'qiydigan, xulqi ham yaxshi emas o'quvchilar toifasiga kiritib salbiy baholadik.

Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv va uni loyihalash

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish o'quvchilar tomonidan mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirilishini kafolatlovchi yondashuv hisoblanadi. Ta'lim texnologiyasi ta'lim jarayonining mohiyati, uning bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kechadigan ta'limiy munosabatlarning mazmunini anglatishga xizmat qiladi.

Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri ekanligini yanada chuqurroq anglaymiz.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslangan hamda o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi demakdir.

Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondashish zarurligini taqozo etadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari amaliyotida ma'lumki, uzoq yillar davomida mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan tarbiyaviy ishlar rejasida belgilangan tadbirlarni o'tkazishga majburman qabilida yondashib kelganlar.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Unda tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materiallar yig'iladi, tarbiyaviy tadbir maqsadi va vazifalari belgilanadi, uning mazmuni, shakli, metodlari va vositalari tanlanadi. Tarbiyaviy tadbirni tashkil etishda uning vaqti belgilanadi va ssenariysi ishlab chiqiladi. O'quvchilar faoliyati va faolligi nazorat qilinadi. Yakuniy qismida xulosa chiqariladi.

Bu jarayonda tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondashuv mohiyati o'quvchilar mustaqilligini ta'minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e'tibor qaratishni taqozo etadi.

O'quvchilarda tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag'batning mavjudligi ta'minlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari amaliyotida yuqorida bayon etilgan omillarni inobatga olish va shu asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish ularning muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlab qolmay, balki o'quvchilarda ularning o'tkazilishiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarbiyalanishi uchun qulay sharoitni hosil qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ko'pgina pedagog-psixologlar ta'lim jarayonini tahlil qilar ekan, uni yetarli darajada boshqarib bo'lmaydigan jarayon deb ta'kidlaydilar. Ushbu fikrga munosabat bildiring.
2. Ma'qullash va qoralash, rag'batlantirish hamda jazolash o'quvchining xulq-atvorini boshqarish va tuzatish vositasimi? Nima uchun?
3. O'qituvchi, tarbiyachi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashiga rahbarlik qilishda 4 vazifani ko'zda tutishi kerak. Bu vazifalarni sanab, ifodalab bering¹.

¹ R.H. Djurayev, F.M. Kuchukbayev va boshqalar. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta'sir etish texnologiyasi. Maktablarning pedagog-o'qituvchilari va psixologlari uchun ilmiy metodik qo'llanma. – T., 2012. – 100 b.

4. «Tarbiyasi qiyin» bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir, bu fikrga munosabatingiz qanday?
5. L.S. Vigotskiyning fikricha, «qiyin» o'smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir, deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrga o'z munosabatingizni bildiring.
6. Qaysar, injiq bolalar bilan ishlashning qanday usullarini bilasiz?
7. Intizomsiz, qo'pol bolalarga qanday yo'l bilan ta'sir o'tkazish mumkin?
8. Psixologiyada «tarbiyasi qiyin» bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud, ular qaysilar?
9. Pedagogik-psixologik muloqotdagi shaxsga bog'liq to'siqlar va uni bartaraf etishda qanday yo'llar mavjud?

Talabalarning mustaqil tayyorlanishi uchun

«Keys» topshirig'i

4-vaziyat. *5-sinf o'quvchisi Alisher hikoya va she'rlarni yaxshi eslab qola olmaydi. Sinf taxtasi oldida, odatda, boshlang'ich 2–3 jumlani aytadi va jim bo'lib qoladi yoki, umuman, boshqa narsalarni gapiradi. Har bir «2» baho, adabiyot o'qituvchisining ham, o'quvchining ham yuragida alamli kechar edi. O'qituvchi bolalardan Alisherni o'ziga juda bino qo'yadiganlardan biri ekanligini bilib oldi. – Men uning o'ziga bino qo'yish xususiyati bilan yaqindan tanishmoqchi bo'ldim, – degan edi, keyinchalik adabiyot o'qituvchisi Jamila Mamatova, o'zining hamkasblariga. Kunlardan bir kun, o'qituvchi Alisherni sinf taxtasi oldiga chaqirib, uy vazifasini so'radi, so'ng, unga bugun avvalgidan ancha yaxshiroq tayyorgarlik ko'ribsan, agar nutqing ohangida xatolar bo'lmaganda senga «to'rt» baho qo'ysa ham bo'lar edi, deb «uch» baho qo'ydi. – Ertasiga men Alisherni yana sinf taxtasi oldiga chaqirdim. Hammadan qizig'i shuki, u hikoyaning mazmunini a'loga aytib berdi. Uning kundaligida va sinf jurnalida adabiyotdan birinchi «5» baho paydo bo'ldi. Bu g'alaba edi. Tez orada Alisher adabiyotdan muvaffaqiyatli o'qiy boshladi.*

Savollar:


1. O'qituvchi o'zining qaror va harakatlarida o'quvchining qanday psixologik va shaxsiy xususiyatlariga asoslangan?
2. Pedagog bundan keyin qanday harakat qilishi zarur?

VI bob. O'ZARO KELISHUVGA ASOSLANGAN BIRGALIKDAGI FAOLIYAT PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH OMILI SIFATIDA

Tayanch iboralar: o'zaro do'stona munosabat, pedagogik hamkorlik, muomala madaniyati, ta'lim-tarbiya jarayoni, tartib-intizom, pedagogik-psixologik tarbiya, tashxis muammosi, motivatsiya, iste'dod belgilari, oqilona fikr, ilg'or, layoqat, oila iqtisodi, oilaviy madaniyat, g'amxo'rlik, odamiylik, halollik, olijanoblik, mehr-oqibat, ijtimoiy institut, individualizm, tolerant, tafakkur, elat, bag'rikenglik, g'oya, mafkura, barqarorlik, hamkorlik, qanoatli, hamjihatlik, diniy bag'rikenglik, tasamul, e'zozli, multikulturalizm, polietnik, monomadaniyat, polimadaniyat, madaniyatlararo dialog.

Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda pedagogik hamkorlik

Pedagogik konfliktologiya nazariyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ta'lim jarayonini insonparvarlashtirilgan, shaxsga yo'naltirilgan modeli sifatida baholaydilar. Chunki, pedagogik konfliktga asoslangan pedagogik jarayonning maqsadi o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning erkinliklari va huquqlarini hurmat qilish asosida ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi.



1-rasm. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik konfliktlarning yuzaga kelish turlari.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishida: o'qituvchi–sinf jamoasi, o'qituvchi–kichik guruh, o'qituvchi–katta guruh, o'qituvchi–o'quvchi, o'quvchi–o'quvchi, kichik guruh–kichik guruh, kichik guruh–sinf kabi turlarida namoyon bo'ladi. Pedagogik konfliktologiya fanini o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos pedagogik-psixologik va uslubiy asoslari yaratilmoqda. Ular:

❖ DTS va ularga muvofiq darajada o'zlashtirilishi talab qilnadigan yangi bilimlar hajmi asosida o'quv mashg'uloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit belgilash va ulardan foydalanish imkoniyatlari, o'quv reja, o'quv dastur, o'quv materiallari, dars mavzusi, o'quv jarayoni modeli, texnologik xaritasi, dars ishlanmasi va hokazo;

❖ hamkorlik muhitiga kirishadigan o'quvchilarning psixologik, yosh xususiyatlari va o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olish, mashg'ulotlarda har bir o'quvchi uchun qulay, erkin, hissiy ko'tarinkilik muhitini yaratish, erkin muloqotni sifatli uyushtirishda dars mavzusi, mazmuni, qo'llanilayotgan tushunchalar, atamalar, ta'riflar, formulalar va boshqalarning o'quvchilar uchun tushunarli, qiziqarli bo'lishini ta'minlash;

❖ mashg'ulot uchun zarur didaktik, kognitiv, vizual vositalarni oldindan tayyorlash, muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish.

Ta'kidlash kerakki, o'qituvchi hamda o'quvchilar orasidagi hamkorlik – ta'lim jarayonining asosini tashkil qilishi lozim. Pedagogik konfliktlar yechimini topishga asoslangan pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion usullar;
- insonparvarlikka asoslangan demokratik yondashuvlar;
- o'zaro ishchan muloqotga asoslangan dialog muhiti;
- ishchan pedagogik muhit.

Pedagogik konfliktlar yechimini topishda quyidagi interaktiv usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega, ya'ni *o'quvchilarga axborotlarni jadal tarzda taqdim qilish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, izlanuvchanlikka asoslangan ijodiy muhit yara-*

tish, dialogdan samarali foydalanish, o'quvchilarni turli didaktik o'yinlarga jalb qilish singari.

Pedagogik konfliktlar yechimini ta'minlashning maqsadli yo'nalishlari mavjud bo'lib, bular:

■ pedagogik talabdan pedagogik bevosita va bilvosita muomala, muloqot va munosabatga o'tish;

■ o'quvchilarga erkin, hissiy, insoniy va shaxsiy yondashuv asosida ta'lim berish: o'zaro hamjihatlik, tushunish, anglash, qabul qilish, hamdardlik, ko'maklashish, ijobiy his-tuyg'ularni ifodalash muhitini ta'minlash.

Pedagogik konfliktlar yechimini topishga asoslangan ta'lim jarayoni o'ziga xos jihatlarga ega. Bularni quyida sanab o'tamiz:

1. O'quvchilarni faollashtiruvchi, rivojlantiruvchi didaktik majmualarga ega bo'lish. Mavjud didaktik majmualardan o'quv-biluv jarayonida keng foydalaniladi. Ushbu majmualar bilan ishlash o'quvchilarga quvonch bag'ishlashi, ularda hayotiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi, o'quvchilarga o'quv materiallaridan erkin tanlov asosida foydalanish imkoniyatining berilishi, o'quv materiallari o'quvchilarning ehtiyojlari, izlanishlari, xohishlariga mos kelishi, o'quvchilarga har bir darsda yangi bilimlar bilan uchrashish imkoniyatini berishi, o'quv materiallari yordamida o'quvchilarning dunyoqarashi va tasavvurlari kengayishi, o'quv materiallari tarkibiga ta'limiy o'yinlarning singdirilishi, o'quv materiallari o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishi, ularni mustaqil va tanqidiy fikr yuritishga o'rgatishi lozim.

2. O'quvchilar shaxsiga nisbatan insoniy yondashuvni ta'minlash. Bunda o'quvchilar bilan demokratik munosabatlarni o'rnatish shaxslararo do'stona munosabatlarni o'rnatishning muhim tamoyili bo'lib, bunday munosabat o'quv-biluv jarayoni samaradorligini ta'minlaydi. Buning zamirida har bir o'quvchini mustaqil shaxs sifatida tan olish, ularning huquqlarini hurmat qilish, his-tuyg'ularini tushunish, ularning qarorlarini e'tirof etish va unga ishonish, o'quvchilarning erkinliklari ta'minlanishi, a'lochilar bilan past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning huquqlarini tenglashtirish, ular-

ning bir-biriga ko`makdosh bo`lishini ta`minlash imkoniyati vujudga kelishi lozim.

3. Insonparvarlikka asoslangan hamjihatlik muhitini qaror toptirish. Pedagogik konfliktlar yechimini topish o`quv-biluv jarayonida insonparvarlikka asoslangan pedagogik muhitni qaror toptirish ham alohida ahamiyatga ega. Insonparvar, demokratik, jamoaviy hamkorlik jarayonida o`quvchilarda mustahkam bilim, ko`nikma va malakalarni hosil qilish, ularga nisbatan muruvvatli, mehr-muhabbat va sadoqatli bo`lish, ularni ezgu ishlarga ruhlantirish, hamkorlik, o`zaro muomala va muloqotda pedagogik mahorat ko`rsatish, o`quvchilar orasida ijobiy muhitni qaror toptirish, ularning kamchiliklariga nisbatan bag`rikenglik bilan bardoshli munosabatda bo`lish lozim¹.

Demokratik munosabatda bo`lish maqsadga muvofiqdir. O`qituvchi hamda o`quvchilar orasidagi demokratik munosabatlar quyidagilarni ta`minlash imkonini beradi:

1. O`quvchi va o`qituvchi orasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish.

2. Darsda hamjihatlikka asoslangan ijobiy muhitni vujudga keltirish.

3. O`quvchilarda erkin tanlov va o`z fikrini himoya qilish ko`nikmasini shakllantirish.

4. Pedagogik jarayonda o`qituvchi va o`quvchilar orasida o`zaro tenglikka asoslangan munosabatlarni qaror toptirish kabilar.

Pedagogik jihatdan o`z faoliyatini tashkil etish o`qituvchining o`z ichki imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishga layoqatligidir. Bu uning faoliyatiga insoniy mazmun beradi. Ichki imkoniyatlarni ro`yobga chiqarish muayyan tashabbuskorlikni talab qiladi. Ong tarkibining istiqboldagi faoliyatga ko`rsatadigan ta`sirini belgilash g`oyasi mustaqil bilim olish tajribasining shakllanishida pedagogikaga hamkorlik nazariyasiga oid tadqiqotlar orqali kirib kelgan. Bu o`z faoliyatini hamkorlik asosida amalga oshirish sohasidagi yondashuvga tayana-

¹ R.G'. Safarova, Sh. Ne`matov va boshqalar. O`quv predmetlari mazmunini aniqlovchi asosiy parametrlar. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 160 b.

di. Bu jarayonda o'qituvchi yangi sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashadi.

Insoniy nuqtayi nazardan shaxsning o'z faoliyatini tashkil etishi pedagogik konfliktlar yechimini topishga oid asosiy tushunchalarni anglash imkonini beradi. Pedagogik konfliktologiya fani uyg'unlashgan didaktik jarayonlarni tahlil qilish va o'z faoliyatini tashkil qilish metodlarini izchil tatbiq etishga yo'naltirilgandir. Bu o'ta murakkab, ochiq, nomuntazam rivojlanuvchi tizim bo'lib, uning o'ziga xos jihati o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishida namoyon bo'ladi. Mazkur tizimning ichki imkoniyati o'zida yangi sifatga ega bo'lgan hayot uchun zarur kelishuv jarayonini namoyon qilishidir. Pedagogika fanida bunday tizimni shaxs ongini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik jarayon sifatida baholash mumkin. Unda amalga oshadigan ichki o'zgarishlar shaxs ongi strukturasi faoliyatini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya sifatiga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi ongida yangicha, kuchliroq tarkibning vujudga kelishi uning yordamida bilimlar, axborotlar va tajribalarning o'zlashtirilishi bir qator shart-sharoitlarga amal qilishni taqozo qiladi:

1. Eski tizimlar inqiroz holatida bo'lib, tanqidiy holatni boshidan kechirishi, bunday vaziyatda eski tizim yangi vaziyatlarning talablariga bardosh bera olmaydi. Ta'lim tizimida bugungi kunda ham an'anaviy o'qitish jarayoni ustuvor o'rin egallab, shaxsga yo'naltirilgan hamkorlikka asoslangan ta'lim tizimiga o'z o'rnini bo'shatib bera olmayapti.

2. Mazkur tizimda mavjud bo'lgan yangi sifatlar vujudga kelishining asosiy manbai unda joylashtirilgan ichki holatlardir. O'z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etish mexanizmini harakatga keltirish tashqi manbalar yordamida amalga oshirilishi lozim.

3. Tadrijiy taraqqiyot jarayonida yangi struktura va uni yo'naltiruvchi bo'shliqlar tasodifiy tarzda mustaqil yashashi, muayyan barqarorlikka erishish imkonini berishi kerak.

4. Ta'lim tizimida yangi sifatlarning shakllanishi hamkorlik tamoyillari va shartlari yordamida aniqlanishi lozim. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi hamda o'quvchilar orasidagi aniq hamkorlik ta'lim-

tarbiyada birgalikda ijod qilishga asoslangan holda amalga oshishi mumkin. Bu jarayonda ularning mustaqil rivojlanishi va o'z faoliyatini tashkil etishi uchun tashqi oziqlantiruvchi vositalar vujudga keltiriladi. Bu amaliy tajribalar va xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladigan dastlabki metodlar va usullar yordamidagina emas, balki pedagogik hamkorlik yordamida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida vujudga kelgan vaziyatni hamkorlik atamasi yordamida ifodalash mumkin. U eski strukturani buzishga xizmat qiladigan tanqidiy nuqtayi nazarga ega. Shu asosda mazkur tizimning yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga ishonch vujudga keladi. Uning ishonchli tarzda taraqqiy etishi o'ta murakkablik shakldagi yangicha rivojlanish imkoniyatiga egaligidadir. U nomuntazamlilik, ko'p variantlilik xususiyatiga ega bo'lib, bu jarayonda tizimning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini bashorat qilish mumkin emas. Chunki bu tizim o'zaro barqarorlik va tenglik xarakteriga ega emas. Mazkur tizim ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun ochiq hisoblanadi¹.

Pedagogik ijodkorlik – o'qituvchiga xos xususiyat bo'lishi kerak. Uning o'ziga xos xususiyatlari yaxlit tarzda tarixiy, milliy, tabiiy, axloqiy omillarga bog'liq bo'lib, ijodkorlik o'zbek xalqining milliy xususiyati sifatida e'tirof etiladi. Ushbu nuqtayi nazarga tayangan holda biz ta'limni yangicha insoniy mohiyatga ega bo'lgan jarayon sifatida talqin qilamiz. Bunda birinchi va ikkinchi darajaga ega bo'lgan pedagogik hodisalar haqida fikr yuritish o'rinni.

Tanqidiy nuqtayi nazar ta'lim tizimining inqirozini ko'rsatuvchi holatdir. Bu, o'z navbatida, davlat va jamiyatning ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan talablarni bajara olmasligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Yangicha maqsad o'quvchilarni o'quv jarayonining subyekt sifatida faoliyat ko'rsatishga undaydi. Ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga yo'llash imkonini beradi. An'anaviy ta'limning o'quvchilar jinoyatchiligi, tajovuzkorligi, giyohvandligining oldini olish, ularga axloqiy

¹ O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 22-60.

qadriyatlarni taqdim etish maromini tezlashtirish, ularni ongli faoliyat va o'zaro hamkorlikka undash, shaxsiy, sodda, biroq rasmiy ijtimoiy, tarbiyaviy ishga zid bo'lgan diniy, totalitar tariqatlar va radikal siyosiy birlashmalarga jalb qiladigan holatlarni bartaraf etishga yetarlicha qodir emasligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Eski tuzilmalar ma'lum muddat hayot kechiradigan pedagogik faoliyatni tushunish, ta'lim jarayonida bilimlarni ko'chirish, ularning muayyan miqdorini to'plashdan iborat ekanligini ifodalaydi. Ta'lim-tarbiya o'quvchilarga ijtimoiy tajribani taqdim etish va xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish jarayoni sifatida alohida qimmatga ega. Rivojlanish o'quvchilarda zarur sifatlarni shakllantiruvchi jarayon sifatida o'qituvchining monologik ta'siri natijasi hisoblanadi.

Yangi sifatlarni o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'z o'zini va mohiyatini yangicha tushunish ko'nikmasidir. Ta'lim-tarbiyaviy qadriyatlarni tushunish, o'qitish va rivojlantirish, davlat manfaatlarini, o'quvchi shaxsining qiziqishlari, imkoniyatlari, shaxsiyati, fikrlari va tafakkuri, tajribasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Pedagogikaning asosiy g'oyalarini yangicha tushunish unga ko'proq shaxsiy mazmun-mohiyat berish, o'quvchilar bilan ular uchun tushunarli va qulay bo'lgan holatlarda ko'proq hamkorlik qilishga asoslanadi. O'quvchi ongi ko'plab vazifalarni bajarib pedagogik hamkorlik doirasida uning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ular orasida eng muhimini obyektiv borliqni aks ettirish vazifasidir. Bu vazifaning kiritilishi pedagogik faoliyatni tashkil etishni cheklash uni o'quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirishga asos bo'ladi.

Pedagogik hamkorlik uchun inson ongiga bo'lgan nuqtayi nazarining o'zgarishi subyektga bo'lgani kabi funksional, quvvatni saqlash jihatidan muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, o'quvchi ongi nafaqat vazifa, balki mazmunga ega bo'lgan tizim sifatida faoliyat, atrof-muhitga nisbatan shaxsiy, qadriyatli munosabatlar, o'quv va xulq-atvor ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, ongning rivojlanganligi haqida fikr yuritish imkoniyati vujudga keladi. Shaxsning sifatlari haqida nafaqat paydo bo'lgan vazifalar yig'indisi, balki uning namoyon bo'lish sifatlari haqida ham gapirish mumkin.

Shakllantiruvchi yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchi shaxsiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish imkoniyati, ya'ni siyosiy, davlat nuqtayi nazaridan, iqtisodiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati sifatida ham talqin qilishni taqozo qilmoqda. Bu alohida shaxsning manfaatlaridan yuqori bo'lgan qiziqishlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bunday ta'lim-tarbiyaning mavjud yo'nalishi, ongli faoliyat asoslari va xulq-atvor tajribasini shakllantirish o'zida ijobiy quvvatni mujassamlashtiradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchi shaxsining istiqboldagi taraqqiyoti uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi.

Ta'lim oldida turgan ijtimoiy buyurtma shundan iboratki, o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish bilan cheklanmaslik kerak. Vazifaning murakkabligi shundaki, ta'lim-tarbiya o'quvchilarda xulq-atvorning shaxsiy, ichki asoslarini shakllantirishi lozim. Bu amalda o'quvchining shaxsiy sifatlarini namoyon qilish imkonini berishi zarur.

O'quvchining shaxsiy sifatlari – bu har bir kishida o'ziga xos tarzda hosil bo'ladigan, uning umumiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini namoyon qiladigan, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlardir. Ular madaniyatlilik, ijodkorlik, erkinlik, mustaqillik, tanlov imkoniyatiga egalik, fidoiylik, baynalminallik, shaxsiy yaratuvchilik, bunyodkorlik, o'ziga xoslik, fuqarolik jamiyatiga mansublik, xaqgo'ylik, intizomlilik, hamjihatlik, hamdardlik kabilar.

O'quvchining shaxsiy sifatlari unga xos bo'lgan ongli faoliyatning mazmun-mohiyati va darajasini belgilaydi. Shaxsiy tuzilmalar – bu o'quvchi ongining qadriyatlarga asoslangan tarkiblashgan mazmunidir. U o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati va xulq-atvori orqali namoyon bo'ladi. Uning hamkorlikdagi muayyan faoliyatga ongli moslashishini ta'minlaydi. Mazkur faoliyat o'quvchini yo'naltiradi, boshqaradi, uning fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Uning qadriyatlar va madaniyatga bo'lgan munosabatini aniqlaydi. Shu bilan birga, o'quvchining bilimlari, tajribalari, hayotiy va kasbiy maqsadlarini ham ifodalaydi.

O'quvchi o'z ongining faoliyati yordamidagina o'zining shaxslik sifatlarini namoyon qiladi. U o'zining shaxsiy fikrini ifodalash, xatti-harakatlarini boshqarish, o'z faoliyatini hamkorlik asosida tashkil

etish, qabul qilingan talablarni astoydil bajarish va o'z faoliyatini shu talablarni amalga oshirishga sarflash o'quvchilar o'quv faoliyatlarining tarkibiy qismidir.

Shaxs ongli faoliyatining muhim ko'rinishlaridan biri – nazoratdir. O'quvchining ongi uning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini yo'naltiradi va nazorat qiladi. Bu jarayonda o'quvchi ongi haqiqatdan ham tashqi ta'sirlarni aks ettiradi va bu ta'sirlarga muayyan darajada javob qaytaradi. Ushbu hodisaning pedagogik mohiyati shundaki, u nafaqat ta'sir ko'rsatish, balki o'quvchi ongining mohiyatini ham ifodalaydi. Mazkur nazorat qiluvchi birlikning harakati qanchalik kuchli bo'lsa, ongning ma'naviy-axloqiy shakllanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Ongning vaziyatlarni mustaqil tarzda nazorat qilish layoqati shaxsiy tuzilmalarning mujassamlashgan ko'rsatkichlarini vujudga keltiradi. Jumladan:

– tanqidiylik shaxsning o'zidan tashqarida va o'z vujudida o'zgarishlar va mantiqiy holatlarga baho berishi, mavjud tartibga nisbatan norozilik va shubhaning vujudga kelishi, qayta fikrlash jarayonlariga yo'naltirish va ularga tanqidiy baho berishni anglatadi. Qat'iy tanqidiy nuqtayi nazar:

1) o'z qarashlari, fikrlari, qadriyatli yo'nalishlarini o'ta ahamiyati (va boshqalar)da deb hisoblamasdan, balki tajribada ifodalangan fikrlar va qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida baholash ko'nikmasi;

2) o'zining shaxsiy tashabbusiga ko'ra o'z g'oyalari sinab ko'rish va unga zid tarzda ilgari surilgan g'oyalardan himoya qila olish ko'nikmasi;

3) muayyan salbiy hodisalarda ijobiy holatlarni topa olish ko'nikmasi;

4) noto'g'ri va mayda tanqidlardan qochish ko'nikmasi;

5) baribir, bizda hammasi yaxshi, degan aqidadan o'zoqlashish ko'nikmasi;

6) muayyan vaziyatlarda o'zini obyektiv baholay olish, salbiy omillar ta'siridan saqlanish ko'nikmasi;

– tarixiy tajribalarni tahlil qila olish, o'z ko'lamidan tashqariga chiqish, fikrlash, o'rganish, tahlil qilish; konstruksiyalash, o'zligiga sodiq qolish, o'z-o'ziga haqqoniy munosabatda bo'lish;

– voqealarning yashirin sabablarini aniqlay olish, o‘xshatish, tenglashtirish, tahlil qilish, ularning asoslarini aniqlash, ijtimoiy, shaxsiy qadriyatlar, noaniq holatlarga nisbatan yondashuvlarni namoyon qilish; hodisalar vujudga kelishining tashqi sabablarini aniqlash;

– yo‘naltirish – olam manzarasini tasavvur qilishning shaxsiy yo‘nalishlarini aniqlash, individual dunyoqarashga ega bo‘lish;

– mustaqillik – tashqi ta’sirlarga berilmaslik layoqatiga ega bo‘lish, axloqiy qoidalar doirasida ularga munosib javob bera olish;

– fikriy-ijodiy – shaxsiy fikrlar tizimini aniqlash va vujudga keltirish, faoliyatli munosabatlar va muloqot ko‘nikmalarini tarkib toptirish, faoliyat jarayonida fikrlash va ijod qilish;

– o‘z faoliyatini dolzarblashtirish – ma‘naviy va ijodiy quvvatlarning yuqori darajada namoyon bo‘lishini ta‘minlash, o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq tarzda namoyon qilish va rivojlantirish, imkoniyat holatidan haqqoniylik holatiga o‘tish;

– o‘z faoliyatini amalga oshirish – atrofda gilarining o‘zligini tan olishlariga intilish, uning to‘liq namoyon bo‘lishiga mustaqil tarzda sharoit yaratish;

– hayotiy faoliyatining ma‘naviy darajasini ta‘minlash – o‘z hayotini yuksak darajadagi qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish layoqatiga ega bo‘lish kabilar.

Bunday shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish maqsadida o‘quvchilar orasida hamkorlik muhitini vujudga keltirish ularda ijobiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish uchun qulay sharoit vujudga keltirilsa, ta‘lim o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishadi. Yangicha pedagogik tafakkur bilan bog‘liq tarzda, o‘z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning asosiy tizimi, uning maqsadi, mazmuni, shaxsiy-qadriyatli mohiyat kasb etib, texnologik asosga ega bo‘ladi. Hamkorlikka yo‘naltirish asosida o‘z-o‘zini boshqarish tizimini tarkib toptiradi. Bu esa, pedagogik hamkorlikning umumiy hamda xususiy tamoyillari va yo‘naltiruvchi sharoitlariga bog‘liq.

Pedagogik hamkorlikning **dastlabki tamoyili insoniylik xarakteriga ega bo‘lgan shaxsiy bilishga asoslangan onglikdir**. Shun-

ga ko'ra, hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayoni uni tahlil etishda tadqiqotchilardan yangicha fikrlashni talab qiladi. O'qituvchilar va o'quvchilar ham ta'lim jarayonining faol subyektlariga aylanadilar. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayoni kuzatish maydoniga aylanishi lozim. Buning natijasida nazariy bilimlar va amaliy tajribalar o'qituvchidan o'quvchiga o'tkazilmasdan, mantiqiy tafakkurga tayangan holda o'zaro muloqot asosida bir-birlariga taqdim etiladi va o'zlashtiriladi.

Ikkinchi tamoyil to'ldiruvchilik tamoyilidir. Mazkur g'oyaning asosini qarama-qarshilik rivojlanishning negizi sifatida o'zaro bir-birini to'ldirish asosida o'quvchilarning bilimlarini boyitishni tashkil etadi. Bu jarayonda o'qituvchining ochiq monologi o'rni ishchan, fikriy muloqot egallaydi. O'zaro birgalikdagi harakat, sherikchilik, rivojlanuvchi shaxsning mustaqilligiga asoslanib yo'nalish olish kabiliklar tashkil etadi.

Uchinchi muhim tamoyil ta'lim-tarbiyaviy axborotlarning ochiqligi tamoyilidir. Ochiqlik o'zining ko'plab aniqlovchilari orasida yana bir muhim sifatga ega bo'lgan pedagogik hodisadir. Ochiq xarakterdagi bilimlar o'ziga xos bo'lib, o'z hududida biluvchi shaxsga nisbatan ochiqlik kasb etadi. O'quvchi ko'z o'ngida uning bilish faoliyati jadalligiga asoslangan holda bilimlar dunyosi namoyon bo'ladi. Bu bilimlar va o'quvchining bilish faoliyati uning asosiy qadriyati hisoblanadi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni tayyor holda taqdim etmaydi, balki ularga turlicha aqliy operatsiyalarni bajartirish orqali yangi bilimlarni taqdim etadi.

Xavfli holatlardan biri – pedagogik hamkorlik tamoyillariga yuzaki yondashish. Pedagogik hamkorlik doirasida qo'llaniladigan maqbul usullarning mohiyati shundaki, hamkorlik asosidagi bilish jarayoni uning ochiqligi bilan xarakterlanadi. Agar pedagogik hamkorlik jarayoni ochiq bo'lsa, murakkab tarzda tashkil etiladigan, bo'sh tarzda tarkiblashgan, nomuntazam tarzda rivojlanadigan, moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan o'z faoliyatini mustaqil tashkil etadigan jarayonlarni bilish metodlari ham ochiq bo'lishi lozim.

Ta'lim mazmunining shaxsiy mohiyat kasb etishi uchun o'qituvchi va o'quvchilar ongining shaxsiy tarkibiga e'tibor qaratish

lozim. Ijodkorlikka asoslangan o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining negizi va mexanizmi sifatida o'qish, o'rganish, tarbiyalash hamda o'z-o'zini tarbiyalash namoyon bo'ladi. Ularda o'quvchilarning o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishga qaratilgan o'quv materiallari va axloqiy qadriyatlar o'z ifodasini topgan. Uning yordamida o'quvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlashga asoslangan ta'lim texnologiyalari vujudga keladi.

O'quvchining yangi, ya'ni hamkorlik holatiga o'tishida vaziyatning o'zi bilan bog'liq tarzda uning ongi va kechinmalari ham faollashadi. Bu jarayonda pedagogik hamkorlik o'z o'rniga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, shaxsiy nuqtayi nazarning ikki ko'rinishini vujudga keltiradi:

1) ijtimoiy jihatdan moslashish yoki vaziyatni tashkil etish jarayonida faol ijodiy faoliyat ko'rsatish;

2) o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan ijodkorlik, ta'lim olish, o'rganish, tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash pedagogik faoliyatning maqsadi sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyati bosqichma-bosqich ustozona nasixatgo'ylikdan o'quvchini tushunuvchi, uning qayg'ulariga sherik, ta'lim jarayonining o'zaro teng imkoniyatlarga ega bo'lgan hamkoriga aylanmoqda. O'quvchiga pedagogik yordam ko'rsatish, birgalikda xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish ta'lim jarayonida asosiy o'rin egallamoqda. Bunday yondashuv natijasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilarining nuqtayi nazarlarini yoppasiga o'rganish va tahlil qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat shakllanmoqda. Buning natijasida o'qituvchi faoliyatiga bo'lgan talablar o'zgarimoqda. O'quv dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'quvchiga ko'chirish, uning bilimdonligini shakllantirish ko'nikmasi o'rni ijodiy masalalarni yechish, ko'p tarmoqli ongni shakllantirish, o'z faoliyatini amalga oshirish layoqatini tarkib toptirish ko'nikmasi egallashi lozim. Shunga ko'ra, o'qituvchi ko'p jihatdan fan o'qituvchisi va metodist sifatida namoyon bo'lmasligi, balki yangicha pedagogik konfliktlar yechimini topishga asoslangan ta'lim tizimining boshqaruvchisi sifatida faoliyat ko'rsatishi kerak. Chunki bugungi kun talabiga ko'ra

o'qituvchi o'quvchilar ongining rivojlanish yo'llarini tahlil qiluvchi subyektdir.

Tanlov, erkinlik, mustaqillik, axloqiylik, o'z faoliyatini amalga oshirish hodisasi nafaqat tashqi omillar ta'sirining natijasi, balki ichki omillar, ya'ni shaxs ongi, uning ichki mazmuni va shaxsiy tarkibi bilan bog'liq. Ichki omillar o'quvchilarning maqsadga yo'naltirilganlik darajasi, qiziqishlari, o'z faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan ixtiyori hamda o'z-o'zini tasdiqlashini ifodalaydi. Bunday yo'nalishlarni tayyor holda qo'lga kiritish mumkin emas. U o'quvchining bilishga asoslangan ongida hamkorlik jarayonida yangidan vujudga kelishi kerak.

O'quvchilarda bilishga asoslangan ongni rivojlantirishning samarali yo'llaridan biri – pedagogik hamkorlikdir. Pedagogik hamkorlikning insoniy jihati o'quvchining o'quvchi, o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yishda muayyan to'siqlar ham mavjud. Bu to'siqlarning aksariyati o'qituvchi va o'quvchilar ongida namoyon bo'lmoqda. Bu amalda mavjud bo'lgan pedagogik an'analar bilan bog'liq. Mazkur fikrni oydinlashtirishga intilar ekanmiz, bugungi kunda ta'lim jarayonida pedagogik ongni yangicha, ya'ni hamkorlik asosida rivojlantirishga bo'lgan harakatlar sust kechmoqda.

Ta'lim jarayonida har bir o'quvchida mustaqillikka va hamkorlikka intilish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bilimlarni o'zlashtirish faqatgina mavjud obyektiv hodisa sifatida talqin etilishi mumkin emas. Unda o'z-o'zini rivojlantirishning bir qator ichki quvvatlari ham ishtirok etadi. U subyektivlik belgilariga ham ega. Shaxsiy tajribaga xos bo'lgan, uning tabiiyligini baholamagan, ilmiyligi, ilmiy-tarixiy ongga zid bo'lmagan xususiyatidir. U o'zida muayyan shaxs ongiga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalaydi.

O'quvchining axloqi uzoq vaqt mobaynida mustaqillikka nazariy emas, balki amaliy ishonch bag'ishlaydi. Bugungi kunda o'qituvchilar tanlagan mavqe aniq imkoniyatlarni egallashga yo'naltirilgan. U pedagogik faoliyatning yangi qadriyatlarini va mazmun-mohiyatini aniqlash zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki bugun-

gi kunda pedagogik jarayon axborotli-yo'naltiruvchilik quvvatidan axloqiy qadriyatlarga jalb qiluvchi nafis texnologiyalarni qo'llashni talab qilishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatga o'tishni talab qilmoqda.

Mazkur ikki xil pedagogik faoliyatning o'zaro bir-biridan farqli jihatlari:

a) aniq, oddiy, biroq faqatgina tayyor bilimlarni o'quvchilarga uzatishga xizmat qiladi;

b) ko'proq darajada dolzarb va samarali, ta'lim-tarbiyaning mustaqil tarzda tashkil etilishini ta'minlashga qaratilgan¹.

Biroq u o'ta murakkab, muayyan va qat'iy texnologiya ko'rinishida namoyon bo'lmaydi. Ushbu texnologiyalarga hamkorlik asosida yondashuv bir qadar obyektiv ahamiyat kasb etadi. Mazkur voqelik muayyan darajada aniq jarayonlar bilan bog'liq. U o'ziga xos belgilar, xususiyatlar, tamoyillar, mazmun, mavjudlik shartlariga ega. Bularning barchasi uning o'quvchilar ongida namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Hamkorlikning pedagogik qimmatini shundan iboratki, u o'quvchiga xos bo'lgan o'lchovlarni bilishning asosiy metodi sifatida o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash imkonini beradi. Pedagogik hamkorlikning o'ziga xos metodlari va tamoyillari yordamida o'qituvchi ta'lim jarayonida o'zining insonparvarlikka asoslangan pedagogik faoliyatini amalga oshiradi. Shu bilan birga, u o'quvchilarni yaxshiroq tushunishga muvaffaq bo'ladi. Pedagogik hamkorlik yordamida konfliktlar yechimini topishga pedagogik faoliyatda yangicha instrumentariy vujudga keladi. Bu esa o'quvchilarni tushunishning fikriy-izlanuvchi va pedagogik hodisalarni qayta baholovchi metodidir. Pedagogik hamkorlik pedagogik madaniyatning yangi, yanada nazokatli o'lchovlarini, tolerantlikni namoyon qilish imkonini beradi.

Pedagogik sinergetika, ya'ni o'quvchilarning o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlari ta'lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish uchun muhim ahami-

¹ R.G. Safarova, Sh. Ne'matov va boshqalar. O'quv predmetlari mazmunini aniqlovchi asosiy parametrlar. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 160 b.

yat kasb etadi. Bu o'quvchilarning o'z faoliyatlarini hamkorlikda, mustaqil tarzda tashkil etishga oid nazariy yondashuvlarni o'z ichiga olib, mazkur nazariya faoliyatni tashkil etish hodisasi bilan bog'liq bo'lgan yangi dunyoqarashdir. Sinergetika (yunon. Sinergeia – hamkorlik, hamjihatlik) – ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini o'zaro hamkorlikda mustaqil tarzda tashkil etish nazariyasi, o'z-o'zini boshqarish, nomuntazam hodisalarni o'rganish, dunyoni yangicha izohlash, tabiiy va pedagogik-psixologik murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo'nalish, yangicha tafakkur uslubi. **O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish nazariyasini yaratish XXI asrning dastlabki o'n yilligida pedagogikaning o'ta dolzarb muammosi sifatida namoyon bo'la boshladi¹.**

O'quvchilarda o'zaro do'stona kelishuv orqali birgalikdagi faoliyatlari va munosabatlari uyg'unlashadi hamda ko'proq ijobiy xarakter kasb eta boshlaydi. Buning natijasida jamiyat a'zolari orasida do'stona munosabatlarga asoslangan ijodiy hamkorlik muhiti vujudga keladi. O'quvchilarda o'zaro do'stona kelishuv ta'lim jarayoni subyektlari orasidagi o'ziga xos jihatlarni hisobga olishni taqozo qiladi. Bunday maqsadga erishish uchun esa mazkur yo'nalishda keng ko'lamlı fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish ehtiyoji mavjud. **Hamkorlikda ta'lim olish va o'quvchilarning o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik konfliktologiya fani ning muhim metodi hisoblanadi.** Bu jarayonda o'quvchilar o'quv vazifalari bilan bog'liq tarzda bir qator muammolar ustida izlanadilar, muayyan loyihalarni ishlab chiqadilar. Do'stona munosabatlarga asoslangan holda hamkorlikda faoliyat ko'rsatish sinf-dars tizimi tarkibida vujudga kelib, rivojlanadigan pedagogik hodisadir. O'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyat ko'rsatishlari jarayonida bilim va axborotlar ularga o'qituvchi tomonidan taqdim etilmaydi. Balki

¹ *F.X. Aminova.* O'quvchilarni muloqot matni yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari. Ped. fan. nomz. avtoref. – Toshkent, 2007. – 23 b.

zamonaviy pedagogik nazariyalar va konsepsiyalarni qo'llagan holda o'quvchilar orasida faol, ishchan dialog natijasida vujudga keladi. O'quvchilarning do'stona munosabatlarga asoslangan holda faoliyat ko'rsatishlari natijasida ularning o'quv-biluv mayllari rivojlanadi, o'quv maqsadiga erishish uchun qulay ijobiy muhit ta'minlanadi. O'quv jarayonida o'zaro hamkorlikka asoslangan do'stona muhitni vujudga keltirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Maktabdagi o'quv-biluv jarayoni o'quvchining huquqlari va erkinliklarini himoya qilish asosida tashkil qilinishi lozim. O'quvchilarda o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalari vujudga kelganda ularning imkoniyatlari va ehtiyojlari namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'zaro tenglik muhiti hukmronlik qiladi. O'quvchilarga nisbatan do'stona munosabat muhiti o'zaro adolatli munosabatlar zahirida yaratiladi. Adolat bor joyda haqiqat, haqiqat bor joyda o'zaro hurmat muhiti hukm suradi. O'quvchilar orasida o'zaro hurmat shakllangan ta'lim jarayonida do'stona munosabat, o'zaro g'amxo'rlik, mehr-muruvvat qaror topadi. Bu jarayonda barcha o'quvchilar bir-birlariga mehr ko'rsatadilar, ularning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari kengayadi.

Shu o'rinda o'quvchilar orasidagi do'stona munosabatlarga asoslangan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak deb hisoblaymiz. Ya'ni:

- o'quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish;
- o'quvchilar jamoasi orasida ijodkorlik va bag'rikenglikka asoslangan o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirish kabilar. O'quvchilarda do'stona munosabatlarga asoslangan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish uchun mazkur maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etish va didaktik jihatdan ta'minlash lozim. Buning uchun o'quv-tarbiya jarayonining ochiq xarakter kasb etishi va o'zaro axborotlar almashinuvi uchun qulay bo'lishini ta'minlash kerak. Ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun o'quvchilarda ongli faoliyat ko'rsatish ko'nikmasini tarkib toptirish, ularni mustaqil, ijodiy

fikrlashga o'rgatish alohida ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilar murakkab, ruhiy inqirozlar vujudga keladigan, yuqori quvvatga ega bo'lgan, shijoatli, yangilikka chanqoq olamni o'zlashtirishga intiluvchan, mustaqillik va moslashuvchanlikka moyil, xulq-atvorida ijtimoiy me'yorlarning shakllanishi jadal sur'at bilan kechadigan bo'ladi. Shunga ko'ra, quyidagilarning muhimligi ko'zatilmoqda:

– o'quvchilarga taqdim etiladigan axborotlar hajmining kengligi va ularni o'zlashtirish o'zaro hamkorlik va fikr almashinish muhitini taqozo qilishiga erishish;

– o'quvchilarda do'stona munosabatlarga asoslangan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishini ta'minlash;

– o'quvchilar orasidagi do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik negizida o'zaro axborot almashinish va jadal o'zlashtirish imkoniyatini kengaytirish kabilar.

Jamiyat hayotida inson uchun hamkorlikda faoliyat ko'rsatish quvvati bilan birga, hamjihatlikda rivojlanish imkoniyati ham mavjud. Bugungi kunda hamkorlik shaxs tafakkurining o'zgarishi natijasida vujudga kelmoqda. Hamkorlikni tashkil etuvchi tushunchalarning tarkibi insonning zamonaviy tafakkurini ifodalaydi.

Pedagogik hamkorlikni ifodalovchi sinergetika atamasi o'zbek tiliga yaqindagina kirib keldi. U o'zaro kelishuvga asoslangan birgalikdagi hamkorlik, hamjihatlik, o'zaro do'stlik ma'nolarini anglatadi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, sinergetika shaxslararo hamkorlik va hamjihatlikning tarkibiy asoslari, rivojlanish dinamikasi va eski strukturalarning inqirozga uchrash sabablarini qiyosiy jihatdan o'rganadi. Mutaxassislar hamkorlikning turli jihatlariga ko'ra, uning tasnifini yaratishga muvaffaq bo'lganlar. Jumladan, ular tomonidan hamkorlikning kognitiv modeli ham taqdim qilingan. Bu model shaxsning amaliy faoliyati bilan bog'liq ijodiy hamkorlikni ifodalaydi. Hamkorlikning bilishga asoslangan modeli ham mavjud. Inson ochiq doim to'plangan tajribalardan o'z faoliyatida foydalanishga ehtiyoj sezadi. Bugungi kunda hamkorlik nazariyasi boshqa metodologik paradigmalar orasida muhim o'rin egallamoqda. Bu, ayniqsa,

pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va falsafaga oid yondashuvlarda yaqqol namoyon bo'lishda. Hamkorlikka asoslangan bilish jarayoni ta'lim tizimida tayaniladigan qonuniyatlarni taqozo qiladi. Birinchi navbatda, ularning rivojlanishidagi ziddiyatlar va tadrijiylik nazarda tutiladi. Bunday sharoitda ko'plab muammoli pedagogik holatlarni hisobga olish imkoniyati mavjud.

Pedagogik konfliktologiya fani shakl-shubhasiz pedagogik tadqiqotlar metodologiyasini boyitadi. Bu o'rinda intuitsiyaga asoslangan bashoratlar konfliktlarni bartaraf etishning konstruktiv modeli sifatida namoyon bo'ladi. Hamkorlik kategoriyalarining uyg'unligi pedagogik konfliktlarni yuzaga kelishiga yangicha nazar bilan qarashni taqozo qiladi. Buning uchun, pedagogikada shaxslararo bog'liqlikning juda kam ishlangan jihatlari murojaat qilinadi. Pedagogik konfliktologiya fanining bugungi kunga qadar respublikamizda tadqiq etilmaganligining asosiy sababi ta'limning to'la ma'noda o'quvchilar shaxsiga yo'naltirilmaganligidadir. Pedagogik konfliktologiya fanining o'ziga xos jihatlarni an'anaviy ta'lim sharoitida tatbiq qilish o'ta murakkab masaladir. Biz amaliyotda bunday urinishlarning mavjudligini ham kuzatdik. Hamjihatlik yordamida o'quvchilar o'zaro do'stona kelishuv asosida bir-biriga yangicha nazar bilan qaray boshlaydilar. Pedagogik hamkorlik nazariyasini keng ko'lamda yoritish uchun mazkur pedagogik konfliktlarga murojaat qilish alohida ahamiyatga ega. Aksariyat pedagoglar guruh bilan ishlaydilar. Buning asosiy sababi, ular go'yoki ko'plab noma'lum narsalarni yechish jarayonini muvofiqlashtiradilar.

Pedagogik konfliktologiya fani bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiya jarayonida turli nizoli vaziyatlar, to'qnashuvlarga, shuningdek jamiyat hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarga tayyor turish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lgan ta'lim maqsadi ustuvorlik qilmoqda. Ta'lim jarayonini jaddallashtirish va o'quvchilarda shaxsiy sifatlarni shakllantirish ko'p jihatdan umuminsoniy ehtiyojlar bilan bog'liq tarzda vujudga kelmoqda. Ta'lim tizimini takomillashtirish, pedagogik konfliktologiya fan tarmog'ini kengaytirish, avtoritar pedagogikadan voz kechish, o'quvchi shaxsiyatini birinchi o'ringa qo'yishni taqozo qilmoqda.

O'quvchining talablarini qondirish uchun uning o'ziga xos nekbin (har narsani yaxshi tomondan ko'ruvchi, optimist)ligi, layoqatlari, qobiliyatini rivojlantirish lozim.

O'quvchilarda o'zaro kelishuvga asoslangan birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizimda jamoaning ijodiy quvvatlari va faoliyat samaradorligi namoyon bo'ladi. Yangi maqsadlarni ro'yobga chiqarish imkoniyati ta'minlanadi. Bu maqsad – o'quvchilar jamoasini ularning kuchlari yordamida qo'shimcha ijodiy natijani qo'lga kiritishga o'rgatishdan iborat. O'quvchilarda o'zaro kelishuvga asoslangan birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim yangi o'quv vositalari yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli mahsulotlarni ishlab chiqadi va o'quv jarayoniga tatbiq etadi. Shuning uchun ham, pedagogik konfliktlar yechimini topish fan sohasi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv materiallariga ishlov berishda yangi ta'lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rinda aytish joizki, ta'lim jarayonida bir qator ziddiyatlarning mavjudligi tufayli ham o'quv jarayonini o'zaro kelishuvga asoslangan birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim asosida tashkil etish vazifasi yanada dolzarblashmoqda.

6.2. Konfliktlarni bartaraf etishda tolerantlik

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish yo'lini tanladi. Dunyoviy davlatchilik asoslarining bosh tamoyillaridan biri esa tolerantlik hisoblanadi. Shu bois XXI asr takomilini tolerantlik tafakkurisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tolerantlik tafakkuri millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida ularning o'zaro hamkorligini va bir-birini qabul qilishini, tenglik va o'zaro hurmat asosida yashash jarayonlarini anglatadi.

Ulug' qomusiy olim Abu Ali Husayin ibn Abdulloh ibn Sino: «Vahimaning o'zi yarim kasallikdir, xotirjamlik yarim sog'liqdir, sabr esa shifoning boshlanishidir», – deb ta'kidlab o'tgan.

Hayotimizda ko'p uchraydigan misollardan biri xalqimizdagi: «Ko'r tutganini qo'ymaydi, kar – eshitganini», degan iboradir.

Donolarimizda shunday hikmat bor: «**Biliming osmonga yetgan bo'lsa ham, boshqalar ilmiga quloq sol har dam!**» Es-hushi joyida bo'lgan, o'z holati va darajasiga ko'ra ozmi-ko'pmi tegishli bilimlari bor odam aslo bunday nojo'ya qiliqlarga yo'l qo'ymaydi!

Inson har bir ishni bajarishdan oldin uni qalbida niyat qiladi. Undan keyin esa uni bajarishga harakat qiladi. Yuragi toza odamlar hamisha yaxshilikni niyat qilib, bag'rikenglik bilan shuni amalga oshirish payida bo'ladilar. Natijada ularning qalbida yomonlikka joy qolmaydi. Alloh taolo Qur'oni Karimda marhamat qiladi: «U sizlarni yerdan paydo qildi va sizni yerga obodligi uchun qo'ydi» (Hud surasi, 61-oyat).

Tolerantlik tafakkuri qadimdan oq turli xalq va millatlarni bir-biriga moslashtirish va o'zaro hamjihatlikda yashash talabi asosida rivojlanib kelgan. Ammo ayni XXI asrda dunyo iqtisodiy, ma'naviy, madaniy munosabatlaridagi umumlashish va uning asosidagi globalizatsiya jarayonlari, davlatlardagi insonlararo va mafkuralararo ziddiyatlarning ortishi tolerantlikni insoniyat istiqboli taqdiri va umum-bashariy bunyodkorlik g'oyalari belgilovchi zamonaviy tafakkurga aylantirdi.

Demak, **tolerantlik** (lotincha – «tolerantlo» chidamlilik, bag'rikenglik, sabr-toqatlilik, yon berish) – dinlar, ijtimoiy tartiblar, milliy va diniy urf-odatlar, madaniyatlar, o'zga diniy, siyosiy qarashlar, e'tiqodlar hamda turmush tarziga nisbatan sabr-bardoshlilik, chidamlilik, odoblilik, andishali bo'lish ma'nolarini anglatadi. Tolerantlik deganda, tor ma'noda, dinlar rang-barangligini inkor etmaslik, dinlararo bag'rikenglik tushuniladi. Ayni paytda, tolerantlik keng ma'noda faqatgina dinlararo munosabatlarga tegishli emas, balki butun dunyo xalqlari, mavjud barcha millatlar va elatlarning hozirgi zamondagi o'zaro hurmati, bag'rikenglik, bir-birini inkor etmaslik, ularning mavjud turli-tuman turmush tarzlariga tegishli tushuncha ekanligini anglash darkor bo'ladi.

Ma'lumki, hozirgi davr turli mafkuraviy ziddiyatlarning kuchayishi va keskinlanishi bilan xarakterlanadi. Ular sirasida diniy aqida-parastlik, diniy riyokorlik «ommaviy madaniyat», «axborot xurujlari», «soxta demokratiyalar», «rangli inqiloblar», «preventiv revalyut-

siyalar» kabi mafkuraviy tazyiq va zamonaviy mafkuraviy tahdidlar sog'lom tafakkur, davlat va millat ozodligini muhofazalashga qaratilgan, milliy manfaatlar asosiga qurilgan g'oyalarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Tolerantlik ana shunday sog'lom aqida va g'oya sifatida insonlararo munosabatlarni tartibga soladi, ularni o'zaro sog'lom muloqot qilishga o'rgatadi. Shu nuqtayi nazardan, tolerantlik tushunchasi ekstremizm kabi tushunchalarga qarshi bo'lib, falsafiy-ijtimoiy ong tarkibidan o'rin oladi va inson tafakkurida namoyon bo'ladi.

Tafakkur (arabcha – fikrlash, aqliy bilish) predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlari aks etadigan bilishning ratsional bosqichi sanaladi. Tafakkur jarayonida narsa va hodisalarning o'zaro aloqadorligi, rivojlanish qonuniyatlari, istiqboli haqida bilimlar, g'oyalar, farazlar, hosil bo'ladi. Tafakkur jarayonining natijasi hamisha biron-bir fikrdan iborat bo'ladi. Tafakkurning asosiy shakllari, tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa kabilarda namoyon bo'lib, masalan, «tolerantlik» tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra jamiyatdagi ijtimoiy voqelik bilan uzviy aloqadorlikni namoyon etadi. Tolerantlik zamonaviy bag'rikenglik taffakurining negizini tashkil qiladi.

O'quvchi-yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish davlatni mustahkamlash, uning xavfsizligini muhofaza qilish, yoshlarni turli mafkuraviy yot g'oyalardan asrash, ularni bag'rikenglik asoslarida hayotga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Tolerantlik dunyoviylik davlatning eng zarur xususiyatlaridan hisoblanadi. Dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi tolerantlik tafakkurining jamiyat a'zolari, xususan o'quvchi-yoshlar tafakkurida shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy voqelik bo'lib, tolerantlik tafakkurini butun aholi, ayniqsa, o'quvchi-yoshlar ongida shakllantirishni pedagogika fani oldida turgan eng dolzarb masalaga aylangan.

Tolerantlik boshqa millat, irq, xalq, ularning madaniyati, tili, urf-odati, qarashlari, udumlariga bo'lgan «qanoatli» va hurmatli munosabatni anglatadi. Tolerantlik tafakkuri qadimdanoq turli xalq va millatlarni bir-biriga moslashtirish va o'zaro hamjihatlikda yas-

hash zarurati asosida rivojlanib kelgan. XXI asrda dunyo iqtisodiy, ma'naviy, madaniy munosabatlarida bir tomondan, umunlashish va uning asosida yuzaga kelayotgan globalizatsiya jarayonlari, ikkinchi tarafdin, mazkur umunlashish va o'zaro yaqinlashish asosida davlatlardagi insonlararo va mafkuralararo ziddiyatlarning ortishi dunyo davlatlari va xalqlari o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratilishini ko'ndalang qo'ymoqda. Shu bois, tolerantlik bugungi kunda bashariyatning eng zarur zamonaviy qarashlari va tafakkurlaridan biriga aylanmoqda¹.

Tarixiy jihatdan tolerantlik insonlarga hamdard bo'la olish xususiyatlari asosida Sharq sivilizatsiyasi tarkibida shakllangan. Qadimgi xitoy, hind, misr, zardushtiylik madaniyatlarida shakllantirilgan bag'rikenglik g'oyalari keyinchalik islom falsafasi orqali qadimgi davrlardan ijodiy o'zlashtirilgan. Islom madaniyatining G'arb ilg'or tafakkuriga ta'siri orqali bag'rikenglik Renessans davrining insonparvarlik g'oyalari asosida yangitdan shakllantirilgan. Tolerantlik tushunchasi barcha Yevropa tillarida mavjud bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi ingliz, ispan, fransuz, nemis tillarida boshqalarga nisbatan sabr-bardoshli bo'lish, o'z fikri va mulohazalari, qarashlarining birovlamikidan o'zgacharoq bo'lishi mumkinligini tushunish, birov-

¹ *Асмолов А. Формирование установок толерантного сознания как теоретическая и практическая задача. – М.: 2006; Асмолов А.Г. На пути к толерантному сознанию. – М., 2000; Валитова Р. Р. Толерантность как этическая проблема: Автореф. дис. канд. филос. наук. – М., 1997. – С. 20; Золотухин В.М. Генезис и актуализация понятия «терпимость» в европейской философской традиции: Автореф. дис. канд. филос. наук. Екатеринбург, 1993. – С. 22; Круглова Н.В. Толерантность: генезис и типология / СПбГУ. – СПб., 1998. – С. 19; Луковицкая Е. Г. Социально-психологическое значение толерантности к неопределенности: Автореф. канд. псих. наук. – СПбГУ, 1998. – С. 19; Магомедова Е.В. Толерантность как принцип культуры: Автореф. канд. филос. наук. Ростов н/Д., 1999. – С. 22; Болотина Т. Толерантность // Граждановедение / Прил. к Учит. газ., 2001, № 3. – С. 5–8; Глазачев С.Н., Анисимов О.С. Методологические аспекты создания педагогики толерантности // ЭКО: Экология. Культура. Образование. Ставрополь, 2002, № 6. – С. 13–19.*

larning harakatlari va ongi o'zirikidan o'zgacha ekanligini tan olish degan mazmunlarni bildiradi.

Tolerantlik tarixiy ildizlarga ega hodisa hisoblanadi. Tarixan o'z shakllanish jarayonlarida tolerantlik ma'naviy va diniy bag'rikenglik g'oyalariga tayangan. Tolerantlik va dinlar tarixi o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, dunyo dinlari o'rtasidagi tenglik va o'zaro hurmat tolerantliksiz rivojlana olmas edi. Tolerantlik diniy e'tiqodlarga bo'lgan o'z munosabatini an'anaviy diniy mazhablarning ulug'lanishi asosiga quradi. Shu nuqtayi nazardan, har bir din tarkibida o'ziga xos tolerantlik tamoyillariga asoslangan konfessional qadriyatlar tizimi shakllanib kelgan.

Xitoy madaniyatida tolerantlik birovlariga nisbatan mehrli munosabatni qabul qila olish va mehribon bo'la olishlikni bildirgan. Arab va musulmon madaniyatida tolerantlik «*tasamul*» tushunchasiga mos kelib, kechirimli bo'lish, yumshoqlik, mehribonlik, xayrixohlik, sabr va qanoat, birovlariga nisbatan hurmat munosabatini anglatadi. Dunyo dinlari ichida buddizm tolerantlikni *birovlarni hurmat qilish, mehrli bo'lish, o'z so'zi ustida turish, birovlariga xuddi o'zidek izzatli bo'lish* ma'nolarini anglatadi. Xitoy faylasufi Konfutsiy tolerantlikni «*O'zingga nisbatan xohlamaigan narsalarni birovlariga ham ravo ko'rma*» aqidasi asosiga quradi. Ana shunday g'oyani xristianlik, induizm, jaynizm va boshqa diniy konfessiyalarda ko'rish mumkin. Buddaviylik tolerantlikni «*Inson o'zining qarindoshlari, yoru birodarlariga bo'lgan munosabatini besh vosita orqali izhor etishi mumkin: ularga e'zozli, e'tiborli, mehrli, xayrixoh, o'ziga qaragandek qarash va o'z so'zi ustidan chiqish*», induizm – «*O'zingni og'ritgan narsalarni birovga ravo ko'rma*», jaynizm – «*Baxtsiz onlarda, xursandlik va g'amginlikda biz har bir jonzotga o'zimizga bo'lgani kabi munosabatda bo'lmog'imiz darkor*», zoroastrizm – «*O'ziga yomon bo'lgan narsalarni birovlariga ravo ko'rmagan odamgina yaxshi odam bo'ladi*», xristianlik – «*O'zingizga qanday munosabatni istasangiz, o'shanday munosabatni o'zgalarga ham istang*» aqidalari va tamoyillari asosiga quradi. «*Birortangiz o'z birodaringizni o'zingizdek yaxshi ko'rmasdan turib, e'tiqodli bo'lolmaysiz*» degan aqida islom dinidagi tolerantlik tushunchasining bosh mazmuni bo'lib xizmat qiladi.

Tolerantlikni zamonaviy tushunish va anglash jarayonlari XX asming so'nggi choragidan boshlangan. 1995-yili 16-noyabrda Parij shahrida YUNESKO tashkilotining yigirma sakkizinchi Sessiyasida 185 ta dunyo davlatlari ishtirokida «Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiya»¹si imzolandi. Ushbu deklaratsiya YUNESKO tashkilotining Bosh Assambleyasi konferensiyasining 5.61 Rezolyutsiyasi bilan tasdiqlandi. Mazkur hujjat tolerantlikni dunyo rang-barangligi asosidagi erkinlik huquqi sifatida baholaydi. Shu davrdan boshlab 16-noyabmi dunyo miqyosida tolerantlik kuni sifatida nishonlash an'anaga aylandi.

«Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi»da so'nggi davrlarda dunyo miqyosida ko'payib borayotgan «zo'rvonlik, terrorizm, ksenofobiya, agressiv millatchilik, rasizm, antisemitizm, etnik, diniy va til nuqtayi nazardan kichik guruhlar, shuningdek qochoqlar, gastarbayerlar, immigrantlar, ijtimoiy muhofazaga muhtojlarga nisbatan e'tiborsizlik va hurmatsizlik» kabi holatlar mavjudligini tan oladi va yoshlar tarbiyasida tolerantlik masalalariga bo'lgan maxsus e'tiborni kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.

«Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi»ning preambulasida ta'kidlanishicha, «Biz, Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqlari, bo'lajak avlodlarni urush talafotlaridan muhofaza qilish maqsadlarida yana bir bor inson huquqlari, inson hayotining qadr-qimmatiga bo'lgan e'tiborni tiklash uchun tolerantlik g'oyalari tayanib, insonlarning birgalikda, yaxshi qo'shnichilik an'analari asosida yashashlarini istaymiz», – deb aytiladi.

Tolerantlik tushunchasi «multikulturalizm», «polietniklik», «monomadaniyat» va «polimadaniat», «madaniyatlararo dialog» kabi ijtimoiy-siyosiy voqeliklarning to'g'ri baholanishini, shu bilan birga, *genotsid, rasizm, ksenofobiya, ekstremizm, etnotsentrizm, fundamentalizm, radikalizm, millatchilik, milliy shovinizm, milliy xudbinlik,*

¹ Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO vakolatxonasi nashri. Nashr uchun mas'ullar: Saidov A., Jo'rayev K. – T., 1999: Декларация принципов толерантности. // <http://toleration.bsu.edu.ru/Publicatsii/Declaration.htm>; Декларация принципов толерантности // М.: Учительская газета, 2000, 12 сентябрь, № 35. – С. 20–21.

gurihli xudbinlik, diniy aqidaparastlik va diniy riyokorlik kabi tolerantlikka qarshi bo'lgan tushunchalarning salbiy qirralarini bilishni, ularning barcha ko'rinishlariga qarshi ogoh bo'lishlikni talab etadi.

Demak, bugungi kunda tolerantlik tushunchasi insonlarning o'zaro munosabatlarini ularning millati, irqi, nasl-nasabi, madaniyati va urf-odatlarini, iqtisodiy ahvoli, dini va e'tiqodiga qaramasdan muvozanatda saqlash me'yorlarini o'zida mujassam etadi. Tolerantlik – insonning turli iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy, diniy munosabatlariga kirishishining qonun-qoidalarini belgilab beradi.

O'zbek millatining etik-estetik, axloq va odob, ma'naviy va ma'rifiy, falsafiy qadriyatlarini tizimida tolerantlik g'oyalari eng qadimgi davrlardan boshlab rivojlantirilgan va o'ziga xos tarzda shakllantirilgan¹. O'zbeklar milliy an'analarida tolerantlik tushunchasi

¹ Qodirova Z. Формирование толерантности у молодёжи основа построения гражданского общества в Узбекистане // «Milliy istiqloq g'oyasi: millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni o'quvchi va talaba yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi roli» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 164–166- betlar. – Samarqand, 2005, 26-27 may; Qodirova Z. Взаимосвязь общечеловеческих и национальных ценностей// «Milliy g'oya va ma'naviy meros» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2005, 15-16 sentabr, 20–22-betlar; Qodirova Z. Толерантность и её место в современной жизни// Илмий ishlar to'plami: «Arxitektura – qurilish fani va davr». – T.: 2006, 146–148-betlar; Qodirova Z. Толерантность – высшая ценность// Народное слово, 24 ноябрь 2006 года; Qodirova Z. Bag'rikenglik – milliy qadriyatimiz asosi// «Yoshlarda ijtimoiy tolerantlikni yuksaltirish masalalari» (hammualliflikda) mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. 1-kitob. – Toshkent, 2006. – 51–54-betlar; Sharipov M. Milliy, ma'naviy qadriyatlar tiklanishi va tarixiy jarayon. – T.: Musiqa, 2005; Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O'zbekiston, 1998; Тиксанов А., Смирнов М. Межнациональные отношения современности. – T.: Фахур Фулом, 1991; Toshonov T. Milliy va diniy urf-odatlar. – T.: O'zbekiston, 1986; Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – T.: Sharq, 2001; Boboyev H., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. Akramova G. R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped. f. n. diss. avt. – T., 2007.

ancha keng va asosli tarzda tushuntirilgan va avlodlar tarbiyasining muhim omillaridan biri sanalgan. Tolerantlik tushunchasida inson axloqiga oid *sabr-bardoshli bo'lish, hurmat, e'zoz, izzat ko'rsata olish, rahmdillik, mehr-muruvvat* kabi sifatlar an'anaviy xususiyatga ega bo'lgan. Tolerantlikning tarixiy ildizlari eng qadimgi davrda «Avesto», «O'rxun-Enasoy bitiklari», «So'g'd yozuvlari»¹ kabi adabiy yodgorliklarda shakllantirilgan va inson odobi, uning ma'naviy-ruhiy aqidalarining zarur talabiga aylangan. «Kattani hurmat qilish, kichikka izzat bilan qarash» o'zbeklarning milliy axloqiy talablari-dan hisoblangan.

O'zbeklar milliy qadriyatlari tizimida tolerantlik tushunchasi tarkibiga an'anaviy tarzda quyidagi insoniy xislatlar va tafakkur qirralarini kiritganlar: *insof, adolat, hurmat, e'zoz, izzat, sabr, qanoat, mehr, keng fe'llilik, bilimdonlik, madaniyatlar tarixini bilish, boshqa madaniyat va din vakillariga e'zozli va hurmatli munosabatda bo'lish, taqvodorlikning har qanday ko'rinishlariga chuqur hurmat, bag'rikenglikni kundalik turmushga nisbatan qo'llash, bag'rikenglikni oilaviy tushuncha darajasida amal qilishini ta'minlash, do'stlik, birodarlik, bir-biriga azizlik qadriyatlarini oilaviy munosabatlarga o'tkazish, o'zaro tenglik, o'zaro tenglikka hurmat, tenglik tushunchasini juda keng anglash, o'zaro hamjihatlik, tinchlik, tinchlikka chuqur hurmat va e'zoz, uni eng ulug' qadriyatlardan hisoblash, janjal va nizolardan qochish, yaxshi niyatli va amalli bo'lmoq, sodiqlik, insonparvarlik va insonni ardoqlash, vatanparvarlik, ilmga chanqoqlik, hurfikrlilik va erk, tafakkurga is-*

¹ Qayumov A., Isxoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000. – B. 75–80; Hasanov S. Xorazm ma'rifati – olam ko'zgusi. – T.: O'qituvchi, 1996. – B. 46; Umarzoda Muhsin. Avesto sirlari. // Jahon adabiyoti, 1997, 4-son. – B. 199-200; Yo'ldoshev J., Hasanov S. «Avesto»da axloqiy-ta'limiy qarashlar. – T.: O'qituvchi, 1992. – B. 24; Boboyev H., Hasanov S. Avesto – ma'naviyatimiz sarchashmasi. – T.: Adolat, 2001. – B. 107; Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 28; Qayumov A. Qadimiyat obidalari. – T.: 1972; Isxoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – T.: 1994; Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi. – T.: 1993.

honch, mehr-muruvvat, yaxshilik, ona va ayolga ehtirom, ota-onaga chuqur hurmat, ota-onaga xizmat, diniy bag'rikenglik, haqgo'ylik, halimlik, kamtarinlik, tavozuli bo'lmoq, og'ir-bosiqlik, salmoqlilik, vazminlik, yetti marta o'ylab biror qarorga kelish, barqarorlik, pesh-qadamlik, ilg'orlik, qilgan amallar va niyatlarda pok bo'lmoqlik, e'tiqodda qat'iylilik va boshqalar.

Islom dini – tinchliksevar din deb tan olinadi. Tinchlik, totuvlik, barqarorlik, insonlararo hamjihatlik ham diniy, ham dunyoviy tafakkur doirasida amal qiladigan ma'naviy qadriyatlardan hisoblanadi. Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, aholini bunyodkorlik ishlariga safarbar etish, yer yuzini «*obod qilish*», Tangrining yerdagi barcha mavjudotlariga nisbatan mehrlilik, shafqatli bo'lish insonning asl vazifalari ekanligi islom dinida ham, dunyoviy tafakkur doirasida ham targ'ib etiladi. Shunday qilib, ma'naviy-diniy bag'rikenglik aqidalari va tolerantlik tamoyillari Sharq mutafakkirlarining islom madaniyati tarkibidagi falsafa, fiqh, san'at, tarix, adabiyot kabi ilmlar doirasida rivojlantirilgan, targ'ib va tashviq etilgan, inson tarbiyasi va komilligining muhim jihatlaridan deb sanalgan. Insonlararo, millatlararo, davlatlararo va boshqa turdagi barcha ziddiyatlarni ham tolerantlik tafakkurisiz biron to'xtam va yechimga olib kelib bo'lmaydigan ayon. Demak, tolerantlik tafakkurining konfliktlar yechimidagi o'rni o'zgarib qolgan. Tolerantlik tafakkuriga ega bo'lgan odam o'z hayoti va atrofidagi o'ziga yaqin insonlar hayotini turli ziddiyatlardan muntazam muhofaza qilish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Inson tug'ilib, o'zining ilk nafasini olishi bilan oq, uning shaxs sifatidagi shakllanishining uzoq va mushaqqatli jarayoni boshlanadi. Oilamizda farzand tug'ilsa, butun oila, quda-andalar, qo'ni-qo'shnilar, yaqin qarindoshlar – hammamiz eng quvonchli damlarni boshimizdan o'tkazamiz, o'zimizni eng baxtiyor inson sifatida anglaymiz. Farzand tug'ilishidan ortiq baxt yo'q, deb hisoblaymiz. Farzandimizning sog'lig'i va unib-o'sishi uchun parvona bo'lamiz. Chunki u – murg'ak, chunki u – bizning e'tiborimiz va mehrimizga juda muhtoj. Agar biz bolani boqishda kichik bir xatoga yo'l qo'ysak, go'dakning unib-o'sishida qiyinchiliklar kelib chiqishi, hammamiz kuyinishimiz aniq va muqarrardir. Bola parvarishida ko'proq ana shu

tomonga, ya'ni uning salomatligini ta'minlash uchun barcha choralarini ko'rishga o'zimizni qurbon qilamiz. Bu vazifani hech qachon yodimizdan chiqarmaymiz, mazkur masalada har doim e'tiborli va sezgir bo'lishga harakat qilamiz. Hech qachon xotiramizdan chiqmay, bizning mas'uliyatimizni doimo ta'minlab turuvchi masala – farzandimiz sog'lig'i va salomatligidir.

Shunday ekan, bir tomondan, o'z tafakkurini tolerantlik tamoyillari asosida shakllantirish, ikkinchi tomondan, diniy bag'rikenglik talablariga rioya qilish, shu bilan birga, turli zamonaviy tahdidlardan o'zini va o'z atrofida qilamiz muhofaza qilish kabi tamoyillar konfliktlar yechimiga qaratilgan maxsus ijtimoiy bilimlar majmuasiga kiritiladi. Ularni mutanosib anglash, ularga rioya qilish, insonlar erki va huquqlarini hurmat qilish jamiyatda turli ijtimoiy konfliktlarning yuzaga kelmasligini oldini olish tadbirlariga qaratilgandir.

6.3. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oila

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasining pedagogik aspektlari mustaqillikning ilk yillaridanoq tadqiqotchilarning diqqatini tortib keldi. Yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash tafakkuri aynan mustaqillik yillarida keng rivoj topdi, aholi o'rtasida targ'ib va tashviq etila boshlandi, davlat dasturlarining bosh mohiyatini tashkil qildi.

Mamlakat aholisining yarmidan ko'p qismini yoshlar tashkil qilishi, o'sib borayotgan yosh avlodni jamiyatda mustaqil yashashga tayyorlash vazifasining dolzarbligi yoshlarni jamiyat hayotiga va oilaviy turmushga tayyorlash ishlarini jadallashtirishni talab etadi. Insonlarning o'zaro munosabatlarida keskinliklarning o'sib borayotganligi, zamonaviy ziddiyatlarning inson tafakkuri va ongiga ta'sir etishi orqali uning psixologik holatida salbiy va asabiy oqibatlarining vujudga kelishi, yosh oilalardagi ajrim holatlarning muntazam o'sib borayotganligi, bolalar va o'smirlardagi agressiya holatlarining vujudga kelayotganligi kabi muammolar talaba-yoshlarni oilaga tayyorlash vazifasini to'laqonli olib borish talabini kun tartibiga qo'yadi.

Darhaqiqat, oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g'amxo'rliги oiladagi farzandlar munosabatlarini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Ona qizida muloyimlik, shirinsuxanlik, qizlarga xos oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarini tarbiyalash bilan birga, unga uy-ro'zg'or yumushlarini o'rgatish ham lozim. Ota o'g'lida to'g'ri so'zlik, mehnatsevarlik, olijanoblik, fidoiylik, sahovatpeshalik kabi xislatlarni shakllantirishi bilan birga, uyda erkaklar bajaradigan barcha yumushlardan xabardor qilishi kerak.

Ayrim statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi intensiv turmush tarzini kechirayotgan oilalarda ideal siymoga yaqin ota haftasiga farzandlar tarbiyasi uchun atigi 1,5 soat, ona – 4–5 soat, ish bilan mashg'ul deb qaraluvchi ota – 12 daqiqa, ona – 3 soat vaqtini ajratar ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, bu ajratilgan vaqt bolalarning bar-kamol shaxs sifatida qaror topishida yetarli emas¹.

Yana muhim masalalardan biri ichkilikbozlik, kashandachilik inson sog'lig'iga, oilasiga, nasliga, jamiyatimizga qanchadan-qancha noxushliklar olib kelmoqda. Bu masalada davlatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilingan, ammo unga salbiy illat sifatida qarab, yeng shimarib kurashmoqdamizmi? Umuman, uning oqibati haqida o'ylab ko'ryapmizmi? Fikrimizcha, «menga nima» qabilida ko'proq tomoshabinga aylanib qolgandaymiz. Bu vaqtda esa to'ylarimiz, tug'ilgan kunlar, gap-gashtaklarda dasturxonimizning asosiy bezagi spirtli ichimliklar bo'lib qolmoqda. Eng achinarlisi, bu tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlardan iborat. Ular to'ylarda, tug'ilgan kunlarda, gap-gashtaklarda shunchaki hordiq chiqarishlarda sog'liq uchun deb ko'tarayotgan qadahlarining organizmga salbiy ta'sirini bilisharmikan? Oila iqtisodiyotini, oila rishtasini, jamiyatimiz farovonligini buzayotganliklari, ayniqsa, yosh avlodga ta'sirini-chi? Ko'plab noxush

¹ X. Ibragimov., Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2008. – 127–129 betlar.

holatlar, bezoriliklar, hatto jinoyatlar ushbu tadbirlarda «to'yib ichish» oqibatida sodir bo'lmoqda. Vaholanki, yosh bolalarda asosan kattalarga taqlid qilish kuchli bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan tadbirlarda kattalarni araqqa mukkasidan ketishlarini ko'rib, hayot gashti shunday surilar ekan-da, degan tushunchalarga borib qolmasmikan?

Bu masala yuzasidan mahalla oqsoqollari kengashida aniq, samarali tadbirlar ishlab chiqilganmi? Mahalla faollari ushbu masalani hal etishda oqibot qilayotganlari o'z-o'zidan ma'lum. Keling spirtli ichimlikning asorati haqida ilmiy ma'lumotlarga tayangan holda fikr yuritish mumkin.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, 1000 ga yaqin aqli zaif bolalarning 500 nafarining onasi, 70 nafarining ota yoki onasi spirtli ichimlik iste'mol qilgan ekan. Fransuz vrachi Demma yigirma sakkiz yil davomida eri ham, xotini ham ichkilikka berilgan. O'nta oilani kuzatgan. Bu oilada tug'ilgan 57 nafar bolaning 25 nafari bir yoshga yetmay o'lgan, 5 nafari tutqanoq, 5 nafarining bosh miyasi suyuq, 12 nafari ashaddiy jinni bo'lib o'lgan. Faqat 10 nafarigina nisbatan sog'lom tug'ilgan.

Tutqanoq kasali bilan og'rikan har 100 boladan 60 nafarining ota-onasi ashaddiy ichkilikka ruju qo'yganligi aniqlangan. Ichkilik turli xil jinoyatni keltirib chiqaruvchi asosiy sabab hisoblanadi. Uning asosida oqibat qotillik, bezorilik va boshqa salbiy ko'rinishlar bilan tugallanmoqda. Dalillarga e'tiborimizni qarataylik: 70 foizga yaqin qotillik, 80-90 foiz bezorilik asosan mastlik vaqtida sodir etilar ekan. Faraz qilaylik agar spirtli ichimlikni iste'mol qilish 35 foizga kamaytirilsa, qotillik 40 foizga, bezorilik 25 foizga kamayadi. Demak, milliy mafkuramizda belgilangan xalq farovonligi, komil inson tarbiyasi uchun kurashishimizda, avvalambor, ichkilikbozlik masalasiga millatimizdagi illat sifatida qarashimiz lozim. Yana dalillarga murojaat etamiz: 100 gramm araq ichish jismimizdagi faol ishlayotgan 7500 ta to'qimani ishdan chiqaradi. 75 gramm araq iste'mol qilgandan so'ng mushaklarning kuchi 20-40 foizga kamayadi. Endi bayram, tug'ilgan kun, to'y yoki do'stlar davrasida to'yib,

me'yordan oshirib ichgan ishchi, xizmatchining ertangi kun mehnat unumdorligini tasavvur eting¹.

Spirтли ichimliklarni iste'mol qilish bolalar va ayollarga tez ta'sir etadi. Ayol uchun alkogolizmga ruju qo'yish 2–3 yilni tashkil etsa, 13–14 yoshdagi o'g'il yoki qiz bolaga iste'mol qilgan bir qadah vino organizmga bir shisha araq kabi ta'sir etadi. Afsuski, yoshlar o'rtasida araq, vino, pivoga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Bizningcha, alkogolizmga jiddiy illat sifatida qarashimiz, ularni keng yoyilishiga sabab bo'layotgan tadbirlar yuzasidan samaradorli faoliyat yuritishimiz lozim. Barkamol shaxsning shakllanishi subyektiv va obyektiv omillarga bog'liq. Oilada har bir ota-ona bosh pedagog hisoblanadi. Ular farzandlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu borada esa har bir ota-ona yetarli bilim va tushunchaga ega bo'lishi lozim.

Alohida ta'kidlash joizki, qadimgi pandnomalarda yozilishicha, inson boshida uchta kulfat bor emish: 1) o'lim; 2) qarilik; 3) noqobil farzand. Ularning ikkitasidan qutilishning ilojisi yo'q. Ammo uchinchisidan qutulishning ilojisi bor emish. Bu iloj, faqat farzandni to'g'ri tarbiyasiga bog'liq deb hisoblaydilar. Farzandlarimizga zararli odatlarning salbiy xususiyatini, mohiyatini daliliy misollar asosida ongiga yetkazish, mantiqiy tushunchalarini tarkib toptirish hamda to'y, bazmlarimizni alkogol ichimliklarsiz o'tkazish nafaqat oila tarbiyasi muammosi bo'lib qolmay, balki millatimiz sog'lom avlodi masalasida yondashishimiz davr taqozosiga aylanmoqda.

Inson aslida baxt va ezgulik uchun dunyoga keladi, shu orzu-umid bilan yashaydi. Lekin bu bilan hammasi hal bo'ldi degani emas, u shu niyatiga yetish uchun harakat qilishi, mehnat qilishi, yaxshilik ko'rishi uchun, eng avvalo, o'zi ham yaxshilik qilishi kerak. Insonning inson bo'lib shakllanishida, hayotda o'z o'mini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida, yuksak axloq-odob

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika «Milliy g'oya va mafkura», «Oila» ilmiy amaliy markazlari hamda TDPU hamkorligida «Yoshlarni oilaparvar ota-onalikka tayyorlashda oilaning o'rnini» mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 29-mart, 2013-yil. – 224–225 betlar.

qoidalarini o'zida mujassam etishida oila asosiy o'rinni egallaydi. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma'naviy hayot poydevori quriladi va mustahkamlanadi. Birinchi Prezident Islom Karimov aytganlaridek, «Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqqadas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi».

Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarini tarbiyalovchi hayot maktabidir.

O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag'rikenglik, mehdaryolik, o'ta fidoiylik o'zbeklargagina xos xususiyatdir. Shu boisdan ham, ota-onalarimiz farzandlarning baxti uchun, kelajagi uchun qayg'uradi. Ularning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, axloq-odob qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun mavjud imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada bolani to'g'ri tarbiyalash – mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining garovidir. Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ushbu jarayon turmush quradigan yigit va qizning bir-biriga har tomonlama munosibligidan boshlanadi.

Bo'lajak ota-onaning sog'-salomatligi, nasil-nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi, axloq-odobi, moddiy va ma'naviy darajasining mosligi, turmush qurishga ma'naviy va jismoniy tayyorligi farzand ko'rish va uning tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Oilalar mustahkamligi, ma'naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va ma'naviy yetukligining garovidir. Sohibquron Amir Temur ham o'g'il uylantirishda kelin tanlashni, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi ham bejiz emas. Davlatning qudrati – sog'lom fikrli, bilimli, axloq-odobli, xalq, millat, Vatan taqdiri uchun jonini tikkan insonlar qo'lida.

Shunday ekan, millat genafondini saqlash – aynan shundan boshlanadi. Er yoki xotin nasl-nasabida mavjud irsiy kasalliklar,

ma'naviy qashshoqlik kabi salbiy holatlar kelgusi avlodlar taqdiri, millat kelajagi uchun ham xavflidir. Darhaqiqat, oilasining baxt-saodatini, rohat-farog'atini o'ylagan odam shu masalalarni ham nazardan chetda qoldirmasligi shart.

Chunki farzand er-xotinning mehr-muhabbati asosida qurilgan ixtiyoriy ittifoqning mevasidir. Abdurauf Fitrat aytganidek: «... uylanishning birinchi maqsadi – farzanddir. Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'yimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onadan bo'ladi, agar da ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi. Binobarin, kuyov va kelin xushaxloq bo'lishlari eng yaxshi fazilatdir».

Oila – jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'inidir. U o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Ota-onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga **oilaviy tarbiya deyiladi**.

Oilalar respublikamiz va qishloqlarning yagona ijtimoiy-iqtisodiy umumiyligi asosida rivojlanadi. Ayni paytda oilaviy turmush va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Pedagogik diagnostikada oila tarbiyasi o'z milliy va demokratik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanishini hisobga olish, oilaviy tarbiyada oilaning moddiy farovonligi, madaniy-ma'naviy saviyasi, osoyishtaligi, oila a'zolarining soni, tarkibi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quv maskanlarida beriladigan ta'lim-tarbiya darajasi bilan o'quvchi-talaba shaxsining oilaviy turmush tarzi orasidagi aloqadorlikning pedagogik jihatdan ta'minlanganligi hamda ta'lim oluvchilarning yutuqlari, ularda shaxsiy sifatlarning tarkib topib borishini jadallashtiradi.

Yoshlarning xulqida uchraydigan nuqsonlar: yolg'onchilik, agressivlik, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda o'quv maskanlarida beriladigan ta'lim-tarbiyaning ta'sirini oshirish yo'llarini tadqiq etishda oila diagnostikasining muhim ahamiyati mavjud.

Pedagogika va psixologiya fanlarida ota-onalar bilan ish olib borishga doir turli xil yondashuvlar mavjud. Bulardan K. Leongard, G. Myunsterberg, Dembo-Rubinshten, E. Klimov, I. Grebennikov, A.Q. Munavvarov, M. Quronov, O. Musurmonova, L. Mahmudova tomonidan yosh va pedagogik-psixologiyaga asoslangan holda yaratilgan ma'rifiy-axborotli yondashuvlardir. Bu yondashuvlarning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda ota-onalarga uzluksiz va ma'lum tizim asosida yordam berish maqsadida oila uchun ommaviy ta'lim dasturlari ham ishlab chiqilgan. Bu dasturlar asosida oilaning yoshlar tarbiyasidagi rolini faollashtirishga muvaffaq bo'linmoqda.

O'zbek xalqining milliy xususiyatlari: axloqiylik, o'zini o'zi anglash, milliy tuyg'u, milliy madaniyat, milliy kiyinish va yurish-turishda o'z aksini topadiki, o'zbek oilasining tuzilishi va shaxslararo munosabatini o'rganishda bularni chetlab o'tish mumkin emas.

O'zbek oilalari tuzilishiga quyidagi sifatlar xos: ko'p bolalilik; oilada otaning bosh tarbiyachi sifatida namoyon bo'lishi; qarindoshchilik, bir necha avlodlarning birgalikda yashashi.

Oilashunos olimlar: S.T. Inamova, V. Karimova, O. Musurmonova, F. Habibullayeva tomonidan oilaning asosiy funksiyalari turlicha klassifikatsiya qilingan. Bu o'rinda oila funksiyalarini sanab o'tish bilan kifoyalanmay, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy xo'jalik-maishiy va ikkinchi tomondan, emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi funksiyalarga farqlash muhim.

Jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lmish – oilalarning vazifalari turli-tuman: har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, felisitologik, kommunikativ, relaksatsiya, regulyativ (boshqaruv).

Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy tarbiyaviy funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmay, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilgunga qadar javobgardir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi.

Oilaning kommunikativ funksiyasi – oila-a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Oilaning rekreativ funksiyasi – nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelgan dastlabki, ibtidoiy zamonlardan buyon unga xarakterli bo'lgan xususiyatlardan biri, oila-a'zolarining axloqiy pedagogik-psixologik himoyalanihini ta'minlash, yosh bolalarga va mehnatga yaroqsiz kishilar yoki keksa qarindoshlarga moddiy-ma'naviy va jismoniy yordam ko'rsatish kabilardan iborat bo'lib kelgan. Bu holat oilaning rekreativ funksiyasini tashkil qiladi. Oilaning rekreativ funksiyasi – o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan yana biri – bu uning **reproduktiv** (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funktsiyaning asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iborat. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmay, insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir.

Oilaning felisitologik funksiyasi – hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning felisitologik funksiyasidir (italiyancha «felicite» – baxt degani). «Shaxsiy farovonlikka erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi omil bo'lib bormoqda. Oilada, er-xotinning birbirini to'liq tushunishi ularning baxtli his qilishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, o'zidagi mavjud tabiiy-ijodiy imkoniyatlarini (iqtidor-

ni) ro'yobga chiqarish, jamiyat va oila doirasida sarflash ham insonga o'zini baxtli his qilish imkonini beradi»¹. Keyingi vaqtlarda insonning imkoniyatlari ortgan sari uning baxtga intilish darajasi ham ortib bormoqda.

Oilaning regulyativ funksiyasi -- oila-a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni ifodalaydi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Oilaning relaksatsiya funksiyasi – uning eng asosiy funksiyalaridan biridir. Bu degani oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir.

Oilaning funksiyalarining muvaffaqiyatli bajarilishi har qanday oila baxtini ta'minlovchi mezon hisoblanadi. Shuning uchun oilaning o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarilishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga, jamiyatning ijtimoiy sog'lomligiga ham ta'sir etadi.

XX asming 90-yillaridan boshlab yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi salbiy jarayonlar oqibatida oilada bola tarbiyasi instituti sifatida chuqur tanazullga yuz tutdi. Bolaning o'z oilasidan siqib chiqirilishi bilan bog'liq ayanchli an'analar paydo bo'ldi.

Zamonaviy o'zbek oilasi ichidagi ziddiyatlar va inqirozlar nuqtayi nazaridan oila institutiga nazar solinsa, yuqoridagi holatlar o'zini ochiq namoyon etayotgan holatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, o'zini pinhona namoyon qilayotgan holatlar, oila ichida kechib, tashqariga ko'p ham chiqmayotgan, ammo ko'payib borayotgan salbiy vaziyatlar ham mavjud (12-rasm).

Xalqimizda shunday gap bor: kelishmovchilik, ziddiyat, janjal bo'lgan uyda rohat, baraka bo'lmaydi, – deb hisoblashadi. Oilada uning a'zolarini xo'rlamaslik, g'iybat qilmaslik, qilgan ishlaridan ayb topmaslik, yemoq-ichmoqqa qizg'anmaslik kabilar har doim targ'ib qilingan. Oila-a'zolari muomalasida salbiy his-tuyg'ularni

¹ X. Ibragimov., Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 127–129 betlar.

jilovlay bilish, bir-birini tushunib yetish, ziyrak bo'lish, rashk, gina-qudratning oldini olish yo'llariga yoshlarni o'rgatish darkor.

**Konflikt bizda qanday hissiyotlar,
emotsiyalarni uyg'otadi?**



12-rasm.

Eng avvalo, yosh yigit va qizlarni oilaviy turmushning barcha o'ziga xos jihatlariga ochiq va samimiy o'rgatish lozim. Erkaklar va ayollar psixologiyasi, ularning fiziologiyasi, ma'naviy-ruhiy va jismoniy ehtiyojlari kabi masalalarda zamonaviy qarashlarning barchasini yoshlarga bermiq zarur. Ayollarimizda erkaklarga nisbatan «g'arazli», «shaxsiy moddiy talablarni qondiruvchi» sifatidagi egoistik munosabat keng tarqalgan. Erkaklar esa o'z ayollariga oilaning xizmatkori, uning yumushlarini bajaruvchi, barchaga bo'ysunishi lozim bir jihoz sifatida qarashadi. Ikkala stereotip ham noto'g'ri hamda o'zgarishi lozim bo'lgan stereotiplardan hisoblanadi. Na erkakka, na ayolga «g'arazli», faqat «manfaat olish»ga yo'naltirilgan munosabat ko'rsatib bo'lmaydi. G'arazli munosabat inson nafsoniyatini yerga uradi. Shu bilan birga, hech kimga ustunlik asosida munosabat ham bildirib bo'lmaydi. Er va xotin munosabati rahmdillik, mehr-oqibat, bir-birini asrash tamoyillari asosiga qurilmog'i lozimligi barchaga ayon.

Buyuk rus adibi Lev Tolstoy oiladagi munosabatlar uyg'unligi va erkak bilan ayolning majburiyatlari borasida hozir ham dolzarb

bo'lgan tamoyilni aytib o'tgan: «Pishirib-kuydirish, tikib-yamash, kir yuvish, bolalarga qarash faqatgina ayollarning ishi, buni qilish erkaklarga uyat degan g'alati, ildiz otib ketgan yanglish fikrlar mavjud. Vaholanki, buning aksi uyatliroq: holdan toygan, qachon qarasang nimjon, homilador ayol zo'r-bazo'r ovqat tayyorlayotgan, kir yuvayotgan, kasal bolasiga qarayotgan bir paytda, ko'pincha bekor yurgan, vaqtini bo'lar-bo'lmas ishlar bilan yoxud butunlay besamara o'tkazayotgan erkaklarga uyat».

Yigit va qizlarni zamonaviy bilimlar asosida oilaviy munosabatlarga to'g'ri yo'naltirish zarur. Oila – muqaddas dargoh. Shu bois, oilaga muqaddas munosabatda bo'lish lozim. Oilaviy hayotni to'g'ri tashkil qilish va uni ziddiyatlardan asrash oilaning barcha a'zolaridan ma'lum tamoyillarga bo'ysunib yashash, ma'lum bilim va ko'nikmalarni qo'llash zaruriyatini talab etadi.

6.4. Konfliktlarni bartaraf etishda mediatsiya

Ba'zi hollarda, barcha urinishlaringiz va sa'y-harakatlaringizga qaramay konflikt yechimini topishga o'zingizda kuch va ehtiyoj qolmagandek tuyuladi. Shunga qaramay, bu holatda albatta, zo'ravonlikka erk berishi lozim, deb xulosa qilishingiz noto'g'ri bo'ladi. Sizni juda qiynab qo'ygan va o'zingizning kuchingiz yetmayotgan konfliktlar vujudga kelganda vositachilik yo'lidan borangiz ma'qul. **Vositachilikni** konfliktlar yechimi nazariyasida **mediatsiya** deb atashadi.

Vositachilik – bu ko'ngillilik asosida maxfiy, ya'ni konfidensial tarzda uchinchi, neytral, har ikkala tomoniga ham xolis bo'lgan tomon, ya'ni vositachi – dallolning bahs qilayotgan tomonlarga konflikt yechimini topishdagi yordami hisoblanadi. Mediator vositachining vazifasi – konflikt nimadan boshlangani, kim aybdor ekanligi, kim haq kim nohaq ekanligini emas, balki muammoni kelishuvga olib keladigan yo'llarni o'rganib, ularni topishdir. Vositachi bahslashuvchi tomonlarga birgalikda ikkala tomonni ham qanoatlantiruvchi hamda ikkala tomon ham o'zini g'alabaga erishgan deb hisoblovchi yagona to'g'ri yo'lni topishiga yordam berishdan iborat.

Vositachi bu vazifani har ikkala tomon bilan muntazam olib boriladigan muloqotlar orqali amalga oshiradi. Vositachi kelishuv jarayonining har ikkala tomon uchun ma'qul bo'lgan qonun-qoidalarini belgilab beradi, har ikkala tomonga konflikt kelib chiqishi va muammolari bo'yicha o'zining versiyasini so'zlab berishga imkon yaratadi, diqqat bilan har ikki tomon so'zlarini eshitadi, qiziqirgan savollar beradi, kelishuv uchun asos qidiradi hamda aqliy hujum orqali yechimga kelish imkoniyatini topadi. Vositachilik har qanday konfliktlar yechimini qidirish uchun qulay va foydali mexanizmdir. Vositachilik yo'li bilan tarixda juda ko'p xalqaro, milliy, huquqiy, ekologik hamda shaxsiy konfliktlar o'z yechimini topgan.

Vositachilik jarayonining muhim shartlaridan biri vositachi shaxsidir. Masalan, xalqaro konfliktlarda, vositachi rolidagi tomon, har ikkala xalqning fikri va o'ylari, urf-odatlar, stereotip toifalari va xatolari bilan yaxshi tanish bo'lish lozim. Vositachi, eng avvalo, har ikkala tomon ham to'liq ishonadigan, uning xolis ekanligini anglaydigan odam bo'lishi shart. Kelishuv jarayoni har doim vositachi uchun g'oliblik nishonasi emas. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Jimmi Karter kelishuv jarayonidan oldin kechgan ko'pdan-ko'p detallarga alohida to'xtalib o'tgan edi. Masalan: qachon va qayerda muzokaralar o'tkazish lozim; muhokamalar maxfiy bo'lishi kerakmi yoki ochiq tarzda o'tishi lozimmi, kim asosiy vositachi bo'lishi lozim, kimlar muhokamada qatnashishi, qanday masalalar yozma tarzda bayon etilishi va qaysi yozma materiallarni saqlab qo'yish hamda qaysilaridan qutulish lozim, muzokaralar natijalari qayerda va kim tomonidan e'lon qilinish kerak va shu kabilar. Shu bilan birga, har qanday konflikt yechimida muhokamaga qo'yilayotgan masalalar tartibi kelishib olinishi zarur.

Jarayonning murakkabligiga qaramay vositachilik mo'jizalar yaratadi. Vositachilik juda ko'p xalqaro konfliktlar yechimida qo'l kelgan. Vositachilik sizning o'quv muassasangiz uchun ham juda foydali bo'lishi mumkin. Dunyo bo'yicha minglab maktablarda mediatsiya dasturlari mavjud. Agar Siz ham o'z maktabingizda ana shunday mediatsiya dasturiga muhtoj bo'lsangiz o'zingiz uni amalga oshirishingiz mumkin.

1. Mediatsiya – vositachilikning asosiy qoidalari:
2. Konflikt yechimini qidirishga xohish va iroda.
3. Faqat haqiqatni so‘zlash.
4. Gapni bo‘lmasdan eshitish.
5. Birovning nuqtayi nazariga hurmat-e’tibor, hech qachon uni yerga urmaslik.

Ikki tomonlama shartnomaning qarorlarini amalga oshirish uchun majburiyatni o‘z zimmasiga olish.

Mediatsiya (vositachilik)ning besh asosiy ustunliklari:

1. Kelishuv jarayonida sizni hech kim xafa qilishga, nafsoniyatingizga tegishga harakat qilmaydi. Vositachilik sizning xavfsizligingiz va do‘stona muzokaralar jarayonining garovidir.

2. Vositachilik mutlaqo maxfiy jarayon. Agar Siz o‘zingizni nomaqbul tutsangiz ham, sizning harakatlaringizdan hech kim xabar topmaydi.

3. Siz haqiqatdan ham u yo bu narsalarni o‘rganishingiz mumkin. Muhokama jarayoni sizga qarshi tomonning fikr-o‘ylarini tushunishga, anglashga imkon yaratadi. Siz qarshi tomonni dushman taraf sifatida emas, balki inson sifatida qabul qila boshlaysiz.

4. Vositachilik erkin faoliyatdir.

5. Vositachilik, albatta, zaruriy ehtiyoj bo‘lib, unda hech kim nima qilish lozimligini aytmaydi. Chunki Siz va opponentingiz har bir qarorni o‘zingiz ishlab chiqasiz va o‘zingiz unga rozilik bildirasiz. Har bir yechim bu sizning va faqat sizning qaroringizdir.

6.5. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda «G‘oliblik strategiyasi»

Nima uchun konfliktlar yechimini o‘rganish lozim? Chunki bu bilimlar hayotiy zaruratdir. Agar tinch, osuda hayot kechirishni istasangiz, konfliktlar yechimini o‘rganish zarur. Bu bilim va malakalar sizning muvaffaqiyat va yutuqlaringiz, sizning ravnaqingiz garovidir. Konfliktlar yechimini topa bilish – bu ikki qarama-qarshi tomonlarning g‘olibligi asosidagi eng oson kelishuv yo‘lidir. Konfliktlar

yechimi – eng ijobiy va yaxshi munosabatlarni shakllantira bilish, ular muntazamligini saqlash iste’dodidir.

Ammo G‘olib–G‘olib yo‘nalishida ishlash, uni ta‘minlash hamda ikki tomonni G‘olib–G‘olib shart-sharoitlariga olib kelish oson ish emas. Bu bilim va malakalar insonda tarbiyalangan va yoshlikdan uning psixologik va emotsional, etik va estetik qadriyatlarini tizimiga, tafakkuriga singdirilgan bo‘lishi kerak. Agar bu bilim, ko‘nikma va malakalar tarbiyalangan bo‘lsa, konfliktni sezgan zahoti, uning qanday rivojlanib kelayotganligini tahlil etish, uning rivojiga qarshi ma‘lum choralar ko‘rish, uning «olovini» o‘chirish imkoniyatlarini ishga solish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, ko‘pchilik hollarda biz konfliktning kelib chiqishi mumkinligini sezsak ham, uning oldini olish choralarini ko‘rishda «bee’tiborlik», «erinchoqlik» qilamiz va odatdagi kundalik ishlar girdobida uning chuqurlashib ketganligini faqat kuzatib boramiz xolos.

Odamlarning idrok qilish qobiliyati turlicha. Insonning idroki, ya‘ni uning narsalarga qarab ularni anglashi ko‘p obyektiv va subyektiv faktorlarga bog‘liq bo‘ladi. Tajriba, ma‘naviy qadriyatlar, his-tuyg‘ular, psixologiya, shaxs tafakkuri, ular ehtiyojlari ana shunday faktorlardandir. Mana shu idrok qilishdagi farqlar konfliktga olib kelishi mumkin. Ko‘pchiligimiz hayotimiz davomida o‘zimizni ba‘zi an‘anaviy va jamiyat tomonidan qabul qilingan talablar asosida chegaralashga harakat qilamiz. Konflikt yechimida ana shunday chegara «G‘olib–Mag‘lub» strategik usuliga teng keladi. «G‘olib–Mag‘lub» holati bizning ongimizga o‘rnatilib qolgan noto‘g‘ri tamoyildir. Ya‘ni, ziddiyatga kirayotganda biz «G‘olib–G‘olib» strategiyasini mavjudligini bilmasak, undan bexabar bo‘lsak, bizning ongimizda mavjud stereotoifa ishlay boshlaydi, bu stereotoifa esa – men, albatta, g‘olib chiqishim kerak, opponentimga keskin «qarshilik» ko‘rsatishim kerak, degan noto‘g‘ri tafakkurga asoslangan bo‘ladi. Buning mazmuni shundaki, konflikt yechimini qidirganda biz faqat shu chegara doirasida fikr yuritib, yangi usullarga yo‘l bermaymiz. Shu bois, konflikt yechimida «G‘olib–G‘olib» strategiyasiga yetishish uchun yangicha qarash, ijodiy yondashish, har turli variantlarni ko‘rib chiqish talab qilinadi. Bu maqsadga yetishish uchun esa biz o‘z dunyoqarashimiz-

ni o'zgartirishimiz lozim. Shu bois, biz «G'olib–G'olib» strategiyasi uchun quyidagi tamoyillarni tavsiya etamiz.

«G'olib–G'olib» strategiyasiga amal qilish uchun nima harakatlar qilish kerak?

Birinchi qadam: opponeningiz nimani istaydi va nima uchun aynan shuni istaydi, bilib oling.

Ikkinchi qadam: sizning va opponeningizning fikridagi qarama-qarshilikda ba'zi bir umumiy tomonlar, ularni o'xshash qilib turgan nuqtalar mavjudmi, shuni aniqlang.

Uchinchi qadam: sizning va opponeningizning muammoga qaratilgan yechim variantlari qanday? Ularni aniqlang.

To'rtinchi qadam: konflikt muhokamasini hamkorlikda amalga oshiring. Siz o'zingizcha, opponeningiz o'zicha variantlarni o'ylasa, orangizda yana uzilish bo'ladi. Jarayon birgalikda harakat qilish asosida tashkil qilinsa, orada ishonch va hamkorlik yuzaga keladi. Siz esa o'z opponeningizga qarshi tomon sifatida emas, balki hamkor sifatida qarayotganligingizni ko'rsating. Hamkorlik yo'li har doim birga sa'y-harakat qilish yo'li bo'lib, tomonlar munosabatini yaqinlashtirishga yordam beradi.

Konflikt jarayonida tomonlar muzokarasini tashkil qilganda, o'z so'zingizni quyidagi jumlar bilan boshlashingiz yaxshi natija beradi: «Men ikkalamiz uchun ham adolatli yechim topish tarafdoriman», «Keling, qaraylikchi, ikkalamizni ham qoniqtiradigan, ikkalamiz uchun ham muhim bo'la oladigan yo'l bormikan», «Men bu yerga ikkalamizga muhim bo'lgan muammoni yechishga keldim, faqat o'zimning muammoim emas, sizning muammoingiz ham o'z yechimini topishi tarafdoriman».

Undan so'ng, ikkala tomon uchun muhim bo'lgan muammoning ichki mohiyatini anglashga, uni chegaralab olishga yo'naltirilgan savollar bering, masalan, «Nima uchun sizga aynan bu qaror eng yaxshi yo'l deb ko'rinayapti?», «Nima uchun Siz aynan shuni taklif etyapsiz?», «Shu holatda Siz uchun muhim bo'lgan narsalar nima-da?», «Masalan, Siz aytgan gap hal bo'ldi, deylik, keyinchi?..». Bu

kabi savollar bilan Siz o'z opponentingizning fikrlash jarayoniga, ya'ni uning maqsadlariga aniqroq kirib borasiz. Uni tushunishingiz osonlashadi. Uning maqsadlari sizga oydinlashadi. Siz opponentingizdan axborot ola boshlaysiz. Bu axborotlar esa hamkorlikda masala yechimini topishga ko'maklashadi. Birovni eshitmasdan, angalmasdan turib, konfliktni yechib bo'lmaydi. Shu bilan birga, oradagi o'rnatilgan hamkorlik faoliyatidan ham Siz foydalanib qolasiz. O'rni kelganida o'zingizni qiziqtirgan o'rinlarni ham ta'kidlashga imkon yaratiladi.

G'olib—G'olib yo'nalishi uchun tavsiyalar:

- barcha ishtirokchilar maqsad va manfaatlarini belgilang;
- ularni qoniqtirishga harakat qiling;
- boshqalar qadriyatlarini va manfaatlarini o'zingiznikidek qabul qilishga urinib ko'ring;
- obyektiv bo'lishga harakat qiling, muammoga shaxsdan ajragan holda munosabat bildiring;
- muammoga ijodiy yondashing, noordinar qarorlar topishga urining;
- muammoga beshafqat bo'ling, odamlarni avaylang, ularga shafqatli bo'ling.

Aslida, konfliktning kelib chiqish shart-sharoitlari, faol yashash ko'nikmalarini talab etadi. Agar Siz konflikt sharoitida odatdagi stereotoifalar asosida fikr yuritsangiz, demak, sizning tafakkuringizda uning yechimiga qaratilgan ilmiy-nazariy va zamonaviy bilimlar tarbiyalanmagan. Ko'p hollarda shunday bo'ladi, chunki konfliktologiya yangi rivojlanib, o'sib va kengayib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Konfliktga munosabat masalasida ko'pchilik ongiga o'mashib qolgan qat'iy, ammo noto'g'ri, amaliy bo'lmagan usullarni qo'llaydi.

Konflikt bilan to'qnashganda ko'pchilik kuyidagi stereotoifalar asosida harakat qiladi:

Konfliktidan qochish. Agar siz konfliktidan qochish stereotoifani tanlashga moyillik ko'rsatsangiz, siz o'zingizda uning keyingi rivojiga faol ta'sir ko'rsatish, uning yechimini o'zingiz uchun qulay va zarur maqsadlarda hal etish imkoniyatini boy bergan bo'lasiz. Ammo

ba'zan konfliktidan qochish jismoniy to'qnashuv, zo'ravonlik va kuch ishlatishning oldini olgan bo'ladi. Konfliktli vaziyatdan qochish agar mana shu konflikt aynan sizning shaxsiy manfaatlaringizga qarshi qaratilmagan bo'lsa, o'ylangan va to'g'ri tashlangan qadamlardan bo'lishi mumkin. Bu holda uning har qanday yechimi – sizning hayotingizga ta'sir o'tkazmaydi. Ammo konfliktidan qochib, siz o'z do'stlaringiz va yaqinlaringizga ko'mak berishdan voz kechgan bo'lasiz. Ba'zi hollarda konfliktidan qochish taktikasi ataylab, o'z opponentini jazolash, uning «aqlini» kiritib qo'yish, «qani nima ham qila olardi?» qabilida ish tutish maqsadlari asosida qilingan bo'ladi. Bunday hol, sizning inson sifatida odamlar tomonidan ijobiy qabul qilinishingiz uchun hech ham yordam bermaydi va muhimi, oralaringizdagi ziddiyatni yechib ham bermaydi. Bu hol o'z opponentingizni konfliktga bo'lgan munosabatini ham oydinlashtirmaydi, balki murakkablashtiradi. Quyidagi amallar sizning konfliktidan qochish taktikasini qo'llayotgan ekanligingizni anglatadi:

- gaplashmaslik;
- ataylab ko'rsatib, jahl bilan boshqa joyga ketish;
- bo'lganligini ko'rsatib, boshqa uyga chiqib ketish;
- «yashiringan», uzoq vaqt davomida his qilingan qahr va g'azab; depressiya;
- o'z opponentini ochiqchasiga tan olmaslik (игнорирование);
- odamlar orqasidan mazah qilish va gapirish;
- yaqinlaringiz bilan faqat ish yuzasidan gaplashish;
- indifferent munosabat;
- urishib qolgan tomon bilan, umuman, na do'stona, na qarindoshlik, na ish yuzasidan muomala qilmaslik, munosabatlarni batamom uzish.

Konfliktga mayin bosim o'tkazish. Agar urishgan, janjallashgan, ya'ni konflikt vaziyatiga kirgan odam bizga qadrlı bo'lsa, ko'pincha mana shu yo'l tanlanadi. Bizning ongimiz o'zaro ziddiyat mavjudligini tan olgisi kelmaydi, chunki bu odam bizga yaqin. Bizning bu odamga nisbatan ijobiy ichki emotsional-ruhiy holatimiz ziddiyatning chuqurlashib ketishidan bizni tabiiy va instinktiv tarzda himoya qilishga o'tadi. Biz nima bo'lsa ham yaxshi munosabatlarni

saqlab qolish yo'ldan ketamiz. Bu yo'l o'zini ikki holatda oqlaydi, birinchisi, agar muhim bo'lmagan narsalar ustida konfrontatsiyaning kuchayib ketishi, bizga yaqinlarning kuchli stress olishi kuzatilsa, ikkinchidan, opponent so'zlarimiz va argumentlarimizni tinglashga tayyor bo'lmasa yoki o'zini ochiq muloqotdan olib qochsa. Bu vaziyatlarning har birida ham tanlangan taktika asta-sekin ziddiyatni o'z-o'zidan keskinlikdan olib chiqib ketishi mumkin. Chunki biz do'stona va iliq munosabatdan voz kechmagan bo'laniz.

Ammo konfliktga nisbatan mayin bosim o'tkazish uni keltirib chiqargan muammolar yo'q bo'ldi degani emas. Agar ochiq muloqot bo'lmasa, sizning opponeningiz qalbingizda bo'layotgan emotsiyalarni bilmay qolaveradi. Natijada, u noto'g'ri xulosalarga kelishi tabiiy. Agar u nimadir odatdagiday emasligini sezsa ham, aynan bu «nima» – nimada ekanligini bilmay qolaveradi. Munosabatlardagi «tanglik» yo'qolmaydi, balki ko'ngillarning ich-ichiga singib ketadi.

Mayin bosim o'tkazish quyidagilarda o'zini namoyon etadi:

- ❖ Siz o'zingizni «hamma narsa odatdagidek» qabilida tutasiz;
- ❖ hech narsa bo'lmagandek o'z munosabatlaringizni davom ettiraverasiz;
- ❖ tinchlik va osudalikni saqlash uchun bo'layotgan vaziyatga parvo qilmaysiz;
- ❖ ozingizni jahl va g'azabni his qilganingiz uchun koyiysiz;
- ❖ butun mahoratingizni ishga solib, faqat iliq muomalaga o'tib olasiz;
- ❖ avval «jim» bo'lasiz, ammo ko'nglingizda ma'lum istiqbol rejalar tuzasiz
- ❖ negativ emotsiyalaringizni bosasiz, ulardan foydalanmaslikka harakat qilasiz.

Shunday qilib, konfliktning yechimini topish usullari mavjud, ularni bilish kerak va ularni real hayotda qo'llash zarur. Konfliktlarning «G'olib–G'olib» usuli har ikki tomonning manfaatlarini saqlab

qolishga qaratilgan yo'ldir. Demak, mazkur paragrafda ko'rib chiqilgan masalalar asosida «Konfliktida kim yutib chiqadi?» degan savolini «Konfliktida hamma yutib chiqish imkoniyati mavjudmi?» savoli bilan o'zgartirish lozim. Chunki haqiqatan ham ziddiyatli vaziyatda barcha ishtirok etuvchi tomonlar g'olib bo'la oladi. Konfliktlar yechimi aynan G'olib bo'la olish qonuniyatlarini o'rgatadi. Buning uchun «**G'oliblik strategiyasi**»ni qo'llash lozim:

– g'olib bo'lishlikning birinchi talabi o'z opponentiga qarshi kurash emas, balki uning maqsadlari va manfaatlarini tushunishga harakat qilishdir;

– norozilikka rozilik amallarini qo'llash;

– boshqalarning fikrlari, qarashlari va xulosalari biznikidan o'zgacharoq bo'lishi mumkinligini tushunish va qabul qilish;

– ochiq samimiy muloqotga tayyorlik;

– birovlarining his-tuyg'ulari va emotsiyalarini hurmatlash;

– boshqalarning manfaatlarini aniq belgilashga harakat qilish;

– manfaatlar orasidagi uyg'unlik asosida yagona strategiyani ishlab chiqish.

Konfliktli vaziyatlardagi stereotip harakatlar o'zini konflikt-dan qochish va unga mayin bosim o'tkazishda namoyon bo'ladi. Ammo bu sa'y-harakatlar konfliktni to'la yechib bermaydi va tomonlar orasidagi muammoni ham hal eta olmaydi. Faqat o'zaro umumiy kelishuv asosida tomonlarning bir maqsad sari samimiy intilishi, butun kuch va diqqatni qarshi tomon shaxsiyatiga emas, balki konfliktni keltirib chiqargan muammoga qaratish ziddiyatning to'la ya haqiqiy yechimi uchun asos bo'la oladi. Konflikt yechimiga to'g'ri munosabatni shakllantirish masalasida shuni bilish va rioya etish zarurki, ziddiyatda har ikki tomon ham g'olib bo'lishi mumkin. Har ikki tomonning g'olibligi konfliktning to'g'ri hal qilinganligini namoyon qiladi, ammo mana shu g'oliblik ortida har ikki tomonning mehnati, sa'y-harakatlari, irodasi va intilishi yotganligini ham bilish, g'oliblik o'z-o'zidan kelib chiqmasligini anglash zarur.

6.6. Pedagogik nizolarni boshqarish va ularni bartaraf qilish usullari

Nizoli vaziyatlarni boshqarishning bir qator samarali usullari mavjud. Ularni quyidagi ikki yirik guruhga bo'lish mumkin: *tarkibiy-tashkiliy* va *strategik*. O'z navbatida, *tarkibiy-tashkiliy usullar* to'rt usuldan iborat:

- o'qishga bo'lgan talabni tushuntirish;
- muvofiqlashtirish va integratsiyalash;
- umumtashkiliy kompleks maqsadlar;
- rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.

Strategik usullar esa besh usuldan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- uzoqlashish;
- silliqlashish;
- majburlash;
- kelishuv;
- muammoni hal qilish usullaridir.

Ta'kidlaganimizdek, pedagog nizoli vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini faqat o'quvchilar harakatlaridagi tafovutlardan deb bilmasliklari kerak. Albatta, bu ham qandaydir aniq holatda nizoli vaziyatning vujudga kelishida muhim omil vazifasini bajarishi mumkin. Ammo u ta'sir etuvchi omillarning faqat bittasidir. Shu sababli, pedagog, eng avvalo, nizoni keltirib chiqaruvchi omillarning tahlilini qilishi, so'ngra u yoki bu usulni qo'llash bo'yicha qaror qabul qilishi kerak.

Tarkibiy-tashkiliy usullariga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin.

O'qishga bo'lgan talabni tushuntirish usuli. Bu usul disfunktsional usulga mutlaqo zid bo'lib, bunda har bir o'quvchi va guruhlardan qanday natija kutilishi tushuntiriladi. Bu yerda ularga quyidagilar eslatiladi:

- erishishi lozim bo'lgan natija ko'lami;
- vazifalarni qay tartibda topshiradi va kim uni qabul qiladi;
- mas'uliyat, javobgarlik va huquq tizimi;

- aniq siyosat, tartib-qoidalar va hokazolar.

Pedagog bu masalalarni o'zi uchun aniqlashtirish maqsadida emas, balki har bir vaziyatda, har bir o'quvchi va guruh qay tarzda yo'l tutishini, ularni nima kutishini tushuntirib bermog'i lozim.

Muvofiqlashtirish va integratsiyalash usuli. Bu usul *og'zaki buyruq zanjiri* deb yuritiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi burchlari iyerarxiyasini, ya'ni bilim darajasiga ko'ra darajama-daraja bevosita yordam berish yoki konsultatsiyalar tashkil etish, bilim saviyasini tartibini o'rnatish o'quvchilarning o'zaro harakatlarini, ta'lim jarayoniga bog'liq axborotlar oqimini, qarorlar qabul qilishni tartibga tushiradi, muvofiqlashtiradi.

Agar ikki yoki undan ko'proq o'quvchilar o'rtasida u yoki bu vazifa yuzasidan qarama-qarshilik, kelishmovchilik chiqib qoladigan bo'lsa, bunday ixtilofni ularning shu sohadagi o'qituvchiga aytirib hal qilish mumkin. Bu yerda yakka hokimlik prinsipi juda ham qo'l keladi.

Maqsadli guruhlar va yo'nalishlararo majlislarni **integratsiyalash** ham juda katta ahamiyatga ega.

Umumtashkiliy (kompleks) maqsadlar. Bu usulning mohiyati – barcha qatnashchilarning harakatini, butun kuchini bosh maqsadning amalga oshishiga safarbar qilish.

Rag'batlantirishning tarkibiy tizimi. Disfunktsional oqibatlardan holi bo'lish hamda o'quvchilarning hatti-harakatlariga ijobiy ta'sir o'tkazish tufayli, kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish va ularni boshqarish uchun rag'batlantirish tizimi keng qo'llaniladi. Ta'lim jarayonida erishgan yutuqlari, tashkiliy ishlarda jonbozlik ko'rsatgan, muammoning yechimiga kompleks yondashib yon atrofdagilarga yordam ko'rsatishga harakat qilganlar, albatta:

- tashakkurnoma;
- mukofot;
- maqtov yorlig'i kabilar bilan taqdirlanishlari lozim.

Bu o'rinda faqat rag'batlantirish emas, balki g'ayriqonuniy yo'l tutgan yoki ta'lim muassasasi manfaatiga zid xatti-harakat qilgan o'qituvchi va o'quvchilarga tegishli jazolarni belgilash ham kelib

chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ta'kidlash joiz.

Nizoli vaziyatlarning oldini olish yoki ziddiyatni yurishatishning beshta strategik usuli mavjud.

Uzoqlanish. Malakali va tajribali pedagog janjaldan uzoqlashishga harakat qiladi. Kelishmovchilik avjiga chiqqanda u muhokamaga qatnashmaydi. Bunday usul nizoli vaziyatning yechilishiga manfaatdor bo'lmagan va o'zaro munosabatlarning zohiriy yaxshiligicha qolishini istashgan hollarda tomonlar tarafidan qo'llaniladi. Bunday holatli ziddiyat hali yetilmagan yoki ziddiyatga chiquvchilarning bilim darajalari uzoq bo'lgan hollarda kuzatiladi.

Agar nizo subyektiv sabablar tufayli bo'lgan bo'lsa, u holda uzoqlashish strategiyasi ma'qul strategiyadir. Chunki u tomonlarga tinchlanishga, vaziyat ustida yana bir bor fikr-mulohaza yuritib, fahm-farosat ila anglab olish, oqibatda esa qarama-qarshilikka borishga, uni davom ettirishga hech qanday asos yo'q degan xulosa-ga kelish uchun imkon beradi. Agar ziddiyat obyektiv sabablar tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, uzoqlashish strategiyasi har ikkala tomonni mag'lubiyatga olib boradi. Chunki uzoqlashish davrida vaqt cho'ziladi, nizoli vaziyatni chaqiruvchi sabablar chuqurlashadi, qisqasi «yara gazak» oladi.

Silliqlashish. Bu usul o'quvchilarni yaxshilikka undash yo'li bilan nizoni bartaraf qilishga qaratilgan. Ziddiyatli vaziyatda o'qituvchi va o'quvchi bir-biri bilan xushmuomalali bo'lishga, arzimagan narsaga achchiqlanish, umuman, bir vaqtning o'zida birga suzayotgan qayiqni «qaltis tebratish» yaramasligiga chaqirishadi.

Majburlash – bu o'qituvchi o'quvchiga xohish-irodasini, so'zini majburan, zo'rlab qabul qildirishdir. So'zini o'tkazmoqchi bo'lgan o'qituvchi o'quvchining fikri bilan qiziqmaydi, uni inkor etadi. Bunday strategiyani qo'llaydigan pedagog tajovuzkorlik bilan o'z xohishini o'quvchiga majburlab o'tkazadi. Bu usulni pedagoglar ko'proq ta'lim olish jarayonida sust qatnashadiganlarga nisbatan qo'llashadi.

Majburlash strategiyasi tashabbusni bo'g'adi, ta'lim jarayonida «ruhiy iqlim»ning beqarorligiga olib keladi. Ayniqsa, bu usul yuqori sinf o'quvchilariga nisbatan yosh o'quvchilarda nafrat uyg'otadi.

Kelishuv. Nizoli holatdan muvaffaqiyatli chiqishning eng muhim sharti – bu murosaga kela olishdir. Kelishuv bilan yuz bergan nizolarni hal etish bu yuqori baholanuvchi strategik usul bo‘lib, bunda ikkala tomonni qanoatlaniruvchi yechimga kelinadi.

Muammoni hal qilish. Bu usul barcha pedagog va o‘quvchini qanoatlaniruvchi yechimni topish uchun nizoni chaqiruvchi sabablarni chuqur tahlil qilishga va barchaning fikrlarini inobatga olishga asoslanadi. Ushbu usul tarafdorlari o‘z maqsadiga boshqalar maqsadi orqali emas, balki pedagogik nizoning eng oqilona yechimini topish evaziga erishishni xohlaydilar.

Ta’lim muassasasida pedagog va o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keluvchi nizo «butun jamoaga» emas, balki «tanlangan» odamlargagina yomon ta’sir etishi mumkin. Bunday nizoni bir yo‘la, katta hajmda uddalash, bartaraf etish mumkin emas. Bu nizoni bartaraf etishda pedagog oqilligi, adolatligi, madaniy saviyasi bilan hamkorlikka intilishi kerak. Ya’ni, ushbu nizoli vaziyatda mavqeida emas, balki teng huquqiylik asosida yechimni topishi lozim. Masalan, bu jarayonda quyidagilar juda ham muhimdir: o‘quvchi yoki o‘qituvchini tan olishi; gapni bo‘lmay tinglash; o‘zga kishi sifatida tushuna olishni namoyish qilish; nizo jarayonidagi holatni o‘zga pedagog yoki o‘quvchi qanday qabul qilishi (tushunishi)ni anglash; muhokama qilinayotgan mavzuni aniq tasavvur qilish; mavzuga nisbatan umumiy qarashlarni hosil qilish; murosa qilinayotgan oqibatni aniqlash; nizo mazmunini yozib chiqish (tahlil) qilish; nizoni bartaraf etish uchun hamkorlikda yagona yo‘l tanlash; hamkorlikda umumiy xulosa (murosa)ga kelish. Bunday yo‘l mashaqqatli, ammo oqilona yo‘ldir. Buning uchun tajriba kerak.

Hozirgi sharoitda o‘qituvchi faqat o‘z sohasini yaxshi bilibgina qolmay, balki yaxshi tashkilotchi, ruhshunos (psixolog) va tarbiyachi bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun har bir o‘qituvchi sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, kasbiy etika fanlarini mustaqil egallashi kerak.

Guruh a’zolariga, har bir o‘quvchining qalbiga yo‘l topa bilish o‘qituvchining ish faoliyatida asosiy ahamiyatga ega. Buni bilgan o‘qituvchi o‘z jamoasi ichida ta’lim jarayonida vujudga keladigan

har xil nizolarni o'quvchi hamda guruh o'quvchilari bilan birga, yuqoridagilarga chiqarmasdan o'zida hal qilishga qodir bo'ladi.

Bunday o'qituvchi o'z ishini to'g'ri tashkil qiladi, guruh oldiga qo'yilgan maqsad va reja topshiriqlarini o'z vaqtida muvaffaqiyatli bajaradi. Har bir nizoli vaziyatni pedagog bosiq, hovliqmasdan hal etishi kerak.

Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlari

Konfliktlar – tabiiy hayotiy voqeelik ekanligini biz endi bilamiz. Bunday bilimlardan so'ng o'z hayotimizdagi tinchlik va osoyishtalik uchun bizning mas'uliyatimiz ortadi. Chunki tinchlik va osoyishtalik har doim ham o'zicha davom etavermaydi. Har bir joyda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlay olish zarur. Konfliktli vaziyatlar esa mana shu osoyishtalik tizimini buzadi.



Ko'pchilik hollarda konflikt zo'ravonlikning qo'llanishiga olib keladi. Biroq zo'ravonlik – odatdagi hayotiy voqea emas. Konflikt-da zo'ravonlikning qo'llanilishi bu ziddiyatning nihoyat darajada eskalatsiya va agressiyaga olib kelish natijasi hisoblanadi. Har qanday konfliktli vaziyatning oldini olsa bo'ladi. Afsuski, ko'p hollarda konfliktlarni tinch yo'l bilan hal etish imkoniyati boy beriladi.

Bunday ahvoldan qanday chiqib ketish kerak?! Bu holda «Adolatparvarlik mezonlari» bizga qo'l keladi hamda konflikt-ni zo'ravonliksiz va kuch ishlatmasdan muvaffaqiyatli hal etishga imkon yaratadi. «Adolatparvarlik mezonlarini» qo'llash, hech kim mag'lub emasligini, balki barcha g'olib bo'lib qolishini isbotlaydi. Konfliktlar yechimida qo'llaniladigan adolatparvarlik mezonlari, ya'ni qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Muammoni aniqlash. Muammo – nima? Muammoning ichki mazmunini anglashga harakat qiling. Muammo chegaralarini belgilashda xolis hamda vijdonli bo'ling. Muammoni avval o'zingiz aniq

idrok etib olishga harakat qiling. Muammoni anglash jarayonida sabrli va bosiq harakat olib boring. Konfliktli jarayondagi haqiqatni anglashga harakat qiling. Hissiyotlaringiz hamda boshqalarning soʻzlari, ularning emotsiyalariga ham diqqat-eʼtiborli boʻling. Muammoni qanday qabul qilayotganligingizni toʻgʻri va aniq anglab yeting. Muammoni umumlashtiring, uni maʼlum miqdorda xulosalashga erishing. Fikrlaringizni unumlashtiruvchi va yaqinlashtiruvchi oʻrinlarni topib, umumkelishuv yoʻlida ulardan toʻgʻri foydalaning. Muammoni roʻkach qilmang. Opponentingizga ham muammoni oʻzi anglab yetishi uchun imkon bering. U ham Siz anglab yetgan muammoni sizning darajangizda his qilishini kuting. Muammoni ikkalangiz qanday koʻrayotganligingiz haqida sabr bilan suhbat va mushohada qiling. Muammoni anglashda sizlarning fikringizni unumlashtiruvchi xususiyatlar va belgilarni aniqlab, belgilab oling. Opponentingiz bilan oʻz diqqatingiz va eʼtiboringizni aynan muammoga qaratishga kelishib oling. Opponentingiz biron narsani tez anglab yetmasa, uni shoshiltirmang. Uning mushohadaga, xulosaga yetishi uchun imkon bering. Konflikt muammo mavjudligi uchun kelib chiqayotganligini oʻzingiz qabul qiling hamda oʻz diqqatingizni muammoga qarating. Konfliktning kelib chiqishida muammo muhim ahamiyatga ega ekanligini esingizdan chiqarmang. Eng muhimi – diqqat va energiyani oʻzga shaxsga qarshi emas, balki muammoga qaratish.

2. Muammoda fikrni jamlash. Muammo – konflikt, yaʼni kelishmovchilikning yuzaga kelishi uchun sabab boʻlgan vaziyat, hodisa, voqea hisoblanadi. Mana shu vaziyat, hodisa, voqea oʻz-oʻzidan kelib chiqmaydi. Uning oʻziga xos sabablari mavjud. Sizlarni toʻqnashtirgan narsa aynan shu vaziyat, hodisa va voqeadagi maqsadlaringiz, manfaatlarning toʻqnashuvi hisoblanadi. Muammoni yuzaga keltirishda rol oʻynagan Siz va opponentingizning maqsadlarini bir-biriga solishtirish orqali, ulardagi umumiy va qarama-qarshi tomonlarni belgilang. Ammo bu jarayonda, umuman, konflikt yechimida, qoʻllash mumkin boʻlmagan qoidalar mavjud. Ular:

- ziddiyat bahonasida opponentingiz bilan umr boʻyi boʻlib oʻtgan barcha nizolarni sanab chiqish, ularni nizo kelib chiqqan

paytda emas, aynan yangitdan vujudga kelgan ziddiyatli vaziyatga qo'llash, esga olish va opponentingizning avvalgi ayblari uchun jazolashga intilish – **mumkin emas!** Shuningdek, «u sizni qachon behurmat qilgan-u, qachon sizga boshqacha ko'z bilan qaragan», ya'ni barcha nizolar tarixini doston qilish, hissiyotlarga berilib ketish, butun hayotingiz davomida opponentingiz bilan bo'lib o'tgan barcha nizolarni qayta ta'lim qilishga urinish – **mumkin emas!**

• konflikt jarayonida «Sen har doim menga shunday munosabatda bo'lgansan, bir yil avval buni qilgansan, ikki yil avval boshqa narsa qilgansan...» qabilida nizolar tarixiga mukkasidan ketish, ularni doimiy yodda saqlashga urinish, har gal nizo chiqqanida ularni ataylab esga solish – **mutlaqo mumkin emas!** Opponentingizga doimiy ta'na qilish, muhokama etilgan va avvallari kechirimlar bilan tugallangan konfliktli vaziyatlarni ham esdan chiqarib, ularni o'z psixologik-ruhiy holatining muhim «yuki» sifatida asrab-avaylab yurish – **bu ham mutlaqo mumkin emas!** Shu bilan birga, e'tiborni muammoga emas, balki o'z hissiyotlari va ulardan qolgan xafagarchilikka qaratish – **mutlaqo mumkin emas!**

Konfliktidan chiqib ketish, avvalo, inson o'zining emotsional-psixologik holatini pokiza tutishi va ozoda qilishdan boshlanishi lozim. Agar Siz o'zingizning konfliktga bo'lgan munosabatingizni tarixiy hodisalar va ziddiyatlar girdobida boshlasangiz va ularga suyan-sangiz hech vaqt ziddiyatni muvaffaqiyatli yecha olmaysiz. O'ziga va o'zgalarga kechirimli, haqiqiy kechirimli bo'la olish – ziddiyatlar yechimiga qaratilgan qadamlardan biri hisoblanadi. Demak, birinchidan, aniq konflikt davrida avvalgi konfliktlarni yangi konfliktga qo'shib bo'lmaydi, ikkinchidan, ziddiyatlar tarixini qo'zg'ab bo'lmaydi. Chunki opponentingiz ham xuddi shu yo'ldan ketishi mumkin. Oldin o'tgan ziddiyatlarni eslash yo'lidan emas, balki muammoni aniqlash yo'lidan ketgan ma'qul.

Konflikt sharoitida, uning kelib chiqishida, umuman, uning rivojida kim ko'proq aybdor ekanligiga bor kuchni berish mumkin emas. Umuman, konflikt vaziyatda kim haq, kim nohaq ekanligini aniqlash – konfliktni tupikka kiritish usuli hisoblanadi. Chunki har bir odamning o'z haqiqati mavjud bo'ladi. Shu bois, **ziddi-**

yatni yechish – kim aybdor ekanligini qidirish emas. Konflikt yechimini qidirish – ziddiyatdagi aybdor insonni topish va uni jazolash ham emas! Chunki konfliktlarda, odatda barcha o'zini noan'anaviy tutishi mumkin. Hamma ham g'azabga kirishi, o'zini himoyalashi yoki dag'dag'a uchun qo'pol so'zlarni ishlatishi mumkin. Yoki agressiya bilan duch kelganda inson faqat o'zini himoya qilish yo'liga o'tib olishi mumkin. **Konfliktlarda aybdor shaxs bo'lmaydi!** Konfliktlarda ikki qarama-qarshi manfaat bo'ladi xolos:

❖ konfliktlarda ikki qarama-qarshi inson ham asli bo'lmaydi, chunki konfliktda insonlar qarama-qarshiligi aslida manfaatlar qarama-qarshiligi mavjudligini ko'rsatadi, uni oydinlashtiradi xolos. Shu bois, agar siz ziddiyatda opponent shaxsni ayblasangiz, diqqatingizni konfliktni keltirib chiqargan muammoga emas, balki shaxsga yo'naltirgan bo'lasiz. Siz konflikt yechimini emas, balki aybdor shaxsni qidirayotgan bo'lasiz. Siz uchun birovni jazolash, aybiga iqror qildirish muhim, aslida haqiqat esa boshqa tarafdagi bo'lib chiqishi mumkin. Shu bilan birga, siz boshqa manfaatni, ya'ni o'zingizga yoqmay turgan insonni ayblash, o'zingizni esa oqlash yo'lidan ketgan bo'lasiz. Aslida siz o'zingizni oqlashingiz kerakmi? Yo'q. Chunki siz ham aybdor emassiz. Ikkinchidan esa, siz konflikt yechimidan uzoqlashib, uning yechimini boshqa yo'ldan olib ketgan bo'lasiz. Bir-birini turli ayblarda, qilgan ishlarda ayblash orqali hali biron-bir konflikt yechilmagan. Bu usulda, ya'ni **tomonlar faqat bir-birlarini ayblash usulini qo'llagan vaqtda konfliktni keltirib chiqargan muammo yutib chiqadi.** Chunki muammo borasida hech kim o'ylamaydi, muammo esa sizning va opponentizgizning salbiy tuyg'ulari ichida yanada chuqurlashib boradi. Demak, konflikt yechimida kim aybdor ekanligini qidirish mutlaqo mumkin emas. Bu noto'g'ri, xato bo'lgan yo'l. Konfliktda aybdor shaxslar bo'lmaydi. Aybdorni qidirish – uni jazolashni talab etadi. Opponentingizga «Sen aybdorsan» desangiz, u «Meni jazolashmoqchi» deb anglashi tabiiy. Ammo u o'zini aybdor his qilmaydi-ku?! Demak, u «Nima uchun meni jazolashmoqchi?!», – deb kontr-hujumga o'tadi. Bu holatda, opponentning kontr-hujumi,

aslida, hujum qilish uchun emas, balki o'zini himoya qilish uchun yo'naltirilgan bo'ladi¹.

❖ konflikt yechimini topishda fikr va emotsiyalarni muammo-ga yo'naltirish, vujudga kelgan muammo borasida qayg'urish, butun energiyani muammo mazmunini belgilashga qaratish yaxshi natijalar beradi. Muammo bo'yicha fikrlashda undan chetga chiqib ketishga o'zingizga va opponentingizga yo'l bermang. Gaplaringiz va so'zlaringiz osuda, bosiq, tinch, hurmat va izzat qilgan holda yuzaga chiqsin. Chunki Siz konfliktning kelib chiqishida qarshingizda turgan inson emas, balki uning manfaati yotganini bilasiz. O'ylab ko'ring, balki mana shu manfaatlarda juda ko'p umumiy tomonlar mavjuddir. Balki opponentingiz o'sha umumiy tomonlarni sizga bildirmoqchidir. Muammoni aniq belgilab olsangiz, mana shu savollarga javob topgan bo'lasiz.

❖ konfliktli vaziyatni manfaatlar to'qnashuvi deb atadik. Shu bilan birga, konfliktda har ikki tomon ham g'olib chiqishi mumkinligini bildik. Shunday ekan, o'z oldingizga konfliktda g'olib kelish, yutib chiqishni maqsad qilib qo'ymang. Sizning maqsadingiz o'z manfaatlaringiz bilan opponentingiz manfaatlarini uyg'unlashtirishdir, ularning o'xshash tomonlarini topib, sizni ham, uni ham qoniqtiradigan yechimga kelishdir. Sizning yutug'ingiz uning yutug'iga teng kelgan holdagina Siz konflikt yechimini topgan bo'lasiz. Ya'ni, konflikt vaziyatdan har ikki tomon qoniq-qan va tinchlangan, uning yechimidan xursand bo'lgan holdagina «G'olib–G'olib» sharoiti yaratilgan bo'ladi. Shu bois, sizning bosh maqsadingiz – konfliktning adolatli yechimini qidirish va topishdan iborat bo'lmog'i kerak.

3. Shaxsga emas, muammoga hujum qilish. Konflikt ko'p hollarda bir-biriga yaqin odamlar o'rtasida sodir bo'ladi. Tanima-gan odamlar o'rtasidagi konfliktning yechimga kelishi osonroq kechadi. Masalan, ko'chada avariya bo'lib, ikki mashina bir-biriga urilsa, darrov haydovchilar o'zaro kelishishga harakat qilishadi.

¹ V. Karina. Korostelina and Simone Lässig. History Education and Post-Conflict Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.

Chunki bunday ziddiyatlarning o'zaro kelishilgan va xalq ichida qabul qilingan tartiblari mavjud hamda ularga ko'pchilik rioya qilishga, mavjud konfliktni yanada chuqurlashtirmaslikka harakat qiladi. Begona odamlar kelishuv yo'lidan borishadi va ziddiyatda kelishilgan majburiyatlarni to'la bajarishga urinadi. Konfliktdagi nizo shartlari bajarilgandan so'ng, yana har ikki tomon o'zaro begonalashib ketaveradi. Ziddiyat ularni o'zaro muomala qilishga majbur etadi, konflikt yechimidan so'ng ular o'zini erkin, majburiyatlarsiz his qilaveradi.

Ko'rib chiqilgan mana shu vaziyatda, ko'pchilik, o'zining emotsional holatini ma'lum tartibda ushlashga, o'zini nazorat qilishga harakat qiladi. Chunki ziddiyatda to'qnashgan odamlar ularga tanish emas. Bu esa, faqatgina bir narsani anglatadi. Nizo kelib chiqqan vaziyatdagi odamlar qanchalik bizga yaqin bo'lsa, biz shunchalik o'zimizni tabiiy ushlaymiz, buning natijasida esa hissiyotlarimiz ochiqchasiga bayon qilinaveradi. Biz o'z hissiyotlarimizga erk beramiz hamda buni oddiy hol deb o'ylaymiz. Chunki oldimizda turgan odamlar bizga yaqin odamlar. Ular bizni biladi. Aslida, teskarisi bo'lishi kerakdek. Bizga yaqin odamlarga chiroyli munosabat bildirish kerak, o'zgalarga ega o'z emotsiyalarimizni ko'rsataversak bo'ladigandek. Hayotda esa buning teskarisi bo'ladi. Biz o'z yaqinlarimizga bor agressiya va noxush holatimizni bermalol to'kib solaveramiz, chetdagi tanimagan odamlar bilan esa «o'ylashibroq» muomala qilishga harakat qilamiz. Ammo aslida, har qanday **ziddiyat holatida o'z emotsiyalarini nazorat qilish – eng to'g'ri yo'ldir.** Ziddiyatning kelib chiqishida, agar Siz uni biron-bir yechimga keltirmoqchi bo'lsangiz, shaxsga emas, balki muammoga hujum qilish kerak bo'ladi.

F. Laroshfukoning ta'kidlashicha, «Odamlar hech qachon mislsiz yaxshi yoki haddan tashqari yomon bo'lmaydilar». Ularning yaxshi va yomon fazilatlarini namoyon etuvchi vaziyatlar bo'ladi xolos. Mana shunday vaziyatlarda odam o'zini tutishi uning madaniylik belgisi bo'ladi. I. Gyote esa, «**Yaqin kishilarimizga o'zlariga munosib muomala qilib, biz ularni battar buzamiz. Agar biz ularga o'zlaridan ko'ra yaxshiroq odamlar deya yon-**

dashsak, ularni yanada yaxshiroq bo'lishiga majbur etamiz»¹, degan.

Konflikt yechimining topilmasligi yoki uni qanday to'xtamga keltirishni bilmaslik aynan yaqin bo'lgan odamlar orasini buzadi. Bu konfliktning mavjud katta vayron etuvchi kuchi natijasidir. Shu bois, konfliktda har doim uning yechimini topish yo'llarini qidirish shart! Konflikt yechimini topish yaqin odamlar munosabatini mustahkamlash deganidir. Shu bois, konfliktli vaziyatda muammo haqidagi o'z g'oyalaringizni shakllantirish, ularni hayotga tatbiq eta olish muhim ahamiyat kasb etadi. G'oyalar qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi. Bu yo'llar ichida ikkala tomon uchun ham eng maqbularini aniqlash lozim bo'ladi. Muhimi, **shaxsga emas, muammoga hujum qilish zarur**. Chunki ko'pincha bu shaxs sizga yaqin inson bo'lib, uning aybi isbotlanmagan bo'ladi.

4. Faol tinglash malakasi. Tinglashga tayyorlik. Konfliktli vaziyatning o'ziga xosligi har ikkala tomon uchun ham his-tuyg'ularning beqiyos darajada o'sganligi bilan xarakterlanadi. Inson esa, eng avvalo, o'z tuyg'ulariga quloq solishga odatlangan bo'ladi. Inson uchun uning ichki «meni» azizroq bo'ladi. Ammo hamma ham o'z hissiyotlarini to'g'ri anglaydimi? Ularni to'g'ri «talqin» (расшифровка) qiladimi? Bu – muhim savol. Ikkinchidan, konfliktdagi muammoni anglash uchun faqat o'zingizning o'ylaringiz, fikrlaringiz, emotsiyalaringiz, shuningdek mushohadalar, ya'ni argumentlaringiz yetarli bo'ladimi? Shu bois, **konflikt yechimi har ikkala tomondan faol tinglash, o'zgani eshitish, uning o'ylari, fikrlari, emotsiyalari, shuningdek mushohadalari, ya'ni argumentlari qandayligini bilishni talab etadi**. Muammoni aniq belgilash va uning chegaralarini ko'rish uchun o'z opponenti fikr va o'ylari, hissiyotlarini to'g'ri belgilash lozim. Opponent fikrlarini bilish esa faol tinglash, opponet fikrlarini to'g'ri baholay olish va talqin qilish, opponet qarashlarini anglash orqaligina ta'minlanishi mumkin.

Faol tinglash ko'nikmalari o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Ularni shaxs o'zida tarbiyalashi lozim. Faol tinglashning o'z tartib va qo-

¹ Tashakkur gulshani. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 39.

nuniyatlari mavjud. Ochiq chehralik, samimiylilik, mushohadalik, bosiqlik, vazminlik, argumentlarni ochiq va asosli bayon qilish, birovni ayblamay gapirish, mehrlil bo'la olish, gaplashganda chetga qarab turmaslik, ko'zni olib qochmaslik, samimiy va ochiq nazar bilan qarash, tahdid soluvchi harakatlar va so'zlardan o'zini tiyish, muloqotga tayyorlikni ko'rsatish, soxta xushomaddan o'zini tiyish, piching va istehzodan mutlaqo foydalanmaslik, birovni kamsitmaslik, o'zini katta olmaslik kabilar ana shunday tartib-qoidalardan hisoblanadi.

L. Feyerbax, «**Insonni bilish uchun uni sevish kerak**», deb aytgan. Agar opponeningiz sizga qo'pol muomala qilsa ham, siz uning qo'polliklariga bosiqlik va hurmat bilan munosabat bildirsangiz, uning o'zi uyalib qoladi, chunki hech kimsa o'zining qalbida «men – madaniyatsizman» deb tan olgisi kelmaydi, hamma «yaxshi odam» bo'lishga intiladi. Siz bilan gaplashayotgan, o'z dard-u hasratini aytayotgan odamdan yuzingizni teskari qilib, bee'tibor, esnab, yuzingizni boshqa tomonga burib gaplashsangiz, bu odamni inson va do'st sifatida o'zingizdan uzoqlashtirgan bo'lasiz.

Ba'zan odamga uning so'zlarini eshitganingizning o'zi kifoya qiladi. Siz uning so'zlarini diqqat bilan eshitganingizning o'zi uning qalbidagi barcha gina va qudratlarni yurib ketadi. Oradagi mavjud emotsional tanglik holati yo'qotiladi. Birovni eshitish – juda muhim fazilat va zarur xislatdir. Birovni eshita olish qobiliyati – insonning komil shakllanganlik belgisidir. Chunki egoist odamlargina faqat o'ziga quloq soladi. Boshqa, sizga qarama-qarshi bo'lgan tomonning fikrini, uning gaplarini bo'lmasdan va baholamasdan, shuningdek uning so'zlaridan ayb qidirmasdan, uni tahqirlamasdan diqqat bilan eshitish va tinglash, o'zingizni uning o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qilish konflikt yechimini topish tartiblaridan hisoblanadi. D.I. Pisaryev bu haqida shunday degan: «**Birovni tushunmoq uchun o'zingni uning o'rniga qo'yib ko'rmog'ing, uning sevinchi va dardini his qilmog'ing lozim**»¹.

Ikki tomonning suhbatlari va muloqotlari konfliktli vaziyatlarda birdaniga va o'zicha yuzaga kelmaydi. Muzokara olib borish ikki to-

¹ Tafakkur gulshani. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 39.

mondan ham muloqotga tayyorlikni talab etadi. Muloqot jarayoni ham birdaniga tinch va osuda kechmaydi. Bunga harakat qilish va yuqoridagi talablarni bajarishga moyillik darkor bo'ladi. Shu bois, lozim bo'lgan o'rinlarda, o'zingizning nohaq ekanligingizni tan olishga tayyor bo'lish kerak. Chunki, konflikt yechimi ayyorlikni ko'tarmaydi, uning muhim qonuniyatlaridan biri – samimiy va to'g'ri bo'lishlikdir.

5. Birovning his-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish. Konfliktlarda manfaatlar to'qnashuvidan tashqari emotsional-hissiy to'qnashuv ham yuz beradi. Ya'ni, emotsional-hissiy qarama-qarshilik mavjud nizoning tashqi ko'rinishi sifatida o'zini namoyon etadi. Konfliktda ham o'z manfaatlarini ifoda etish maqsadida, ham o'zini himoya qilish uchun har bir inson o'z his-tuyg'ulariga berilib, esankirab qolishi mumkin. Emotsional esankirash esa, konflikt jarayonining to'g'ri va adolatli hal etilishiga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois, konfliktning yechimida bir tomondan, o'zining his-tuyg'ularini jilovlay bilish, ikkinchi tomondan, o'z opponentining his-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish talab qilinadi. Birovning his-tuyg'ulari mazkur konkret (aniq) shaxsning aynan konkret shart-sharoitdagi ahvolining namunasi sifatida baholanishi ma'lum xulosalar qilinishiga yordam beradi. Ya'ni, konfliktdagi his-tuyg'ular insonning boshqa insonga yo'naltirilgan doimiy mavjud munosabatini emas, balki birdaniga uyg'ongan va portlash orqali o'zini ifoda etayotgan tuyg'ularini ifoda etadi, xolos. Emotsional portlash – o'tib ketadi. Ularning ortida insonning azaliy, shakllangan va hurmatli munosabati yotgan bo'lishi mumkin. Shu bois, diqqatni bir soniyada vujudga kelib, jo'sh urgan emotsiyalarga emas, balki azaliy mavjud bo'lgan hurmatli munosabatlar va emotsiyalarga qaratishga harakat qilishga yo'naltirish lozim. Hurmat va e'tibor ishonchga olib kelishini yodda tutish kerak. Birovning tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish faqat konflikt sharoitiga nisbatan emas, umuman, hayotdagi barcha bosqichlarga nisbatan qat'iy qoidalardan biri bo'lishi lozim.

Masalan, o'z otangiz bilan siz uchun muhim bo'lgan masalada bahslashib qoldingiz. Masalan, siz o'zingiz yoqtirgan qizga uylanmoqchisiz, ammo otangiz bunga qarshi. Otangiz sizni tushunishni is-

tamaydi. Natijada esa o'rtangizda janjal yuzaga keladi. Siz otangizga jahl hissi bilan ko'chaga chiqib ketasiz. Otangiz orangizda bo'lgan hodisadan qiynalib, uyda qoladi. Otangiz aslida sizga yomonlik istamaydi. Otangiz, balki siz tanlagan qizning qandayligini bilsa, o'z fikrini o'zgartirar ham. Bunga esa vaqt talab etiladi. Kechqurun kel-sangiz, otangiz xafa. Ammo Siz chekinishni istamaysiz. Siz yana unga nisbatan o'z so'zingizda qolganingizni ko'rsatmoqchi bo'lib, bee'tibor bo'lasiz.

Ammo otangizning kechqurundagi salbiy kayfiyati kunduzi bo'lgan janjal oqibatida o'zini yomon his qila boshlagani natija-si bo'lishi mumkinligini xayolga ham keltirmaysiz. Siz, o'zingizni o'z baxti ustida kurashayotgan odam sifatida qabul qilasiz, o'z so'zingizdan qaytmasligingiz aniq. Ammo bu degani, umuman, bee'tiborlilik degani emas-ku?! Otangiz sizni xafa qilmaslik uchun o'z ahvoli haqida so'z demaydi, u indamaydi, o'zini yomon his qilayot-ganligini yashiradi. Uning yurak xuruji og'irlashadi. Siz esa o'zingiz bilan ovora bo'lib qolaverasiz. Bunday yaqinlaringiz emotsional holatiga bo'lgan bee'tiborlilik juda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur ham qilib ko'rmaysiz.

Konflikt sharoitida har ikki tomon ham ishonchga muhtoj-dir, o'zaro ishonch esa konflikt yechimini topishga imkon bera-di. Yuqoridagi holatda, kechqurun uyga qaytgandan so'ng (aslida ko'chada yurganda ham bir telefon qilib ahvol so'rasangiz bo'ladi), «Dada, mayli xafa bo'lmang. Bu masalalar birdaniga hal bo'lmaydi. O'ylashib ko'ramiz... Biror chorasi chiqib qolar... Siz menga yaqin odam... O'zingizni avaylang...», desangiz, otangiz yurak xuruji bezovta qilayotganligini ochiq aytadi. O'rtada, ikki tomon orasida yana ishonch vaziyati tug'iladi. Inson insonga har jihatdan zarur va muhtoj ekanligini yodingizdan chiqarmang. Chunki inson axloqi uning boshqalarga bo'lgan munosabati orqali bilinadi, o'zini ko'rsatadi, ammo uning axloqiyligini yaratuvchi mohiyat inson ichki olamida tarbiyalangan bo'lsagina, u yuzaga chiqadi.

6. O'z amallariga mas'ul bo'lish. Eng qadimgi davrlardan boshlab inson sivilizatsiyasi tarbiya va axloq masalalariga e'tibor bilan qaragan. Inson axloqiy normalari ichida o'z so'zida turish, burch,

mas'uliyatli bo'lish, birovlariga berilgan va'dalarga hurmat va ularni so'zsiz bajarish inson komilligining oliy qadriyatlaridan hisoblangan. Ammo hayotda har doim ham shunday bo'lavermaydi. Ko'pincha, biz o'z va'dalarimizni esdan chiqarib qo'yamiz, o'z so'zimiz ustida turmaymiz. Bu – juda yomon odat. Ba'zan, boshqalarning bizga bergan va'dasini o'z vaqtida bajarmagani uchun aziyat ham chekamiz. Insonning eng halokatli xatolaridan biri – yaxshi ishni ham yomon bajarib, barbod etishdir. Konfliktlar sharoitida o'z so'zi ustida turish – konflikt yechimiga qaratilgan va'dalarning ustidan chiqishni anglatadi. Agar konflikt yechimi ichida siz o'z xohishingiz bo'yicha o'zingizga ba'zi mas'uliyatli vazifalarni olsangiz, ularni bajarishga harakat qilishingiz lozim. Agar ularning uddasidan chiqolmayotgan bo'lsangiz, ular borasida ham ochiq muloqotda so'zlab, ishni bajara olmayotganligingiz haqida o'rtoqlashishingiz kerak bo'ladi. Konflikt sharoitida quyidagi amallarga rioya qilish maslahat beriladi:

✓ tomonlar o'rtasidagi turli shartnomalar va o'z mas'uliyatingizdagi vazifalarni albatta bajarang.

✓ agar sizning sa'y-harakatlaringiz behuda ketayotganligi va yordam bermayotganligini sezsangiz, harakatlaringizni qaytadan boshlang va opponentingiz bilan samimiy o'rtoqlashing.

Bu amallar noto'g'ridir!

1. Tahqirlash.
2. Ayblamoq, doimo ayb qidirishga intilish.
3. Nafratlanish, hazar qilish va odamlar ustidan kulish.
4. Hamsuhbatdoshni tinglamaslik, uning so'zlari va fikrlariga bepisandlik, e'tiborsizlik.
5. Tengma-teng bo'lish.
6. O'tgan ishlarni yuziga solish.
7. Bosim o'tkazishga harakat qilish.
8. Boshqalarning so'zlarini eshitmaslik, ular so'zini qo'pol ravishda bo'lish.
9. Tahdid qilish, qo'rqitish, nafsoniyat va hayotga xavf solish.
10. Psixologik va jismoniy shantaj.

11. Kinoya, piching qilish, istehzo bilan munosabatda bo'lish.
12. Boshqalarga tazyiq o'tkazish.
13. Agressiv munosabatga o'tish va zo'ravonlik ko'rsatish.
14. Kuch ishlatish, qo'lga erk berish.
15. O'z dilsiyohligini o'zidan zaif odamlarga to'kish.
16. Boshqalar haqida bo'xton gaplar tarqatishlik, g'iybat, gap tashuvchilik.
17. Ranjitish, dilsiyohlik, boshqalar ko'nglini og'ritish.
18. Buyruqbozlik, o'zini boshliq deb bilish.
19. Mas'uliyatidagi vazifalarni bajarmaslik.
20. Mas'uliyatli qarorlar qilishdan cho'chish.

Shunday qilib, ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlaridan sanalgan – e'tiborni muammoga qarata olish, muammoda shaxslarni ayblamaslik, muammoni aniqlash, muammo mazmunida fikrni jamlash, shaxsga emas, muammoga hujum qilish, o'zgani tinglashga tayyorlik va faol tinglash malakalarini qo'llash, bironing histuyg'ulariga e'tiborli bo'lish, o'z va'dalari va amallariga mas'uliyatli bo'lish kabi qoidalariga rioya etish konflikt yechimini qidirish va uni hal etishga yo'naltirilgan talablardan hisoblanadi. Ana shu talablarga qat'iy bo'ysunish muammoda har ikki tomonning aziyat chekmasdan, xafa bo'lmasdan, o'z insoniy qadriyatlarini saqlagan va o'zga kishi nafsoniyatiga tegmagan tarzda chiqib ketish, muammoni hal etish imkoniyatini beradi. Konflikt yechimida va bo'lib o'tgan voqea tahlilida umr bo'yi bo'lib o'tgan nizolar va ular tarixini emas, balki kelajakda qanday qilib mazkur nizolar va ular tarixisiz yashashni o'rganish lozim bo'ladi. Konfliktda ortga, tarixga qarab emas, balki oldinga, istiqbolga qarab yashash lozim.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Pedagogik konfliktlarni oldini olishda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish muammosi haqida nimalarni bilasiz?
2. Pedagogik hamkorlik bilan bog'liq bo'lgan masalalar bilan kimlar shug'ullangan?

3. O'qituvchilarning hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etishda tayaniladigan tamoyillar va nazariy yondashuvlarni bilishlarini qanday parametrlar yordamida aniqlash mumkin?
4. Erkin fikrlovchi o'qituvchilar hamkorlikka asoslangan o'quv-biluv jarayonida qanday vazifalarni bajarishlari kerak?
5. Pedagogik hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etishda qanday tashkiliy shakllar namoyon bo'ladi?
6. Hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayoni qanday o'ziga xos jihatlarga ega?
7. Sinergetika atamasi qanday ma'noni bildiradi?
8. Bugungi kunda tolerantlik tushunchasi qanday me'yorlarini o'zida mujassam etadi?
9. Tolerantlikning tarixiy ildizlari haqida so'zlang.
10. Diniy bag'rikenglik deganda nimani tushunasiz?
11. Tolerantlikni zamonaviy tushunish va anglash jarayonlari nechanchi asrdan boshlangan?
12. 1995-yil 16-noyabrda Parij shahrida YUNESKO tashkilotining nechanchi Sessiyasida va nechta dunyo davlatlari ishtirokida qanday «Deklaratsiya» imzolandi?
13. Qayerda 16-noyabrni dunyo miqyosida tolerantlik kuni sifatida nishonlash an'anaga aylandi?
14. Vositachilikni konfliktlar yechimi nazariyasida nima deb atashadi?
16. Vositachilik yo'li bilan tarixda qanday konfliktlar o'z yechimini topgan?
17. Konfliktida «har kim ham g'olib bo'la oladi»gan yo'l yoki usul mavjudmi?

Talabalarning mustaqil tayyorlanishi uchun «Keys» topshirig'i

5-vaziyat. (O'zining qilgan ishi yoki qilg'idan vijdon azobi.)

Onasi qizi Anoraga: «Bugun vaqtliroq kelishga harakat qilgin. Yangi ko'chib kelgan yon qo'shnimiz bizni bir priyola choyga taklif etdi, chiqib tanishamiz», – dedi.

– Xayr, onajon. Soat oltida kelaman, – deb Anora tezda ko'chaga chiqib ketdi. Keyinchalik Anora buni eslab, shunday deydi:

– Uyga qaytayotgan vaqtda, Shirin bilan avtobus o‘rindig‘iga o‘tirib maktabda bo‘lgan voqealar haqida gaplashdik. Bir bekatdan qariya ayol chiqdi va bizning oldimizga turib oldi. Uning qo‘lida ikkita to‘la sumka bor edi.

– Qizlar, sumkali ayolga joy bersangiz bo‘lar edi – deb kimdir gapirayotganini eshitdim.

– Ana bo‘lmasa! – tezda javob qaytardik biz.

– Ha, hozirgi yoshlarda...

– Ana, boshlandi...

Biz Shirin bilan gapga shunchalar berilib ketibmizki... Keyin avtobus yo‘lovchilarining bir qanchasi qo‘pol ohangda gapirgan holda, birin-ketin bizni «tarbiyalay» boshladilar. Bu jarayonda biz ham «qarzdor» bo‘lib qolganimiz yo‘q. Kechqurun soat sakkizda kiyinib, biz onam va otam bilan birgalikda yangi qo‘shnimiz eshigini taqillatik.

– Marhamat, kelinglar, – uy egasi shunday deb eshikni ochdi. Oyoqlarim yerga qadalib qoldi. – Ostonada men avtobusda uchratgan o‘sha ayol turar, stol usti esa ikkita og‘ir sumkada keltirilgan oziq-ovqat va masalliq-lar bilan to‘la edi...

Savollar:

1. Yangi qo‘shni avtobusda Anora va uning dugonasi Shirin bilan uchrashganda, ularning tarbiyalanganligi haqida qanday fasavvurga ega bo‘ldi?
2. Qo‘shni Anoraning oilasi haqida nima deb o‘ylashi mumkin?
3. Tarbiyalangan inson deganda nimani tushunasiz?
4. Sizning fikringizcha bu hodisa nima bilan tugashi mumkin?

XULOSA

Sharq madaniyati va adabiyoti insonni ruhan poklovchi, komilikka yetaklovchi islom ma'rifatiga hamohang ulug'vor g'oyalarga boyligi, ma'naviy-tarbiyaviy barqarorligi bilan ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohalari taraqqiyotiga mustahkam zamin bo'lib, butun dunyoga o'zining so'nmas ziyosini taratib kelmoqda. Bugungi zamona-viy pedagogika va didaktikaning tarxii ildizlari, ilk asoslari ham ana shu ma'rifat buloqlaridan bahramand bo'lgan.

Sir-sinoatlarga to'la bu hayot har bir insonni tafakkur qilishga undaydi. Inson har bir voqelikni tahlil qila olsagina, undan bir-biridan go'zal insoniy fazilatlarni, chuqur ma'nolarni anglab yetdi. Jamiyatimiz rivoji esa donolar tomonidan «Ta'lim va tarbiya»ga juda bog'liq ekanligi, vaqt o'tishi bilan yanada muhim kasb etishini ta'kidlamoqda.

Men ushbu o'quv qo'llanma muallifi pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Axmedova Mukarram Tursunaliyevna otam Xoji akbar Tursunali ota Turg'unboyevning menga bergan pand-nasihatlari bilan xalq farovonligi yo'lida fidoiy mehnat qilib, charchash nimaligini bilmay, ham oilada, ham xalqqa xizmat qilishda yurtimizning ta'lim sohasida izchil olib borgan mehnatlari bilan 2020-yilning 1-noyabr kunida ulug', tabarruk 86 yoshida olamdan o'tdilar. Mo'tabar ota-onalarimiz xonadonlarimiz ko'rki, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlarimiz, an'analарimiz, bebaho merosimizning egalari-dir.





Ushbu qo'llanmani yozishimdan asosiy maqsad – ham otam, ham birinchi ustozim hayotning past-balandini, o'nqir-cho'nqirini tushuntirib, o'z hayotiy tajribalari bilan meni ilmga yo'naltirganliklaridandir.

Ana shunday ma'rifatparvar inson, O'zbekiston Respublikasining «Mehnat faxriysi», «Hurmat belgisi» ordenlari sohibi Xoji akbar Tursunali ota Turg'unboyev komil, yetuk va ma'rifatli inson idealini yaratish asosida jaholat, nodonlik, hirs va ta'maga qarshi kurashib kelgan shaxslardan edi. Tursunali ota: «Komillikning mezonini ikki narsa: birinchisi – axloq, ya'ni mo'min-musulmon, solih inson bo'lish, ikkinchisi – o'z-o'zini tanishdan iboratdir», deb ta'kidlagan.

Siyosiy ruhda kamol topgan otamiz shirali ovoz, kuchli notiq, o'z ustida mukammal ishlagan, har bir holatlarga o'zlarining ilmiy yondashuvi asosida fikrlarini uqtirish bilan hayot yo'lida aqli yetmay qoqinib turganlarga to'g'ri yo'lni ko'rsata olishga harakat qilgan. Ayniqsa, ularning konfliktologiya masalasiga o'z shaxsiy yondashuvlari mavjud edi. Mahallalarda ma'naviy muhitni shakllantirishda, oilalarda tinchlik-totuvlikni mustahkamlashda ularning xizmatlari tahsinga sazovor edi.

Oiladagi notinchlikni san'at darajasida hal etishlarida, adashayotgan yoshlar to'g'ri yo'lga o'tganini bilmay qolar edilar. Xoji akbar

Tursunali ota bilan hamsuhbat bo'lgan insonda maroqli, mazmunli dam olgandek mamnunlik hissi sezilib turar edi.

Demak, har qanday janjal, konfliktli vaziyatlarni yengishda, inson suhbatdoshini yurakdan his qilish, ma'naviy yondashuv bilan hal etish mumkin ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Mehnat faxriysi, tabarruk Xoji akbar Tursunali ota Turg'unboyevning hayoti ham, ijodi ham insonni komillikka yetaklab, ibrat maktabi, tarbiya o'chog'i sifatida xizmat qildi. Shaxsda insoniy fazilatlarini, diniy e'tiqodni tarbiyalash va takomillashtirishda Xoji akbar Tursunali ota Turg'unboyev hamisha Ahmad Yassaviy hikmatlaridan foydalanib, yoshlarni undan ma'naviy ozuqa olishga va hayotda bu qoidalarga amal qilishga undab, uqtirib kelgan.

Qo'llanma mavzusiga qaytgan holda ta'kidlash kerakki, konfliktlar yechimi bo'yicha bilim va ko'nikmalar bilan ilk bora yaqindan tanishish ularning inson kundalik hayotida kerakli va zarur bilimlar ekanligini tasdiqlaydi. O'quv qo'llanma doirasida juda ko'p masalalar borasida to'xtalib o'tdik. Ular ichida – konfliktlarga fojiga qaragandek emas, balki uni hayotning oddiy tarkibiy qismi sifatida anglash zarurligi, pedagogik konfliktologiyaning ilmiy-nazariy asoslari, konfliktlarning yuzaga kelish omillari, turlari, konfliktli vaziyatda pedagogik-psixologik xizmat, pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda o'zaro kelishuvga asoslangan birgalikdagi faoliyat, konfliktlar zahirida konfliktogenlar yotishi, ziddiyatda har ikki tomon ham g'olib bo'la olishi, nizolarda o'ziga xos adolatparvarlik mezonlarining mavjudligi, konfliktlarni boshqarish mumkinligi, ziddiyatli vaziyatda to'g'ri muloqot olib borish qoidalari, tana zabonining ahamiyati, agressiya va zo'rvonlik mazmuni, agressiya va zo'rvonlikdan o'zini muhofaza qilish chora-tadbirlari, g'azabnok odam bilan muloqot qilish qoidalari, jamoadagi konfliktni yechish usullari, oilaviy konfliktlarda o'zini qanday tutish kerakligi, mediatsiya va uning tartiblari borasidagi bilim va malakalar edi.

Mazkur o'quv qo'llanmada muhokamaga qo'yilgan konfliktlarga aloqador bo'lgan barcha mavzular o'z hayotingizni, yaqinlaringiz va oilangiz istiqbolini tashkillashtirishda sizga tinchlik, osoyishtalik, ravnaq va o'sish omili bo'lib xizmat qiladi.

O'ZINGIZNI BOSING!

Jahl va g'azabni jilovlash bo'yicha 10 foydali maslahat

1. Pauzadan foydalaning

Agar siz jahl tufayli o'zingizni yo'qotib, g'azabga berilib ketayotganingizni sezsangiz, pauza qiling. Suhbatdoshingizga juda jahlingiz chiqayotganini aytib, «Men – tasdiq»dan foydalaning. Albatta, keyinroq yana qayta mavzu muhokamasiga qaytishga va'da berib, jahldan pauza yordamida qutulishga harakat qiling.



2. Jismoniy mashqlar bilan o'zingizni chalg'iting

Ko'chaga chiqib sayr qiling, velosipedda uchishingiz mumkin, toshlar ko'taring, suzing, to'nkalar yoring, toqqa chiqing, televizor kanallarini pultsiz o'zgartiring, bi-ror jismoniy mashq qilish bilan g'azabingizni yengib chiqing.



3. Sanab ko'ring

G'azab ustun kelayotganida, ichingizda 10 gacha yoki 2000 gacha sanang. Diqqatingizni raqamlar tartibiga berish orqali Siz baribir jahldan tushasiz.

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7,
8, 9, 10, ..., 2000

4. Xat yozing

Agar kimdandir jahlingiz chiqayotgan bo'lsa, unga xat yozing. Unga yuragingizdagi hamma dard alamlaringizni to'kib soling, uni so'kishga erinmang. Xatni yozib bo'lgandan keyin, uni o'qib chiqing-da, so'ngra yirtib tashlang.



5. Meditatsiya qiling

Qulay joylashib oling. Tinchlaning, ko'zlaringizni yuming. Chuqur nafas oling. Nafasni biroz ushlab turing. Asta-sekin nafas chiqaring. Hayot mazmuni haqida o'ylab ko'ring... Sizni nima rohatlantiradi?! Uzoq va chiroyli o'lkalarga uchib ketayotganingizni tasavvur qiling. Agar Siz mashhur estrada xonandasi bo'lsangiz zo'r bo'lardi-a? Yo'q, undan yaxshiroq orzu-havaslar bor. Siz – millioner-siz... Yetim bolalar uchun maxsus maktab qurdingiz... Yaqinda sizning fabrikangiz ochiladi... Qancha odam ish bilan ta'minlanadi... Ana o'shanda, sizni xafa qilgan inson bilan qanday gaplashishni o'zingiz bilasiz...



6. Kitob o'qing yoki ijod bilan shug'ullaning

G'azabning rasmini chizing. G'azabingiz haqida she'r yozing yoki o'qing. Masalan, jahl to'g'risidagi madhiya. Ashula to'qing – «Mening g'azabim – hayotim, rohatimdir». Raqs sahnalash-tiring – «Men g'azabdaman». Haykal yasang – «G'azab va marmar». Ilmiy asar yozing – «G'azab kelib chiqishining tarixiy va dinamik jarayonlari». Yoki, aniqroq, nazariy bo'lmagan mavzu – «G'azabning ichki strukturasi». G'azabingizni ijod orqali chiqib ketishiga yordam bering.



7. Issiq vanna qabul qiling

Yaxshi yordam beradi. Agar vanna bo'lmasa, dush ham to'g'ri kelaveradi.



8. Subbatlashuv va dardlashuv

Yaqin do'stingiz bilan gaplashib ko'ring. Do'stingizga o'z hissiyotlaringiz haqida gapirib ko'ring. Ba'zan dil izhori har qanday usuldan ko'proq yordam beradi.



9. Uy hayvoningizni erkalating

Uy hayvoni tinchlanishning yaxshi vositasi hisoblanadi. O'z kuchugingiz bilan o'ynang yoki mushugingiz bilan mudrab oling, qushlaringiz bilan gaplashib ko'ring, baliqlaringiz suzishini tomosha qiling va hokazo.



10. Diqqatingizni boshqa narsaga qarating


O'zingizni biror ish bilan mashg'ul qiling. Televizor ko'ring. Radio eshiting. Kinoga boring. Kompyuterda o'tiring. Sizni havotirga solayotgan fikrlardan o'zingizni chalg'itish uchun biror boshqa narsa bilan shug'ullaning.

Masalan, farzandlaringizni erkalating.



TANA ZABONI YOXUD ICHIMDAGINI TOF

IT'S WHAT YOU DON'T SAY THAT COUNTS!



LEARN TO READ AND INFLUENCE PEOPLE THROUGH
NONVERBAL COMMUNICATION.

TANA ZABONINING KO'RINISHLARI



Hammasi joyida



Muammo yo'q



«Ha» deb tultildim, «yo'q» deb qutuldim



Aldash yo'lining belgilari



U sizni diqqat bilan tinglamoqda



Payt poylash



1. Ochiq holatdagi samimiy

2. Agressiv holat

3. Dominantlik holati



**U o'z gaplari bilan
sizni
ishontirmoqchi**



**U sizni tinglamayapti,
ammo xayoli boshqa
joyda**



«Vaqt» taqsimoti



Shubhalanmoq



**Ishlarini
rejalashtirmoqda**



**Qaror qabul qilish
holati**



O'ychanlik



Tushkunlik holati



**O'ziga yuqori baho
berish**



**O'zini ramkaga
solish holati**



Haqoratlash



**O'z-o'zini himoya
qilish**



Loqaydlik



Qo'rquv




Tavakkalchi



**Ehtimol bu qiz
sovuq qotgan, balki
tabiiy ehtiyoj**



**Hayotdan
mamnun**



Konfliktli vaziyat

Tana zabonidan o'rinli foydalaning!



1-rasm.



2-rasm. Ortiqcha qo'l harakatlaridan foydalanmang!

ODAMLARNING JAHLI CHIQQANIDA... AGRESSIYA VA ZO'RAVONLIK BILAN TO'QNASH KELGANDA....

Avvalo, jahлга jahl bilan javob qaytarmang. Opponentingiz ning jahli juda qattiq bo'lsa, bu tomonlar to'qnashuviga olib kelishi muqarrar.

Opponentingizning hissiyotlariga nisbatan sabrli munosabat va javob qaytarishga urinib ko'ring. Uning jahli chiqayotganligini siz aslida anglaganingizni muloyim tarzda bildiring, ammo istehzo qilmang. Siz istehzo qilsangiz tang vaziyatni yanada og'irlashtirib yuborgan bo'lasiz.

O'z opponentingiz nuqtayi nazarini tushunib yetkanligingizni unga bildiring. Keyingi muhokamalarga tayyorligingizni ko'rsating. Mazkur jahl, qahr yoki g'azab emotsiyalari ortida nima turganligini aniqlashga urinib ko'ring. Uning hissiyotlari, so'zlari va uning «haqiqatini»ni erinmay eshiting. Sabr qiling. O'z emotsiyalaringizni bosishga harakat qiling. Hozir o'z emotsiyalaringizga erk beradigan payt emas. G'azab – o'zi ham g'azab uyg'otishni yaxshi ko'radi. Javobiy g'azab uyg'onishiga yo'l qo'ymang. Agar mana shu amallarni to'g'ri bajarsangiz opponentingiz asta o'z g'azabidan qayta boshlaydi.

O'z munosabatingizni opponent psixologik holati va emotsiyalariga bag'lamagan holda bildirishga harakat qiling. Faqat muammoni tahlil qiling. Emotsional qarama-qarshilik pasayganda o'z qarashlaringizni yanada ochiqroq bayon qilishga urinib ko'ring. Opponentingiz ham, ko'p hollarda, o'zingizni undan past va xotirjam tutganingiz sababli, jahli tushganidan so'ng o'zini aybdor his qila boshlaydi. Opponentingizdan mavjud vaziyatda nima qilish lozim va mumkinligi borasida maslahat so'rang. Agar opponentingizning yana jahli chiqsa, siz yana faol eshitish va qabul qilish pozitsiyaga o'ting. Faol eshitish pozitsiyasi o'zingizni pastga urganligingizni bildirmaydi, balki sizni murakkab vaziyatda donoroq ekanligingiz, bosqlik bilan vaziyatni o'z manfaatlaringizga bo'ysundira olishingizni anglatadi. Shu bois, faol qabul qilish pozitsiyasi sizga yordam berayotganligini o'zingiz ham anglang.

ZIDDIYATNI KELITIRIB CHIQRISHGA MOYIL BO'LGAN ODAMLAR TOIFAOLIGIYASI

Ko'p konfliktlar hayotda ba'zi insonlarning murakkab xarakteri, ularning o'z xarakterini uddalay olmasligi oqibatida vujudga keladi. Shu bois, konfliktologiyada ziddiyatga moyil odamlar toifaologiyasida belgilangan bo'lib, bunday odamlarning o'zini tutishini bilish ular bilan faol munosabatlar o'rnatish uchun imkon yaratadi.

«O'zini ko'rsatishga intiluvchilar». O'zini barcha vaziyatlarda odamlar diqqat markazida tutishga intiluvchi odamlar. Ular doim muvaffaqiyatli ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi. O'z muvaffaqiyatlaridan g'ururlanib yashaydi. Ba'zan o'z manfaatlarini ko'rsatish va boshqalar diqqatini o'ziga qaratish maqsadida konfliktlarni keltirib chiqaradilar. «Sharoitga qarab moslasha olmaydiganlar» (Rigid holatdagilar).

Ular o'zini katta tutadilar, o'ziga bino qo'ygan odam bo'ladilar. Birovga moslashishini o'ziga ep ko'rmaydilar va mag'lubiyat sifatida baholaydilar. O'zgarlar fikriga bepisandlik bilan qaraydilar. Ularning bu xarakteri ko'pchilik holatlarda boshqalar manfaatlari bilan ma'lum to'qnashuvlarni keltirib chiqaradi. Ular o'zlarini qo'pol, birovlariga behurmatlik, jizzakilik, ko'pirish asosida tutadilar va buni oddiy holat deb hisoblaydilar. O'zlarining qo'polligini tan olmaydilar, birovning kichkina tergov yoki tanqid so'zini ham juda qattiq e'tiroz bilan qabul qiladilar.

«Boshqarib bo'lmaydiganlar». Bunday odamlar xarakteri impulsiv bo'lib, uning emotsional holati doimo o'zgarib turadi. Buning oqibatida bir odam o'zida bir necha xarakter tamoyillarini mujassam etadi hamda ularni bir to'xtamga keltirish juda qiyin bo'ladi. Ularning harakatlari va so'zlari asossiz, betayin, qarama-qarshi fikrlarga to'la, o'z-o'zini nazorat qilishdan yiroq bo'ladi. Ular agressiv muloqotga eng moyil odamlardir.

«Juda aniq va cho'rtesar odamlar». Aniqlik va to'g'rilikka intilgan odamlarning ko'pchiligi o'ziga va atrofida qiladigan juda katta talab qo'yadilar. O'zlari juda qattiq mehnat qiladilar, o'zgalarning

yalqovligi ularni qattiq ranjitadi. Ular ko'p hollarda juda katta tanqidchi bo'ladilar. Tanqidni yoqtiradilar va kezi kelgan holda boshqalarni miriqib tanqid qiladilar. Tanqid paytida ular odamni ayamaydilar. O'zlari birovlarni boplab tanqid qilganliklari bois, boshqalardan ham tanqid kutadilar. Shuning uchun tahlikali, besaramjon, birovlarga tahdid bilan qaraydilar. Ular tanqidga doim tayyor bo'lganliklari uchun ham o'zini yo'qotib qo'ymaydilar, balki aks ta'sir o'tkazishga juda usta bo'ladilar. Ular har doim o'zlari uchun qulay vaziyatni yaratishga ulgurishadi. Ammo ular boshqalarga bo'ysunib yashaydigan odamlar turiga kirmaydi.

«Ratsionalistlar». Ratsionalistlar hamma sharoit va xususiyatlarni o'z manfaatlariga bo'ysundirishga o'rgangan odamlardir. Agar konfliktli vaziyat ular uchun foyda keltirsa, ular karyerasi uchun xizmat qilsa, ular qo'rqmay ziddiyatni o'zlari keltirib chiqaradilar. Uzoq vaqt ular o'z asl maqsadlarini yashirib yurishlari mumkin, ammo ular o'sishi va rivojlanishi uchun qulay vaziyat pishib yetilgan bo'lsa, ular hammani «sotib» bo'lsa ham o'z maqsadlariga erishish yo'lidan boradilar.

«Irodasiz, qat'iyatsizlar». Irodasiz odamlar ko'pincha boshqa odamlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qolganliklari uchun ham ziddiyatli vaziyatlarda ulardan ustamonlik bilan foydalanib qolishadi. Ular konfliktlarda biror tomon uchun juda katta xizmat qilib berishi mumkin bo'ladi. Ularda shaxsiy fikr, munosabat bo'lmaydi. Shu bois ular boshqa guruh yoki insonlar atrofida o'ralashib yurishadi. Ular o'zlari zimmasiga majburiyat olishdan qo'rqadilar. Boshqalarning qarorlariga so'zsiz itoat etadilar. Ulardan keladigan xavf shundaki, ularni ko'pchilik «rahmdil», «mehribon» odam sifatida qabul qiladi. Ularga aldanib qolish mumkin. Ularga kuchliroq odamlar buyursa, ular kutilmagan holda juda katta ziyon keltirishi mumkin bo'ladi. Shu bois bunday odamlardan foydalanib, ular konfliktda biror fikr ayta boshlasa, ko'pchilik «Bu odam yaxshi. Demak, u to'g'ri aytayпти», – deb aldanib qoladi. Irodasiz va qat'iyatsizlarning boshqa barcha ziddiyatli toifalardan farqi shundaki, ular konfliktga o'zlari mustaqil bormaydilar, ular ziddiyatga borishga majbur bo'ladilar. Yuqorida sanab o'tilgan boshqa barcha toifalar mustaqil ravishda

ziddiyatni uyushtiruvchi va undan foydalanadigan toifalar hisoblanadi. Irodasiz va qat'iyatsiz odamlar esa konfliktli vaziyatlarni o'zlari keltirib chiqarmaydilar.

Maqsadga yo'naltirilgan toifadagi nizoli shaxs xislatlari:

- nizoli vaqtda o'z maqsadlariga yetishish uchun omil sifatida qaraydi;
- nizolarni hal etishda faol tomon sifatida o'zini namoyon etadi;
- o'zaro munosabatlarda ta'sir ko'rsatishga moyil;
- nizolarda maqsadli harakat qiladi, tomonlarning holatini baholay oladi, turli holatlarni hisoblaydi;
- janjalli vaziyatlarda muomalaning samarali ta'sir etish usullarini qo'llay oladi.

7-topshiriq.

JAHLI CHIQAYOTGAN ODAMLAR BILAN MULOQOT QILISH BO'YICHA MASLAHATLAR

Vaziyatni xolis baholashga harakat qiling. Aqlingizni ishga soling, hissiyotlarga berilib ketmang. Sizdan jahli chiqayotgan odam bilan kelgusi munosabatlar siz uchun naqadar qadrli ekanligini baholang. Muammo nimada? Opponentingizning qaysi hissiyotlari jabr ko'rgan? Shularni aniqlang.

Boshqa odam o'z hissiyotlarini ushlab tura olmasligi va ratsional fikr yurita olmayotganligini ham anglang, tushuning. Odam g'azablanayotganda, odatda tinchlik davrida aytmagan gaplarni va qilmagan harakatlarni qilishi mumkin, shu bilan birga, bu harakatlarni o'zi istamagan holda oshkora qilayotgan va aytayotgan bo'lishi ham mumkin. Boshqa odamni erinmay eshiting, uning yig'ilib qolgan emotsiyalarining chiqib ketishga imkon bering. O'zingizning emotsional vaziyatga tortilishingiz va qalbingizda javob qaytarish niyati tug'ilishidan ehtiyot bo'ling. Bir-birinigizni tahqirlamang. Yodingizda bo'lsin – shaxsga emas, muammoga hujum qilish lozim.

Boshqa odamga o'zingizning ham konflikt haqida o'ylayotganingiz, bezovta bo'layotganligizni ayting. Muammo siz uchun ham muhim ekanligi, siz ham uni qo'ldan kelgancha yechishga harakat qilayotganligingizni, unga qarshi yuragingizda adovat yo'qligini ayting. Boshqa odamdan, mavzu bo'yicha suhbatlashish uchun qachon vaqti bo'lishini so'rang. U bilan samimiy gaplashish uchun doim tayyor ekanligingizni ayting.

Suhbat uchun qulay va tinch joy toping, hech kim halaqit bermaydigan, osuda, keng va ochiq joy jahldor odam bilan suhbatlashish uchun eng qulay joydir. Odam ko'p, tor joylarni tanlamang, keng suhbat kenglikni talab etadi.

Bahslashmang, kim haq, kim nohaq ekanligi muhim emas. Muhimi suhbatdoshingizni tinchlantirish va muammo yechimini qidirishdir.

Boshqa odamning tana zabaniga e'tibor bering. Agar uning harakatlaridan sizning hayotingiz va salomatligingizga zarar yetishini tushunib qolsangiz, zudlik bilan bu odamni holi qoldirish yo'lini izlang. Agar hayotingizga xavf bo'lmasa, qochmang.

O'zingizning tana zaboningizni nazorat qiling, o'zingiz ham suhbatdoshingizga do'q-po'pisali harakat ramzlari hamda signallari jo'natmayotganligingizga ishonch hosil qiling. Unga juda yaqin o'tirmang.

Ovozingiz intonatsiyasiga e'tibor bering, yumshoq, tinch, samimiy ovozda gapirishga harakat qiling. Tinchlantiradigan so'zlarni topib ishlating.

Siz bilan boshqalar o'zlarini qanday tutishlarini istasangiz, ana shunday o'zingizni tuting. O'zingizni na takabburlik va manmanlik bilan, shuningdek marhamatli qilib ham ko'rsatmang. Takabburlik uning jahlini battar oshiradi, marhamatli bo'lishingiz uning nafsoniyatiga tegadi. Sizning teng munosabatingiz konflikt yechimining eng muhim shartlaridandir.

Adolatli konflikt yechimi bo'yicha o'z zimmangizga ma'lum majburiyatlar oling. Ba'zan hammasiga qo'l siltab, ketib qolgingiz keladi. Ba'zi hollarda bu yordam beradi ham. Ammo muammo yechimini qidirish ustida ishlash foydali.

INSONLARNING NUQSON VA KAMCHILIKLARI

BEKORCHILIK

Bekorchilik o'z-o'ziga qilingan suiqasddir.

XUDBINLIK

Shaxsiy xudbinlik – razillikning boshidir.

Xudbinlikning uch toifasi mavjud: o'zi yashab, boshqalarning yashashiga xalaqit bermaydigan xudbin; o'zi yashab, boshqalarga kun bermaydigan xudbin; o'zi ham yashamay, boshqalarning yashashiga ham kun bermaydigan xudbin (I. S. Turgenev).

HASAD

Hasad kishilar orasida janjalni boshlab beradi (Demokrit).

XASISLIK

Xasislik qancha kuchli bo'lsa, rahm-shafqat shuncha kuchsiz bo'ladi (F. Petrarka).

G'ARAZGO'YLIK

G'arazgo'y odam haqgo'y ham, qat'iy ham, mard ham, burchiga sodiq ham bo'lolmaydi (V. A. Suxomlinskiy).

JUR'ATSIZLIK

Jur'atsizlik – qanchadan-qancha yaxshi amallarning boshini yeydi.

QO'RQOQLIK

Eng tuban tuyg'ular ichidagi eng tuban tuyg'u – bu qo'rquvdur (V. Shekspir).

Qo'rqqoqlik – rahmsizlikning boshidir (M. Montal).

SHUHRATPARASTLIK

Shuhratparastlikka berilish qadimdan donolarni beaql qilib kelgan (I. Kant).

Shuhratparast odam hamisha pastkash bo'ladi (P. I. Chaykovskiy).

TAKABBURLIK

Takabburlik – ojizlik belgisidir.

MAQTANCHOQLIK

Mantanchoq odamlar donolarga kulgi, ahmoqlarga esa hayratomuz pasha, xushomadgo 'ylarga osongina o'lja va o'z shuhratparastligining qulidir (F. Bekon).

DIMOG'DORLIK

Mayda odamlarda dimog' katta bo'ladi (F. Volter).

AYYORLIK

Ayyorlik juda ham chegaralangan kishilarning hayot tarzidir.

YOLG'ONCHILIK

Irodasiz yurak, farosatsiz aql va buzuvchi xarakterni yolg'onchilik fosh etadi (F. Bekon).

RIYOKORLIK

Xushomadgo'y odamlar surbettarlarga riyokorlikka hurmat bilan qaraydilar (O. Balzak).

XUSHOMADGO'YLIK

Odami o'ziga maqtash xushomadgo'ylik belgisidir (Arastu).

IKKIYUZLAMACHILIK

Faqat pastkash odamgina oldingda maqtay, orqangda g'iybat qiladi (Pifagor).

EZMALIK

Ezmalik – so'zdagi beodoblikdir.

ZOLIMLIK

Zolimlik – o'zgalar hayotiga qarshi yo'naltirilgan kuchdir.

ZO'RAVONLIK

O'z so'zini o'tkaza olmagan ojiz odam, kuch va zo'rovonlikka erk beradi.

JIZZAKILIK

Jizzakilik – o'zini tuta bilmaslik oqibatidir.

G'AZAB

G'azab – bir muddatlik oshkora nafratdir; nafrat esa – yashirin, doimiy g'azabdir (Sh. Dyuklo).

CHIYQISHA OLMASLIK

Barcha janjallarning o'ziga xos xususiyati – ikkala tomonning zaifligidir (F. Volter).

BEKORGA VA'DA BERISH

Asossiz umid berish – insonni erkin nafasdan mahrum etishdir.

O'Z SO'ZI USTIDA TURMASLIK

O'zini behurmat qilgan odamgina o'z so'zi ustida turmaydi.

BAHSLASHISH

Bahslashish ko'plarning qo'lidan keladi, oddiygina suhbatlashishni esa kamdan-kam kishi uddalaydi (A. Olkott).

O'ZINI TUTA BILMASLIK

Faqat dushmanlarini yenggan kishi mard bo'lmasdan, o'z hissiyotlari ustidan g'alaba qilgan kishi ham marddir (Demokrit).

JAHOLAT

Insonning bittagina zolimi bor, u ham bo'lsa – jaholatdir (V. Gyugo).

MUTAFAKKIRLAR TARBIYA HAQIDA

1. Til shirinligi – ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir (A. Navoiy).
2. Ustozga kelganda u shogirdiga juda qattiq zug'm qilishga ham, xaddan tashqari ko'p yon berishga ham intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zug'm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi (Abu Nasr Farobiy).
3. Ey birodar, munofiqqa bo'lma ulfat, kim ulfatdir boshi uzra yuzming kulfat (A. Yassaviy).
4. Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritadi (A. Temur).
5. Aql ila olam yuzin obod qil, xulq ila olam dilin shod qil (A. Navoiy).
6. Faqat bir tomon aybdor bo'lganda edi, janjal bu qadar uzoq cho'zilmaldi (F. Laroshfuko).
7. G'azabning emas, aqlning ovozigga quloq sol (V. Shekspir).
8. Janjallashayotgan ikki kishining aqllirog'i – ko'proq aybdor (I. Gyote).
9. Mard kishiga qaraganda qo'rqqoq odam ko'proq janjal chiqaradi (Jefferson).
10. Nafrat – razillikni, ba'zan aqli zaiflikni yashiruvchi niqobdir, nafrat saxovat, aql va odamlarni tushunish xislati yetishmasligining belgisidir (A. Dobe).
11. So'kinish odati kuchaygani sari beixtiyor yomon xatti-harakatlarga moyillik ham kuchaya boradi (Aristotel).
12. G'azab bilan boshlangan narsa uyat bilan tugaydi (L.N. Tolstoy).
13. G'azab ustida jazo berish jazolash emas – qasd olishdir (P. Buast).
14. G'azab uchun dalilning keragi yo'q. U faqat sabab äxtaradi (I. Gyote).
15. Yaxshilikka buyuringlar, agar o'zlaring qila olmasalaring ham (Hadisdan).

16. Yomonlikdan qaytaringlar, garchi uning hammasidan o'zlarining chetlana olmasalaring ham (Hadisdan).

17. Nazar toza bo'lsa, toza narsani ko'radi (Sanoiy).

18. Insonning qalbi hurriyat olamidir (Mavlono Jaloliddin Rumiy).

19. «Hukmdoringa» qalb ko'zi bilan qarab, undan so'radim: «Sen kimsan?», – u javob berdiki: «Sen» (Ibn Xalloy).

20. «Taqqo» nimadir?

«Taqqo» – bu ko'zni yomon manzaradan, quloqni yomon gapdan, tilni yomon so'zlashdan, oyoqni yomon joyga borishdan, qo'lni yomon narsalarga cho'zishdan saqlashdir» (Imom Muhammad al-G'azzoliy).

21. Insonning chin insonligi bahs va safarda anglanadi (J. Gebert).

22. O'z vaqtida fikr bildirish katta mahorat talab qilganidek, o'z vaqtida sukut saqlash ham hazilakam mahorat emas (F. Laroshfuko).

23. Suhbami aql emas, o'zaro ishonch hamma narsadan ko'proq qizitadi (F. Laroshfuko).

24. Ko'p gapirish bilan ko'p fikr aytish boshqa-boshqa narsa (Sofokl).

25. Gapirishni bilmasang, tinglashni o'rgan (Pomponiy).

26. Bilginki, sening farosatsiz, sovuq, beparvo so'zing xafa qilishi, dilni og'ritishi, ranjitishi, iztirobga solishi, larzaga tushirishi, dovdiratib qo'yishi mumkin (V. A. Suxomlinskiy).

27. Yaxshi suhbatdosh bo'lishning faqat bitta usuli bor – bu tinglay bilishdir (K. Morli).

28. Modomiki bir ikki shirin so'z odamni baxtiyor etsa, shuni qizg'angan odam ablahdir (T. Pen).

29. Qo'pollik bukrilik kabi mayiblikdir (M. Gorkiy).

30. Bahslashish ko'plarning qo'lidan keladi, oddiygina suhbatlashishni esa kamdan-kam kishi uddalaydi (A. Olkott).

31. Hech kimga so'z bermay suhbat mavzuini ulab ketaverish shaxsiyatparastlikning eng jo'n ko'rinishidir, uning qoralanishi to'g'ri (G. Spenser).

32. Biz bittagina so'z bilan o'zimizga va o'zgalarga qanday zarar yetkaza olishimizni yetarlicha tasavvur qilmaymiz, bu zararni deyarli tuzatib bo'lmaydi (F. Lamenne).

33. Ko'p odamlar yaxshi gaplarni so'ylashi mumkin, biroq kamdan-kam odam tinglay biladi, chunki tinglash aql ishlatishni talab qiladi (R. Tagor).

34. Tinglash – aqlli odam ko'p hollarda ahmoqqa ko'rsatadigan muruvvatdir; lekin ahmoq – hech qachon bunga muruvvat qaytarmaydi (P. Dekursel).

35. Qanday gap aytsang, javobiga ham o'shani olasan (Gomer).

36. Yaxshi gapirish uchun insonda aql yetmasligi va indamaygina qo'ya qolish uchun idrok yetishmasligi musibatdir (J. Labryuyer).

Har davrning o'z so'zi bo'lganidek, har bir ijodkorning ham so'zga o'z qarashi bor. Ana shu fikrlarni to'ldirish, boyitishni inobatga olgan holda «So'z haqida so'z» ruknida adiblar tomonidan aytilgan bir qancha mulohazalarni keltiramiz.

«So'zdan kuchliroq narsa yo'q» (Menandr).

2. «So'zdan qudratliroq narsa yo'q. O'tkir dalil va yuksak fikrlar safini yorib o'tish mumkin emas. So'z yovuzlarni yakson etadi, qal'alarni yiqitadi. U ko'zga ko'rinmas qurol. So'z bo'lmasa, dunyo dag'al kuchlar qo'lida qolar edi. So'z sehridan kuchliroq sehr yo'q» (A. Frans).

3. «So'z bilan ifodalangan har qanday fikr ta'sir ko'lami tugamaydigan kuchdir». «So'z buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, so'z bilan odamlarni birlashtirish, so'z orqali ularni bir-birlari bilan yuz ko'rmas qilib yuborish mumkin, so'z bilan mehr qozonish, so'z bilan nafrat va adovatga yo'liqish mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so'zni aytishdan saqlan» (L. N. Tolstoy).

4. «Til – eng xatarli qurol. So'z yarasidan ko'ra tig' yarasini davolash oson» (P. Kalderon).

5. «Qayerdagi so'z tirik ekan, u yerda hali ish ham o'lmagan». «So'z qanday ishga yo'llashi bilangina qimmatlidir» (A. I. Gersen).

6. «Jonli so'z mo'jizalar yaratadi» (I. Burdenko).

7. «So'zni ko'ngulda pishqormaguncha tilga kelturma,

Har nekim ko'ngulda bor – tilga surma» (A. Navoiy).

8. «So'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatni o'yla» (I. P. Pavlov).

9. «So'z – gul, ish – meva» (Al-Xorazmiy).

10. «So'z shamolga qarab uchadigan o'yinchoq pufak emas. U ish quroli: u ma'lum darajadagi og'irlikni ko'tarib turmog'i lozim. O'zgarlar kayfiyatini qanchalik rom etishi va o'zgartirishiga qarabgina biz so'zning ahamiyati va kuchini baholamog'imiz mumkin» (V.G. Korolenko).

11. «O'z birodaringni yanchilgan mushukdan ko'ra ham xushbo'y so'zlar bilan maqtab yod et, garchand u sendan uzoq shaharda bo'lsa ham».

«Nodon kishi so'z, hikmat lazzatini bilmaydi, bamisoli tumov kishi gulning hidini sezmagani kabi».

«Agar tilingning ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan».

«Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni, pand-u nasixating va mav'izayu hasanang) ba'zan qo'lingdan (mol-dunyoingdan) chiqqan sadaqandan ko'ra xayriroqdir».

«Ko'p so'zlar borki, ular seni jang-u jadalga solib, halokatga giriftor qiladi yoki ulardan qaytarsa ham yelka chuquringni gul kabi qizargan holga keltirgandan keyin qaytaradi (ya'ni, ko'p mashaqqatlardan so'ng)» (Mahmud Az-Zamahshariy).

So'zning xosiyati qanchalik e'tiborli bo'lsa, shunga muvofiq nutqning mohiyati ham muhimdir. Nutq qator xususiyatlar bilan birga nutqiy vositalarga ham ega. Bu holat uning, nutq madaniyatining har ikkala ko'rinishiga, og'zaki va yozma nutqqa baravar taalluqlidir.

Tovush – so'zning moddiy tomoni. Boshqacha aytganda, tovushlar talaffuzi tilning harakatdagi amaliy jarayoni. Har tovushning o'z sifati jarangi, ohangi va talaffuz me'yori bor. Notiqlar bu jihatlarni doimo nazarda tutishadi. Chunki nutqqa fikrni sodda, tushunarli va teran bo'lishini ta'min etadi. Nutqning mohiyati uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qimmatini bilan belgilanadi. «Madaniy nutq», «nutq madaniyati», «notiqlik» degan atamalar bor. Nutqning xarakteri ana shularning mohiyatini bilish bilan izohlanadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR LUG'ATI

Konflikt – (lotincha «conflictus» – to‘qnashuv demakdir) – o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning to‘qnashuvidir.

Konfliktli vaziyat – ijtimoiy subyektlar o‘rtasida haqiqiy qarama-qarshilikni yuzaga keltiruvchi insonlar manfaatlarining mos kelmasligi.

Konfliktogen – konfliktga bo‘lgan layoqatni anglatadi, ya’ni ziddiyatga moyillikdir.

Konfliktning yechimini topish – konflikt vaziyatni yo‘qotish hamda u yuzaga keltirgan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga solish bilimlari va ko‘nikmalari majmuidan iborat.

Konstruktiv yondashuv – konfliktni hal etishning ijobiy bosqichi.

Destruktiv yondashuv – konfliktni yanada chuqurlashtirib uni boshi berk ko‘chaga olib kiradi.

Jamoa – ijtimoiy munosabatlar va yagona ijtimoiy faoliyat asosida birlashgan guruh.

Absans– ongning o‘ta qisqa vaqtda yo‘qolishi.

Asteniya – ruhiy quvvatsizlik.

Affekt – ruhiy portlash.

Giperkinez – tanada kuzatiladigan ixtiyorsiz harakatlar.

Agressiya – (lotin tilida) hujum qilish.

Depressiya – kayfiyatning pasayib (tushkunlik) ketishi.

Imperativ – buyuruvchi, buyruq beruvchi.

Mutizm – gapirmaydigan, gung bo‘lib qolish.

Suitsit – o‘z joniga qasd qilish.

Fobiya – vahima bosish, qo‘rqish.

Psixasteniya – ruhiy faoliyatning susayib ketishi.

Katalepsiya – bir holatda qotib qolish.

Afoniya – ovoz chiqmay qolish.

Indifferent – befarq, sovuqqon, e’tiborsiz, indifferent odam.

Hasadgo'ylik – kimdandir, nimadandir norozi bo'lish, o'zganing yutug'ini ko'rolmaslik, muvaffaqiyatlariga nisbatan shubhaga borish, qizg'anish holatlari kuzatiladi.

Emotsional «zararlash» – bevosita emotsional holatlarni (qo'l, yuz xatti-harakatlari, intonatsiya) uzatish orqali ta'sir ko'rsatish.

Instinkt – xulq-atvor yoki xatti-harakatlarning oldindan genetik shartlangan usullari.

Konfrontatsiya – lotin tilidan olingan bo'lib, **con** – qarshi + **frons (frontis)** – peshona, front (bir-biriga qarshi turish va fikrlarning to'qnash kelishi).

Stress – (tanglik holati) kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan jiddiylik holati.

Individ – biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.

Adaptatsiya – insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro faol munosabatda bo'lish va uning potentsialligini shaxsiy rivojlanish uchun ishlatish qobiliyati.

Ijtimoiylashuv – insonning butun hayoti mobaynida o'z-o'zini o'zgartirish va rivojlantirishning boshqariladigan maqsadga yo'naltirilgan jarayondir.

Renessans davri – qayta tug'ilish davri (эпоха Возрождения).

Adekvat javob – agressiyaga agressiya bilan javob qaytarish.

Frustatsiya – aldanish, xafagarchilik, rejalarining ishdan chiqishi – kishining maqsadga erishish yo'lida uchraydigan obyektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki subyektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladigan psixologik holat. Frustratsiyaning eng yomon oqibatlaridan biri – nevrozlar hisoblanadi.

Bomis – inson muntazam g'azablanaversa, qon tomirlariga bo'lgan tahdid va bosim ham kuchayib boradi. Natijada, tomir devorlari yemirila boshlaydi.

Adrenalin – adrenalin inson shakllanishida juda zarur bo'lgan moddalardan biri. Chunki ibtidoiy jamiyat davrlarida ko'p miqdordagi ortiqcha adrenalin odamga yirik hayvonlarni o'ldirish, tabiat tahdidlariga qarshi kun ko'rish, boshqa qabilalarni yengish, turli o'ljalarni qo'lga kiritish, ya'ni atrof-muhitning nihoyat darajada inson hayotiga tahdid qilishi sharoitida zarur moddalardan biri bo'lgan.

Adrenalin insonga uning atrof-muhit bilan bo'lgan kurashlarida qo'rqmaslik, jasurlik, qat'iyat, qarshi tura olish, hujum qilish, o'zini himoya qilish uchun ko'mak bergan. Inson yirtqich hayvonni o'ldirayotgan vaqtida adrenalin unga kuch ato etib turgan, yirtqich hayvon o'ldirilgandan so'ng, adrenalin moddasi o'z funksiyasini bajarib bo'lganligi sababli u organizmdan chiqib ketgan. Ammo biz g'azablengandagi, jahlimiz chiqqanidagi, qahrimiz kelganidagi organizmdagi vujudga kelgan adrenalin moddasi o'z-o'zidan organizmdan chiqib keta olmaydi. Shu bois, sog'lom turmush tarzi bilan shug'ullanib yashayotgan odamlar turli sport turlari, o'yinlari, mashqlari orqali ortiqcha adrenalina qarshi o'z organizmi faoliyatini muvofiqlashtirib turadilar.

Xolesterin moddasi – yog' moddasi.

Istehzo – yuzaki kulmoq.

Sabotajchilik – ishdan bo'yin tovlash.

Ratsionalistlar – hamma sharoit va xususiyatlarni o'z manfaatlariga bo'ysundirishga o'rgangan odamlardir.

Oila – insonlar kundalik hayotining asosiy qismi jinsiy munosabatlar, bolani dunyoga keltirish, bolalarning ijtimoiylashuvi kabi holatlar sodir bo'ladigan ijtimoiy institut.

Sabotaj – barbod. Muloqotni barbod etuvchilar.

Kompromiss – kelishuvchanlik (murosa).

Adabli – odob-axloq me'yorlariga rioya qiladigan; tarbiyali, axloqli. Adabli bola. Adabli bo'lmoq.

Adabsizlik – odob-axloq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ish, odob-axloq doirasiga sig'maydigan hatti-harakat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.

2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017, 16-yanvar, № 11.

3. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – «O'zbekiston», 2017.

4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

5. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – «O'zbekiston», 2017.

6. Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida «Ustoz-shogird» tizimi to'g'risidagi NIZOM. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ijtimoiy himoya Kengashining 2005-yil 21-yanvar majlisi qarori bilan tasdiqlangan (2004 yil 25 avgust 87-02-1279-sonli modnomasi).

7. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. «Case-study» uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: «Tafakkur qanoti», 2012. – 134 b.

8. Axmedova M.T. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash davr talabi. Yoshlarni oilaparvar, otanalikka tayyorlashda oilaning roli mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2013. – 222–224 b.

9. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O'quv qo'llanma. – Adabiyot uchqunlari, 2017 yil. – 320 b.

10. Ахмедова М.Т., Ахмедова Н. Э. Овоздан фойдаланиш ва нутқ техникаси. Формирование гармонично развитого поколения в современных условиях. Сборник научно-методических статей. – Т., 2011. – С. 109-111.

11. Axmedova M.T., Rashidov H.F. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish dars intizomini yaxshilash omili sifatida. Maktab va hayot. – T., 2015, 1-son. – B. 12-16.

12. Axmedova M.T., Shayzakova N.S. Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari. Maktab va hayot. – T., 2014, 2-son. – B. 2-4.

13. Axmedova M.T., Umarova M.X. Balog'at yoshidagi o'smirlarning o'tish davridagi pedagogik va psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Maktab va hayot. – T., 2015, 7-son. – B. 8-10.

14. Babayeva M. va boshq. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va o'quv yurtining hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari. Oliy ta'lim muassasalari pedagog va boshqaruv kadrlarning malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. I qism. – T., TDPU, 2012. – 372-375 b.

15. Баныкина С.В. Педагогическая конфликтология: состояние, проблемы исследования и перспективы развития.

16. Баныкина С.В. Конфликт в современной школе: изучение и управление /С. В. Баныкина, Е. И. Степанов. – М.: КомКнига, 2006. –184 с.

17. Бурдыгина Т.Н., Королёва Е.В., Юрченко П.Г. Проблемные ситуации в школе и способы их решения: практическое пособие. – М.: АРКТИ, 2006. – 234 с.

18. Грачева В. И. Введение в педагогическую конфликтологию: Учебное пособие / В. И. Грачева. М. Моск. ун-т МВД России, 2004. – 98 с.

19. Jumayev R.Z. Konfliktologiya asoslari, asosiy tushuncha va tamoyillari. O'quv qo'llanma, 2015.

20. Захаров А.И. Как предупредить отклонения в поведении ребёнка: 1986.

21. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi «O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o'rganish so'rovnomasi» 2012-y.

22. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. *Pedagogika nazariyasi*. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 288 b.
23. Кудрявцев В. Н. *Юридическая конфликтология. Центр конфликтологических исследований*. – М., 1995.
24. Леонов Н. И. *Конфликтология*. – Москва-Воронеж, 2006. – 232 с.
25. Mahmud Hasaniyning arab, fors, turk, tatar va ozarbayjon tillaridan tarjiması. *Odob bo'stoni va axloq gulistoni*. – T.: Fan, 1994. – 218 b.
26. Musurmonova O. *Oila ma'naviyati – milliy g'urur*. – T.: O'qituvchi, 2000. – 200 b.
27. Пантелеева О. В. «Справочник классного руководителя». – 2013 г., № 9.
28. Степанов Е.И. *Современная конфликтология: Общие подходы к моделированию, мониторингу и менеджменту социальных конфликтов: Учебное пособие*. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. – 176 с.
29. Степанов Е. И., Банькина С. В. *Конфликты в современной школе. Изучение и управление/ Серия «Социальные конфликты: экспертиза, прогнозирование, технологии разрешения»*. – М.: КомКнига, 2006.
30. Самарин А. Н., Степанов Е. И., Шаленко В.Н. *Духовные проблемы нашего времени/ Социальные конфликты в контексте глобализации и регионализации*. – М., URSS, 2005.
31. Самарин А.Н. *Конфликты в духовной сфере современного общества: состояние и проблемы урегулирования// Конфликтология. Теория и практика*. – 2004, № 4.
32. Светлана Алексеевна Володина. *Конфликтологическая компетентность классного руководителя тема диссертации и автореферата по ВАК 13.00.01. кандидат педагогических наук*, 2010.
33. *Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi// Ma'rifat*, 1993, mart.
34. Toxir Malik. *Odamiylik mulki (Axloq kitobi)*. – T.: Sharq, 2013. – 936 b.
35. To'ychiyeva G., Asadova E. *Yoshlar va konfliktlar yechimi. Manual*. – T., 2003.
36. Xoliqov A. *Pedagogik mahorat*. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011. – 420 b.

37. Шаленко В. Н. Социальные конфликты/ Под ред. Добренькова В.И., Кравченко А.И./ Фундаментальная социология: в 15 томах, т. VI: Социальные деформации. Гл. 4, раздел 1. – М.: Инфра-М, 2005.

38. Шейнов В. Конфликты в нашей жизни. Возникновение, развитие и разрешение конфликтов. Два аспекта проблемы. – М., 2001.

39. Шипилов А. И. Ситуация успеха на уроке// Начальная школа. – 2003, № 4. – С. 90–93.

40. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: A. Navoiy nomi-dagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.

41. Egamberdiyeva N.M. Mahallaning oila va ta'lim muassasasi ham-korligini ta'minlashdagi o'rni va roli. Yoshlarni oilaparvar, ota-onalikka tayyorlashda oilaning roli mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2013. – 219–220 b.

42. Qodirov S., Qodirova N. Ma'naviy ustoz va shogird mas'uliyati. – T., 2006. – 56 b.

43. Qayumov B. E. Tarbiyada yoshlarni salbiy illatlardan himoyalash oila, maktab va mahalla faollarining asosiy vazifasi. Yoshlarni oilaparvar, ota-onalikka tayyorlashda oilaning roli mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2013. – 224 b.

44. Hodiyev B. Yu., Boltabayev M. R. Oliy o'quv yurtidagi tarbiyaviy ishlarga psixologik yondashuvlar. – T., 2009. – 119 b.

45. Handling Conflicts. Conflicts: a positive approach. Participant's manual. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1997.

46. WIN WIN. Based on the Fighting Fair model created by Fran Schmidt and Alice Friedman. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1998.

47. Fran Schmidt/ Alice Friedman. Fighting Fair. For families. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1994.

48. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010.

49. Karina V. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Conflict Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.

Kirish.....	3
-------------	---

**I bob. PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYANING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

1.1. Pedagogik konfliktologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	8
Pedagogik konfliktologiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.....	13
1.2. Pedagogik konfliktologiyaning ilmiy asoslari	14
1.3. Konfliktologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi	21
Konfliktlarning namoyon bo'lish shakllari va turlari	25
Konfliktlarning obyekti, maqsadi, oqibatlari hamda yo'nalganligiga ko'ra tasnifi	27
Konfliktlarning ular motivatsiyasini hamda vaziyatni subyektiv idrok etishni hisobga olgan holdagi va boshqa turlari	29

**II BOB. KONFLIKTLARNING YUZAGA
KELISH OMILLARI**

2.1. Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari	39
2.2. Konflikt signallari	55
2.3. Konfliktlarning yuzaga kelishida tana zaboni	65
2.4. Konfliktogenlar haqida ma'lumot	85
2.5. Konfliktli vaziyatda agressiya va zo'rvonlik	102

III bob. PEDAGOGIK KONFLIKTLARNING TURLARI

3.1. O'quvchilar va tengdoshlar orasidagi konfliktlar	116
3.2. O'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi konfliktlar	123
3.3. Ta'lim muassasasi rahbar xodimlar va o'qituvchilari o'rtasidagi konfliktlar.....	133
Jamoadagi konfliktni boshqarish tartiblari.....	139

**IV bob. PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI
OLDINI OLISHDA MULOQOT MADANIYATI**

4.1. Muomala madaniyati va muloqot qoidalari.....	144
4.2. Muomalada sanimiyat	147
Muomalada gap ko'p.....	150

Nayrang va yolg'onni fosh etish sirlari	152
4.3. Nutqiy mahorat pedagogik konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida.....	152
4.4. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda kommunikativ qobiliyat.....	164

V bob. PEDAGOGIK KONFLIKTLI VAZIYATDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XIZMAT

5.1. O'quvchilarga pedagogik-psixologik xizmat ko'rsatish orqali o'quv jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirish	176
5.2. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv yondashuv va uni loyihalash.....	198
Pedagogik-psixologik muloqotdagi shaxsga bog'liq to'siqlar va uni bartaraf etish yo'llari.....	201
Ongiy noto'g'ri to'siqlar	201
His-tuyg'ular va emotsiya	201
Ongiy noto'g'ri to'siqlar	202
Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv va uni loyihalash.....	204
Mustahkamlash uchun savollar	205
Talabalarning mustaqil tayyorlanishi uchun	206
«Keys» topshirig'i	206

VI bob. O'ZARO KELISHUVGA ASOSLANGAN BIRGALIKDAGI FAOLIYAT PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH OMILI SIFATIDA

Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda pedagogik hamkorlik.....	207
6.2. Konfliktlarni bartaraf etishda tolerantlik	225
6.3. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oila.....	234
6.4. Konfliktlarni bartaraf etishda mediatsiya.....	244
6.5. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda «G'oliblik strategiyasi»	246
«G'olib-G'olib» strategiyasiga amal qilish uchun nima harakatlar qilish kerak?.....	248
6.6. Pedagogik nizolarni boshqarish va ularni bartaraf qilish usullari	253
Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlari	257
Bu amallar noto'g'ridir!	267
Talabalarning mustaqil tayyorlanishi uchun	269
«Keys» topshirig'i	269
XULOSA	271
Adabiyotlar ro'yxati	298

O'quv qo'llanma

Axmedova Mukarram Tursunaliyevna

**PEDAGOGIK
KONFLIKTOLOGIYA**

Muharrir T. Mirzayev
Rassom D. Mulla-Axunov
Texnik muharrir I. Solihova
Musahhh S. Saydamirova
Kompyuterda tayyorlovchi G. Qulnazarova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0049, 18.03.2020-y.

Bosishga 2020-yil 14-dekabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84¹/₁₆, Bosma tabog'i 19. Shartli bosma tabog'i 17,67.

«Times New Roman» garniturasi. Ofset qog'ozida bosildi.

Adadi 300 nusxa. Buyurtma raqami №07.

«Donishmand ziyosi» MCHJ, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30.

Tel: +998-71-244-40-91, 99-808-19-49.

«Kamalak-PRESS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30-uy.



*“Yuzaga kelgan konfliktdan qo‘rqmang,
konfliktning xotimasi kelishuvdir”*

*Axmedova Mukarram
Tursunaliyevna*

«DONISHMAND ZIYOSI»

ISBN 978-9943-6445-7-1



9 789943 644571